ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

6/2-son
(Noyabr-Dekabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	Ta'lim oluvchilarda muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani his qilish) – asosiy to'rtta kompetensiyalar "4k"ni shakllantirish dolzarb masala
		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
D. Usmonova	6	Tarbiya jarayonini didaktik ta'limotini takomillashtirish
O. O'tanov	10	O'qituvchi ma'naviy qiyofasini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida
N. Bayturayeva	14	Bo'lajak pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida
U. Tursunova	17	Bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy yo'naltirilgan muloqot kompetensiyasini rivojlantirish: ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida
M. Sheranova	21	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ta'lim tizimida ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirish asoslari
G.I. Ishmurodova, G.M.Mirzaeva	25	O'zbekistonda va xorijiy davlatlarda steam ta'limini joriy qilinishi
N. Xushmatova	29	Oliy ta'lim muassasining o'quv jarayonida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik omillari
A. Otaqulov	32	Talabalarning pedagogik tayyorgarligiga kompetensiyaviy yondashuv mazmuni
M. Halimova	35	Boshlang'ich ta'lim 1-sinflarida kompetensiyaviy yondashuv asosida tabiiy fanlarni o'qitishning tizimli tahlili
N. Sharipova	39	Biologiya darslarida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan o'qitish usullarining umumiy xususiyatlari
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
A. Rajabov	43	Talabalar nazariy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda integrativ amaliy mashg'ulotlardan foydalanish
M. Yaxiyaxonova	46	1-sinf o'quvchilarida "informatika va at" fanidan ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi (Intellekt xarita misolida)
Sh.Z. Raxmatullayeva	50	Boshlang'ich ta'limda o'quv topshiriqlarining o'rni va ahamiyati
S.N. Yuldashev	54	Ta'limiy o'yinlar orqali o'quvchilarning kognitiv faoliyatini tashkil etishning o'ziga xosliklari
D. Alaudinova	57	Frazeologik birikmalar va ularni tarjima qilish usullari
Z. Pulatova	62	Oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy faolligini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari
M. Nurbayeva	67	Mav'izaning o'ziga xos spetsifikasi
Sh. Sultonov	71	Van Hiele nazariyasining planimetriya elementlariga tadbiqining analizi
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
N. Botirova	75	Fanlarni o'qitishda vr texnologiyalaridan foydalanish

N. Abdullayeva	78	Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik mas’uliyatni shakllantirish – pedagogik muammo sifatida
D. Miraxmedova	81	Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik imrovizatsion faoliyatga tayyorlash mazmuni
I. Egamberganov	84	Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish jarayonida pedagogik ta’lim innovatsion klasterining o‘rni
		MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
M. Soibnazarova	88	Tarbiya jarayonida mutafakkirlarning fikrlaridan foydalanish
K. Pardayeva	91	O‘quv jarayonida Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarini talabalar ongiga singdirishda samarali texnologiyalardan foydalanish
U. Uktamova	95	Xotin-qizlarda tazyiq va tajovuzga qarshi dunyoqarashini shakllantirishga oid tarixiy manbalar
R. Atamurodova	98	Abdulla Oripovning “sohibqiron” dostoni - ta’lim jarayonida milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantiruvchi asosiy vosita sifatida
		TALIMDA MENEJMENT
S. Ziyodullaeva	102	Liderlik muammosining aspektlari
		TA’LIMDA MARKETING
Sh. Axmedova	104	Muvaffaqiyatga erishishda korporativ madaniyatning o‘rni
		KASB-HUNARGA YO‘NALTIRSH
A. Mamadaliyev	108	Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida kasbiy ko‘nikmalarning shakllanishi hamda kasbga oid axborotlar bilan tanishish texnologiyalari
		MAKTABGACHA TA’LIM
A. Abdurashidov	113	Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini kreativlik kompetentligi va pedagogik madaniyatini rivojlantirish
		ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA HAYOTIY FAOLIYAT XAFSIZLIK
L. Abdirasulov	118	Texnologik ta’lim darslarida atrof-muhit muhofazasi tushunchalarini shakllantirish
		PSIXOLOGIYA
M. Boymatova	121	Shaxs psixologik xususiyatlari – ta’lim-tarbiya samaradorligiga ta’sir etuvchi muhim omil sifatida
M. Muradova	125	Xulq-atvorning o’zgaruvchanligi va genotipning rolini aniqlashning nazariy masalalari
		KORREKSION PEDAGOGIKA
Sh.E.Toxtiyarova	128	Inklyuziv ta’lim sharoitida maktab logopedi tomonidan sensor integratsiya metodidan foydalanish xususiyatlari
L. Nurmuhamedova	132	Yordamga muxtoj bo‘lgan bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari
		XALQ PEDAGOGIKASI
O. O‘ralova	136	Abu nasr Forobiyning pedagogik qarashlari
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
Р. У. Мунарова	140	Субъективные и объективные факторы и методы формирования творческого мышления

TA'LIM OLUVCHILARDA MULOQOT VA MUOMALA MADANIYATI, TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATI, KREATIVLIK FAZILATI, GURUHDA ISHLASH (JAMOANI HIS QILISH) – ASOSIY TO'RTTA KOMPETENSIYALAR "4K"NI SHAKLLANTIRISH DOLZARB MASALA

Mamlakatimizda so'nggi yillarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda, ushbu islohotlarni hayotga to'liq joriy etish ijtimoiy taraqqiyot mas'uliyatini o'z zimmasiga oladigan vatanparvar, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan iqtidorli va istiqbolli, malakali va raqobatbardosh professional kadrlarga juda katta ehtiyojni vujudga keltirdi. Bu ehtiyoj, birinchi navbatda, davlat va jamiyatning ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirilishiga turtki bo'lmoqda.

Ta'limning ustuvor vazifalaridan biri, bu ta'lim oluvchi ongu shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, unda kelajakda jamiyatda o'z munosib o'rnini topishi uchun amaliy hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan o'quvchi yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishiga zamin hozirlashdir. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim-tarbiya jarayonini nafaqat ta'lim oluvchilarga fanlar bo'yicha bilim berish, balki egallagan bilim va malakalarini amalga tatbiq etish, ulardan hayotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish ham asosiy vazifalardan biridir.

Pedagogika fani nazariyasi va amaliyotida "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari bir vaqtda qo'llanilmoqda. Kompetensiya ta'lim oluvchilarning tayyorgarligiga avvaldan qo'yilgan talablarni anglatsa, kompetentlik shaxsning mavjud sifatlari va qo'yilgan doiraga, sohaga munosabati bo'yicha shaxs faoliyatining minimal tajribasi bilan belgilanadi.

Respublikamiz ta'lim sohasi mutaxassislari XXI asrning eng asosiy to'rtta kompetensiyalarini "4k"ni (muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani his qilish), shakllantirish dolzarb masala ekanligini ta'kidlashmoqda.

Ushbu kompetensiyalar barcha kasblarni mukammal egallash, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun jiddiy ahamiyatga ega. Ish beruvchilar bilan muloqot jarayonida shunisi ma'lumki, soft skills, ya'ni barcha kasblarni egallashning asosi bo'lgan – hayot davomida paydo bladigan muammolarni hal qilish, boshqa insonlar, hamkasblar bilan til topishib, ishlab ketish malakalarini shakllanganligi ularning eng asosiy talabiga aylangan. Ushbu malakalarni qandaydir o'quv kurslarda yoki treninglarda shakllantirib bo'lmaydi, bu malakalar bolalikdan, butun hayot davomida shakllanib boradi. Ayniqsa, ushbu malakalarni shakllantirishga boshlang'ich sinfdan jiddiy ahamiyat berish zarur.

Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, zamonaviy ish beruvchilar yuqorida ko'rsatib o'tilgan malakalarning, kompetensiyalarning shakllanganligi ular uchun asosiy

ish faolyatlaridagi malakalaridan muhimroq ekanligini ta’kidlashmoqda. Muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani his qilish) kompetensiyalarining shakllanganligi nafaqat o‘qish, ishlash jarayonida, balki hayot davomida ham muhimdir. Ushbu kompetensiyalarning shakllanganligi farzandlarimiz o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishning strategiyalarini belgilab olish, hayot davomida paydo bo‘ladigan muammolarga, vazifalarga to‘g‘ri yechim topishga yordam beradi.

Umumta’lim maktablaridagi ta’lim jarayonida har bir o‘quvchi muhim (muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani xis qilish) hamda fanga oid kompetentliklarga ega bo‘lishiga yordam berish asosiy vazifamizdir. Har bir sinfdagi o‘quvchilar har xil, o‘ziga xos ta’limiy ehtiyojlar va xususiyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, umumiy dastur asosida ta’lim oladilar, eng asosiy to‘rtta kospetensiyalarini “4k”ni shakllantirish va baholash uchun ta’limda differensial yondashuvni joriy qilish zarurati paydo bo‘ldi. Differensial yondashuv “4k” va predmetga oid kompetentliliklarni shakllantirishga, qobiliyatlarni, qiziqishlarni rivojlantirishga va o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishga yordam beradigan qulay va optimal shart-sharoitlar yaratadi, tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlariga, fikrlash jarayonlarining tezligiga, bilishga qiziqish darajasi va har bir bolaning rivojlanganligi darajasiga asoslangan. Har bir o‘quvchining kuchli tomonlarini va qiyinchiliklarini bilish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish o‘qituvchiga nimani va qay tarzda o‘rgatishni, bolani o‘qishga qanday qiziqtirishni belgilab beradi. Ushbu yondashuv har bir o‘quvchiga teng imkoniyatlar taqdim qilgan holda, o‘qituvchiga ta’lim jarayonini individuallashtirishga yordam beradi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni alohida shakllantirishni emas, balki ularni kompleks ravishda egallashni taqozo etadi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish jarayonida barcha yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha davlat ta’lim standartlari, o‘quv dastur va rejalarni yangilash, o‘qitishni sifat va mazmun jihatdan yanada takomillashtirish zarurdir.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan yondashuvlarga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqil tafakkur, faol fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlik, mediaresurslardan o‘z faoliyatida oqilona foydalanish, sog‘lom raqobat hamda tolerantlikni shakllantiradi, shuningdek, ma’naviy-ahloqiy, jismoniy, aqliy hislatlarni kamol toptirishga, jumladan, ezgulikni himoya qilish, tez o‘zgaruvchan, murakkab dunyoda o‘z o‘rnini topish, altruizm, dunyoviy muammolarni anglash, to‘g‘ri qarorlar qabul qila olish, zaruriy hayotiy ko‘nikmalarni egallash, o‘z xatti-harakatlari, qarorlari uchun javobgarlik hissi, shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, axborotlarni qabul qilish va ajrata olish, abstrakt, ijodiy, mantiqiy tasavvurni kengaytirishga xizmat qiladi.

D. USMONOVA,
Qashqadaryo viloyati PYMO'MM kata o'qituvchisi

TARBIYA JARAYONINI DIDAKTIK TA'LIMOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagogikada tarbiya tizimini takomillashtirish va ta'limda didaktik tizimi ta'lim maqsadlari, o'qish mazmuni, uni tashkil etishning metod va shakllari yoritilgan. Shuningdek, tarbiya jarayonida demokratik qadriyatlar, qoidalarning kiritilishi hamda tarbiyaning asosiy 4 usuli haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Tarbiya tizimi, didaktik tizim, insonparvarlik, individuallashtirish, tarbiyaviy yondashuvlar.

В данной статье система воспитания в педагогике совершенствование и дидактическая система в образовании освещаются образовательные цели, содержание обучения, методы и формы его организации. Также в процессе воспитания упоминаются демократические ценности, введение правил, а также 4 основных метода воспитания.

Ключевые слова. Система воспитания, дидактическая система, гуманизм, индивидуализация, воспитательные подходы.

In this article, the system of education in pedagogy improvement and the didactic system in education highlights educational goals, the content of education, methods and forms of its organization. Democratic values, the introduction of rules, as well as 4 basic methods of education are also mentioned in the process of education.

Key words. Educational system, didactic system, humanism, individualization, educational approaches.

Barkamol inson tarbiyasi, ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish eng dolzarb masalasidir. Tarbiya jarayonining asosi o'qitish hisoblanadi. Tarbiya jarayoni didaktik vositalar bilan ko'rinaboshlaydi. Tarbiya tizimining tushunchasi didaktika ichiga qo'shib amalga oshiriladi. Tarbiya jarayoni o'ziga hosligini saqlab qolish uchun "tarbiya?, tarbiya... tarbiya!"... Unda tarbiya tizimi didaktikadan iborat bo'lmaydi, balki bir tomondan pedagogik-psixologik, boshqa tomondan esa ijtimoiy-pedagogik tizimdan iborat bo'ladi. Buda tarbiya tizimi o'quvchilarga faqat didaktik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy omil sifatida ham ularni bizni o'rab turgan borliqqa jalb etish orqali ham ta'sir ko'rsatadi. Har bir ta'lim muassasalarida tashkil topadigan ma'lum psixologik muhit tarbiyaga albatta, ota-onalar, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Oliy ta'lim muassalarida ta'limning didaktik tizimi ta'lim maqsadlari, o'qish mazmuni, uni tashkil etishning metod va shakllari orqali ifodalanadi. Ma'lumki pedagogikada "Didaktik tizim" tushunchasi ancha qadimdan shakllangan. Tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda, o'rganilayotgan material mazmuni, uni yetkazish shakli va metodlari, hamda shu kabilarni belgilash orqali o'qitish jarayonida foydalaniladi. Yana bir tarafdan tarbiyaning ikkinchi tushunchasi mantiqida didaktik tizim o'zi tarbiyaviy tizimining – didaktik tizimida ishtirok etadi, ya'ni uning tizimi hisoblanadi. Shunday qilib, ijtimoiylashtirish

insonning maqsadga muvofiq jarayonlar maktabgacha, maktab, maxsus pofessoinal ta'limlarida hamda tasodifiy omillar ta'siri ostida amalga oshiriladi. Bu ta'sir ko'rsatish tarbiya tizimi insonparvarlikni obro' e'tibor, nufuzi vositalar bilan amalga oshirilishi shart emas. Unda o'qituvchi va bolalar o'rtasida,insonparvarlik munosabatlari mavjud bo'lishi, qadriyatlar targ'ib qilinishi, guruhli va individual ijodkorlik elementlari tatbiq qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ta'sir ko'rsatish ushbu tarbiya tizimining o'zi tarbiya jarayoniga demokratik qadriyatlar va qoidalar kiritishi kerak. Tarbiyaning asosan to'rtta usuli mavjud: o'rnak namuna; pand nasihat; rag'bat; jazo. Yuqorida takidlaganimizdek tarbiyaning usullaridan bir bu jazo bo'lib,tarbiyaviy tizim qandaydir jazo va majburlashlarsiz, mavjud bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi davlat va jamiyat qurilishini izchil takomillashtirishni ta'minlash, ilg'or innovatsion va ilm-fan yutuqlariga asoslangan texnologiyalardan foydalangan holda zamonaviy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga yo'naltirilgan ishlarga yangicha yo'l ochib berdi. Bu muhim maqsadlar yuqori malakali mutaxassislar, pedagog va ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini ilg'or xorij tajribasini o'rganish va uning eng yaxshi yutuqlarini davlat va jamoat tuzilmalari, iqtisodiyot tarmoqlarida tatbiq etish asosida jiddiy qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish zaruratini taqozo etmoqda. Mashg'ulot jarayonida talabalarni kichik guruhlarga birlashtirish hamkorlikdagi faoliyatda o'yin rollarini yaratish usullari; guruhni muhokamada prezentatsiyaga chiqish tartibi va boshqalar – bularning barchasi pedagoglarning aniq uslublariga misollar. Lekin ulardan hech biri, qandaydir aniq tarbiyaviy masala bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emas, shuning uchun mana shu uslublarni turli xil texnologiyalarga kiritish mumkin. Jamoaviy yoki guruhli tahlilni tashkil qilish usuli. Shunga mos ravishda ishlab chiqilayotgan pedagogik yordam texnologiyalari, ilgari ma'lum bo'lgan uslublar yo'nalishidan iborat bo'lishi kuzatiladi. Pedagogik yordam texnologiyasi – bu o'sib borayotgan o'smirni boshqalardan farqli ekanini anglab yetishga yordam beruvchi, o'zining bo'shligi va o'z kuchini – jismoniy, intellektual, ma'naviy, ijodiy vositalardan foydalanishi tizimidir. Bu ta'lim olishda shaxsiy hayot yo'li va hayot mazmunini tanlash uchun zarurdir. Texnologiyani amalga oshirish o'quvchining savolidan boshlanadi: "men kim bo'laman!", "qanday bo'lishim kerak?". O'qituvchi bilan birgalikda mana shu savollarni muhokama qilish, yana boshqa bir mustaqil savolni ham keltirib chiqaradi: "Qanday yashash kerak?" ... Bildirilgan maslahatlar yordamida o'quvchiga hos bo'lgan shaxsiy hayot tarzi, asta-sekin tuziladi, intelektual, emotsional, jismoniy yuklamalar qulay rejimi tanlanadi. O'zini boshqarish bo'yruq bo'yicha yuzaga kelmaydi, balki o'spirinlar qiziqishlari hamda fuqaro huquqlari ham o'z manfaatlarini o'zaro himoya qilishlari ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Ushbu o'zini boshqarish talim muassasasi doirasida talabalar qiziqishlarini birlashtiruvchi bo'lganida va maktabning o'zi fuqarolik jamiyati sifatida qurilganda paydo bo'ladi. O'zini boshqarishda qoidalar ishlab chiqarish majburiy element hisoblanadi. Talabalarning o'zlari yaratadigan qoidalar, qonunlar, huquq qoidalarining muhim ahamiyatga egaligi pedagogikada ancha avval ma'lum. Pedagogning kasbiy pedagogik madaniyat – uning pedagogik kasbga ega bo'lgan, uning umumiy madaniyatini loyihalashtiradigan o'qituvchi shaxsining ajralmas sifati hisoblanadi. Bu pedagogning yuqori professionalligi va ichki xususiyatlarining sintezi, o'qitish usullarining mohirligi va madaniy va ijodiy qobiliyatlarning mavjudligida namoyon bo'ladi. Pedagogning kasbiy pedagogik madaniyati – insoniyat tomonidan to'plangan tajribani ijodiy o'zlashtirish va o'zgartirishning o'lchovidir. Pedagogik madaniyatga egalik deganda, pedagogik tafak-

kur va ongi yaxshi rivojlangan, ijodiy salohiyatga ega bo‘lish tushuniladi Tarbiyadan boshqa yondashish insonparvarlik tarbiyaviy tizimini yaratish bilan bog‘liq.

Bu yondashish birinchi navbatda, individuallashtirish jarayoni bilan mos keladi. Yana bir bor eslatib o‘tamiz, individuallashtirish bizning tushunishimizcha bu o‘quvchi yoshlarda mavjud yoki o‘zining individual tajribasida egallagan yagona, alohida va o‘ziga hosligini ta’minlab turish va rivojlantirish bo‘yicha kattalarning hamda bolaning o‘ziga tegishli bo‘lgan faoliyatlari. Shaxsni individuallashtirish uning “o‘zligini’’ rivojlantirish, shunday qilib, keng ma’noda insonparvarlik tarbiyaviy tizimini tashkil etadi. Tarbiyada bunday yondashishning maqsadi, bolalarga, ularning “subyektiv mavjudliklarini” tashkil etishda yordam ko‘rsatish hisoblanadi. Buning uchun ushbu tarbiyaviy tizimda, insonga o‘zini anglash va o‘zini amalga oshirishda yordam beruvchi maxsus vositalar ishlab chiqiladi. Insonparvarlik tarbiyaviy tizimining subyekti endi faqat pedagog emas, balki bolalarning o‘zlari ham hisoblanadi. Bunda o‘qituvchilar ham, talabalar ham oliy talim muassasasi oldida turgan maqsadlarini birgalikda aniqlashtiradilar, ularni amaliy vazifalar darajasiga ko‘taradilar va birga amalga oshiradilar. Insonparvarlik tarbiyaviy tizimi samaraliligini muhim sharti, talabalar va kattalarni umumiy jamoaga birlashtirish hisoblanadi. Bolalar va kattalarning o‘zaro munosabatlari, ma’lum munosabatlarni yuzaga keltiradi, ular birinchi navbatda tizimning tarbiyaviy imkoniyatlarini belgilaydi. Bilamizki, oliy ta’lim muassasining tarbiyaviy vazifasi talabalarda, o‘zini shu dunyoda anglab yetish, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, dunyoga, madaniyatga, atrof-muhitga, qadriyatlarga munosabatni shakllantirishdan iborat. Afsuski bu vazifani faqat ta’lim muassasasida dars jarayonida amalga oshirib bo‘lmaydi: Buning uchun o‘quvchini individual manfaatlarini qondirish bilan bog‘liq, ijodiy faoliyati, mehnati, dam olish doirasidagi o‘yin, qiziqarli mashg‘ulotlar bilan ham olib borishni taqazo qiladi.

Demak bularni amalga oshirishda, ta’lim jarayonida tarbiya tizimi innovatsiyalarini o‘rganish imkoniyati vujudga keladi. Tarbiya tizimi innovatsiyalarini yaratish va rivojlantirish jarayonida, oldiniga ayrim masalalarni hal etish kerak. Bularga bolalarda dunyoning yaxlit va ilmiy asoslangan ko‘rinishini shakllantirish, o‘z-o‘zini anglashni, vatan tuyg‘usini tarbiyalash, yurt taqdiri uchun javobgarlikni shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlarga jalb etish, ular orasida mana shu qadriyatlarga mos bo‘lgan xulqni shakllantirish, o‘sib kelayotgan kelajak avlodda, ijodkorlikni, yordam ko‘rsatishni shakllantirish kabi masalalarni kiritish mumkin. Har qanday holatda ham, mana shu vazifalarning o‘zi yuqorida sanab o‘tilgan tarbiyalash vazifalarining alohidaligini ko‘rsatadi. Bunda tarbiya – bu o‘ziga hos mazmunga ega bo‘lgan bola shaxsiga ijtimoiy belgilangan va maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatishga asoslanadi. Bunday tarbiya ma’lum shakllarda yakka turda, jamoada, guruhlarda ma’lum metodlar asosida amalga oshiriladi.

Bu yondashish biz ilgari keltirib chiqargan ijtimoiylashtirish kategoriyasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq, bunda biz tarixiy ishlab chiqilgan ijtimoiy qoidalarni, qadriyatlar, munosabatlar, ma’naviy va moddiy madaniyat bilan munosabat usullarini, inson tomonidan o‘zlashtirilishi jarayonini tushunamiz. Insonparvarlik tarbiyaviy tizimi aniq tizim hisoblanadi. Tarbiyaviy tizimlar ikki turini, ya’ni ta’lim tizimi va insonparvarlik tarbiya tizimi, ularninig predmeti mazmunida ham farq qilishini ko‘rib chiqamiz. Birinchisi, dunyoning ijtimoiy ko‘rinishini o‘rganadi. Ikkinchi tizim, o‘zi-o‘zini o‘rganish usulini o‘rganadi. Ma’lum ijtimoiy qoidalarni, qadriyatlarni, munosabatlarni yetkazib ta’sir ko‘rsatish tarbiya tizimi, bolalarda o‘zini anglashga qobiliyatni rivojlantirish masalasi – bu uning predmeti hisoblanmaydi.

Insonparvarlik tarbiyaviy tizimi – bu boshqa gap. Inson tanlab olish subyekti si-

fatida ishtirok etar ekan, u bu tanlovni o‘ziga nisbatan amalga oshirishi ko‘zda tutiladi, demak o‘zini anglash jarayonisiz, bu tizimni amalga oshirish mumkin emas. Shuning uchun turli insonparvarlik tarbiyaviy tizimlar, hozirgi kunda, aynan mana shu yo‘nalishda rivojlanmoqda. Pedagogik yordam erkinlik, ijodkorlik, kattalar va bola o‘rtasida haqiqiy demokratiya va insonparvarlikda yuzaga keladigan tarbiya xisoblanadi. Tarbiya maqsadini pedagogik yordam sifatida tarbiya tizimini falsafiy jihatdan qaralganda, innovatsiya hisoblanadi. Bu esa maqsadga mos yangi tarbiya texnologiyasini ishlab chiqishga olib keladi. Tarbiya texnologiyasi bu tarbiyaning ma’lum maqsadlariga erishishga qaratilgan maxsus pedagogik uslublar tizimi. Har qanday tarbiya metodikasi, tarbiya texnologiyalaridan tashkil topadi. Masalan, o‘smirlar bilan aloqa o‘rnatish, jamoani rejalashtirish, pedagogik diagnostika texnologiyasi va boshqalar. Texnologiya – tarbiya metodikasining yakunlangan qismi bo‘lsa, uslub esa o‘z navbatida bu umumiy yoki shaxsiy pedagogik madaniyatda qayd etilgan tarbiya texnologiyasiga nisbatan yakunlangan elementdir. Uslub biror bir tarbiya masalasi bilan barqaror bog‘liq bo‘lsa, demak u oddiy tarbiyaviy texnologiya bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining umumiy madaniyati uning malakasi va kasbiy o‘sishi uchun tayanch nuqtasida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi shaxsining umumiy rivojlanishida yetakchi o‘rinlardan birini uning axloqiy xususiyatlari egallaydi, bu insonning tashqi dunyo bilan aloqasini yaxshilik va yomonlik mezonlari asosida belgilaydi. Talabalar hayot muammolarini demokratik hal etishga imkon beradi. Bunday qoidalar erkinlik va mas’uliyatlilik doirasini belgilab beradi. Ushbu holatda intizomlilikni rivojlantirish kuchli vositasi sifatida tushunilib, ko‘pchilik hollarda tadqiqotlarimiz davomida kuzatishlarimiz natijasida aytim maktablarning tirishqoq izlanuvchi pedagoglari tomonidan o‘zlarining qonunlarini, o‘rtoqlik nizomlarini yaratmoqdalar. Shuni unutmaslik kerakki, ushbu uslubda ham ma’lum xavfli tomonlari mavjud. O‘qituvchi pedagog, ba’zi bolalar boshqalar ustidan nazoratchi bo‘lib qolmasliklarini, liderlik, tushunchalari avj olib ketmasligini kuzatib borish zarur. Bunday holatda bolalar jamoasida adovat ham yuzaga kelishi va bolalar qonunni bajaruvchilar va ularga qarshi kuzatuvchilarga ajralib qolishlari mumkin. Shunday qilib, yuqorida tasvirlangan uslublar to‘plami yangi maqsad, pedagog yordam uchun texnologiyani belgilab beradi va mana shu mazmunda innovatsion texnologiyadan iborat bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Тумалев В,В. Учителство в ситуатсии сотсиально – политическихперемен Ч.3. ИнноватсионннЙ потенсиал современного учителя. СП б, 1995.

2. “Хамса”. А.Навоий о гуманности.

3. Хомерики О.Г. Инноватсии в практике обучения. Педагогика, – 1993.№2.

4. Хомерики О.Г.,Поташник М.М., Лоренсов А.В. Развитие школ какинновасионной протсесс. – М., 1994.

5. Шиянов Э.Н. Гуманизатсия педагогического образования состояние иперспектива. - Москве – Ставропол, 1991.

6. Norquziyeva, M. (2020). The role of educational technology in shaping the professional stability of students. Arxiv Nauchnых Publikatsiy JSPI.

7. Abdurakhmonovna, N.M. (2020). Methodology of giving professional knowledge to future teachers. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary.

O‘tkir O‘TANOV,
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy Markazi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

O‘QITUVCHI MA’NAVIY QIYOFASINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada shaxs ma’naviy qiyofasini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati yoritilgan. Bundan tashqari maqolada shaxsning ma’naviy qiyofasini rivojlantirishga oid asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyati bayon etilgan bo‘lib, unda o‘qituvchining ma’naviy qiyofasini belgilovchi asosiy komponentlar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar. Shaxs, qiyofa, ma’naviy qiyofa, ma’naviy hayot, ma’naviy ehtiyoj, ma’naviy yetuklik, jamiyat, oila, maktab, qadriyat, ideal, axloqiylik, estetik, tuyg‘u, omil, vosita, komponent.

В статье описывается социально-педагогическая необходимость формирования духовного образа личности. Кроме того, в статье раскрыта сущность основных понятий, связанных с развитием духовного образа личности, а также исследованы основные компоненты, определяющие духовный образ учителя.

Ключевые слова. Личность, образ, духовный образ, духовная жизнь, духовная потребность, духовная зрелость, общество, семья, школа, ценность, идеал, мораль, эстетическое, чувство, фактор, средство, компонент.

The article describes the socio-pedagogical need for the formation of a spiritual image of a person. In addition, the article reveals the essence of the basic concepts associated with the development of a person’s spiritual image, and also examines the main components that determine the spiritual image of a teacher.

Key words. Personality, image, spiritual image, spiritual life, spiritual need, spiritual maturity, society, family, school, value, ideal, morality, aesthetic, feeling, factor, means, component.

Dunyoda bo‘layotgan voqea-hodisalarning barchasi qandaydir qonuniyat asosida, zaruriyat yoki tasodif tarzida namoyon bo‘lishi, ularning barchasi o‘ziga xos tarixiy mazmun-mohiyatga ega ekanligi falsafiy-pedagogik fanda o‘z isbotini topgan haqiqatdir. Olamda har doim muayyan shart-sharoitlarda albatta yuz beradigan, sodir bo‘ladigan voqea yoki hodisalar bor. Har qanday voqea yoki hodisa davr o‘tishi bilan “pishib yetiladi” va zarurat tarzida paydo bo‘ladi, rivojlanib va to‘laqonli ma’no-mazmun kasb etib boradi. Tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqib, xalqimiz iborasi bilan aytganda, “bir kun kelib” muqarrar tarzda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar, zamon evrilishlariga xos voqea-hodisalar jamiyat hayotini qamrab oladi va uning taraqqiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchi – pedagogning ma’naviy qiyofasini rivojlantirish bugungi kunda porloq istiqbol sari dadil odimlayotgan mamlakatlar taraqqiyotida, xususan, o‘z oldiga yangi Renessans davrini barpo etishdek ulug‘vor maqsadni qo‘ygan O‘zbekiston taraqqiyotida ham ustuvor masalaga aylandi. Pedagogning ma’naviy qiyofasini rivojlantirish masalasiga mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasi jarayonining eng muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, mamlakatimizda uchinchi Renessans davrining ma’naviy poydevorini yaratishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladigan yana bir muhim hujjat – 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bo‘lib, uning to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi (43-maqsad)da “maktab-

larda ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish”[1]dek pirovard maqsad belgilangan bo‘lib, unga amalda erishish yo‘lida amaliy ishlar keng ko‘lamda olib borilmoqda.

O‘qituvchi ma’naviy qiyofasini rivojlantirish masalasi haqida fikr yuritganda, eng avvalo, muammoga doir “qiyofa”, “ma’naviy qiyofa” degan asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyati haqida to‘xtalib o‘tish darkor, deb o‘ylaymiz.

O‘zbek tili izohli lug‘atida “qiyofa” degan so‘z arabchadan tarjima qilinganda tashqi ko‘rinish, yuz, aft, qaddi-qomat, o‘zini tutish degan ma’nolarni anglatadi, deb ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, u ko‘chma ma’noda – kishining ma’naviy, ruhiy va axloqiy xususiyatlari, ongi, dunyoqarashi, bilim-saviyasi va shu kabilar majmuini ifodalaydi, deb ta’kidlanadi[2]. Kasb-korga va kishilarga nisbatan esa muayyan shaxsning ma’naviy qiyofasi – ular qilayotgan ishlari va o‘zlarining qiyofasini belgilab beradi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, o‘qituvchining ma’naviy qiyofasi ham uning faoliyatida, xatti-harakatida, yurish-turishida, o‘y-xayollarida va amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik mazmundagi adabiyotlarda “qiyofa” degan so‘z kamdan-kam hollarda qo‘llaniladi. Ayrim hollarda ushbu so‘z “obraz”, “timsol” kabi ko‘rinishlarda ham talqin qilinmoqda. Manbalar va lug‘aviy nashrlarga murojaat qilinganda ushbu tushunchalarning ma’no jihatidan o‘zaro yaqinligini ko‘rish mumkin. Masalan, “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”da “qiyofa” so‘zi “облик”, “ma’naviy qiyofa” esa “духовный облик” deb keltirilgan[3]. O‘z navbatida, “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”da ham aynan shunday[4].

Kundalik muloqotda “qiyofa” deganda ko‘pincha insonning faqat tashqi ko‘rinishi haqida gap boradi. Lekin “qiyofa” so‘zining ko‘chma ma’nosi borligini har kim ham tasavvur qilavermaydi. Lug‘atlarda “obraz” degan so‘z “timsol” deb tarjima qilinadi va u “qiyofa” degan tushunchadan tamomila farq qilinadi. “Obraz”, “timsol” degan so‘zlar, aytaylik, qahramonning xayoliy in’ikosini ifodalasa, “qiyofa” esa o‘sha qahramonning amalda namoyon bo‘lishi, real hayotdagi ifodasi sifatida gavdalanadi. Obraz (timsol) xayoliy ifoda bo‘lsa, qiyofa – jonli namunadir. Shunday ekan, “o‘qituvchining ma’naviy timsoli (obrazi)” degandan ko‘ra, “o‘qituvchining ma’naviy qiyofasi” degan ibora mantiqan to‘g‘ridir va tadqiqot ishi davomida ushbu ibora qo‘llaniladi.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarning hammasida qiyofaning ko‘pgina qirralari o‘z ifodasini topgan. Ularda mualliflar o‘zlarining nuqtayi-nazarlarini bildirishgan bo‘lsa-da, bu ta’riflar yangilanish va o‘zgarishlar jarayonlari nuqtayi nazaridan yanada sayqalga muxtojdir. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, ularni to‘ldirgan holda ma’naviy qiyofaga quyidagicha ta’rif berish mumkin: o‘qituvchining ma’naviy qiyofasi deganda yuksak ma’rifatli, insoniy fazilatlari bilan barchaga ibrat bo‘ladigan, botiniy va zohiriy go‘zallikni o‘zida mujassamlashtirgan hamda yuqori kasbiy mahorat va ilg‘or pedagogik tajribaga ega bo‘lgan pedagog qiyofasini tushunish mumkin.

Bundan tashqari o‘qituvchining ma’naviy qiyofasining muhim tarkibiy qismlari sifatida quyidagi jihatlarni e’tirof etish maqsadga muvofiqdir:

– yuksak ma’rifat (o‘z sohasi va turdosh sohalar bo‘yicha chuqur bilimlarga egalik);

– yuksak ma’naviyat (namunali xulq-atvor, botiniy (ichki) va zohiriy (tashqi) go‘zallikka egalik);

– barqaror ruhiyat (ruhiy jihatdan doimo barqarorlik va faoliyatda vazminlik);

– yuksak kasbiy (pedagogik) mahorat, jumladan, pedagogik odob, pedagogik qo-

[1] “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. - 2022 yil 29 yanvar. 06/22/60/0082-son.

[2] Qiyofa-vikiluq’at uz // wiktionaru.orq.

[3] Узбекско-русский словарь. - T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1988. – 640 b.

[4] Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. - T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1983. – 686 b.

biliyat, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik relaksatsiya, kommunikativ ta’sir ko‘rsatish qobiliyati, pedagogik takt, pedagogik texnika, nutq texnikasi, pedagogik ijodkorlik, pedagogik tajriba, pedagogik madaniyat, kompetentlilik (qobiliyatlilik) va kommunikativlik (muloqot qila olish va axborot almashish), kollaborotivlik (hamkorlik va jamoa bo‘lib ishlash), kreativlik (ijodkorlik, yaratuvchilik), kritikal fikrlash (tanqidiy va mantiqiy fikrlash – 4K-ko‘nikmalari);

– liderlik va boshqaruv ko‘nikmalarini puxta egallaganlik (faoliyatda yetakchilik, ergashtiruvchanlik, ibrat, namuna, o‘rnak ko‘rsata olish);

– huquqiy mezonlarni bilish va amaliyotda qo‘llay olish (o‘z haq-huquqlarini bilish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini anglash, o‘z majburiyat va burchlarini bajarish);

– tarixiy tafakkur (ajdodlar merosiga hurmat, ulardan g‘ururlanish va foydalanish, milliy qadriyatlarimizga sodiqlik);

– mafkuraviy tayyorgarlik (ezgu fikrlar, bunyodkor g‘oyalar, ijobiy tafakkur, ilmiy dunyoqarash)ning rivojlanganlik darajalari namoyon bo‘lishi kerak (1-jadval).

Buning uchun pedagoglarda yangicha dunyoqarash, zamonaviy tajriba ko‘nikmalari, yuksak ma’naviyat, vatanparvarlik, fidoyilik fazilatlarini, barqaror ruhiy va axloqiy xususiyatlar, ongi-shurini, tafakkurini jamiyatdagi evrilishlarga hamohang tarzda boyitib va rivojlantirib borish muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonda o‘qituvchidan o‘z-o‘zini uzluksiz rivojlantirib borish, irodalik, ma’suliyat, o‘z kasbiga fidoiylik, kasbiy ehtiyojlarni amalga oshirish va kasbiy mahoratni rivojlantirib borish talab etiladi.

1-jadval.

O‘qituvchining ma’naviy qiyofasini belgilovchi asosiy komponentlari

T.p	**Komponentlar**	**Mazmuni**
1	Yuksak ma’rifat	O‘z sohasi va turdosh sohalar bo‘yicha chuqur bilimlarga egalik
2	Yuksak ma’naviyat	Yuksak xulq-atvor, botiniy(ichki) va zohiriy (tashqi) go‘zallikka egalik
3	Barqaror ruhiyat (psixologik)	Ruhiy jihatdan doimo barqarorlik va faoliyatda vazminlik
4	Yuksak kasbiy(pedagogik) mahorat	1. Pedagogik odob, pedagogik qobiliyat, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik relaksatsiya, kommunikativ ta’sir ko‘rsatish qobiliyati, pedagogik takt, pedagogik texnika, nutq texnikasi, pedagogik ijodkorlik, pedagogik tajriba, pedagogik madaniyat, kompetentlilik (qobiliyatlilik)**;** 2. Kommunikativlik (muloqot qila olish va axborot almashish), kollaborotivlik (hamkorlik va jamoa bo‘lib ishlash), kreativlik (ijodkorlik, yaratuvchilik), kritikal fikrlash (tanqidiy va mantiqiy fikrlash - (XIV asr ko‘nikmalari) kabi jihatlarni egallash
5	Liderlik va boshqaruv ko‘nikmalarini puxta egallaganlik	Faoliyatda yetakchilik, ergashtiruvchanlik, ibrat, namuna, o‘rnak ko‘rsata olish
6	Huquqiy mezonlarni bilish va amaliyotda qo‘llash	O‘z haq-huquqlarini bilish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini anglash, o‘z majburiyat va burchlarini bajarish
7	Tarixiy tafakkurni rivojlantirish	Ajdodlar merosiga hurmat, ulardan g‘ururlanish va foydalanish, milliy qadriyatlarimizga sodiqlik
8	Mafkuraviy tayyorgarlik	Ezgu fikrlar, bunyodkor g‘oyalar, ijodiy tafakkur, ilmiy dunyoqarash

O‘qituvchi – jamiyatdagi eng obro‘-e’tiborli kishi bo‘lishi kerak, degan tamoyil avvalo muallimning jamiyatdagi o‘rni va mavqyini asoslab berish, bir so‘z bilan aytganda, uning imijini yaratish zaruratini paydo qildi. O‘qituvchining ma’naviy qiyofasini shakllantirish dunyo mamlakatlari bo‘ylab muqarrarlik xususiyatini kasb etib bordi. Xususan, Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida o‘qituvchining obro‘-e’tibori va nufuzini os-

hirish – davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Ma'lumki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham ushbu haqiqatni ko'p marta ta'kidlab aytdi.

Jamiyatda o'qituvchining ma'naviy qiyofasini oshirish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Buning uchun o'qituvchilik kasbiga va muallimga nisbatan jozibadorlik muhitini yaratish zarur. Jozibadorlik muhiti uchta omilni o'z ichiga oladi: ibrat, tarovat, maftunkorlik. O'qituvchi shaxsiy turmushi va mehnat faoliyatida qanchalik yutuq va muvaffaqiyatlarga erishsa, ular, albatta, o'zining boshqalarga ibrati, tashqi tarovati hamda maftunkorligi, ya'ni boshqalarga qanchalik darajada yoqishi kabi omillarga bog'liq bo'ladi. O'qituvchining ichki, botiniy olami imij orqali boshqalarning ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladi.

O'qituvchi imiji qator funksiyalarni bajaradi. Ularni quyidagilarga ajratish mumkin: 1) Professional funksiya – o'zining ta'lim-tarbiya faoliyatida yuqori sifatni ta'minlash; 2) Ijtimoiy funksiya – o'quvchilarning ijodiy faolligini shakllantirish, o'zining o'qituvchilik kasbi maqomi va obro'si hamda ijimoiy ahamiyatini oshirish; 3) Ma'naviy qadriyatlar sifatidagi funksiya – o'quvchi shaxsini shakllantirish: o'quvchi bilan do'stona hamkorlik, unga hurmat, to'g'rilik, adolat, mehribonlik ko'rsatish; 4) Vizual funksiya, ya'ni ijobiy tashqi taassurot, tashqi ko'rinish, tashqi qiyofa madaniyati.

O'qituvchining imiji strukturasida uch xil – tashqi, protsessual va ichki komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin[5]. Tashqi komponentlar o'qituvchining zohiriy elementlari – ovoz tembri, qo'l harakalari (jestlari), libosi, manerasi, yurishi kabilarni bildiradi va ular mashg'ulotlarda ishchanlik muhitini yaratish, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro bir-birini tushunishi, pedagogik muloqotda ahamiyat kasb etadi. Protsessual komponent o'qituvchining emotsional boyligi, verbal va noverbal muloqot usullarini muvaffaqiyat bilan qo'llay olishi, mashg'ulotni ekspressiv tarzda jonli olib borishini bildiradi.

XXI asr o'qituvchisining ma'naviy qiyofasini shakllantirish va rivojlantirish davrimizning eng dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammosi sifatida muqarrarlik xususiyatiga ega bo'lgan va bir qator obyektiv omillar bilan bog'liq bo'lgan muammodir. Birinchidan, insoniyatning global muammolari tobora keskinlashib borishi, dunyoning turli nuqtalarida urush o'choqlarining paydo bo'lishi, davlatlararo munosabatlarda beqarorlikning ortib borishi va boshqa umumbashariy muammolar kuchayib borayotgan sharoitda ma'naviyat va ta'lim-tarbiya masalalarining "xaloskorlik" rolining namoyon bo'lishi; ikkinchidan, ma'naviyat va ta'lim masalalarining taraqqiyotda hal qiluvchi kuchga aylanganligi, xalqlar va davlatlar o'rtasida hamjihatlik va o'zaro hamkorlik munosabatlari aynan shu sohada rivoj topayotganligi mazkur soha mutaxassislari, xususan, o'qituvchilik kasbining nufuzi ortishiga, pedagog imijini qaror toptirishga obyektiv ehtiyojni paydo qildi; uchinchidan, barkamol shaxsni kamol toptirish g'oyasi ko'plab davlatlar, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarning taraqqiyotidagi amaliy ahamiyati ortdi – ayna shu g'oya ta'lim-tarbiya sohasi va uning ishtirokchilari, o'qituvchilarga bo'lgan ijtimoiy munosabatni qayta ko'rib chiqish, shu kasb sohiblarining jamiyatdagi mavqeini oshirishga asos bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – T.: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2022-yil 29-yanvar. 06/22/60/0082-son.

2. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2020. – 164 b.

3. Haydarov K. Yangilanayotgan O'zbekistonda ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi va uning uzluksiz ta'lim tizimidagi ahamiyati. Falsafa fanl.dokt. dissert. – Samarqand, 2022. – 22 b.

[5] Митина Л.М. Личностно-профессиональное развитие учителя: стратегии, ресурсы, риски. – 2018 // kartaslov.ru > Лариса Митина.

Nasiba BAYTURAYEVA,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek talabaning pedagogik madaniyati, uning pedagogik texnologiyalarini egallaganligi darajasi va ularni hal etish masalalari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.
Kalit so‘zlar. Komponentlar, kategoriya, pedagogik tadqiqotlar, intellektual iste’dod, kreativlik.

В данной статье рассматривается развитие творческих способностей будущих педагогов как педагогическая проблема. Также говорится о педагогической культуре студента, степени овладения им педагогическими технологиями и вопросах их решения.
Ключевые слова. Компоненты, категория, педагогическое исследование, интеллектуальный талант, творчество.

This article examines the development of creative abilities of future teachers as a pedagogical problem. It also talks about the student's pedagogical culture, the degree of mastery of pedagogical technologies and issues of their solution.
Key words. Components, category, pedagogical research, intellectual talent, creativity.

Asrlar va sivilizasiyalarning to‘qnashuvida insoniyat hayotining barcha sohalari yangi bosqichga kirib borishga tayyorlanib bormoqda. Biz hozirgi vaqtdagi oliy pedagogik ta’lim tizimida talabalarni kasbiy tayyorlash sohasidagi o‘zgarishlarning zarurati to‘g‘risida ta’kidlaymiz. Mazkur tayyorlovdagi asosiy masalalardan biri talabaning pedagogik madaniyati, uning pedagogik texnologiyalarni egallaganligi darajasi to‘g‘risidagi masalalar bo‘lib, ularni hal etish kasbiy-pedagogik qobiliyatlarni, talaba shaxsining ijodiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga bog‘liqdir.

Mamlakatimizning yuridik asosiy hujjatlaridan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim” to‘g‘risidagi Qonuni, “Asosiy umumiy ta’limning davlat ta’lim standartlari”, shuningdek, Prezident farmonlari qonunchilik bazasini ta’lim tizimining amal qilishi uchun tayyorlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Mazkur hujjatlarning mohiyati davlat ta’lim tizimining rivojlanish strategiyasini bel-

gilashdan iboratdir. O‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash sohasidagi davlat asosiy hujjatlaridan foydalanishning maqsadi qonunda belgilangan talablarga muvofiq ravishda oliy ta’lim muassasasidagi o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida asosiy prinsiplar va qonun-qoidalar belgilangan bo‘lib, ular asosida O‘zbekiston ta’limining rivojlanishi qonuniy mustahkamlangan g‘oyalarini amalga oshirishning strategiya va taktikasi quriladi.

Mazkur qoidalar bir vaqtda jamiyatga, ta’lim tizimining o‘ziga va shaxsga qaratilgan va ta’lim tizimi rivojlanishining “tashqi” ijtimoiy-pedagogik sharoitlarini hamda uning hayot faoliyatining “ichki” pedagogik sharoitlarini ta’minlaydi. Ularga quyidagilar taalluqli: ta’limning insonparvarlik xarakteri, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, shaxsning erkin rivojlanishi; ta’limning umumfoydalanilishi, ochiqligi, ta’lim iste’molchisini har tomonlama himoyalash.

Bizning maqolamizda birinchi va ikkinchi nuqtayi nazarlar umumlashtirilgan bo‘lib, bu bizga kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni quyidagi tarzda aniqlash imkonini berdi: texnologik oliy ta’lim muassasasi talabasining kasbiy-ijodiy qobiliyatlari deganda kasbiy-ijodiy faoliyatning muayyan ko‘rinishi talablariga ularning mosligi darajasini tavsiflovchi va uning samaradorligi darajasiga bog‘liq bo‘lgan, dolzarb nazariy ishlanmalarni hamda innovasion amaliy yechimlarni maqsadga muvofiq va izchil o‘zlashtirishga imkon beradigan, pedagogik faoliyatning tanlangan sohasida o‘zining noan’anaviy yo‘nalishini izlashga undaydigan shaxs sifatlari va xususiyatlarining majmui tushuniladi.

Turli adabiyotlarda ko‘pincha uchraydigan, amaliy pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan, maxsus kasbiy qobiliyatlar tushunchasi “pedagogik qobiliyatlar” atamasi bilan ifodalanib, ular ostida “bolalar bilan ishlashga layoqatlilik, bolalarga mehr-muhabbat, ular bilan muloqotdan zavqlanishda ifodalanuvchi shaxs sifatlari” tushunilib, biz tomonimizdan kiritilgan kasbiy-ijodiy qobiliyatlar tushunchasiga nisbatan ancha tordir, bu o‘z isbotini topdi.

Qobiliyat:

– Biror ishga qobillik, yaroqlilik, biror ishni bajara, qila olish xususiyati, layoqati;

– Iste’dod, talant;

– Qobiliyat – mayl, qiziqish, moyillik, sodiqlik, tarafdorlik, layoqat, qobillik, qodirlik.;

– Bilim, ko‘nikma, malakalardan farqli o‘laroq, shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ishni uddalay olishidagi sub’ektiv shart-sharoitlarni ifodalovchi individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari;

– Iste’dod, talant.

Kasbiy – kasb-hunarga oid.

Ijodiy – Ijod yaratuvchisi bilan bog‘liq bo‘lgan; umuman muayyan sohada ish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi.

Kasbga qiziqish, undan manfaat topish insonning o‘ziga, qolaversa ota-onasi, jamiyatga kerakligini anglash muhim vazifalardan hisoblanadi. Bular esa yoshlar oldiga ko‘plab vazifalarni qo‘yadi:

– o‘zi uchun foydali bo‘lgan kasbni to‘g‘ri tanlay olish;

– bu kasbni yaxshi egallash va o‘z kasbining ustasi bo‘lib yetishish;

– kasbiga doir ko‘plab bilimlarni egallash;

– kasbiga ijodiy yondasha olish;

– mehnatsevar, o‘z ishini tashkil qila oluvchi, kasbiga xos axloqni egallash;

– o‘zining shogirdlarini yaratishga intilish;

– jamiyatga va ota-onasiga yaxshi nomlar bilan maqtov olib kelish;

– kelajakda nafaqaga chiqishga ehtiyojlar paydo bo‘lganda o‘zining ishini davom ettiruvchi shogirdlarni yaratish va o‘z maktabini qoldirish;

– kasbini o‘ziga xizmat qiluvchi va kelajagini ta’minlovchi hunar sifatida shakllantirish.

Bu kabi vazifalar kasb-hunarni egallab borayotgan va yangi bir ko‘rinishga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashda eng muhim jarayonlar hisoblanadi.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik asosan to‘rtta komponenti bilan tavsiflanadi:

– shaxsga, insonga yo‘nalganlik;

– pedagogik voqeylikni izchil idrok etishi;

– fan sohasiga yo‘nalganlik;

– pedagogik texnologiyalarni egallash.

Kasb tanlash (kasbga yaroqlilik) – kasbiy ishning butun tizimida yakunlovchi bosqichdir. Ayni shu bosqichda xodimning tanlagan kasbga uzil-kesil muvofiqligi yoki nomuvofiqligi aniqlanadi. Lekin kasb tanlash (kasbga yaroqlilik) metodlaridan kasbga yo‘naltirishning faqat yakunlovchi bosqichida foydalanish mumkin, deb hisoblash noto‘g‘ri. U yoki bu kasbning egallagani holda dastlabki tibbiy-fiziologik va psixologik ko‘rikdan o‘tmagan yigit yoxud qizga tanlagan kasbi zid bo‘lishi ham mumkin. Shu boisdan, kasb tanlash boshlang‘ich bosqichda ham, shuningdek, yakunlovchi bosqichda ham o‘tkazilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta‘lim to‘g‘risida Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. O‘RQ-637-son

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.– 687 b.

3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 6-jild. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2003. – 704 b.

4. N. Bayturayeva. Developing the creative competence of future primary school teacher as a social problem. International Vritual Conference On Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences Hosted from Newyork, USA http://euroasiaconference.com January 20th 2021.

Umidaxon TURSUNOVA,
TDIU O‘zbek va Xorijiy tillarni o‘qitish markazi katta o‘qituvchisi, PhD

BO‘LAJAK IQTISODCHILARNING KASBIY YO‘NALTIRILGAN MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

XXI asrda globalizatsiya jarayonining tezlanishiga qaramay, iqtisodchilarning muloqot kompetensiyalari ahamiyatini yo‘qotishning zarurati kuchaydi. O‘zgaruvchan dunyoda faoliyat yuritish, mijozlar bilan aloqa o‘rnatish va xalqaro biznesda ishlash uchun kommunikativ kompetensiyalar o‘ziga xos talablar bilan keladi. Ushbu maqola, bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy hayotida uchraydigan pedagogik muammolarni ko‘zdan kechiradi, shuningdek yangi texnologiyalar va metodologiyalar yordamida ularning bu kompetensiyalarni qanday rivojlantirishlari mumkinligini tahlil qiladi. Iqtisodiyot bilan bog‘liq kasbga yo‘naltirilgan o‘qitishning samarali strategiyalari va yondashuvlarining o‘rni ham ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar. Kommunikativ kompetensiya, iqtisodchi, pedagogik muammo, globalizatsiya, texnologiya.

Несмотря на ускорение процесса глобализации в 21 веке, потребность экономистов в повышении важности коммуникативных компетенций возросла. Коммуникативные компетенции для работы в меняющемся мире, общения с клиентами и работы в международном бизнесе предъявляют особые требования. В этой статье рассматриваются педагогические проблемы, с которыми сталкиваются будущие экономисты в своей профессиональной жизни, а также анализируется, как они могут развивать эти компетенции с помощью новых технологий и методологий. Также подчеркивается роль эффективных стратегий и подходов к профессионально-ориентированному обучению, связанных с экономикой.

Ключевые слова. Коммуникативная компетентность, экономист, педагогическая проблема, глобализация, технология.

Despite the acceleration of globalization in the 21st century, the need for economists to increase the importance of communication competencies has increased. Communicative competencies for working in a changing world, communicating with customers, and working in international business have special requirements. This article discusses the pedagogical challenges that future economists face in their professional life and analyzes how they can develop these competencies with the help of new technologies and methodologies. The role of effective strategies and approaches to professional-oriented learning related to economics is also emphasized.

Key words. communicative competence, economist, pedagogical problem, globalization, technology.

XXI asrda globalizatsiya va texnologik innovatsiyalar bilan yana birga, dunyo iqtisodiyotining integratsiyasi ham tez o‘smoqda. Bu jarayonlar, iqtisodchilarning doimiy ravishda xalqaro mijozlar, tashkilotlar va biznes hamkorlar bilan muloqotda bo‘lishini talab qiladi. Kommunikativ kompetensiya shu bilan birga iqtisodchilarning muvaffaqiyatli muloqot qilish, ma’lumotlarni o‘zlashtirish va o‘z fikrlarini taqdim qilish uchun muhimdir. Ushbu maqolada, iqtisodchilarning kommunikativ kompetensiyalarini oshirishning muhimligi, pedagogik yondashuvlar, shuningdek, bu sohada uchrashadigan muammolarni va bu muammolarga

yechim topish usullarini ko‘rib chiqamiz. Shu bilan birga, xalqaro iqtisodiy sahnada o‘zini tasdiqlash uchun iqtisodchilarga qanday kommunikativ mahoratlar zarur va bu mahoratlar qanday tarzda ta’lim olinishi kerakligini muhokama qilamiz.

Kasbiy yo‘naltirilgan muloqot kompetensiyasini rivojlantirishni o‘rganish jarayonida biz bir nechta olimlarni shu muammo bo‘yicha bergan fikirlarini ko‘rib chiqdik. Kommunikativ kompetensiya, odamlarning muloqot qilishga qodir bo‘lishini ifodalovchi keng tarqalgan tushunchadir. Bu tushuncha tilning faqat grammatik yoki leksik taraflari emas, balki odamlarning turli muloqot sharoitlarida va turli madaniy kontekstda samarali ravishda fikrlarini ifodalash, tushuntirish va ma’lumotlarni almashish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Iqtisodchi, o‘z faoliyatining keng spektri ichida turli sohalardagi mijozlar, biznes hamkorlar, tashkilotlar va boshqa ishtirokchilar bilan muloqot qilishi talab qilinadi. Bu esa, xalqaro iqtisodiyotda, madaniyatlararo aloqalarda va bir nechta tillarda muloqot qilishning zarur bo‘lgan qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari, kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lish, iqtisodchining ish faoliyati davomida uchrashishi mumkin bo‘lgan muammolarni hal qilishda, shuningdek, mijozlar va biznes hamkorlar bilan samarali aloqalar o‘rnatishda juda muhimdir. Bu aloqalar o‘z navbatida, iqtisodiy faoliyatning samaradorligi va muvaffaqiyatiga to‘g’ri ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtisodchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda bir necha pedagogik yondashuvlar mavjud. Ularning ichida, amaliy muloqot, rollik o‘yinlar, biznes simulatsiyalari va halqaro muloqotlarni tashkil qilish uchun xalqaro tajriba olish kabi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuvlar, iqtisodchilarga real dunyodagi vazifalar va muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan kommunikativ mahoratlar bilan ta’minlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, iqtisodchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishda texnologiya ham katta ahamiyatga ega. Masalan, virtual muloqot vositalari, elektron tijorat platformalari va boshqa zamonaviy texnologiyalar yordamida iqtisodchilar muloqot qilish, mijozlar bilan aloqada bo‘lish va xalqaro bozorda o‘z mahsulotlarini taqdim etish uchun zarur bo‘lgan mahoratlarni rivojlantira olishadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, o‘quvchilarni yangi kommunikativ kompetensiyalarga rag‘batlantirishda va ularni bu jarayonda qo‘llab-quvvatlashda asosiy ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar o‘quvchilarni muloqotda ishtirok etishga shakllantirish, ularning til o‘rganishiga rag‘batlantirish va ularning til mahoratlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhimdir.

Interfaol darslar tashkil qilish orqali o‘quvchilarning real muloqot sharoitida fikrlarini ifodalash va ularga ta’sir qilish uchun tilni qanday qo‘llashlari kerakligini o‘rganishlari mumkin. Ushbu darslar, tilning faqat darslik kontekstida emas, balki real hayotdagi kontekstlarda ham qo‘llanilishi haqida tasavvur yaratadi. Bu yordamida, o‘quvchilarning muloqotda ishtirok etishga doir mahoratlari tez o‘sadi va ularning o‘zlarining kasbiy maqsadlariga erishish imkoniyatlari oshadi.

Zamonaviy texnologiyalar o‘qitish jarayoniga kiritilganida, o‘quvchilarning tilni o‘rganish va uni amaliyotda qo‘llash uchun ko‘proq imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Mobil ilovalar, interaktiv darsliklar, video-konferensiyalar va virtual muloqot vositalari yordamida o‘quvchilarning muloqot mahoratlarini yanada rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, motivatsiya oshirish uchun pedagogik yondashuvlar juda muhimdir. O‘qituvchilar o‘quvchilarning tilni o‘rganish uchun qiziqishini oshirishi, ularni tilni qo‘llashda ishonchli bo‘lishga undashi va ularni muloqotga rag‘batlantirishi kerak. Ushbu maqsadlar uchun, o‘qituvchilar o‘quvchilarni muloqotga rag‘batlantirish uchun real hayotdagi vaziyatlarni simulatsiya qilish, o‘quvchilarni o‘zlarining kasbiy maqsadlariga erishishga rag‘batlan-

tirish va ularning til mahoratlarini o‘zlarining kelajak kasbiy faoliyatida qanday qo‘llashlari kerakligi haqida maslahat berish mumkin deb takidlab o‘tgan.

Kommunikativ kompetensiyalar rivojlanishini aniq va holistik jihatdan o‘lchash uchun kompleks metodologik yondashuvga ehtiyoj bor. Ushbu tadqiqotda, sifatli va sifatli tadqiqot usullari kombinatsiyasi yordamida kommunikativ kompetensiyalarini oshirishdagi pedagogik yondashuvlarni kengroq va chuqurroq tahlil etish niyat qilingan.

Sifatli Tadqiqot Usullari:

1. Muzokaralar: o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ma’lumot beruvchilar bilan amaliy muloqotlar o‘tkazilgan. Bu muzokaralar yordamida, kommunikativ kompetensiyalarni oshirish uchun qaysi pedagogik yondashuvlarni qo‘llashning eng samarali ekanligi, qanday muammolar yuzaga keldi va bu muammolarga qanday yechimlar topilishi mumkinligi haqida tushuncha hosil qilish mumkin.

Kuzatuvlar: tegishli sinf va o‘qitish jarayonlarini kuzatish yordamida, pedagogik yondashuvlarning amaliy ta’sirini va ularga qanday muammolar yuz berishi mumkinligini baholash mumkin.

Hujjat tahlili: o‘qituv dasturlari, darsliklar va boshqa o‘quv materiallarini tahlil qilish yordamida, o‘qitish jarayonida qanday kommunikativ kompetensiyalar rivojlanishiga urg‘u berilayotganini aniqlash mumkin.

Turli manbalar tahlili: o‘qituv va o‘rganish amaliyotiga doir maqolalar, tadqiqotlar va o‘quv materiallari yordamida pedagogik yondashuvlar va ularning amaliy ta’sirini tushunish mumkin.

2. Sifatli Tadqiqot Usullari: savollar va testlar: O‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini o‘lchash uchun maxsus yaratilgan standart testlar va savollar yordamida o‘lchovlar olish imkoniyati bor.

So‘rovnomalar: o‘quvchilar va o‘qituvchilarga yo‘naltirilgan so‘rovnomalar orqali, o‘quv jarayonida qo‘laniladigan pedagogik yondashuvlarning samaradorligi, o‘quvchilarning shaxsiy fikrlari va tajribalari haqida ma’lumot olish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Statistik tahlil: olingan ma’lumotlar asosida, qaysi pedagogik yondashuvlarning kommunikativ kompetensiyalar rivojlanishida eng samarali ekanligini aniqlash uchun murakkab statistik tahlil metodlarini qo‘llash.

Eksperimentlar: ba’zi pedagogik yondashuvlarning samaradorligini tekshirish uchun nazorat va tajriba guruhlarida eksperimentlar o‘tkazish mumkin.

Ko‘rib chiqilgan ma’lumotlar, pedagogik yondashuvlarning kommunikativ kompetensiyalar rivojlanishidagi ahamiyatini yanada aniqroq tushunish uchun zarur asosni yaratadi. Bu asosga tayangan holda, o‘qituvchilar va tadqiqotchilar o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini yanada samarali qilish uchun kerakli islohotlarni amalga oshirishlariga yordam berishi mumkin.

XXI asrning globalizatsiya asrida, iqtisodchilarning muloqot kompetensiyalari bilan turli mamlakatlar va madaniyatlar bilan samarali muloqot o‘rnatish zaruriyatini his qilishadi. Bunday kontekstda, texnologiyaning roli juda katta. Hozirgi kunda, internet orqali o‘rganish, virtual konferensiyalar, veb-seminarlar va boshqa texnologik vositalar iqtisodchilarga dunyo bo‘ylab samarali muloqot o‘rnatishga yordam beradi.

Bunday yangi texnologiyalar o‘qitish va o‘rganish jarayonida keng qo‘llaniladi, chunki ular o‘quvchilarni muloqotning murakkab tuzilmalariga, shuningdek, turli madaniyatlardagi o‘zgaruvchan muloqot odatlariga kirish uchun tayyorlaydi. Masalan, virtual muloqotda o‘quvchilar o‘zlarining so‘z bilan ifodalash, tafsilotlarni samarali ravishda taqdim etish va jamoat oldida tushunchalarini ifodalash mahoratlarini rivojlantirishlari mumkin, deb 2005-yilda Hampel & Stickler fikr bildirishgan.

Biroq, barcha bu imkoniyatlar bilan birga, texnologiyaning o‘qitish jarayoniga kiritilishi o‘qituvchilarga ham qo‘shimcha tayyorgarlik va ko‘nikmalar talab qiladi. Masalan,

o‘qituvchilar o‘quvchilarni texnologik vositalarga oid muammolarni hal qilish, texnologik vositalarni samarali qo‘llash va virtual muloqot o‘rnatishda yordam berish uchun ko‘proq tayyorgarlikni talab qiladi (Kern, Ware, & Warschauer, 2008).

Oxirgi xulosa sifatida, globalizatsiya va texnologik o‘sish iqtisodchilarning kommunikativ kompetensiyalarini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ammo, bu yangi imkoniyatlarni samarali ravishda qo‘llash uchun talim muassasalarining, o‘qituvchilarning va o‘quvchilarning o‘zgaruvchan dunyoda turli muloqot odatlariga moslashishiga to‘g‘ri keladigan tayyorgarlik va ko‘nikmalarni rivojlantirishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, global iqtisodiy muhitda, bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy yo‘nalishda yuksak darajadagi kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Kommunikativ kompetensiya, iqtisodchilarning turli mamlakatlar, sohalar va madaniyatlar bilan samarali muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan kuchli asosiy mahoratdir. Bu, ularga dunyo bo‘ylab mijozlar, tashkilotlar va biznes hamkorlari bilan samarali va samarador muloqot o‘rnatish imkonini beradi.

Ushbu maqola, pedagogik strategiyalar, texnologik yondashuvlar va o‘qitish metodologiyalarini o‘z ichiga olgan holda kommunikativ kompetensiyalarni qanday rivojlantirish mumkinligi haqida yanada kengroq ma’lumot beradi. Ular o‘quvchilarga real dunyo sharoitida zarur bo‘lgan muloqot va hamkorlik qilish mahoratlarini taqdim etadi. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘z muloqot mahoratlarini oshirishda texnologiyadan to‘liq foydalanishga rag‘batlantirishning ahamiyati ham aks ettiriladi. Bu, virtual konferensiyalar, veb-seminarlar va boshqa interaktiv o‘quv vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Oxirgi tahlilda, iqtisodchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishning ahamiyati, globalizatsiya va tez o‘sayotgan texnologik tadqiqotlar sababli yorqinlashtirilgan. Talabalar va o‘qituvchilar bu yangi imkoniyatlarni qabul qilish va ulardan to‘liq foydalanish uchun moslashuvchan, o‘rganishga tayyor bo‘lishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Canale M., & Swain M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), 1-47.

2. Hymes D. (1972). On Communicative Competence. In J.B. Pride and J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics, 269-293. Penguin Books.

3. Bachman L.F., & Palmer A.S. (2010). Language assessment in practice. Oxford University Press.

4. Celce-Murcia M. (2007). Rethinking the role of communicative competence in language teaching. In E. Alcón Soler & M.P. Safont Jordà (Eds.), Intercultural language use and language learning, 41-57. Springer.

5. Richards J.C., & Rodgers T.S. (2001). Approaches and methods in language teaching. Cambridge University Press.

6. Thornbury S., & Slade, D. (2006). Conversation: From description to pedagogy. Cambridge University Press.

7. Ellis, R. (2003). Task-based language learning and teaching. Oxford University Press.

8. Chapelle C.A. (2001). Computer applications in second language acquisition: Foundations for teaching, testing, and research. Cambridge University Press.

9. Crookes G., & Schmidt R.W. (1991). Motivation: Reopening the research agenda. Language Learning, 41(4), 469-512.

Maryam SHERANOVA,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika
universiteti, “Pedagogika ta’limi nazariyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI TA’LIM TIZIMIDA MA’NAVIY BARKAMOL SHAXS SIFATIDA SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ta’lim-tarbiya tizimida ma’naviy barkamol shaxsni keng dunyoqarashli, ma’naviyatli, ma’rifatli, aql-idrokli qilib tarbiyalsh hozirgi kunnig eng dolzarb masalasidir O‘quv dasturlarining, darslik va qo‘llanmalarning yangi avlodini yaratishda, ta’limning texnik vositalaridan foydalanishda, ular uchun maxsus o‘quv dasturlarini tayyorlashda ta’limni gumanitarlashtirishning mana shu tomonlariga, ya’ni yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs sifatida takomillashuvida har bir fanning ishtirokini taminlashga e’tibor qaratish zarurdir.

Kalit so‘zlar. Ta’lim-tarbiya, ma’naviy barkamol, shaxs, axloqiy qadriyatlar, o‘quv dasturi, texnik vosita.

Данная научная статья является наиболее актуальным вопросом современных образовательных программ, учебников и образовательных программ по воспитанию детей младшего школьного возраста как духовно зрелых личностей с широким кругозором, духовностью, просвещенностью и интеллектом. дисциплины в создании приложений нового поколения, в использовании технических средств обучения, в подготовке для них специальных образовательных программ, в этих аспектах гуманитаризации образования, то есть в совершенствовании молодежи как морально и морально зрелые личности.

Ключевые слова. Образование, духовная зрелость, личность, нравственные ценности, учебная программа, технические средства

This scientific article is the most pressing issue of modern educational programs, textbooks and educational programs for raising children of primary school age as spiritually mature individuals with a broad outlook, spirituality, enlightenment and intelligence, disciplines in creating new generation applications, in the use of technical teaching aids, in preparing special educational programs for them, in these aspects of the humanization of education, that is, in improving youth as morally and morally mature individuals.

Key words. Education, spiritual maturity, personality, moral values, curriculum, technical means.

O‘zbekicton Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martda qabul qilingan PQ-5040 con ‘‘Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi Qarorning o‘rni beqiyosdir. Chunki bu ta’lim jarayonida bolaning ilk ijtimoiy tarbiyasi amalga oshiriladi va dastlabki ma’naviyat tushunchalari shakllana boshlaydi. Darhaqiqat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-son ‘‘O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g’risida’’gi Farmonining beshinchi bo‘limida ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ta’lim va tarbiya jarayonini kuchaytirish, bu boradagi ishlarni faollashtirish va uning samaradorligini oshirish vazifasi belgilab berilgan. Shu ma’noda boshlang’ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyoj yuqori bo‘lib turibdi. Chunki ma’naviy tarbiya o‘quvchilarni jamiyat talablariga mos ravishda voyaga etkazish omili hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ta’lim-tarbiya tizimida ma’naviy barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish, keng dunyoqarashli va ma’rifatli, aql-idroki mukammal, ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol, ruhan tetik, o‘z mamlakati va uning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni va rolida o‘zining fuqarolik mas’uliyatini to‘g‘ri va to‘la anglab yetgan iymonli, ma’naviy barkamol inson shaxsini tarbiyalash maqsadlaridan kelib chiqadi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ta’lim-tarbiya tizimida ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning markaziy masalasi yoshlarda yuksak axloq va fuqarolik sifatlarini shakllantirish, insonning or-nomusi, sha’ni va mas’uliyati kabi tuyg’ularni, vatanparvarlikni, ma’naviy-ruhiy fazilatlarni tarbiyalashdan iboratdir.

Ma’naviy barkamol shaxsni voyaga yetkazish ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni insonning ijtimoiy intizomi va uning mehnat faoliyatining ajralmas va tabiiy belgilariga, xususiyatlariga aylantirishdan iborat bo‘lib, yosh avlodda insonparvarlik sifat va fazilatlarining ustivor bolishini ta’minlashga qaratiladi. Ta’lim-tarbiya tizimida tarbiyaviy ishlar rejalari gumanitar turkumdagi fanlarning, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning insonparvarlik xususiyatlaridan ham ta’lim-tarbiya jarayonlarida unumli va samarali foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish bilan birga, bu turkumga kirmagan fanlar, ya’ni aniq va tabiiy fanlar hamda umuman ta’lim tizimida o‘tiladigan barcha fanlarning ham tarbiyaviy tamoyillariga, insonni ma’naviy-ahloqiy ruhiy jihatdan takomillashtirish imkoniyatlariga alohida ahamiyat va e’tibor qaratishni, ularning insonparvarlik xususiyatlarini kengroq ochib, tahlil etib ko‘rsatib berishni, yoshlarni o‘qitish orqali ma’naviy-ruhiy jihatdan ham tarbiyalashni maqsad qilib qo‘yadi. O‘quv dasturlarining, darslik va qo‘llanmalarning yangi avlodini yaratishda, ta’limning texnik vositalaridan foydalanishda, ular uchun maxsus o‘quv dasturlarini tayyorlash kabi ta’limni gumanitarlashtirishning mana shu tomonlariga, ya’ni yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs sifatida takomillashuvida har bir fanning ishtirokini taminlash zarurdir.

Ma’naviy barkamol shaxs g‘oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma’naviyatining uzviy bir qismi bo‘lib kelgan. Ma’naviy barkamol shaxs g‘oyasi zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da, Qur’oni Karim va xadislarda, tasavvuf falsafasida, mutafakkirlarimiz Abu Ali ibn Sino, Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Al-Xorazmiy va boshqalar asarlarida o‘zining teran ifodasini topgan. Xalqimiz tarixida ma’naviy barkamol timsollari ko‘p: Alpomish xalqimizning orzusidagi qahramoni, u aql, fahm-farosat, jismoniy kamolot, mardlik va vatanparvarlikning badiiy timsoli bo‘lsa, xazrati Navoiy uchun xalq orzusidagi qahramon Farxod obrazidir. Ularday axloqan va jismonan ma’naviy barkamollikka erishgan shaxs Oybekning “Navoiy” romanida esa Navoiy obrazidir. Ayni paytda u real tarixiy shaxs, komil insondir.

Xalq ogzaki va yozma ijodiyoti, xalq yodgorlik obidalari, nasixatnoma, pandnoma va vasiyatnomalarda ma’naviy barkamol inson tarbiyasi haqidagi qonun, qoida va usullar o‘z aksini topgan.

Uygonish davri Sharq mutafakkirlari o‘zlarining ta’lim va tarbiya to‘grisidagi asarlarida ham barkamol shaxsni shakllantirish muammosini insonning baxtga erishuvi uchun shart-sharoitlar yaratish to‘grisidagi g‘oyalar bilan bog‘liqligiga qaratganlar. Pedagogika tarixida Al- Farobiyning fozil inson sifatlari, bilimlarni olish yo‘llari va uslublari haqidagi konsepsiyasi; Abu Rayhon Beruniyning kasbiy bilimlarni egallash uslublari haqidagi qarashlari; Ibn Sinoning aqliy, ma’naviy hamda jismoniy komillikka erishish haqidagi ta’limoti; Al- Xorazmiyning ilmiy bilimlar, hayotiy muammolarni hal qilish yo‘llari to‘g‘risidagi asarlari o‘zining alohida o‘rniga ega. O‘z o‘rnida shuni ham qayd etish

kerakki, olimlarimiz ma'naviy barkamol shaxs sifatlarini shakllantirishda olingan bilim natijasida hosil bo'lgan ko'nikmalarga e'tiborni qaratadi. Ayni vaqtda shuni etirof etishimiz lozimki, ular bilim olish orqali bolalarda ijodkorlik, bunyodkorlik sifatlarining hosil bo'lishini nazarda tutmoqda.

Jumladan, Al-Xorazmiy ma'naviy barkamol shaxs sifatlarini shakllantirish va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishda fanning yuksak o'rnini qayd etadi. U shaxsni kuzatish, tajriba-sinovlar o'tkazish, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishda, aqliy sifatlarni rivojlantirishning boshqa vositalariga katta ahamiyat bergan. Bu to'g'ridagi fikrlarini u "Al jabr val muqobala" (Algebra), "xisob al-hind" va boshqa asarlarida bayon qilgan[1].

Abu Nasr Al-Forobiyning ijodiy merosida uning tomonidan birinchi bo'lib yaratilgan fanlar tasnifi alohida o'ringa ega. Allomaning qayd etishicha, inson o'zida barkamollik sifatlarini tarkib toptirish uchun birinchi navbatda ilmiy bilimlarni egallamog'i lozim, shuningdek, u shaxs aqliy rivojlanishining asosi sifatida idrok qilish va fikrlash qobiliyatlarining ahamiyatini alohida qayd etadi.

O'zining "Ixso al-ulum", "Fozil odamlar shahri", "Baxtga erishish haqida" kabi asarlarida Al-Farobiy ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash ishlari mazmuni, maqsadi, vazifalari, yo'llari hamda vositalari to'g'risida so'z yuritadi. Al-Farobiy "o'qitish" va "tarbiyalash" tushunchalariga birinchi bo'lib ta'rif bergan olim sanaladi[2].

Beruniyning qayd etishicha, "Insonning ma'naviy barkamolligi uning amaliy kuzatishlari asosida shakllangan aqliy faoliyati negizida yuzaga keladi"[3].

Demak, inson shu asosda tashqi olamni, borliqni o'rganadi, bilimlarni egallaydi, haqiqatga yaqinlashadi, haqiqat esa borliq to'g'risidagi tasavvurlarning haqqoniyligini talab qiladi. Shu taxlitda inson shaxsi ma'naviy rivojlanib boradi. Inson shaxsi rivojlanar ekan unda ijodkorlik, yangilikka intilish kabi sifatlar, ko'nikmalar hosil bo'la boradi.

Abu Ali Ibn Sino ham aqliy tarbiyaga fanlar asoslarini egallash orqali erishilishini ta'kidlaydi. U bilim olish uslublarini egallashda mantiqiy fikrlashga, shaxsiy kuzatish natijalari va tajribaga asoslanish lozimligi to'g'risidagi fikrlarni ilgari suradi. Uning maktabda bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasidagi g'oyalari bugungi kunda ham o'zining yuksak ahamiyatini yo'qotmagan.

Abu Ali Ibn Sino musiqa to'g'risidagi risolasida inson sezgilariga turli ohanglar vositasida ta'sir etib, tarbiyalash haqida so'z yuritadi. Ibn Sinoga qadar hech bir alloma barkamol shaxs tarbiyasida jismoniy ijodkorlik sifatlarining tutgan o'rni to'g'risida yaxlit ta'limotni yaratgan emas. "Tib qonunlari" asarida Ibn Sino gigiyenik tarbiyaning inson xulqiga, uning jismoniy hamda ruhiy salomatligiga ta'sirini ilmiy-amaliy yo'l bilan asoslab bergan[4].

Amir Temur esa, ijodiy faoliyatga alohida e'tibor qaratib, uning shaxsni ma'naviy jihatdan kamolotga yetkazuvchi ruhiy hodisa deya baholaydi. Xususan, "Bilki g'olib bo'lmoqlik (Tangrining) madadi va bandasining tadbiri bilandur", deya insonning muayyan faoliyatni tashkil etishdan oldin uni qo'llab-quvvatlovchi ruhiy omillarga tayanishi, aniq maqsad asosida ish ko'rilishi lozimligiga urg'u beradi. Amir Temurning quyidagi fikrlaridan anglash mumkinki, garchi natijasi aniq bo'lsa-da har bir ishni puxta reja va

[1] Al-Xorazmiy Muxammad ibn Muso.Tanl. asarlar, "Aljabr va al muqobala hisobihaqida qisqa kitob".Toshkent, 77-78betlar

[2] Abu Nasr Farobiy. "Baxtga erishish xaqida"Risolalar.Ma'sul muharrir O'zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a'zosi M.M. Xayrullaev, T."Fan", 1975, 76b

[3] Abu Rayhon Beruniy. Tanl.asarlar to'plami .1t. , T."Fan", 1982, 76 bet

[4] Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari" I kitob. T.,-1993y. 85bet

oqilona tadbir bilan amalga oshirish lozim, ya’ni, “Garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo‘lsa ham, aqli raso va xushyor kishilardan kengashu-tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozimdir”,- deydi[5].

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, Amir Temur eng oddiy faoliyatga ham o‘ta jiddiy yondoshganligining guvohi bo‘lamiz.

Alisher Navoiy esa, shaxs kishilar bilan munosabatda, ayniqsa, kishilarning bir-birlariga bo‘lgan ruhiy, ma’naviy ta’sirlari natijasida tarkib topadi, deb hisoblaydi. Shunday qilib, allomalarimiz o‘zlarining pedagogik qarashlarida insonning aqliy, axloqiy, estetik hamda jismoniy rivojlanishi majmuasini ma’naviy barkamollik mezoni sifatida unga erishish yo‘llari hamda vositalarini ko‘rsatib berganlar.

Alisher Navoiyning fikricha, Komil incon bo‘lish uchun nafsni yengish kerak, nafsni yengish va ma’naviy boy bo‘lishning yo‘li qanoatli bo‘lishdadir:

Kimki ishi bo‘ldi qanoat fani,
Bilki, oni qildi qanoat g‘ani.
Komil insonning ideali xalq xizmatini ado etishdir:
Odami ersang, demagil odami -
Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami[6].

Demak, ta’kidlash mumkinki allomalarimizning pedagogik qarashlari ular ijtimoiy-falsafiy qarashlarining tarkibiy qismi bo‘lib qolmasdan, balki maxsus pedagogik asarlar orqali chuqur va mukammal yoritilgan g‘oyalar majmuasidan iboratdir.

Shunday xulosaga kelish mumkinki, insonning hayoti va faoliyati jarayonlarida ularni yuksaklik cho‘qqilariga undovchi kuch ta’lim va tarbiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-son ‘‘O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g’risida’’gi Farmoni O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martda qabul qilingan PQ-5040 con ‘‘Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi PQ-5040-son Qarori.

3. Al-Xorazmiy Muhammad ibn Muso.Tanl. asarlar, “Aljabr va al muqobala hisobi haqida qisqa kitob”. – T,.1983 y.

4. Abu Rayhon Beruniy. Tanl.asarlar to‘plami .1t. , – T.: ”Fan”, 1982 y.

5. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik. 8- 9-jild. Licon ut-tayr. Majolic ul-nafoic..Farxod va Shirin. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2011.

6. ‘‘Amir Temur o‘gitlari” – T.: ‘‘Navro‘z” nashriyoti, 1992 y.

7. Raximov S. “Ibn Sino ta’lim-tarbiya to‘gorisida”.. – T.: O‘qituvchi, 1967 y.

8. Abu Ali Ibn Sino “Tib qonunlari” I kitob. – T.; 1993 y.

9. Sheranova M.B. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarini motivatsiya orqali rag’batlantirish va interfaol metodlardan foydalanib darsni mazmunli tashkil qilish. Ijodkor o‘qituvchi. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali.– 2022. № 23.

[5] “Amir Temur o’gitlari” ─ T.: ”Navro’z” nashriyoti, 1992-y., 10-11,12-b.

[6] Navoiy A. To’la acarlar to‘plami: 10 jildlik. 8- 9-jild. Lison ut-tayr. Majolic ul-nafoic..Farhod va Shirin. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2011. – 768 b.

Gulbaxor ISHMURODOVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, p.f.n.
Gulmira MIRZAEVA,
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o‘qituvchisi

O‘ZBEKISTONDA VA XORIJIY DAVLATLARDA STEAM TA’LIMINI JORIY QILINISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta’limdagi yangicha yondashuv STEAM ta’limining mazmuni, vujudga kelish tarixi va an’anaviy yondashuvlardan farqli tomonlari bayon qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya, Qozog‘iston AQSh, Ukraina va boshqa xorijiy davlatlarda bu yondashuvga bo‘lgan talabni yuqori ekanligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Fan, texnologiya, muhandislik, san’at, matematika, STEAM ta’limi, an’anavay o‘qitish.

В данной статье описывается содержание, история образования STEAM, новый подход к образованию и его отличия от традиционных подходов. Также сообщается, что существует высокий спрос на данный подход в Республике Узбекистан, России, Казахстане, США, Украине и других зарубежных странах.

Ключевые слова. Наука, технологии, инженерия, искусство, математика, STEAM-образование, традиционное образование.

This article describes the content, history of STEAM education, a new approach to education, and its differences from traditional approaches. It is also reported that there is a high demand for this approach in the Republic of Uzbekistan, Russia, Kazakhstan, USA, Ukraine and other foreign countries.

Key words. Science, technology, engineering, art, math, STEAM education, traditional education

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 05.09.2018 yildagi PF-5538 Farmonida, jumladan, Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida (2019-yil, 20-fevral, PQ-4199-son) qarorlarida ta’lim tizimida STEAM ni kiritilishi haqida so‘z boradi.

Bunda ekologik jihatdan toza materiallar va energiyaning muqobil manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan namunaviy loyihalar asosida zamonaviy maktablar qurish; maktablarni, shu jumladan, o‘quv sinflari ichini yangi qulay mebellar, zamonaviy o‘quv va laboratoriya jihozlari, darsliklar va o‘quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikasi, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash; o‘quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion, shu jumladan, masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish, ushbu jarayonning samaradorligini butunlay oshirishni nazarda tutgan holda umumta’lim muassasalarining rahbar va pedagogik xodimlari malakasini oshirish tartibi va tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqilishi belgilangan. Shunga ko‘ra, Respublikamizning har bir hududida iqtidorli yoshlarni aniqlash maqsadida Prezident maktablari ochildi va ular STEAM fanlarini o‘qitishga ixtisoslashgan bo‘lishi ta’kidlandi. STEAM — maktab o‘quvchilarini yangi o‘qitish metodikasi bo‘lib, an’anaviy o‘qitish tizimiga muqobil tizim hisoblanadi.

Rossiyada STEAM. Hozirgi vaqtda Rossiyaning zamonaviy iqtisodiyoti va biznesi nafaqat muhandislar, balki mantiqiy fikrlash, boshqaruv tayyorgarligi va moslashuvchan ko‘nikmalarga ega mutaxassislarga ehtiyoj sezmoqda. Rossiyada STEAM ta’limi nima va nima uchun u 2023-yilda istiqbolli hisoblandi?

STEAM atamasi birinchi marta 1990-yillarda amerikalik bakteriolog R. Kolvell tomonidan taklif qilingan va 2011-yilda AQSh tabiiy fanlar institut rahbari va biolog Djudit A.Ramali tomonidan yangi ta’lim dasturini amaliyotga joriy etish maqsadida faol qo‘llanila boshlangan. Bu muhandislik va tabiiy fanlarni yagona tizimga birlashtirgan model hisoblanadi. Bunday ma’lumotni olgan mutaxassislar muammoni biron bir texnologiya yoki fan sohasi kontekstida emas, balki bir butun yaxlit organizm sifatida ko‘rib chiqishga qodir.

STEM – bu inglizcha so‘zning qisqartirmasi bo‘lib S – fan (science), T –texnologiya (technology), E–muhandislik (engineering), M–matematika (mathematics) degan ma’noni bildiradi. Amaliyotda STEM –metodining boshqa yo‘nalishlari ham mavjud bo‘lib ko‘rsatib o‘tilgan tarkibiy tuzilmadan tashqari kengroq ma’noda ishlatiladigan A (Art) Art – STEAM, R (Reading + wRiting) o‘qish va yozish - STREAM larni ham o‘z ichiga oladi..

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. O‘qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog‘i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo‘lib etishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo‘llashadi.

Integrativ ta’lim zamonaviy texnologiya kompaniyalarida samarali ishlay oladigan qimmatli kadrlarni tayyorlash imkonini beradi. Rossiyada STEAM ta’limiga ehtiyoj ham ortib bormoqda. 2023 yilda Rossiya bozorida raqamli texnologiyalar, ma’lumotlarni tahlil qilish va muhandislik sohasida 200 000 dan ortiq mutaxassislar kerak. Kelgusi yilda ularning soni 300 000 ga oshadi degan fikrlar bor.

STEAM ta’limi nima?

Psixologik va iqtisodiy tadqiqotlar instituti direktori Aleksandr Neverovning aytishicha, STEAM qisqartmasi AQSh Milliy ilmiy jamg‘armasi negizida paydo bo‘lgan. Uning tug‘ilgan sanasi 2001-yil deb hisoblanadi. Rossiya Fanlar Akademiyasining Amerika ekvivalentidan ta’limni rivojlantirish sohasidagi sinoptiklar STEAM atamasini tabiiy, matematik fanlar, muhandislik ijodkorligi va fanlararo texnologiyalar tutashgan joyda ta’limning yangi shaklini belgilash sifatida taklif qilishdi.

STEAMning paydo bo‘lishi ikkita asosiy sababga bog‘liq edi. Birinchisi, har tomonlama ma’lumotga ega, muhandislik kompetensiyalarga ega bo‘lgan, o‘qitilgan kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu nanotexnologiya, biotexnologiya, raqamlashtirish va robototexnika fanlarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Ikkinchisi, Amerika universitetlarida fundamental va tabiatshunoslik fanlarida umuman ta’lim inqirozining yuz berishi bilan bog‘liq.

Bu yo‘nalishda asosiy e'tibor qattiq ko‘nikmalarga qaratiladi, lekin yumshoq ko‘nikmalar ham asta-sekin unga qo‘shilmoqda. Ma’lumotlarni tahlil qilish va raqamli texnologiyalardan foydalanish har qanday biznesga foyda keltiradi, shuning uchun hozirda STEAM ta’limini oladigan mutaxassislar dunyoning turli mamlakatlarida eng ko‘p talab qilinadigan xodimlardir.

AQSh mehnat statistikasi byurosi tahlilchilarining prognozlariga ko‘ra, yaqin 10 yil ichida STEAM xodimlariga bo‘lgan ehtiyoj 76 foizga oshadi. Birgina Aqshda 10 millionga yaqin odam kerak. Shu bilan birga, o‘qitish sur'ati o‘sib bormoqda va kadrlar

yetishmasligi saqlanib qolmoqda.

AQShda STEAM. O‘sib borayotgan talab tufayli STEAM mutaxassislari ko‘proq rahbarlik lavozimlarini egallashlari mumkin.

AQShning qaysi kollej va universitetlarida STEAM darajasini olish mumkin?

Ilgari STEAM dasturlariga yozilish eng qiyinlaridan biri hisoblanardi. Abiturientlarga yuqori talablar qo‘yildi, bu esa oz sonli xalqaro talabalarni qondirishga muvaffaq bo‘ldi.

Qaysi universitetlar xalqaro talabalar uchun STEAM mutaxassisliklariga kirish uchun maqbul sharoitlarni taklif qiladi?

Lyuis (Lyuisa) Universitetidagi STEAM dasturlari.Lyuis universiteti Romeoville, Illinoys(Romeovil, Illinoys) AQSh va dunyoning boshqa mamlakatlaridan taxminan 7000 talaba bo‘lgan xususiy universitetdir. AQSh yangiliklari va dunyolari hisoboti hamda Prinston sharhlari (U.S. News & Worls Report i The Princeton Reviews). jurnallarga ko‘ra, ushbu universitet bir necha bor Qo‘shma Shtatlardagi eng yaxshi universitetlar qatoriga kiritilgan. Universitet xalqaro talabalarga katta imkoniyatlar eshigini ochadi va moslashishga yordam beradi.

Dayuton(Dayton) Universitetidagi STEAM dasturlari. Dayuton universiteti (Dayton, Ogayo shtati) 1850-yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan davlat universitetidir. Bugungi kunda bu yirik va jadal rivojlanayotgan universitet hisoblanadi. 2017-yilda Dayuton STEAM ishlari uchun eng yaxshi 20 shahar ro‘yxatiga kiritilgan. Bitiruvchilarning 97 foiz tezda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ish topadi.

Ushbu universitet xalqaro talabalarga STEAM dasturlarining keng doirasini taklif etadi: Kimyo muhandisligi; Fuqarolik muhandisligi; Kompyuter muhandisligi; Elektrotexnika; Mashinasozlik; Sanoat muhandislik texnologiyalari; Mashinasozlik texnologiyalari; Global ishlab chiqarish tizimini loyihalash texnologiyalari; Kompyuter fanlari; Fizika / informatika va boshqalar.

Tinch okeani Universitetidagi STEAM dasturlari. Tinch okeani universiteti (Shimoliy Kaliforniya) 9 ta kollej va maktabni o‘z ichiga olgan yirik xususiy universitetdir. Tinch okeani universitetida muhandislik 50-TOP mamlakatning eng yuqori kasblari orasida munosib o‘ringa ega. Ushbu universitet G‘arbdagi eng yaxshi universitet sifatida ham tan olingan, Kaliforniyadagi eng qimmat kollej sifatida 3-o‘rinni egallagan va boshqa ko‘plab mukofotlarga sazovor bo‘lgan.

Ushbu universitet xalqaro talabalarga bir qator ilg‘or STEAM dasturlarini taklif etadi: Bioinjeneriya; Fuqarolik muhandisligi; Kompyuter texnologiyalari; Elektrotexnika; Texnik boshqaruv; Muhandislik fizikasi; Mashinasozlik; Kompyuter fanlari va boshqalar.

Luiziana shtat Universitetidagi STEAM dasturlari.Ushbu universitet Baton(Baton)-rujdagi eng yaxshi davlat universitetlari qatoriga kiradi. U ilg‘or dasturlarni, shu jumladan STEAM sohasini ham taklif etadi. Xalqaro talabalar uchun ushbu universitet bir qator STEAM mutaxassisliklarini taklif etadi: Zararkunandalarga qarshi kurash / entomologiya; Hayvonot fanlari; Ekologiya; Astronomiya; Biokimyo; Biologik muhandislik; Biologiya fanlari; Kimyo muhandisligi; Kimyoviy fizika; Kimyo; Fuqarolik muhandisligi; Kompyuter muhandisligi; Kompyuter fanlari; Bulutli hisoblash va tarmoq; Sohil ekologiyasi; Tabiatni muhofaza qilish biologiyasi; Qurilishni boshqarish; O‘simlik ishlab chiqarish; Dietetika; Elektrotexnika; Ekologik muhandislik va boshqalar.

Markaziy Florida universitetidagi STEAM dasturlari.Ushbu universitet bitiruvchilari ish beruvchilar tomonidan katta talabga ega bo‘lgan xalqaro talabalar uchun STEAM

dasturlarining keng doirasini taklif etadi:Aktuar fanlari; Aerokosmik muhandislik; Zoologiya va veterinariyadan oldingi fan; Umumiy biologiya, dengiz va suvda; Molekulyar mikrobiologiya; Biotexnologiya; Kompyuter fanlari; Energiya va qayta tiklanadigan energiya manbalari; Axborot texnologiyalari va boshqalar.

Mamlakatimizda bolalar bog‘chasidan oliy ta’limgacha va undan keyin ish joyigacha STEAM jarayonlarining izchil zanjiri yaratilgan. Qozog‘istonda talabalar uchun loyiha laboratoriyalari prinsipi asosida ishlaydigan STEAM klublari tashkil etilmoqda. Bunday markazlar amaliy tadqiqotlarni tashkil etadi va aniq fanlarni o‘rganishga qiziqishni oshiradi. Murabbiylar o‘z o‘quvchilariga rahbarlik qiladi, savollariga javob beradi va ilmiy faoliyatdagi barcha tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydi. Ko‘pincha, har qanday fanni o‘rganishda murakkab materialni oddiy so‘zlar bilan tushuntiradigan odam yetarli emas. Tajribali o‘qituvchilar individual yondashuvdan foydalanadilar va o‘quv jarayonini bolaning intizomni o‘rganishga qiziqishini uyg‘otadigan tarzda quradilar.

Ukrainada STEAM. Fan va ta’lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan 2027 STEAM ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi STEAM ta’limini modernizatsiya qilishga qaratilgan bo‘lib, uni ta’limning barcha tarkibiy qismlari va darajalarida keng miqyosda joriy etish, ish beruvchilar va ilmiy muassasalar bilan hamkorlik o‘rnatish va ularni tabiiy matematik ta’limni rivojlantirishga jalb qilish uchun muhimdir.

Konsepsiyaning asosiy maqsadi tabiiy matematik ta’limni rivojlantirishga ko‘maklashish va u davlatning raqobatbardoshligi va iqtisodiy o‘sishining asosi sifatida belgilanadi. Talabalar tomonidan STEAM kompetensiyalarini egallash va zamonaviy bilim va eng yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, o‘zida mujassam etish va rivojlantirishga qodir bo‘lgan yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash muhim vazifadir.

Xususan, Rossiyada bu masala e'tibor markazida – Texnik ta’limni qo‘llab-quvvatlash markazi orqali yoshlarni muhandislik va robot yaratishga jalb etish masalasi qisman hal etilmoqda. Qozog‘istondagi umumta’lim maktablarida bu boradagi islohotlar 2015-yildan beri amalga oshirilmoqda. O‘tgan yili Isroilda pilot-imtihon tashabbusi boshlandi. Maktabni bitirganidan so‘ng o‘quvchi majburiy tadqiqot ishini olib boradi. O‘quvchilarga ushbu ilmiy ishni amalga oshirishi uchun oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchisi yoki fan nomzodi rahbar etib tayinlandi. Bundan tashqari, joriy yilda yaratilgan yangi milliy ta’lim dasturiga ko‘ra, o‘quvchilarning 70 foizi an’anaviy ravishda o‘qiydi, 30 foiz hajmda tadqiqotga yo‘naltiriladi. Bunda bola huquqshunos yoki iqtisodchi bo‘lmasa ham, zamonaviy ilm, kashfiyot yo‘lidan boradi yoki dasturlash orqali kasb-korga layoqati bilan o‘z sohasini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.09.2018 yildagi PF-5538-son. https://lex.uz/docs/3893445

2. Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 20.02.2019-yildagi PQ-4199-son. https://lex.uz/docs/4208152

3. Программы STEM в американских университетах. infostudy_usa.com/https:// infostudy_usa.com steam_usa_university.

4. Развитие STEM-образования в Украине: вызовы и перспективы. https://b-pro.com.ua/ru/statti/koncepciya-rozvitku-stem-osviti-2027

N. XUSHMATOVA,
Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM katta
o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASINING O‘QUV JARAYONIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada oily ta’lim muassasi talalabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi o‘rganilgan. Shuningdek, talalabalarning ta’lim motivatsiyasi, o‘qishdan qoniqish, umummadaniy kompetensiyalar bilan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik omillari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, ta’lim motivatsiyasi, mashg‘ulotlardan qoniqish, o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga jalb qilish.

В статье исследуется проблема развития профессиональных компетенций учащихся оили учебного заведения. Также были рассмотрены педагогические факторы воспитательной мотивации учащихся, удовлетворенности обучением, развития профессиональных компетенций с общекультурной компетентностью.

Ключевые слова. Развитие профессиональных компетенций, учебной мотивации, удовлетворенности обучением, вовлечение учащихся в учебный процесс.

The article deals with the problem of the development of professional competencies of students of higher educational institutions. The psychological factors of educational motivation of students, satisfaction with training, development of professional competencies with general cultural competences are also considered.

Key words. Development of professional competencies, educational motivation, satisfaction with classes, student involvement in the educational process.

Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlariga muvofiq oily ta’lim muassasi talalabalarining umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga ta’sir qiluvchi individual va shaxsiy omillarni o‘rganishni talab qiladi. Kasbiy kompetensiyalar deganda bitiruvchisining ta’lim dasturini o‘zlashtirishda o‘z kasbiy faoliyatini ko‘nikmalar, shaxsiy fazilatlar orqali samarali amalga oshirish qobiliyati tushuniladi. Oliy ta’lim tizimi oldida nafaqat yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyani shakllantirish, balki unga yo‘naltirilgan insoniy va ijtimoiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqaruvchi shaxsni shakllantirish vazifasi ham turibdi. Bu, birinchi navbatda, ta’limning yuqori darajasi jahon bozoridagi raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omiliga aylanganligi bilan bog‘liq Kasbiy tayyorgarlik jarayonida kasbiy kompetensiyalarning shakllanishiga tizimli, shaxslararo omillar ta’sir ko‘rsatadi. Tizimli omillar quydagilarni o‘z ichiga oladi: o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘quv fanlarini tanlash, o‘quv muhitini shakllantirish. Shaxslararo omillar esa o‘ziga xos o‘qituvchilar va talabalar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardan, suningdek, talabaning shaxsiy xususiyatlari, faollik, ishtirok etish, o‘rganish motivatsiyasi, intilish darajasi, sabab va kognitiv jarayonlarning xususiyatlari va umumiy madaniy kompetensiyalarning rivojlanish darajasidan iborat.

“Kompetensiya” tushunchasining o‘zagi bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy qo‘llashga tayyorlikdir. Psixologik jihatdan, bu tayyorlik motivatsiyali komponentni o‘z ichiga oladi. Ta’lim faoliyatiga kiritilgan motivatsiyaning alohida turi – bu o‘quv motivat-

siyasidir. Keng ma’noda talabalarni samarali bilim faoliyatiga, faol rivojlanishga undash jarayonlari, usullari, vositalari uchun ta’lim mazmuni o‘quv motivatsiyasini umumiy nom sifatida ko‘rish mumkin.

M.V. Matyuxina o‘quv motivatsiyasi manbalariga qarab motivlarning turlarini aniqlaydi: ichki (kognitiv va ijtimoiy ehtiyojlar, shaxsning istagini aks ettiradigan ijtimoiy ma’qullangan harakatlar va yutuqlar); tashqi (masalan, talabaning ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari, yashash sharoitlari va ta’lim faoliyatini rivojlantirish bilan belgilanadigan talablar va imkoniyatlar); shaxsiy (masalan manfaatlar, ehtiyojlar, munosabatlar, standartlar va stereotiplar ta’lim va boshqa faoliyat turlarida tasdiqlash va o‘zini o‘zi anglash) o‘z-o‘zini takomillashtirish istagini belgilaydi.

A.K. Markova ta’lim sohasi tuzilishi iyerarxiyasini ta’kidlaydi, jumladan: o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj, o‘rganishning ma’nosi, o‘rganish motivi, maqsad, hissiyotlar, munosabat va qiziqish.

A.A. Ponomarenkoning fikricha, talabalarni barqaror ijobiy motivatsiya shakllantirishda o‘rganish motivlarining rivojlanish dinamikasini siz kuzatib borishingiz kerak dominantni motiv yoki motiv turi bilan ta’kidlaydi.

Kasbiy kompetensiyalar pedagogik kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, predmet yoki fan sohasi kontekstida namoyon bo‘ladi. Ular aniq kasbiy faoliyatga qobiliyat va tayyorlikning dastlabki darajasini shakllantirishni nazarda tutadi. Kasbiy kompetensiyalarga faqat aniq ish usullarini o‘zlashtirish, turli xarakterdagi aniq kasbiy muammolarni muhokama qilish va hal etishda qatnashish orqali ega bo‘lish mumkin.Talabalarning kasbiy kompetensiyasi uchta asosiy komponentdan iborat deb hisoblaymiz:

– kognitiv, bilim va uni olish usullari bilan bog‘liq;

– faoliyatga asoslangan, olingan bilimlar va ko‘nikmalarni amalga oshirish yo‘llari asosida malakalarni shakllantirish jarayonini, ya‘ni yangi vaziyatlarda professional tarzda harakat qilishga tayyorlikni belgilaydi;

– shaxsiy, shaxsning motivlari va qadriyat munosabatlarini ifodalovchi, kompetentsiyani amalga oshirish jarayonida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish asosida talabalarda ularning kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish yo‘lga qo‘yiladi. Qolgan kompetensiyalarning shakllanishi, shuningdek, talabalarning kasbiy kompetensiyasining shakllanishi kasbiy kompetensiyalarning qanday, qaysi darajada shakllanishiga bog’liq. Talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish deganda biz tashqi ta’sirlar ta’sirida, ya’ni fan bilimlari, ko‘nikmalari, individual qobiliyatlarini olish va kelajakdagi kasbiy faoliyat sohasidagi obyektlarga o‘tkazishda yuzaga keladigan shaxsni rivojlantirish jarayonini tushunamiz. Real ishlab chiqarish sharoitida kasbiy muammolar va vazifalarni hal qilish uchun o‘quv jarayonida talabalar tomonidan tajriba o‘zlashtirish holatiga bog’liq bo‘ladi. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish oily ta’lim muassasi o‘quv jarayonini tashkil etishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida amalga oshiriladi.O‘quv jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni o‘rganish orqali biz kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqdik. Ammo bu ish ushbu jarayonga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan omillarni aniqlash va o‘rganishni talab qildi.

Demak, kasbga ijobiy munosabatni shakllantirish talbalarning o‘quv faoliyatini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda. Ammo ijobiy munosabat, agar u kasbni to‘g‘ri tushunish (shu jumladan, ayrim fanlarning rolini tushunish) bilan qo‘llab-quvvatlanmasa va uni o‘zlashtirish usullari bilan etarli bog‘liq bo‘lmasa, o‘z-o‘zidan muhim ahamiyatni kasb etmaydi. Shubhasiz, talbalarning tanlagan kasbiga bo‘lgan munosabatini o‘rganish bilan bog‘liq muammolar qatoriga qo‘yidagi masalalarni kiritish lozim:

– kasbdan qoniqish;

– kursdan kursga qoniqish dinamikasi;

– qoniqishning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar: ijtimoiy-psixologik, psixologik-pedagogik, differensial-psixologik, shu jumladan yoshi va jinsi;

– kasbiy motivatsiya muammolari yoki boshqacha qilib aytganda, tanlangan kasbga ijobiy yoki salbiy munosabatni belgilaydigan motivlar tizimi va iyerarxiyasi.

Xulosa shuki, kasbiy kompetensiyalarning rivojlanish darajasini oshirish maqsadida ta’lim muassasalari, birinchi navbatda, talabalar faolligini shakllantirishga e’tibor berish muhimdir va o‘quv faoliyatiga qiziqishni saqlab qolish va ichki motivatsiyani rivojlantirish orqali; ikkinchidan, tashqi motivatsiya va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish omillarining sababiy bog‘liqligini o‘rganish va kasbiy ta’limning tizimli va shaxslararo omillarining ahamiyati; uchinchidan, mas’uliyatni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asadov Y.M. va boshqalar.“Umumta’lim tizimida o‘quvchilarda kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‟lim texnologiyalari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma – T.: - 2016 y. – 5 b.

2. Ismontas B.B. Ta’lim psixologiyasi: darslik / B.B. Ismontas. – M.: Moskva shahar psixologiya-pedagogika universiteti. 2004, – 386 b.

3. Manzura Norquziyeva. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. Psychology and Education Journal, 58(2), 1339-1345.

4. Lyubimova O.V. Normativ kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va tashxislashning ba’zi usullari to‘g’risida / O.V. Lyubimova // Tomsk xabarnomasi davlat universiteti. 2009. No 327. 181-183 b.

5. Maxfuza Usmanova, The concept of educatıonal professıonal competence and ıts yıeld factors, Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №54.

Alisher OTAQULOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

TALABALARNING PEDAGOGIK TAYYORGARLIGIGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV MAZMUNI

Annotatsiya

Maqolada ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv jarayoni tahlili asosida talabalarning pedagogik tayyorgarligi davomida kompetensiyalarni shakllantirish tizimi tahlil qilingan. Pedagogik kompetensiyalarning talaba ijtimoiy faolligidagi o‘rni o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. Talaba, pedagogik ta’lim, kompetensiyalar, tayanch kompetensiyalar, ijtimoiy faollik, umumiy kompetensiyalar.

В статье анализируется система формирования компетенций в ходе педагогической подготовки студентов на основе анализа компетентностного подхода к образовательному процессу. Изучена роль педагогических компетенций в социальной деятельности студентов.

Ключевые слова. Студент, педагогическое образование, компетенции, базовые компетенции, социальная активность, общие компетенции.

The article analyzes the system of developing competencies during the pedagogical training of students based on the analysis of the competency-based approach to the educational process. The role of pedagogical competencies in the social activities of students has been studied.

Key words. Student, teacher education, competencies, basic competencies, social activity, general competencies.

Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetensiya, kompetentlik o‘ta murakkab, ko‘p qismli, ko‘pgina fanlar uchun mushtarak bo‘lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko‘ra, ham ma’no, mantiq mundarijasi jihatidan turli-tuman. Atamaning mohiyati shuningdek, ‘‘samaradorlik’’,‘‘moslashuvchanlik’’, “yutuqlilik’’, “muvaffaqiyatlilik’’, ‘‘tushunuvchanlik’’, “natijalilik’’, ‘‘uquvlilik’’, ‘‘xocca’’, “xususiyat”, “sifat’’, ‘‘miqdor’’ kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda.

Shunga ko‘ra ta’lim kompetensiyalarini tasdiqlangan standartda keltirilgan ta’rif bo‘yicha qabul qilamiz:

• bilim – o‘rganilgan ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

• ko‘nikma – o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish;

• malaka – o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

• kompetensiya – mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati.

Kompetensiya – bu jamiyatning o‘z fuqarolariga qo‘ygan ijtimoiy buyurtmasi bo‘lib, ularning ro‘yxati ma’lum bir mamlakatdagi yoki regiondagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Bunday kelishuvga har doim ham erishib bo‘lmaydi. Masalan, Shveytsariyaning va Amerika Qo‘shma Shtatlarining iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda ta’lim statistikasi Milliy institutining “Tayanch kompetensiyalarni tanlash va aniqlash” nomli loyihasida tayanch kompetensiyalarni qat’iy ravishda aniqlab olishning imkoniyati bo‘lmagan.

Kompetentlik – kompetensiyalarni qo‘llay olishda ega bo‘lishi kerak bo‘lgan minimal tajribasi bo‘lishni taqozo etadi. Bu haqda o‘quvchining tayyorgarligiga qo‘yiladigan

talablarni shakllantirishda, hamda o‘quv jarayoni va darsliklarni loyihalashda esdan chiqarmaslik kerak.

O‘qitishda ularning roli va o‘rnini analiz qilish asosida ajratib olingan kompetensiyalarning asosiy funksiyalarini sanab o‘tamiz:

– kundalik hayotda yashash uchun tayyor bo‘ladigan yosh fuqarolarga qo‘yiladigan ijtimoiy talabning aks etishi;

– bilim, ko‘nikma va malakalarini hamda faoliyat usullarini kompleks holda maqsadli qo‘llashi uchun atrof muhitdan real obyektlarni ko‘rsatishi;

– turli o‘quv predmetlari va ta’lim sohalari mazmunining tarkibiy qismi bo‘lishi;

– konkret masalalarni yechishda nazariy bilimlarni amaliyotda foydalanish bilan bog‘lashi.

Kompetensiyalar qanday ketma-ketlikda bo‘lishi kerak?

Ma’lumki, ba’zi kompetensiyalar, boshqalariga nisbatan umumiy yoki ahamiyatliroq bo‘ladi. Shunga ko‘ra ularni uchta darajaga bo‘lish mumkin:

1) tayanch kompetensiyalar – ta’lim mazmunining umumiy (metapredmet) qismiga tegishli;

2) umumpredmet kompetensiyalari – ma’lum doiraga kiruvchi o‘quv predmetlari va ta’lim sohalariga tegishli;

3) predmetga oid kompetensiyalar – oldingi ikkitaga nisbatan xususiy hisoblanib o‘quv predmeti doirasida shakllantiriladi.

Tayanch kompetensiyalar har safar ta’limning ma’lum bir bosqichi va belgilangan o‘quv predmeti uchun konkretlashtiriladi. Masalan predmet kompetensiyasi hisoblangan tarix fani bo‘yicha, har qanday tarixiy voqeada turli tomonlarning manfaatlari kurashini ajratib olish qobiliyati yotadi.

Keltirilgan to‘plam meyoriy xujjatlar, o‘quv va metodik adabiyotlar, shuningdek o‘quvchilarning umum tayyorgarligini o‘lchash, shu bilan birga ularning kreativ tayyorgarligi darajasini o‘lchaydigan xujjatlarni loyihalash va yoritish uchun xarakterlovchi to‘plamni belgilaydi.

O‘qituvchilar kommunikativ kompetensiyani tarkib toptirishni nazarda tutgan holda barcha darslarda talabalarning kelgusida jamiyatda muloqotga kirishishi uchun zarur bo‘ladigan og‘zaki va yozma nutqni mukammal o‘zlashtirishi, o‘z fikrini aniq va tushunarli bayon etish, darslik va qo‘shimcha adabiyotlardagi matn asosida mantiqiy ketma-ketlikda savollar tuzish, savollarga yozma va og‘zaki javob yozish, o‘z o‘rtoqlari va ustozlar bilan muloqotda muomala madaniyati meyorlariga amal qilish, kichik guruhlarda ishlash jarayonida guruh a’zolarining fikrini hurmat qilgan holda o‘z fikrini bayon eta olish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalariga asoslangan holda o‘z fikrini himoya qilish va ishontira olish, darslarda tashkil etiladigan o‘quv bahslar va turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish, o‘z ona tili bilan bir qatorda xorijiy tillarni o‘zlashtirishiga zamin yaratishi lozim.

Kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar, kommunikativlik, tashabbuskorlik, konstruktivlik, axborotlar bilan ishlash malakasi, ijtimoiy kirishimlilik kabilar pedagogik kompetentlikning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Pedagogik kompetensiyalarni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan ta’lim – bo‘lajak o‘qituvchilarda nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda pedagogik faoliyatlarida qo‘llay olish sifatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik ta’limdir.

Pedagogik faoliyatini, pedagogik muloqotni yuqori darajada amalga oshiradigan, talabalarning ta’lim-tarbiyasi sohasida yuqori darajadagi stabil natijalarga erisha oladigan o‘qituvchini professional kompetentli o‘qituvchi deyish mumkin.

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi – bu kreativlikning rivojlanishi, pedagogik innovatsiyalarga qiziqishning shakllanishi, pedagogik muhitning o‘zgaruvchanligiga moslashuvchanlik qobiliyatidir. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o‘qituvchining kasbiy darajasiga bevosita bog‘liq. Shuning uchun ham oliy o‘quv yurtidayoq bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetentlikka tayyorlash zarur.

Kasbiy kompetentlik esa – biror bir kasb egasi tomonidan kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalar va tajribalarning egallash hamda ushbu tajribalardan kasbiy faoliyat davomida samarali foydalana olish ko‘nikmasidir.

Pedagogik kompetentlik o‘qituvchilarning sohaga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashdangina iborat bo‘lib qolmasdan, balki turli sohalar bo‘yicha integrativ bilimlar va tajribalarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassisning doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, tajribasini doimo boyitib borishni, zamonaviy bilimlarni va axborotlarni o‘zlashtirishni, jamiyat talablariga moslashib borishni va yangiliklarni amalda foydalana bilishni nazarda tutadi.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

– o‘z ustida tinimsiz ishlaydi va zamonaviy bilimlar bilan boyitib boradi;

– dolzarb muammolarga doir ma’lumotlarni o‘zlashtirib boradi;

– jamiyat talablariga moslashadi;

– mutaxassislikka aloqador tajribalar integratsiyasi bilan shug‘ullanadi;

– o‘zlashtirgan bilimlarini amalda qo‘llay oladi.

Ma’lumki, ilm-fanning rivoji bevosita ta’lim-tarbiya natijasi hisoblanadi. Respublikamizda ushbu aqidaga tayangan holda ta’lim sohasini rivojlantirish, ushbu sohani kompetentli kadrlar bilan ta’minlash, milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ta’lim mazmunini qayta ishlab chiqish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatning buyuk kelajagi – yoshlarni chuqur bilimli va pokiza axloq-odob, qalb egasi qilib tarbiyalash lozimligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Har qanday jamiyatda ham ushbu jamiyat maqsadini amalga oshirishda o‘qituvchilar asosiy vazifani bajaradi. Bunday g‘oya o‘z navbatida o‘qituvchi shaxsiga ham ijtimoiy, siyosiy, pedagogik, psixologik va metodik talablar qo‘yiladi. O‘qituvchi kasbiy e’tiqod egasi, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, dunyoqarashi boy, bilimli, kasbiy tayyorgarlikka ega, ijtimoiy muloqot ustasi, fanni o‘qitish metodikasi va psixologik-pedagogik bilimlarni chuqur egallagan bo‘lishi hamda o‘z faoliyati va o‘quvchilar bilimini obyektiv baholashni mukammal o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дольгих Н.А. Влияние образовательной технологии на становление специальной компетентности художника-педагога: автореф. дисс. ... канд. пед. наук. Томск: 2006 – С.11.

2. Matnazarova M.B. Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ped. bo‘y. fal. dok. (Phd) ... diss. –T., 2018. – 135 b.

3. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To‘rayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik. – T., 2015. – 120 b.

4. Nurullayeva Sh.U. Modellashtirish – ilmiy tadqiqot metodi sifatida // Mug‘allim həm ɣzliksiz bilimlendirio‘. №6/1 Nəkis – 2020. – 26-29-b.

5. Nurullayeva Sh.U. Zamonaviy pedagogik ta’limni modellashtirish muammolari // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. № 11. – 2020 y. – 305-308-b.

Madina HALIMOVA,
Qarshi davlat universiteti doktoranti

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHNING TIZIMLI TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilar uchun joriy qilingan, hamda integratsiyalashgan ta’limga mo‘ljallangan “Tabiiy fanlar” darsligi haqida ma’lumot berilgan. Bundan tashqari “Tabiiy fanlar”ni o‘qitishning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda 1-sinf darsligi umumiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. tizim, ekologik barqarorlik, bioxilmaxillik, tur, masshtab, meteriya, energiya, yorug‘lik, tovush, issiqlik.

В данной статье представлена информация об учебнике “Естествознание”, введенном для учащихся начальных классов и предназначенном для интегрированного обучения. Кроме того, исходя из целей и задач обучения “Естествознанию”, был сделан общий анализ проблемы 1-го класса.

Ключевые слова. Система, экологическая устойчивость, вставать, биоразнообразие, шкала, метрия, энергия, звук, нагревать.

This article provides information about the “Natural Sciences” textbook introduced for primary school students and intended for integrated education. In addition, the 1st grade textbook was analyzed in general based on the goals and tasks of teaching “Natural Sciences”.

Key words. System, environmental sustainability, biodiversity, kind, scale, meteria, energy, light, sound, heat.

O‘quv jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur shartlaridan biri o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishidir. Bugungi kunda psixologlar va o‘qituvchilarning olib borgan tadqiqotlarida o‘quvchilarning fan asoslarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari uchun qiziqishning ahamiyati o‘z ifodasini topgan va isbotlangan.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan qiziqishini, unda kechayotgan hodisa va jarayonlar to‘g‘risidagi bilimlarini oshirishda hamda ularning imperik (kuzatish, tadqiqot) metodlarni o‘zlashtirishida “Tabiiy fanlar” o‘quv predmeti muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi tahrirdagi “Tabiiy fanlar” darsligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida tabiiy-ilmiy dunyoqarash bo‘yicha boshlang‘ich tushunchalarni shakllantirishga yordam beradigan turli ish uslublarini o‘z ichiga qamrab olgan. Darsliklarda berilgan muammoli topshiriqlar, loyiha ishlari, amaliy va labaratoriya ishlari, kichik maktab yoshidagi bolalarni kuzatishga, kuzatishlari natijasida olgan bilimlaridan ma’lum xulosalar chiqarishga, fan doirasida tashkil qilingan tajriba jarayonida har bir hodisaga tadqiqotchi sifatidagi yondashuvni o‘rgatadi. Chunki, fanlar asoslarini o‘rganishda tadqiqot usuli o‘quvchilarda tevarak-atrofga nisbatan chuqur qiziqish uyg‘otadi. Tabiat hodisalarni o‘rganishga, idrok etishga, olingan bilimlarni ham amaliy, ham nazariy muammolarni hal etishda qo‘llashga intilishni uyg‘otadi. Bu usul ta’lim jarayonida o‘quvchilarda tafakkur qilishga, tanqidiy fikrlashga, xulosa chiqarishga va olgan bilimlarini kundalik hayotga qo‘llashlariga bevosita xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi “Tabiiy fanlar” biologiya, geografiya, kimyo, fizika, astranomiya, ekologiya, yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Bu fanlarning har biri o‘ziga xos tarkib, tu-

zilish va tadqiqot usullariga ega. Olamda sodir bo‘layotgan turli hodisa hamda jarayonlarni tushuntirishda tabiiy fanlarni o‘zaro bog‘lash asosida tabiatning turli jihatlarini tasvirlaydigan modellardan foydalaniladi.

Fanlarni o‘zaro bog‘lab, olamda sodir bo‘layotgan turli hodisa hamda jarayonlar haqidagi tushunchalarni kichik maktab yoshidan anglashda “Tabiiy fanlar” darsligi o‘quvchiga katta yordam beradi.

Endilikda umumta’lim maktablarida boshlang‘ich sinflardanoq o‘quvchilarga integratsiyalashgan ta’lim berish amaliyotga joriy etilmoqda. Integratsiyaning o‘zi maqsad emas, balki o‘qituvchi faoliyatining ma’lum bir tizimi bo‘lgani uchun, u muayyan o‘quv muammolarini hal qiladi. Bular quyidagilar:

– integratsiyalashgan ma’lumotlardan foydalanib fanga oid tushunchalar yordamida o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish;


– o‘quv materialini yetakchi g‘oyalar nuqtayi nazaridan o‘rganish, o‘rganilayotgan muammolar o‘rtasida tabiiy aloqalarni o‘rnatish orqali intellektual faollik darajasini o‘zgartirish;

– o‘quvchilarning kognitiv qiziqishini, ularning fikrlash faoliyatini rivojlantirish, darsda va darsdan keyin faol va mustaqil ishlash istagini oshirish;

– o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qilish.

“Tabiiy fanlar” darsligining yaratilishi hamda uni o‘qitishda PISA xalqaro baholash dasturi modeli hisobga olingan.

1-jadval



O‘quvchilar topshiriq kontekstida ifodalangan muammoli vaziyatni hal etishda tabiiy fanlar bo‘yicha savodxoblik kompetensiyalarini namoyish etishlari talab etiladi. O‘quvchilarning munosabati (tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishi, tadqiq etilayotgan masalaga ilmiy yondashishi, atrof-muhit bilan bog‘liq masalalardan xabardorligi) va (fanning mazmuniga oid, metodologik, epistemik) bilimlari ularda tabiiy fanlar bo‘yicha savod-

xonlikni belgilaydi.

2-jadval

Kontekst	Shaxsiy	Mahalliy/milliy	Global
Tabiiy resurslar	Salomatlikni asrash, baxtsiz hodisalar, ovqatlanish.	Kasalliklarga qarshi kurash, kasalliklarning tarqalishi, iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarini tanlash, aholi salomatligi.	Epidemiyalar, yuqumli kasalliklarning tarqalishi
Tabiiy resurslar	Moddalar va energiyani iste'mol qilish.	Aholi soni, yashash darajasi, xavfsizlik, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va taqsimlanishi energiya ta'minotini qo'llab-quvvatlash.	Tiklanadigan va tiklanmaydigan tabiiy sistemalar, aholi sonining ortishi, turlardan oqilona foydalanish.
Atrof-muhit	Atrof-muhitga do'stona munosabat, moddiy boyliklar va texnik qurilmalardan foydalanish, hamda ularning yo'q qilinishi (utilizatsiya).	Aholining taqsimlanishi, chiqindilarning yo'q qilinishi, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish.	Bioxilmaxillik, ekologik barqarorlik, atrof-mihitning ifloslanishi, tuproq biomassa hosil bo'lishi va kamayishi
Xavf-xatarlar	Turmush-tarzini tanlashda xavf-xatarlarni baholash.	Favqulodda ro'y beradigan o'zgarishlar (masalan, zilzila, noqulay ob-havo sharoiti), sekin kechadigan va progressiv o'zgarishlar (masalan, qirg'oq yemirilishi), xavf-xatarlarni baholash.	Iqlim o'zgarishi, zamonaviy kommunikatsiyalarning ta'siri.
Ilm-fan va texnalogiyalar sohasidagi yangi bilimlar	Sevimli mashg'ulotlar shaxsiy texnika, musiqa va sport bilan shug'ullanishning ilmiy jihatlari	Yangi moddalar, texnik qurilmalar, genetik modefikatsiyalar, sog'liqni saqlash texnalogiyalari, transport.	Turlarning yo'q bo'lib ketishi, fazoning tadqiq etilishi, koinotning paydo bo'lishi va tuzilishi

"Tabiiy fanlar" dasturida 1-sinf uchun kiritilgan mavzular quyidagi asosiy kontekstlarda ifodalangan:

– tizimlar;
– materiya va energiya;
– shakl, tartib va tuzilish;
– masshtab va o'lchash;
– barqarorlik va o'zgarish;
– shakl va funksiya.

Masalan, boblarga oid mavzularni quyidagicha tasniflash mumkin:

Tizimlar: o'simlik, hayvon, odam organlari sistemasi, Quyosh sistemasiga oid bilimlar.

Materiya va energiya: issiqlik, yorug'lik, tovush.

Shakl, tartib va tuzilish: jonli va jonsiz tabiat, tirik organizmlar.

Masshtab va o'lchash: ob-havo, issiqlik, Yer va koinot.

Barqarorlik va o'zgarish: tirik organizmlarning rivojlanishi, ob-havo, yil fasllari, yashash joyi.

Shakl va funksiya: tirik organizmlar, o'simlik va hayvonlarning xilma-xilligi, issiqlik, yorug'lik va tovush manbalari.

Mavzularni o'rganishda mulohaza yuritishni talab etadigan savollardan iborat og'zaki, yozma va amaliy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darsga tayyor bilimlar to'plami sifatida emas, balki shaxsning o'ziga xos intellektual faoliyati sifatida qarash kerak. O'rganish bilimlar majmuasini oddiy uzatish emas, balki

uni qayta kashf etish shaklida tashkil etilishi o‘z natijasini beradi.

Yangi darslik bilan ishlash orqali o‘quvchilar vaziyatga tezda yechim topishga o‘rganadilar. “Tabiiy fanlar” darsligida dars maqsadiga erishish uchun o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda o‘qituvchi bilan hamkorlikdagi faoliyatni to‘g‘ri tashkil eta olish va ko‘zlagan maqsadga erishish uchun bevosita xizmat qiladi. Bundan tashqari o‘qituvchi dars bosqichlari uchun vaqt grafigidan ijobiy yondashgan holda foydalanishi kerak. Bu esa dars jarayonida muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

Darsni samarali tashkil qilish uchun zamonaviy maktab o‘qituvchilari o‘quvchilarni fan asoslari bo‘yicha chuqur va mustahkam bilimlar bilan shakllantirishi, shu bilan birgalikda o‘z bilimlarini doimiy ravishda oshirishga bo‘lgan intilishlarini, ularni mustaqil ravishda to‘ldirish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipova D., Xodiyeva D.P., Shirinov M.K. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi. – T.: “Barkamol fayz media”, -2018.

2. Nuriddinova M. “Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi”. – T.: ‘‘O‘qituvchi’’, 2005.

3. Suyarov K.T., Tillayeva Z.Y., Sangirova B va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. “O‘zbekiston” MChJ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T., -2021.

4. Suyarov K.T., Tillayeva Z.Y., Sangirova B. va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. “G‘afur G‘ulom” nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. – T., 2021.

5. Suyarov K.T., Tillayeva Z.Y., Sangirova B va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. “G‘afur G‘ulom” nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. – T., -2021.

6. Bahromov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – T., -2017

Nilufar SHARIPOVA,
O‘ZPFITI tayanch doktoranti

BIOLOGIYA DARSLARIDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISH UCHUN QO‘LLANILADIGAN O‘QITISH USULLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada biologiya darslarida maktab o‘quvchilarining asosiy vakolatlarini shakllantirish bo‘yicha pedagogik ish tajribasi keltirilgan. Shuningdek, biologiyani o‘qitishda o‘quvchilar tomonidan olingan vakolatlarning asosiy turlari, samarali innovatsion texnologiyalarni an'anaviy texnologiyalar bilan birlashtirish qobiliyatini namoyish etishi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, faoliyatga asoslangan yondashuv, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, samarali ijodiy faoliyat kompetensiyasi, axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi.

В статье представлен опыт педагогической работы по формированию основных компетенций школьников на уроках биологии. Также было упомянуто, что основные типы компетенций, приобретаемых учащимися при преподавании биологии, демонстрируют способность сочетать эффективные инновационные технологии с традиционными технологиями.

Ключевые слова. Личностно-ориентированный подход, деятельностный подход, компетентностный подход, компетентность продуктивной творческой деятельности, информационно-коммуникативная компетентность.

The article presents the experience of pedagogical work on the formation of basic competencies of schoolchildren in biology lessons. It was also mentioned that the main types of competencies acquired by students in teaching biology demonstrate the ability to combine effective innovative technologies with traditional technologies.

Key words. Personality-oriented approach, activity-based approach, competence-based approach, effective creative activity competence, information and communication competence.

Bugungi kunda o‘quvchilarning nafaqat jismoniy, balki aqliy, ma’naviy-axloqiy barkamolligini ta’minlash, ta’lim va tarbiyaning, shuningdek, ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarini uyg‘unlashtirish orqali ularni rivojlantirish, mustaqil, ijodiy, tahliliy, tanqidiy fikr yuritish ko‘nikmalarini tarkib toptirishda ta’lim-tarbiya jarayonining uzviyligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Barcha fanlar kabi “Biologiya” (Sitologiya va genetika asoslari) darsligini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Uzluksiz ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biri ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion muhitni yaratish sanaladi. Buning uchun o‘qituvchidan ko‘p qirrali izlanisn va amaliy faoliyat talab etiladi.

Pedagogika kompetensiya deganda o‘z-o‘zini tarbiyalash va bir vaqtning o‘zida yuzaga keladigan kognitiv muammolarni mustaqil hal qilish va shaxsiy pozitsiyani aniqlash uchun yetarli bo‘lgan ta’lim darajasini tushunadi. Har bir insonning “ta’lim miqdori”ni nazorat qilish va taqqoslash uchun siz o‘quvchi o‘zlashtirgan shaxsiy resurs

ko‘rinishidagi vakolatlar ro‘yxatiga ega bo‘lishingiz kerak.

O‘rta maktabda biologiyani o‘qitishda o‘quvchilar tomonidan olingan vakolatlarning asosiy turlarini ajratib ko‘rsatamiz: qiymat-semantik, ta’lim, o‘quv, kognitiv, axborot-kommunikativ, umumiy madaniy, ijtimoiy-mehnat.

Qiymat-semantik kompetensiya doirasida o‘quvchilar qobiliyatni rivojlantiradilar:

– atrofingizdagi dunyoni ko‘rish va tushunish, unda harakat qilish (o‘zingizga va boshqalarga savollar berish: nega? nima uchun? sababi nima? bu qanday ishlaydi? uning roli va maqsadini anglash uchun va men buni qila olamanmi?, buni qanday qilish kerak?);

– tabiatdagi biologik hodisalarni ko‘rish va tushunish, ularni jismoniy hodisalardan ajratish;

– insonning amaliy faoliyatida biologik bilimlardan ilmiy foydalanish yo‘nalishini bashorat qilish.

Bunga individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish, hayot dasturlari va biologiya bilan bog‘liq kasblarni tanlash kiradi. Ta’lim faoliyatining mazmuni va jarayoniga qiymat munosabati va qiziqishi hayot haqiqatlariga, atrofdagi voqelikka doimiy murojaat qilish orqali shakllanadi. Biologiya darslarida maktab o‘quvchilari kundalik hayotda tez-tez duch keladigan hodisalar, ularning paydo bo‘lishining sabablari va mexanizmlarini bilmasdan ko‘rib chiqiladi. Bu allaqachon tanish bo‘lgan narsalarga yangi nuqtayi nazarni shakllantiradi.

Ta’lim kompetensiyasi. Biologiya darslarida talabalar har qanday nuqtayi nazarni oqilona himoya qilib, bir xil muammoni turli tomonlardan ko‘rib chiqishni o‘rganadilar. Loyihalar va ilmiy ishlarni tayyorlash mustaqil ravishda tadqiqot maqsadlarini belgilash, vazifalarni aniqlash va natijaga erishish uchun bosqichma-bosqich harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Talabalarning o‘z-o‘zini tashxislash va introspektsiyani amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyati biologiyani o‘rganish davomida shakllanadi.

O‘quv kompetensiyasi. Ish jarayonida talabalar murakkab muammolarni ularni farqlash orqali hal qiladilar, kuzatiladigan narsalar to‘g‘risida umumlashtiradilar va xulosalar chiqaradilar hodisalar yoki jarayonlar. Amaliy va laboratoriya ishlarida, individual tadqiqotlar olib borishda talabalar ishning asosiy bosqichlarini aniqlash, ishni bajarish uchun algoritm tuzish va vaziyatga qarab algoritmni sozlash yoki o‘zgartirish qobiliyatini rivojlantiradilar. Talabalar qo‘shimcha adabiyotlar bilan ko‘p va faol ishlashadi. O‘quv materiallarining ko‘p sonli turlari tomonidan taqdim etilgan katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish doimiy ravishda amalga oshiriladi.

Kognitiv kompetensiya. Biologiya darslarida talabalar kuzatish, tajriba kabi dunyoni o‘rganishning eng oddiy usullarini o‘zlashtiradilar, tirik organizmlarda sodir bo‘ladigan ba’zi jarayonlarni (masalan, fotosintez, hujayra organoidlarining harakati va boshqalar) modellashtiradilar, ijodiy muammolarni hal qiladilar va yangi nostandart yechimlarni taklif qiladilar.

Axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi shakllantirishni nazarda tutadi:

– guruhda ishlash ko‘nikmalari;

– jamoadagi turli xil ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish intellektual, o‘yin, tadqiqot faoliyati;

– kiritilgan maxsus biologik atamalardan foydalangan holda o‘z fikrlarini mantiqiy va barkamol shakllantirish qobiliyati har bir darsda aylanma;

– o‘rganilgan narsalar bo‘yicha rejalar va qo‘llab-quvvatlovchi eslatmalarni tuzish qobiliyati material uchun.

Umumiy madaniy kompetensiya:

– biologiya fanining inson hayotidagi o‘rni, uning dunyoga ta’siri to‘g‘risida xabardorlik;

– biologiya fanining bilim va tajribasini o‘zlashtirish inson va insoniyat hayotining ajralmas qismi;

– kundalik, madaniy, bo‘sh vaqt sohalarida biologiyaning rolini anglash;

– o‘quvchilarda dunyoning ilmiy manzarasini shakllantirish madaniy va umuminsoniy tushuncha.

Ijtimoiy-mehnat kompetensiyasi:

– maktab o‘quvchilarida ijtimoiy faollik va funktsional savodxonlikni shakllantirish;

– ijtimoiy va mehnat sohasida, kasbiy o‘zini o‘zi belgilash sohasida bilim va tajribani o‘zlashtirish;

– mehnat bozoridagi vaziyatni tahlil qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlari axloqini o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Shunday qilib, universal kompetensiyalarning shakllanishi o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida sodir bo‘ladi, bunda biz asosiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun poydevor qo‘yib, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirishga intilamiz.

Zamonaviy ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv zamonaviy jamiyatda sodir bo‘layotgan transformatsion jarayonlarga, bilim va texnologiyalarning o‘zgarishi sur'atlarining o‘sishiga, jahon iqtisodiyotining globallashuviga javobdir. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish mahalliy ta’lim tizimining jahon ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, bu talabalarning akademik almashinuvi dasturlarini amalga oshirish uchun sharoit yaratadi, ularning o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘zini o‘zi anglash, kasbiy tajriba orttirish va hayotda o‘z o‘rnini topishni osonlashtiradi.

Biologiya darslarida innovatsion usul va texnologiyalarni muntazam ravishda qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirishga, talabalarning asosiy vakolatlarini shakllantirishga hissa qo‘shishdan iborat.

Asosiy va to‘liq umumiy o‘rta ta’limning davlat standarti shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar asosida o‘quv jarayonini qurishni talab qiladi. Ta’limga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchilarning akademik, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-psixologik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlaydi, faoliyat o‘quvchining ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga, olingan bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashga qaratilgan va kompetensiya asosiy, umumiy fan va fan kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, aksariyat mualliflarning e'tibori insonning turli sohalarda muvaffaqiyatli hayoti va samarali faoliyati uchun zarur bo‘lgan eng muhim, eng yaxlit, muhim kompetensiyalarini shakllantirish masalasiga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda zamonaviy maktabga nafaqat ko‘p narsani biladigan, balki bilimlarni hayot vositasi sifatida ishlatadigan yuqori ma’lumotli, ijtimoiy faol, ijodiy, raqobatbardosh shaxsni shakllantirish talablari qo‘yilgan; nafaqat buyruqlarni bajaradi, balki yangi g‘oyalarni yaratadi, nostandart qarorlar qabul qiladi, tanqidiy fikrlashni biladi, kommunikativ qobiliyatlarga ega, o‘z salohiyatidan foydalanadi o‘z-o‘zini anglash uchun u hayotga tegishli bo‘lib, yangi ming yillikning chaqirig‘iga ishonch bilan javob beradi.

Bugungi kunda har qachongidan ham ko‘proq, maktab ongli odamni tarbiyalash muammosiga duch kelmoqda, bu unga har qanday hayotiy va ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarish, o‘z hayotining yaratuvchisi bo‘lish va zamonaviy jamiyatga faol qo‘shilish imkoniyatini beradigan, yetarlicha shakllangan vakolatlarga ega.

O‘quvchilarning vakolatlarini shakllantirishda yuqori darajadagi samaradorlikka o‘quv jarayonini tashkil etishning turli shakllari va usullarini qo‘llash orqali erishiladi.

Shu bilan birga, o‘quvchilar faoliyatining faol shakllarini ta’minlaydigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol o‘qitish usullariga ustuvor ahamiyat beriladi. Zamonaviy texnologiyalar maktab o‘quvchilarini bilimlarning ijodiy jarayoniga jalb qilish, muammolarni o‘rganish, o‘z fikrlarini shakllantirish, qaror qabul qilish va o‘zini o‘zi anglashga imkon beradi. Ushbu texnologiyalardan biri tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodologiyasini o‘z ichiga oladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodologiyasi o‘quvchilarga o‘z ongida turli nuqtayi nazarlarni muvozanatlash imkonini beradi; taklif etilayotgan g‘oyalarni shubha ostiga qo‘yish; treningda faol va interaktiv jarayonni birlashtirish; turli nuqtayi nazarlarga asoslangan dalillar tizimini modellashtirish; kerakli ma’lumotlarni toping va mustaqil qaror qabul qilishda foydalaning.

Shunday qilib, bu tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodologiyasi bo‘lib, u o‘quv jarayonining samaradorligini maksimal darajada oshirishga imkon beradi, barcha talabalar faol, ijodiy o‘quv faoliyati, o‘z-o‘zini o‘rganish jarayoni, o‘zini o‘zi anglash, muloqot qilishni, hamkorlik qilishni, tanqidiy fikrlashni, o‘z pozitsiyasini himoya qilishni o‘rganadigan sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, tanqidiy fikrlash metodologiyasi katta salohiyatga ega, uni amalga oshirish talabalarning asosiy vakolatlarini shakllantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratadi. Aynan shu vazifa har bir o‘qituvchining ishida eng mas'uliyatli vazifadir, chunki u talabalarning hayotiy ko‘nikmalariga, ularning hayotga moslashishiga va nihoyat ularning taqdiriga tegishli.

Biologiya darslarida bir qator asosiy vakolatlarni shakllantirish usullaridan biri bu yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishdir. Bularga biologiya bo‘yicha o‘quv dasturlari, repetitorlik dasturlari, virtual laboratoriya va amaliy ishlar dasturlari, video parchalar kiradi. Amaliy dasturlardan foydalanish zamonaviy biologiya darsini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga imkon beradi, yangi materialni o‘qitish an'anaviyligi tufayli o‘quvchilarni faol bilim faoliyatiga jalb qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish uchun qo‘llaniladigan o‘qitish usullarining umumiy xususiyati bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash usullarining ustunligi, talabalarning mustaqilligining yuqori darajasi bo‘lib, bu qisman qidiruv va tadqiqot usullarida amalga oshiriladi. O‘qitishning amaliy usullariga, ya’ni eksperimentlar o‘tkazish, turli xil mustaqil ishlarni bajarish, kuzatish, mustaqil ravishda ma’lumot olish va qayta ishlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga ega bo‘lish qobiliyatiga ustuvor ahamiyat beriladi. Shuningdek, o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyat va muammolarni hal qilish qobiliyatini egallashi bilan bog‘liq bo‘lgan interfaol va muammoli usullarning muhim rolini ta’kidlash kerak. Aynan shu o‘qitish usullari asosida biologiya darslarida maxsus vakolatlar shakllantiriladi.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. Жалилова В.А. Компетентностный подход в обучении и воспитании [Текст] // Педагогика: традиции и инновации: материалы VI Междунар. науч. конф. (г. Челябинск, февраль 2015 г.). — Челябинск: Два комсомольца, 2015. — С. 132-135.

2. Маскин В.В., Меркулова Т.К., Петренко А.А. Алгоритм перехода образовательного учреждения к компетентностному подходу: Практическое пособие / под ред. В.В.Маскина. – М.: АРКТИ, 2006. – С. 64.

3. Сергеев И.С., Блинов В.И. Как реализовать компетентностный подход на уроке и во внеурочной деятельности: практическое пособие. – М.: АРКТИ, 2007. – С. 132.

Adham RAJABOV,
Qarshi davlat universiteti v.b dotsenti, PhD

TALABALAR NAZARIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA INTEGRATIV AMALIY MASHG'ULOTLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Pedagogik nazariy-metodik faoliyatga tayyorlash jarayonida integrativ yondashuv negizida kasbiy faoliyatga tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirish bilan birgalikda ilmiy-metodik jihatdan asoslangan mukammal ta'lim mazmunini ishlab chiqish va rivojlantirishga imkoniyat yaratiladi. Shuningdek, har bir talabani o'z oldiga mustaqil ravishda jiddiy maqsadlarni qo'yishi va ularga erishishi, turli xil nazariy-metodik vaziyatlarga mohirona javob berishi uchun tayyorlashi kerak.

Kalit so'zlar. Nazariy-metodik, nazariy-metodik tayyorgarlik, integrativ yondashuv, integratsiya, integrativ kurslar, integrativ tamoyillar, integrativ amaliy mashg'ulot, talaba, ijodiy ishlar, evristik suhbat, masala, o'qituvchi.

В процессе подготовки к педагогической теоретико-методической деятельности на основе интегративного подхода в сочетании с формированием навыков подготовки к профессиональной деятельности создается возможность разработки и освоения научно-методически обоснованного содержания совершенствования образования. Он также должен подготовить каждого ученика к тому, чтобы он мог самостоятельно ставить перед собой серьезные цели и достигать их, умело реагировать на различные теоретико-методические ситуации.

Ключевые слова. Теоретико-методическая, теоретико-методическая подготовка, интегративный подход, интеграция, интегративные курсы, интегративные принципы, интегративное практическое обучение, студент, творческая работа, эвристическая беседа, задача, учитель.

In the process of preparing for pedagogical theoretical and methodological activities, on the basis of an integrative approach, together with the formation of skills for preparing for professional activities, an opportunity is created to develop and develop the content of excellent education, which is scientifically and methodically based. It should also prepare each student so that he can independently set serious goals for himself and achieve them, skillfully respond to various theoretical and methodological situations.

Key words. Theoretical-methodological, theoretical-methodological preparation, integrative approach, integration, integrative courses, integrative principles, integrative practical training, student, creative work, heuristic conversation, masala, teacher.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchilarni nazariy-metodik tayyorlash sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri – bu fanlararo aloqadorlikda amalga oshiriladigan umumta'lim va maxsus fanlarning tizimli birligi hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilayotgan bir qator tadqiqotlarda ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan yondashuv zaruriyati qayd etilmoqda.

Ma'lumki, integratsiyalashgan ma'ruza mashg'ulotlarida ilmiy bilimlar asoslari tushuntirilsa, integrativ amaliy mashg'ulotlarda talabalar tomonidan olingan kompleks bilimlar mustahkamlanadi. Shu sababli ham integrativ amaliy darslar talabalarning

umumiy ta’lim maqsadlariga erishishdagi harakatlarida muhim o‘rin tutadi. Elementar tushunchalar integrativ - yaxlit tushunchalarga aylanadi. Bu esa bilimlarni yangi, kutilmagan vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar oshiriladi.

Integrativ amaliy mashg‘ulotlar o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan umumiy nuqtalarni topishga qaratilgan. Asosiy e’tibor ularning farqlariga emas, balki o‘xshashliklariga qaratiladi. Aloqadorlikni aniqlash, bog‘lash qiyin bo‘lgan muammolar orasidagi yaxlitlikni ko‘rsata olish talabalarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchi buni qanday qilishni o‘rganishi juda muhim, chunki antinomiya (o‘zaro istisno hodisalar orasidagi aloqalarni ko‘rish qobiliyati) u tayyorlanayotgan pedagogik faoliyatning zarur atributidir. Pedagogning nazariy-metodik faoliyati boshqa faoliyat turlari singari, yaxlit va bo‘linmasdir. Talabalarni nazariy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda integrativ amaliy mashg‘ulotlarda foydalaniladigan metodik vositalarni bir nechta guruhga ajratib ko‘rsatamiz.

Birinchi guruhda biz integrativ savollarni, integrativ vazifalarni va integrativ vaziyatlarni ajratib ko‘rsatamiz.

Integrativ muammoli vaziyat – bu integrativ bilimlar yordamida yangi faktni tushuntirib bera olmaganda yuzaga keladigan aqliy qiyinchilikning ruhiy holati. Bilamizki, har qanday muammoli vaziyat yaxlit namoyon bo‘ladi. Bu muammoli o‘rganishning integrativ tabiati bilan izohlanadi. Har bir vaziyat ma’lum bir qarama-qarshilikning mahsuli bo‘lib, uni hal qilishni talab qiladi, buni sintetik faollikning zaruriy minimumisiz bajarish mumkin emas. Shuning uchun integrativ vaziyatlar muammoli holatlar bilan bir xil turdagi shartlar bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, shakllangan faoliyatga taqlid qiluvchi aniq integrativ vaziyatlarni – muammoli modelni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Integrativ amaliy mashg‘ulotlarda:

– talabalarni qarama-qarshi hodisalar va ular o‘rtasida umumiy aloqa nuqtalarini topishga undash;

– talabalarga pedagogik va ishlab chiqarish jarayonlari, pedagogik va texnik bilimlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni topishga o‘rgatish;

– har xil tabiatdagi jarayonlar uchun dialektika qonunlarining umumiyligi, shuningdek, bilim va hodisalarning sintezi asosida nazariy tushunchalarni modellashtirishga o‘rgatib borish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Talabalarni nazariy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda biz boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi metodik fanlaridan fan dasturi mazmuniga singdirilgan mavzularni integrativ darslarni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan foydalangan holda tashkil etishga harakat qildik. Mazkur vositalar quyidagilarda o‘z ifodasini topadi. Jumladan, talabalarning nazariy metodik tayyorgarligini rivojlantiruvchi metodlar: ijodiy ishlar, matematikada badiiy topishmoqlar, mikro mashg‘ulotlar, evristik suhbatlar hamda talabalarning nazariy metodik tayyorgarligini rivojlantiruvchi texnologiyalar: keys-stadi, muammoli ta’lim texnologiyasi, portfolio, immitatsion o‘yinlar texnologiyasi kabilarga ajratiladi.

Ushbu keltirilganlar asosida integrativ amaliy mashg‘ulotlarning samarali vositalarini tavsifiga to‘htalib o‘tamiz. Evristik suhbatlar – muammoli ta’limning o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblanib, bu o‘qitishning savol-javob usuli. Evristik suhbat tayyor ta’lim axboroti emas, yangi tushunchalarni kashf etishga qaratilganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, evristik suhbat – bu talabalarga muammolarni tez va samarali hal qilishga imkon beradigan kognitiv savollar majmuidir. Bunday suhbat talabalarga o‘zlarining keyingi

nazariy-metodik faoliyatlari yo‘nalishi haqida o‘ylashdan to‘xtamasdan ishlashga imkon beradi. Ya’ni, evristik suhbat o‘rganilayotgan fan obyektlarining ilgari noma’lum aspektlarini ochib beradigan inson tafakkurining rivojlanishiga qaratilishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, evristik suhbat ijodiy faoliyat motivi bilan aniqlanadi. O‘quv jarayonining intellektual vazifalari, hazil masalalari va matematik jumboqlardan foydalanmasdan talabalarning nazariy-metodik qobiliyatlarini samarali rivojlanishi mumkin emas. Masalan, “Matematika o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitish jarayonida masalalarga yechim topishni qulaylashtirish uchun o‘qituvchilar tomonidan evristik sxemalar, strategiyalar va suhbatlar tashkil etishi maqsadga muvofiq.

Mikro mashg‘ulotlar – talabalarni nazariy-metodik tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirishda amaliy mashg‘ulotlarda “mikro dars” tashkil qilib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda talaba bilvosita amaliyotga tayyorlana boshlaydi.

Talabalar mikro darsga tayyorlanish jarayonida uchta nazariy-metodik komponentni o‘zida jamlashga o‘rganadi:

1) boshqariladigan obyektni dinamik modellashtirish;

2) reja tarkibiga kiradigan mantiqiy amallar;

3) ilgari uchramagan murakkab yechimlarga olib keladigan psixologik jarayon.

Integrativ amaliy dars natijasida o‘qituvchi va talaba faoliyati uchun zamonaviy texnologiyalarni tadqiq etish va qo‘llash zarur. Chunki bu o‘quvchining nazariy va uslubiy faoliyatda o‘z bilim va ko‘nikmalarini qanday namoyon etishiga bog‘liq bo‘lgan shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish uchun juda ham juda muhimdir.

Talabalarni nazariy-amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda mustaqil topshiriqlar muhim bo‘lib, uni turli usulda taklif etish maqsadga muvofiq. Chunki, mustaqil vazifalarni bajarish jarayonida talabalarning o‘quv hamda axloqiy-irodaviy sifatlari o‘zaro bog‘liq holda harakatga keladi.

Xulosa qilib aytganda, integrativ amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda samarali metod va vositalaridan foydalanish orqali talabalarning ushbu fanni bilishga oid mustaqil faolligi ortadi, o‘quv faoliyati davomida taklif etilgan integrativ xarakterdagi masalalarning yechimini mustaqil ravishda topish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakasi oshadi. Integrativ amaliy mashg‘ulotlar talabalarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish; artof-borliq haqidaga o‘z ilmiy tasavvurlarini artoflicha anglaydi va talqin qilishga, mushohada yuritishga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амосова П.В. Методико-математическая подготовка студентов педагогических факультетов к развитию творческой личности школьника при обучении математике: Дисс... док.пед.наук., Астрахань, 1999. – С. 410.

2. Mavlonova R.A. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo‘llanma. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, 2005. http://library.ziyonet.uz/ru/book/33810.

3. Muslimov N. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini nazariy-metodik shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.fan.dokt. ... darajasini olish uchun dissertatsiya. – T., 2007. – 337 b.

4. Ибрагимов Г.И. Формы организации обучения в педагогике и школе: учебное пособие / Г. И. Ибрагимов. Самара: Изд-во Института сферы соц. отношений Рос. акад. образования, 1994. – С. 227.

Muxiba YAXIYAXONOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o‘qitvchisi

1-SINF O‘QUVCHILARIDA “INFORMATIKA VA AT” FANIDAN IJODIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI (Intellekt xarita misolida)

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga “Informatika va AT” fanini o‘qitish davomida “Intellekt xarita”lardan foydalanib dars o‘tish tasavvur va ijodiy fikrlash qobilyatini rivojlantirishning samarali usullaridan biri ekanligi haqida ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada “Biz olamni qanday qabul qilamiz” nomli intellekt xarita ham keltirilgan bo‘lib, u o‘quvchilarning “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularda yangi g‘oyalar tug‘ilishi, diqqatlarini jamlash, muammoning asl mag‘zini aniqlab olish va verbal ma’lumotlarni vizual ko‘rinishda ifodalash imkonini berishi haqidagi ma’lumotlar yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Informatika va AT, tasavvur, fikrlash, mantiqiy fikrlash, ijodiy fikrlash, verbal ma’lumotlar, vizuallashtirish, intellekt xarita.

В статье показано, что проведение урока с использованием “интеллект-карт” при обучении младших школьников информатике и ИТ является одним из эффективных способов развития воображения и творческого мышления. В статье также представлена интеллектуальная карта под названием “как мы воспринимаем вселенную“, которая позволяет учащимся развивать навыки “ творческого мышления”, рождать у них новые идеи, концентрироваться, определять истинный смысл проблемы и визуально выражать вербальную информацию.

Ключевые слова. Информатика и ИТ, мышление, воображение, логическое мышление, творческое мышление, вербальные данные, визуализация, интеллект карта.

The article points out that taking classes using “intelligence maps” during the teaching of “Informatics and AT” to elementary school students is one of the effective ways to develop imagination and creative thinking skills. The article also covers an intelligence map, “How we perceive the universe”, that allows students to develop their “creative thinking” skills, give birth to new ideas, concentrate, identify the original core of the problem, and visually represent verbal information.

Key words. Informatics and IT, thinking, imagination, logical thinking, creative thinking, verbal data, visualization, Intelligence Map.

Ma’lumki, har bir mamlakat iqtisodiyotining yuksalishi, rivojlanishi o‘sha mamlakat ta’lim tizimining rivojlanganligiga bog‘liqdir. Hozirda yangilanayotgan jamiyat uchun hamda erkinlashayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar uchun, avvalo, shu sifatlarga mos tarzda faoliyat ko‘rsatishga qodir ta’lim tizimi zarur. Shuning uchun ham ta’lim tizimiga O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yo‘nalish sifatida yondashiladi. Ta’lim olish jarayonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalalaridan biri ekanligini e’tirof etishimiz lozim. Ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilish, 1-sinfdanoq o‘quvchilarga integratsiyalashgan ta’lim jarayonlari amalga oshirilayotganligini ta’klidlab o‘tishimiz lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev “O‘quvchilar bilimini baholashda o‘quvchining dunyoqarashi, mantiqiy va ijodiy fikrlashi, berilgan masala bo‘yicha o‘quv dasturi bilan cheklangan qoidalardan tashqari, nostandart yechimlar berishini ham inobatga olish zarur” deb ta’kidlab o‘tdi.

Kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarning tasavvurlarini rivojlantirishning eng samarali usullari turli o‘yinlar o‘ynash, ovozli ma’lumotlar(musiqa) eshitish, rasm chizish, buyash hisoblanadi. Shu sababli bu yoshdagi o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shaklantirishda multimedia vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki bu davrda tasavvur asosan bolalar rasm chiayotganlarida, ertak, hikoyalar eshitayotganlarida, qiziqarli multifilm va videodarslar ko‘rayotganlarida rivojlanadi.

‘‘O‘quvchilarga “ijodiy fikrlashni” o‘rgatish ularning “tasavvurini” rivojlantirishdan boshlanadi. Hech qanday ijodiy mahsulot tasavvursiz bo‘la olmaydi‘‘, degan edi L.S. Vigotskiy.

1-sinf o‘quvchilari “Informatika va AT” fanining dastlabki bilimlarni olayotganda hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan ma’lumotlar oqimiga duch keladi. Ushbu fanni o‘rganish davrida har bir o‘quvchida atrofimizdagi olam haqida ma’lum bir tasavvur paydo bo‘ladi. Bu esa o‘z o‘rnida 1-sinf o‘quvchilari uchun tasavvur va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishi asosiy omillardan biri ekanligini isbotlaydi.

Shu o‘rinda ijod, fikrlash, tasavvur va ijodiy fikrlash haqida to‘xtalib o‘tamiz:

Ijod – fikrlashning mahsuli, bu oldin egallangan bilimlarga tayanib yangiliklar yaratish, kashf etish. Bundan oldin mavjud bo‘lmagan biror narsani bunyod qilishdir.

Fikrlash – insonning borliqni tushunishga yo‘nalgan g‘oyalar harakati bo‘lib, uning natijasida yangi g‘oyalar vujudga keladi.

Tasavvur – inson ruhiyatining idrok, fikrlash va xotiralar o‘rtasidagi holatda bo‘lgan, boshqa ruhiy jarayonlardan farq qiladigan, maxsus ko‘rinishidir. Tasavvur ko‘rgazmali-obrazli fikrlashning asosi bo‘lib, insonga amaliy faoliyatsiz ham muammoni yechishga imkon beradi. Uning idrokdan farqi qaralayotgan obrazlar har doim ham real obrazlar bilan mos kelmay, fantaziya elementlari ham bo‘lishidadir.

Ijodiy fikrlash – muammoning yechimini topish, yangi narsani yaratish maqsadidagi fikrlashdir. Dj. Gilfordning fikricha, ijodiy fikrlash uchun yangilikni ko‘ra bilish va idrokning moslashuvchanligi muhimdir.

O‘quvchilarni har qanday vaziyatda ham voqeaning ijodiy tomonlarini topishga o‘rgatish lozim. Ular ba’zan aniq, ba’zan esa ongostida yashirin bo‘ladi.

Abraxam Maslounning fikriga ko‘ra, ijodkorlik barcha bolalarga xos xususiyat, lekin ko‘pchilik uni tashqi muhit ta’sirida yo‘qotadi.

Inson miyasi vizual ma’lumotlarni verbal ma’lumotlarga qaraganda oltmish ming marta tez qayta ishlaydi. Shu bilan birga ular bolalar xotirasida yaxshi qabul qilinib uzoq vaqt saqlanadi. Demak, bolalar ma’lumotlarni yaxshi idrok qilishlari uchun ularni vizuallashtirish lozim. Buni esa kompyuter yordamida amalga oshirish mumkin.

Vizuallashtirish 1-sinf o‘quvchilarga ma’lumotni to‘g‘ri tashkil etish va tahlil qilishga yordam beradi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, o‘quvchilarga yangi bilimlarni birlashtirishga yordam beradi, olingan ma’lumotlarni ma’lum bir hodisa yoki obyektning yaxlit tasviriga bog‘lashga imkon beradi. Rasmlar, ovozli ma’lumotlar, mos tushish xaritalari, taqdimotlar, videolar, o‘yinli ma’lumotlar, intilekt xaritalar katta hajmdagi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga yordam beradi, ma’lumot bloklari o‘rtasidagi munosabatlarni eslab qolish va kuzatishni osonlashtiradi.

Ta’lim jarayoni ma’lumotlarni uzatishga asoslangan, shuning uchun ko‘plab olimlar ma’lumotni vizual taqdim etishning ta’limdagi roliga e’tibor qaratishdi. Quyida ularning ayrimlarini tahlil qilamiz:

B.G. Ananiev va A. N. Leontiev tushunchalarni shakllantirish jarayonida maxsus

vizuallashtirishdan foydalanish va umumlashtirish, mavhumlashtirish, tizimlashtirish va hokazolarning ichki ideal aqliy jarayonlarini rivojlantirish o‘rtasidagi yaqin bog‘liqlik to‘g‘risidagi g‘oyalarni bildirdilar.

Nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida yosh o‘quvchilarni modellashtirish va ramziy ko‘rinishni yaratishga o‘rgatish zarurati V.V. Davydov va D.B. Elkonin tomonidan ta’kidlangan.


L.V. Zankov grafik vizuallashtirishdan foydalanishning talabalar tafakkurini rivojlantirish va ularning nazariy bilimlarni egallashiga ta’sirini, vizuallashtirish va o‘qituvchining so‘zlarini birlashtirish usullarini o‘rganib chiqdi va talabalarning aqliy faoliyatini faollashtirish uchun ulardan eng samaralilarini aniqladi.

Zorina sxematik ko‘rinishni qo‘llash va talabalar bilimlarining tizimli tabiati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berdi. N.S. Rojdestvenskiy va T.G. Ramsayeva sxemalar, jadvallardan keng foydalanish, til materialini shrift, rang, maxsus piktogrammalar bilan ajratib ko‘rsatish ta’limning barcha bosqichlarida va ayniqsa, umumlashtirishda katta ahamiyatga ega ekanligini o‘rganishdi.


Demak, ma’lumotlarni vizuallashtirish o‘quvchilar ijodiy fikrlash ko‘nikmalarining sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keladi. Tabiiy fanni o‘qitish davomida amaliy ishlarni bajarish ham o‘quvchilar ijodiy fikrlash ko‘nikmalarining yaxshilanishiga yordam beradi. Shuningdek, tabiatdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurini boyitish, atrofdagi o’simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirishda ham ma’lumotlarni vizuallashtirish o‘quvchilarning “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Intellekt xarita muammoning to‘la tasvirini ko‘rsatishi va ma’lumotlarni xotirada saqlashning sermahsul vizual usuli bo‘lishi bilan birga o‘quvchilarning “tasavvur” qilish va “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir.

Biz quyida “Biz olamni qanday anglaymiz” nomli intellekt xaritamizni taqdim etamiz. Bu xaritani “Mindomo” intellekt xarita yaratish dasturida tayyorladik. Xaritada dastlab muammo o‘rtaga tashlanadi. Muammo bosqichma-bosqich o‘quvchiga ochib beriladi.



Eng so‘ngida muammo bir necha tasvirlar orqali ochib beriladi, natijada o‘quvchi bu tasvirlarni ko‘rib olam haqida tasavvur qilib fikr yuritadi. Bu esa ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirib idrok etishga yordam beradi.



Intellekt xaritani tuzish o‘quvchilarning “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularda yangi g‘oyalar tug‘ilishi, diqqatlarini jamlash muammoning asl mag‘zini aniqlab olish va verbal ma’lumotlarni vizual ko‘rinishda ifodalash imkonini beradi. Natijada “mantiqiy” va “ijodiy fikrlash” jarayonlarining umumlashuvi, ya’ni “to‘la fikrlash” jarayoni vujudga keladi. Boshqacha aytganda, “mantiqiy fikrlash” uchun mas’ul bosh miya chap yarim shari va “ijodiy fikrlash” uchun mas’ul bo‘lgan bosh miya o‘ng yarim sharlarining birgalikdagi faollashishi ro‘y beradi.

Sloveniyada o‘tkazilgan tajribalarda intellekt xaritadan foydalanilganda o‘quvchilarning yuqori o‘zlashtirishiga erishilgan. Demak, intellekt xaritadan o‘quvchi miyasiining imkoniyatlarini oshirishda foydalanish mumkin. Intellekt xaritadan kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarning rivojlanganligini baholashni yaxshilashda ham foydalanish mumkin.

Kelgusida 1-sinflarda “Informatika va AT” fanini o‘rganishda animatsion “intellekt xarita”lardan foydalanish nazarda tutilgan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, 1-sinf o‘quchilarining bosh miyalarining yarim sharlari mutaxassisliklarga ajralgan va ularning “tasavvur” qilish qobiliyatlarini ta’lim jarayonida rivojlantirish mumkin. Bu ularning “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam beradi.

“Ijodiy fikrlash”ni shakllantirishda “intellekt xarita”dan foydalanish mumkin. “Intellekt xarita” verbal ma’lumotlarni vizual m’lumotlarga aylantirishga yordam beradi. Intellekt xarita elementlarini o‘rganish bir tomondan tasavvurning rivojlanishiga yordam bersa, ikkinchi tomondan kompyuter va “raqamli axborot” elementlari bilan tanishuvlari tegishli ko‘nikmalari shakllanishiga yordam beradi. “Intellekt xarita” o‘quvchiga 1-sinf “Informatika va AT” fani tarkibidagi “Biz olamni qanday anglaymiz?” bobini kompleks o‘rganish imkonini beradi. Garchi undagi elementlarning javobi aniq bo‘lsa-da, o‘quvchi uni o‘z tushunchalari, tasavvuri yordamida talqin qiladi. Bu uni tasavvur qilishga, to‘la fikrlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘aniyev A.G. O‘quvchilarda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish. Kasb-hunar ta’limi, – №2, 2012 y.

2. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте, 1997 г.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, – 2020 y.

4. Немов Р. С. Психоогия. Книга1, Глава 10, Воображение. – М.: ВЛАДОС 2006 г. – С.260-261

Sh.Z. RAXMATULLAYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti,
filologiya fanlari falsafa doktori

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUV TOPSHIRIQLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quv topshiriqlaridan foydalanish, ularning tasnifi va tavsifiga doir fikr-mulohazalar, o‘quv topshiriqlarining berilishi, turlari, vazifasini tahliliy o‘rganish hamda o‘quv topshiriqlari nazariyasidagi o‘zgarishlar, yangi yondashuvlarga munosabat bildirish, darsliklarda keltirilgan o‘quv topshiriqlarning yutuq va kamchiliklari haqida yondashuvlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta‘lim, ona tili, mashq, topshiriq, savol, o‘quv topshiriqlarining turlari, yangi avlod darsliklari, matn, lug‘at, ko‘nikma, malaka, bilim, xalqaro tajriba.

В статье изложены подходы к использованию учебных заданий в начальных классах, их классификация и описание, предоставление учебных заданий, виды, аналитическое изучение задачи и изменения в теории учебных заданий, реакция на новые подходы, достижения и недостатки учебных заданий, представленных в учебниках.

Ключевые слова. Начальное образование, родной язык, упражнение, задание, вопрос, виды учебных заданий, учебники нового поколения, текст, словарный запас, навыки, компетенции, знания, международный опыт.

The article describes approaches to the use of educational tasks in primary classes, reviews of their classification and description, analytical study of forms, types, tasks and changes in the theory of educational tasks, reaction to new approaches, achievements and shortcomings of educational tasks from textbooks.

Key words. Primary education, native language, exercise, task, question, types of educational tasks, textbooks of the new generation, text, vocabulary, skills, competencies, knowledge, international experience

Bugungi kunda pedagogika sohasida o‘quv topshiriqlari nazariyasi bo‘yicha keng miqyosdaga tadqiqotlar olib borilmoqda. Olimlar o‘quv topshiriqlarining terminologiyasi, funksiyalari, tuzilishi, turli tasniflari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadilar. O‘quv topshiriqlari muammosi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ushbu tushunchaning yagona ta‘rifi mavjud emasligini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar ushbu didaktik toifani turli yo‘llar bilan izohlaydilar, ko‘pincha “topshiriq”, “mashq”, “savol” atamalarini bir-birining o‘rnida ishlatadilar, bu esa ularni erkin qo‘llash va ma‘nosini tushunishni qiyinlashtiradi[1].

Umumiy ma‘noda ‘‘topshiriq’’ atamasi subyektga biron bir harakatni amalga oshirishni yoki biron bir natijani olishni talab qiladigan topshiriqni anglatadi[2].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mashq atamasiga shunday ta‘rif berilgan: “mashq 1. Arabcha –husnixat, rasm chizish uchun namunalar biror faoliyatni puxta o‘rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish, tayyorgarlik mashg‘uloti: harbiy mashq,

[1] Жданова Е.А. Особенности разработки многоцелевых учебных заданий в процессе формирования универсальных учебных действий у младших школьников // Герценовские чтения. Начальное образование. – 2019. Т., 10.- 2019.- № 1. – С. 30-35.

[2] Закирова С.К. Учебное задание как дидактическое средство проблемного обучения: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. – М., 2007. – С. 23.

mashq qilmoq. ‘‘Siddiqjon ko‘kragini sandalga berib, xat mashq qilar, kanizak uning ro‘parasida kitob o‘qib o‘tirar edi’’. A. Qahhor, ‘‘Qo‘shchinor chiroqlari’’, – ‘‘Ish yomon, – dedi kelgan militsionerlar, – ko‘p mashq ko‘rmagan, hali miltiq otishni bilmaydigan militsionerlar, qo‘lidan nima kelar edi’’. (S. Ayniy, Qullar).

Ma‘lum maqsadda bajariladigan, qilinadigan muayyan ish, harakat: imloga doir mashqlar, jismoniy mashqlar. ‘‘Bolalar bir-birlarining qo‘llarini ushlab, gimnastika mashqlarini yengil va chiroyli bajaradilar’’. (Gazetadan.[3]).

“Pedagogika ensiklopediyasi”da mashqqa berilgan ta‘rifning ancha takomillashgan va ta‘lim sohasiga moslashtirilgan shaklini ko‘rish mumkin:

Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o‘zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko‘p marta takrorlash. Masalan, o‘qish, yozish mashqi – ta‘limda ko‘nikma va malakalar hosil qilishda muhim o‘rin tutadigan jarayon[4].

Topshiriq atamasiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta‘rif berilgan: Topshiriq: 1. Kimsaning zimmasiga yuklatiladigan ish, vazifa: hukumat topshirig‘i, topshiriq bermoq. “Tergovchi ham xit bo‘ldi. Axir, u bu yerga o‘ynagani kelmagan-ku. Maxsus topshiriq bilan oqni oqqa, qorani qoraga ajratgani kelgan”[5].

Bu borada G‘. Hamroyevning yondashuvlari ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Har bir atama o‘z mazmun-mohiyatiga ega, ya‘ni mashq muayyan harakatni, bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg‘ulotdan ko‘zlangan ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni nazarda tutsa, topshiriq kishining, jumladan, o‘quvchining zimmasiga biror mazvuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi.

Demak, mashq – ko‘nikma yoki malaka hosil qilish vositasi. Topshiriq esa ma‘lumotlarni xotiraga kirituvchi qurilmaga o‘xshaydi. U yo‘naltiruvchi xususiyatga ega. Topshiriq orqali o‘quvchini fikrlashga, mustaqil ishlashga o‘rgatish mumkin. Zero, mashqlar ham, topshiriqlar ham “ona tili” darsliklarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariy ma‘lumotlar, ya‘ni grammatik qoidalar o‘quvchida belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Ta‘lim mazmunida o‘quvchi egallashi ko‘zda tutilgan ko‘nikma va malakani, asosan, mashqlar shakllantiradi. Topshiriqlar bu o‘rinda ko‘proq o‘quvchi bilimini boyitishga xizmat qiladi[6].

Maktabda, odatda, muayyan o‘quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so‘ng ham o‘quvchi va o‘qituvchining shu o‘quv predmeti bo‘yicha bilim berish hamda ma‘lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darslikdagi o‘quv materiallarining tarkibi, tuzilishi va, albatta, mazmuniga qaratish kerak. Ko‘pchilik tadqiqotchilar o‘quv topshirig‘ini didaktik tushuncha sifatida o‘qituvchining o‘quvchilarga ko‘rsatma berish turi sifatida belgilashadi, unda o‘quv mazmunini o‘zlashtirish uchun har qanday o‘quv harakatlarini bajarish talabi nazarda tutiladi[7].

O‘quv topshiriqlari nazariyasini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shgan A. Uman o‘quv topshirig‘ini ta‘lim mazmuni prizmasi orqali ko‘rib chiqdi. Tadqiqotchi o‘quv topshirig‘ini

[3] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 2-jild. –T.: O‘zME, 2004. – 562 b.

[4] Pedagogika Ensiklopediyasi. 2-jild. –T.: J – M., 2012. – 223 b.

[5] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 4-jild.–T.: O‘zME, 2004, – 150 b.

[6] Hamroev G‘.H. Mashqlarning ko‘nikma hamda malaka hosil qilishiga ko‘ra tasniflanishi // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2021. -¹4. – 231-240 b.

[7] Бимбад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. - М.: Большая Российская энциклопедия, 2008.- С. 89-90.

maxsus vosita deb ataydi, uning yordamida haqiqiy o‘quv jarayonida ta‘lim mazmuni bilan bevosita aloqada bo‘lmagan o‘qituvchi va talaba undan foydalanishi mumkin (o‘qituvchi - uzatish uchun, talaba - qabul qilish va o‘zlashtirish uchun)[8].

Demak, o‘qituvchi o‘quv mazmunini topshiriqlar qobig‘iga joylashtiradi va ularni o‘quvchilarga bajarish uchun norma sifatida taqdim etadi; o‘quvchi o‘quv mazmunini o‘zlashtirgan holda topshiriq talablarini bajaradi. Shu munosabat bilan, S.I. Pozdeyeva ta‘kidlaganidek, “o‘qituvchining topshiriqlarni, ularni bajarish namunalarini taqdim etish madaniyatini; algoritmlarni (eslatmalar, ko‘rsatmalar) bosqichma-bosqich qo‘llanma sifatida tushuntirish madaniyatini” nazarda tutadigan maxsus madaniyat muhimdir; mashqlarni bajarishni tashkil etish madaniyati (tayyorgarlik, ijro va nazorat bosqichlari), algoritm bo‘yicha o‘quv harakatlarining aniqligi va to‘g‘riligini ishlab chiqish; tashqi nazorat madaniyati va o‘quv topshiriqlarining to‘g‘riligini baholash»[9] nazarda tutiladi.

S.I. Pozdeyevaning tadqiqotlari o‘quv topshiriqlarining o‘ziga xos xususiyatlarining o‘qituvchi (avtoritar, yetakchilik, sheriklik) qo‘shma faoliyatni tashkil etishning qaysi modelini tanlashiga bog‘liqligini asoslaydi va har bir modelni amalga oshirishda o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish texnologiyasini tavsiflaydi10.

Didaktik tadqiqotlar mavzusi, shuningdek, o‘quv topshirig‘ining maqsadi, uning mohiyati, ilmiy adabiyotlarning retrospektiv tahlili shuni ko‘rsatdiki, dogmatik ta‘lim davrida o‘quv topshiriqlari ko‘pincha o‘rganilayotgan materialni yodlash, eslab qolish talabiga asoslangan. Turli xil o‘quv yurtlarida o‘quv jarayoni “o‘qish - eslab qolish – takrorlash” algoritmi yordamida amalga oshirildi.

O‘quv topshirig‘ining so‘zlarni ikki guruhga bo‘lish retsepti yosh o‘quvchilarda kognitiv mantiqiy harakatlarni, birinchi navbatda tasniflash harakatlarini shakllantirish bo‘yicha ishlarni tashkil etishga imkon beradi. Shu bilan birga, ikkinchi sinf o‘quvchilari so‘zlarni tasniflash uchun asosni mustaqil ravishda tanlash imkoniyatiga ega va yuqorida aytib o‘tilganidek, ulardan bir nechtasi bo‘lishi mumkin. Guruhda ishlayotganda o‘quvchilar so‘zlarni guruhlarga bo‘lish bilan bog‘liq farazlarni ilgari suradilar, isbotlaydilar va asoslaydilar, bu esa ikkinchi sinf o‘quvchilarida kognitiv mantiqiy harakatlarning shakllanishiga yordam beradi: sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish, mantiqiy fikrlash zanjirini qurish, farazlarni ilgari surish va ularni asoslash, dalillashda qo‘l keladi.

O‘quv topshirig‘ini talab qilish, butun sinfga so‘zlarni ikki guruhga bo‘lish variantlarini taqdim etgan holda, o‘qituvchiga yana bir kognitiv, ammo allaqachon umumta‘lim universal ta‘lim harakati – og‘zaki nutqni og‘zaki shaklda ongli ravishda va o‘zboshimchalik bilan qurish qobiliyati ustida ishlashga imkon beradi. O‘qituvchi kommunikativ topshiriqni (guruh ishining natijasini taqdim etish), adresat (barcha sinfdoshlar va o‘qituvchi) va mavzuni (so‘zlarni guruhlarga bo‘lish variantlari)ni o‘z ichiga olgan nutqiy vaziyatni yaratadi. Shu munosabat bilan bolalar og‘zaki bayonotlarni yaratish uchun haqiqiy nutq faoliyatini amalga oshiradilar. Bunday holda, har bir guruh ma‘lum bir tuzilmaning bayonotini-mulohazasini yaratadi: murojaat-tezis-dalillar bilan isbotlaydi.

K.D. Ushinskiy – boshlang‘ich ta‘lim metodologiyasining asoschisi sifatida ta’limning nazariy printsiplarini asoslab berib, shunday deb yozgan edi: “Ona tilini osongina va qiyinchiliksiz o‘rganish orqali har bir yangi avlod bir vaqtning o‘zida o‘zidan oldingi

[8] Шилова Е.С. Учебные задания развивающего характера как средство повышения эффективности обучения: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. – М., 1980. – С. 12..

[9] Поздеева С.И. Типология уроков в концепции педагогики совместной деятельности // Научно-педагогическое обозрение (Pedagogical Review). – 2016. - Вып. 3.– С. 39-40.

[10] Поздеева С.И. Типология уроков в концепции педагогики совместной деятельности // Научно-педагогическое обозрение (Pedagogical Review). - 2016. - Вып. 3.– С. 36-41.

avlodlarning fikrlari va his-tuyg‘ularini o‘zlashtiradi11”. Ushbu qonuniyatdan, birinchi navbatda, tilning boyligini – uning so‘zlarini, nutq burilishlarini, so‘z ustalari tomonidan o‘zbek tilida yaratilgan eng yaxshi asarlarning matnlarini va shu asosda – tilning tuzilishi va mexanizmlarini ramziy tizim sifatida o‘rganish zaruratini bilib oladilar. “Bola nafaqat so‘zlarni, ularning qo‘shimchalarini va so‘z o‘zgarishlarini, balki cheksiz tushunchalar to‘plami, obyektlarga qarashlarini, matn haqidagi fikrlarni, his-tuyg‘ular, badiiy tasvirlar, til mantig‘i va falsafasini oson o‘zlashtiradilar.

Jonli tilni amalda, jonli nutqda, matnlarda o‘rganish, o‘quvchilarning til qoidalarini, uning tizimini, tuzilishini oson tushunishlariga asos bo‘ladi. Bola asta-sekin til dunyosida muloqotga jalb qilinadi, keyin monologlarga o‘tadi, natijada til qonuniyatlarini eslab qoladi, tilning behisob boyliklarini to‘playdi va amalda foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Tilni o‘qitish metodikasi ba‘zan amaliy tilshunoslik deb ataladi .

Darhaqiqat, metodologiya – bu tilning xususiyatlari va qonuniyatlarini, nutqni ularni o‘zlashtirish jarayonlariga qo‘llash hisoblanadi. Masalan, tilda (tilshunos L. V. Shcherba asarlariga ko‘ra) uch mintaqa:

– nutq faoliyati (gapirish, tinglash, yozish, o‘qish);

– til materiallari-barcha aytilgan va yozilgan, eng yaxshi adabiyot namunalarida yaratilgan barcha matnlar to‘plami;

– til tizimi-uning darajalari, tuzilishi, bo‘limlari: fonetika, grafika, imlo, orfoepiya, leksika, frazeologiya, morfemika, so‘z shakllanishi, morfologiya, sintaksis, semantika, stilistika, matn sintaksisidan iboratdir.

Dars didaktik tushunchadir, ammo darsdan tashqarida darslar bo‘lmaydi: Dars adabiy o‘qish, grammatika va imlo, kompozitsiya darslarning xilma-xilligi, imlo, ya’ni metodologiya bilan ta’minlanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflar uchun yaratilayotgan o‘quv metodik materiallarning mazmuni nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilishi kerak. Bunda asosiy, tayanch vosita o‘quv topshiriqlari hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quv topshiriqlaridan, asosan, mashqlardan samarali foydalanish zarur, zero o‘quvchida nutqiy ko‘nikmalar boshlang‘ich sinfda, shu yoshda shakllanib bo‘ladi. Keyingi bosqichlarda juda kam ijobiy natijaga erishish mumkin. Boshlang‘ich ta‘limda o‘quv topshiriqlarining o‘rni va ahamiyati mislsiz darajada katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жданова Е.А. Особенности разработки многоцелевых учебных заданий в процессе формирования универсальных учебных действий у младших школьников // Герценовские чтения. Начальное образование. – 2019. Т., 10. – 2019.- № 1. – С. 30-35.

2. Закирова С.К. Учебное задание как дидактическое средство проблемного обучения: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. – М., 2007. – С.23.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 2-jild.n – T.: O‘zME, 2004. – 562 b.

4. Pedagogika ensiklopediyasi. 2-jild. – T.: J – M., 2012. – 223 b.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 4-jild.– T.: O‘zME, 2004, – 150 b.

6. Н.В. Кузнецова Учебные развивающие задания как средство формирования познавательного опыта школьников: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. - Владимир, 2010. – С. 25.

[11] Ушинский К.Д. Педагогическая поездка по Швейцарии //Педагогические сочинения: В 6 т. Т.2 / сост. С.Ф. Егоров. — М.: Педагогика, 1988.— С. 496.

S.N. YULDASHEV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti

TA’LIMIY O‘YINLAR ORQALI O‘QUVCHILARNING KOGNITIV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOSLIKLARI

Annotatsiya

Maqolada ta’limiy o‘yinlar orqali o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xosliklari, shuningdek, perseptiv, ko‘nikmalar, intellektual va mnemonik ko‘nikmalar, dedaktik o‘yinlar hamda zamonaviy maktabgacha va boshlang‘ich ta’limni tashkil etishga doir tajribalar haqida fikr yuritilgan

Kalit so‘zlar. Perseptiv ko‘nikmalar, intellektual ko‘nikmalar, mnemonik ko‘nikmalar, harakatli o‘yinlar, aralash o‘yinlar, tinch o‘yinlar.

В статье рассмотрены особенности организации познавательной деятельности учащихся посредством развивающих игр, а также эксперименты по организации перспективных, умений, интеллектуальных и мнемонических умений, дидактических игр и современного дошкольного и начального образования

Ключевые слова. Перцептивные навыки, интеллектуальные навыки, мнемонические навыки, подвижные игры, смешанные игры, спокойные игры.

The article considers the features of the organization of cognitive activity of students through educational games, as well as experiments on the organization of perspective, skills, intellectual and mnemonic skills, didactic games and modern preschool and primary education

Key words. Perceptual skills, intellectual skills, mnemonic skills, outdoor games, mixed games, calm games.

Shaxs kognitiv sohasi tashqi olamni, voqea-hodisalarni, jarayonlarni bilishni o‘z ichiga oladi. Psixologik manbalardagi kognitiv jarayonlar tahlili asosida shaxs kognitiv sohasi quyidagi psixik jarayonlardan iborat bo‘lishini aniqladik:

– Perseptiv ko‘nikmalar, ya’ni sezgi, idrok va diqqatdan iborat bo‘lib, ushbu jarayonning asosiy vazifasi tashqi va ichki olamdagi ma’lumotlarni qabul qilishdan iborat.

– Intellektual ko‘nikmalar o‘z ichiga tafakkur, tasavvur va nutqni qamrab oladi. Intellektual jarayonlarning asosiy vazifasi ma’lumotlarni qayta ishlash, boyitish, ular haqida axborot berish hamda fikr almashinishdan iborat.

– Mnemonik ko‘nikmalar, ya’ni xotira. Xotira yordamida to‘plangan ma’lumotlar saqlanadi, zaruriy vaziyatlarda qayta tiklanadi va foydalaniladi.

Psixologik manbalarda ta’kidlanishicha, shaxs kognitiv ko‘nikmalarida diqqat, tasavvur va xotira ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Boladagi qiziqishlarni kuchaytirishda va erkin fikrlarini namoyon etishda ta’limiy o‘yinlarning imkoniyati kattadir. Chunki, ta’limiy o‘yinlar bola kognitiv rivojlanishida foydalaniladigan vosta sifatida muhim o‘rin egallaydi.

Ta’limiy o‘yinlar mohiyatiga ko‘ra ta’lim va tarbiya maqsadlari hamda o‘yin elementlarini o‘zida birlashtiradi.

Zamonaviy maktabgacha va boshlang‘ich ta’limni tashkil etishga doir tajribalar orasida didaktik o‘yinlar yetakchi ta’lim metodi sifatida qayd etiladi. Zero maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar hayotida o‘yin asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola dunyoni

anglashda, ijtimoiy munosabatlarga kirishishda, hattoki mehnat faoliyatida ham o‘yin elementlaridan foydalanadi, turli faoliyatlarni o‘yin bilan uyg‘unlashtirgan holda amalga oshirishga harakat qiladi. Shaxs hayotining dastlabki davrida uning asosiy ehtiyojlari, xohish-istaklari, orzu-umidlari aynan o‘yin mazmunida, harakatlarida o‘z ifodasini topadi. Bola ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan, u har qanday faoliyatni mustaqil amalga oshirishga intiladi, katta yoshdagilarning faoliyatlariga bevosita ishtirok etishga harakat qiladi. Bola tashqi olam haqida qanchalik ko‘p ma’lumotga ega bo‘la boshlasa, uning kattalar hayotiga qiziqishlari ham ortib boradi. O‘yin faoliyati davomida esa bola katta yoshdagilar xatti-harakatlariga taqlid qilgan holda o‘zini kattalardek tutish imkoniyati paydo bo‘ladi. Aynan o‘yin faoliyatida bola mustaqil harakatlanadi, o‘z xohish irodasini, orzularini, tasavvurlarini, tuyg‘ularini erkin ifodalaydi. O‘yin jarayonida bola boshqa faoliyat turlarini ham o‘zlashtira boradi: bilimlarni o‘zlashtiradi, mehnat ko‘nikmalari shakllanadi, jismoniy mashqlarni, muloqot qoidalari, tartib-intizom qoidalariga amal qilishni o‘raganadi.

Ta’limiy o‘yin davomida bola psixologik, pedagogik, fiziologik rivojlanish komponentlarini ham o‘zlashtira boradi.

O‘yin maktab yoshidagi bolalar faoliyatida asosiy o‘rinni egallaydi. Ularning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘yin dunyoni va o‘zligini anglashda, qiziqishlarini qondirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta’limiy o‘yinlar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yengillatish va o‘yin orqali bilim berish maqsadida yaratilgan.

A.Y. Bobomurodova ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini o‘yin xarakterida qurish lozimligini ta’kidlaydi va shunday deydi:

Ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarni ijodiy faoliyat ko‘rsatishga, o‘rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini anglab, mustaqil ravishda hukm va xulosalar chiqarishga, har bir o‘quvchiga o‘zligini namoyish etish va mulohazalarini erkin bayon etib, o‘z nuqtayi nazarini himoya qilishga keng imkoniyat yaratadi. Tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, qat’iylik, o‘quv qiyinchiliklarini mustaqil yengish kabi fazilatlarni tarkib toptirish, ko‘pincha, ta’limiy o’yinlar orqali amalga oshiriladi1.

Ko‘rinadiki, metodist A.Y. Bobomurodova ta’limiy o‘yinlarning mohiyati va til o‘rganishdagi ahamiyatini to‘la ochib bera olgan.

L.V. Artemova esa ta’limiy o‘yinlarning muhim jihatlari, vazifasi va ahamiyati haqida shunday deydi: “Didaktik o‘yinlarning muhim jihatlari shundaki, o‘quv topshiriqlari bolalarga o‘yin shaklida taqdim etiladi. Bolalar o‘yin jarayonida bilimlarni o‘zlashtirayotganlari, ma’lum predmetlardan foydalanish malakalarini va o‘zaro muomala madaniyatini egallayotganlarini sezmaydilar. Har bir didaktik o‘yin ta’limiy va tarbiyaviy mazmuni, o‘yin topshiriqlari, o‘yin harakatlari, o‘yin va tashkiliy munosabatlardan iborat bo‘ladi” [2].

Sh. Nurullayeva esa didaktik o‘yinlarni mazmuniga ko‘ra tinch o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, aralash tipdagi o‘yinlar; shakliga ko‘ra musobaqa o‘yinlari, sahna o‘yinlariga ajratib ko‘rsatgan.

Harakatli o‘yinlarga ona tili ta’limi jarayonida qo‘llaniladigan musiqali o‘yinlar va sahna o‘yinlarini misol qilib keltirish mumkin.

Aralash o‘yinlar o‘zida ham harakatli o‘yinlar, ham tinch o‘yinlar elementlarini aks ettiradi.

---

[1] Bobomurodova A. Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin topshiriqlaridan foydalanish: Ped. fan. nom. ... dis. –T., 1996. –146 b

[2] Артемова Л.В. Окружающий мир в дидактических играх: Книга для воспитателя детского сада и родителей. – Москва: Просвещение, 1992. – С. 97..

Tarqatma materiallar asosida uyushtiriladigan o‘yinlar, so‘z o‘yinlari, kesma harflar bilan o‘tkaziladigan o‘yinlar tinch o‘yinlarga misol bo‘la oladi[3] .

N.M. Koryak va Y.S. Ginzburg bolalar ta’lim-tarbiyasi jarayonida o‘yinlarning ahamiyatini alohida ta’kidlab o‘tganlar. Ularning fikricha “bolalar dunyosi, ibtidoiy odam dunyosiga o‘xshab ketadi. Chunki bolalar asosan jonli va jonsiz mavjudodlarni farqlaydilar. Ulg‘aygach, odamlar ushbu mavjudotlarga boshqacha nazar bilan qaray boshlashadi. Chunki kattalar nazdidagi ijtimoiy hayot o‘zaro insoniy munosabatlar bolalar ko‘z o‘ngida o‘yin shaklida namoyon bo‘ladi”4

Faylasuf olim ham J.Piaje o‘yinlar mohiyatini bola dunyoqarashi bilan bog‘liq holda talqin qiladi. Uning ta’kidlashicha, bolaning ichki olami alohida qonuniyatlar asosida qurilgan. Shuning uchun ham u kattalarning ichki olamidan tubdan farq qiladi. Ya’ni bolaning fikri uning xayoliy dunyosi bilan kattalarning fikri orasidagi nuqtani tashkil qiladi.

Z.Freyd ta’limiy o‘yinlar borasidagi tadqiqotlari bilan alohida hisa qo‘shgan bo‘lib, u o‘yinlarga nisbatan ikki xil yondashuvni amalga oshirish lozimligini ta’kidlaydi. Birinchi yondashuv doirasida o‘yinlarga ijtimoiy hayotda imkonsiz bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaralsa, ikkinchi yondashuv bolaning muayyan ehtiyojlari va his-tuyg‘ulari o‘yin predmeti sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda bola o‘z tabiatini o‘zgartirib o‘yin jarayonida faollashadi.

Bolalar o‘yinlarini ularning ijtimoiylashuvidagi, ya’ni tashqi olamga moslashuvi, voqea-hodisalarni tushunishlari uchun xizmat qilish bilan bir qatorda, ularga ta’lim berish va davolashda ham asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, o‘yin bolalar uchun eng qiziqarli faoliyat turi sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, o‘yinlarni tashkil etishda bolaning mayl-istaklarini inobatga olinishi hamda bolani yoshiga mos keluvchi holatlarni ifoda etishi maqsadga muvofiq. Bolalarni ular uchun qiziqarli o‘yin faoliyatiga jalb qilishdan maqsad ularning o‘zligini kengroq namoyon qilishga imkon beradigan rollarga murojaat qilish; bolaning o‘sishi, rivojlanishi, ulg‘ayishining ifodalanishi; o‘yin jarayonida o‘z muammolarini hal etishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurullayeva Sh.U. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘quvchilari pedagogik tayyorgarligini modellashtirish nazariyasi va metodikasi. Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Qarshi. 2021. – 61 b.

2. Soatov A.J. Bo‘lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss.ya avtoreferati. Qarshi.2021. – 45 b.

3. Yuldashev S.N. Boshlang‘ich ta’lim ixtisosligi talabalarini kreativ yondashuv asosida texnologik ta’limga tayyorlash metodikasi Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss.ya avtoreferati. Qarshi. 2021. – 45 b.

4. Артемова Л.В. Окружающий мир в дидактических играх: Книга для воспитателя детского сада и родителей. – М.: Просвещение, 1992. – С. 97.

5. Коряк Н.М., Гинзбург Я.С. Социально-психологические проблемы деловых игр/Сб. науч. тр. Педагогика и психология игры. – Новосибирск: Новосиб. гос. пед. ин-т, 1985. – С. 50 – 62.

[3] Nurullayeva Sh.U. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik tayyorgarligini modellashtirish nazariyasi va metodikasi. PFD ilmiy darajasini olish uchun ... diss. Qarshi. 2021. 60-b

[4] Коряк Н.М., Гинзбург Я.С. Социально-психологические проблемы деловых игр/Сб. науч. тр. Педагогика и психология игры. – Новосибирск: Новосиб. гос. пед. ин-т, 1985. – С. 50 – 62

Dilnoza ALAUDINOVA,
Termiz davlat universiteti, ‘‘Xorijiy filologiya’’ fakulteti v.b. dotsenti, (PhD)

FRAZEOLOGIK BIRIKMALAR VA ULARNI TARJIMA QILISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada frazeologik biriklmalar va ularning tarjima qilish usullari haqida so‘z boradi. Frazeologik birliklar yoki frazema – bu ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanmalarning umumiy nomi.

Kalit so‘zlar. Frazeologiya, birlik, turgun birikma, bog‘lama, mantiq.

В данной статье говорится о фразеологических соединениях и способах их перевода. Фразеологические единицы или фраземы – это общее название устойчивых (устойчивых) связей, состоящих из двух и более слов, семантически связанных друг с другом и равных предложению, которые употребляются в переносном смысле целиком и не разделяются.

Ключевые слова. Фразеология, единство, устойчивое сочетание, связь, логика.

This article talks about phraseological compounds and their translation methods. Phraseological units or phrasemes are the general name of stable (stable) connections consisting of two or more words, which are semantically related to each other and equal to a sentence, which are used in a figurative sense as a whole and are not divided.

Key words. Phraseology, unity, stable combination, connection, logic.

Frazeologik birliklar shaklan o‘zlariga o‘xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so‘zlarni erkin tanlash, almashtirish yo‘li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma’no va muayyan leksik-grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qullanadi, ya’ni frazeologik birliklar tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas: anqoning urug‘i, arpasini xom urmoq, chuchvarani xom sanamoq, terisiga sig‘may ketmoq, kapalagi uchmoq, kungli joyiga tushmoq, qo‘li ochiq, qulog‘i og‘ir va boshqalar.

Frazeologik birliklar tarixiy qo‘llanish me’yorlariga, usullariga ega bo‘lib, ularning ma’nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi. Frazeologik birliklarning quyidagi turlari farqlanadi:

– frazeologik chatishma (phraseological fusion) – frazemaning ma’nosi uning tarkibidagi so‘zlarning ma’nosiga bog‘liq bo‘lmaydi, frazemadan anglashilgan ko‘chma ma’no uning tarkibidagi so‘zlarning ma’nosi bilan izohlanmaydi: to beat about the bush – gapni aylantirmoq; to‘nini teskari kiymoq, oyog‘ini qo‘liga olib chopmoq, boshini olib chiqib ketmoq va boshqalar;

– frazeologik butunlik (birlashma) (phraseological unities) - frazemaning ma’nosi uning tarkibidagi so‘zlarning ma’nolari asosida izohlanadi, shu ma’nolar asosida umumlashtiruvchi ko‘chma ma’no ifoda qilinadi (ko‘pincha bunday birlashmalarning o‘z ma’nosida qo‘llanadigan variantlari ham mavjud bo‘ladi): to stick (stand) to one’s guns – oyoq tirab turib olmoq, to know the way the wind is blowing – gapning nimadaligini fahmlamoq; yog‘ tushsa yalagudek, yeng shimarmoq, xamirdan qil sug‘urgandek, to‘ydan oldin nog‘ora chalmoq va boshqalar;

– frazeologik qo‘shilma (phraseological combinations) – bunda frazemalar tarkibidagi bir so‘z ko‘chma ma’noda qo‘llanadi, boshqasi esa o‘z lug‘aviy ma’nosini saqlaydi:

small hours – tong sahar, black frost – qora sovuq; gapning tuzi, qo‘li gul, ishtahasi ochildi va boshqalar.

Turg‘un (frazeologik) birikmalar bir muncha barqaror leksik birlik hosil qilgan bo‘ladi. Ularning ma’nosi tarkibidagi komponentlarning alohida ma’nolaridan emas, balki yaxlit birikmaning ma’nosidan kelib chiqadi, masalan:

it’s high time – vaqt allaqchon bo‘lgan (“yuqori vaqt” emas)

take your time – shoshilmang (“vaqtingni ol” emas)

help yourself – olib o‘tiring (“o‘zingga yordam qil” emas)

Komponentlarining ma’no munosabati darajasi nuqtai nazaridan frazeologik birliklar ikkiga ya’ni ko‘chma ma’noli va lug‘aviy ma’noli birikmalarga ajraladi.

Lug‘aviy ma’noli frazeologizmlar frazeologik birliklar deb ham ataladi. Ularni tashkil etuvchi elementlar o‘z lug‘aviy ma’nolarini birikmada ham saqlab qolgan bo‘ladi.

Bu holat esa shundan guvohlik beradiki, frazeologik birliklar ham hamisha qotib qolgan turg‘un birikma bo‘lmasligi mumkin:

to achieve results – natijaga erishmoq

to accomplish results – natijaga erishmoq

Ammo ko‘pchilik hollarda ular turg‘un so‘z birikmasi hisoblanadi:

pay attention – (o‘z) e’tiborini qaratmoq (to‘lamoq emas) draw (smb’s) attention –(birovning) e’tiborini tortmoq

Lug‘aviy ma’noli frazeologizmlarning tarjimasi ikki usulda amalga oshiriladi:

1) Bitta so‘z bilan tarjima qilinadigan asosida ot so‘z turkumidagi so‘z qatnashgan inglizcha turg‘un birikmalar:

to take a nap – mizg‘imoq

to put an end to smth. – tugatmoq (nuqta qo‘ymoq). on behalf of nomidan

on the basis of – asosida

for the sake of – haqqi

2) muqobilli birikmalar bilan (mutloq va nisbiy):

a) mutloq muqobillar:

to hit the target – mo‘ljalga urmoq golden share – oltin aktsiya

to play with fire – olov bilan o‘ynashmoq the root of the trouble – tashvishning ildizi

b) nisbiy muqobillar:

to take into account – e’tiborga olmoq

Frazeologik birliklar (birikmalar) ingliz tilining ajralmas bo‘lagi bo‘lib, ularni bilish – muqobil tarjima yaratishning garovidir.

Quyida lug‘aviy ma’noli frazeologiyalarga mansub predlogli tez-tez qo‘llaniluvchi turg‘un so‘z birikmalarining qisqa ro‘yxatini berib o‘tamiz:

in accordance with - ga muvofiq tarzda

on account of – hisobiga

in addition to – ...ga qo‘shimcha tarzda

at any rate – har holda

on behalf of - nomidan

on the basis of - asosida

for the benefit of – ...ning foydasiga

by and large – to‘lig‘ich

Ingliz tilidagi bir nechta o‘xshash so‘z birikmalari tarkibida artiklning yo‘qligi yoki predloglarning almashib ishlatilishi tufayli chalkashtiriladi. Quyidagi juftliklarga e’tiborni qarating:

in case of – sodir bo‘lganda

in the case of – ...ga kelsak

in (the) face of – mavjudligida

on the face of – ...ga qaraganda, aftidan
in favour of – ...ning foydasiga
in favour with – ...ni ma'qullab
for fear of – bo'lmasligi uchun
in fear of – ...dan qo'rqib
by the name of – nomidagi

Frazeologik birliklarning komponentlari orasidagi bog'liqlik qay darajada bo'lmasin, tarjimada bosh qoida tarjima tili normalariga rioya qilish bo'lishi lozim, ya'ni tarjimada harf xo'rlikka yo'l qo'ymaslik va tarjima tilidagi so'z birikmalari qoidasini buzmasligimiz kerak.

Ko'chma ma'noli frazeologizmlar, yoki frazeoligik birliklar idiomalar nomi bilan mashhur. Idioma – bu turg'un birikma (nutq birligi) bo'lib, uning ma'nosi tarkibidagi komponentlarining ma'nolaridan emas, balki birikmaning umumiy ma'nosidan kelib chiqadi.

Ingliz tilida ham boshqa tillardagi kabi ko'p sonli idiomalar ishlatiladi. Idiomalarning komponentlari o'zlarining dastlabki lug'aviy ma'nolarini yo'qotgan bo'lib, idiomaning ma'nosi alohida komponentlarning ma'nosidan kelib chiqmaydi:

through thick and thin – nima bo'lsa ham
tooth and nail – tish tirnog'i bilan kirishmoq
it'sraining cats and dogs – yomg'ir chelaklab quymoqda
to be caught red-handed – jinoyat ustida qo'lga olinmoq

Ingliz idiomatik birliklarini tarjima qilishda rus va o'zbek tillarida ularning muqobillaridan foydalaniladi. Ular quyidagi usullarda ifodalanishi mumkin:

1) Mutloq muqobillar bilan. Tuzilishi, semantikasi va obrazliligi jihatidan adekvat tarzda mos birlik uchraganda:

to bring oil to fire – alangaga yog' quymoq
to play with fire – olov bilan o'ynashmoq
Cold War – sovuq urush

2) Nisbiy muqobillar bilan. Agar o'zbek tilida ingliz tilidagi idiomalarning ma'nosini saqlashda bir qancha farqlar mavjud bo'lsa nisbiy muqobillardan foydalaniladi:

sword of Damocles – Demoklov qilichi
to show one's teeth – to'ng'illamoq, jerkib javob bermoq
to start business from scratch – ishni noldan boshlamoq
whip-and-carrot policy – zo'rovonlik va yog'lamachilik siyosati
as busy as a bee – chumolidek mehnatsevar
a fly in the ointment - oshdagi pashsha

3) Frazeologik analoglar deb ataluvchi mutlaqo boshqacha leksik vositalar bilan. Frazeologik analoglar – bu ma'no jihatdan adekvat, lekin tuzilishi va obrazliligi jihatdan qisman yoki to'liq farq qiluvchi birliklar:

a) maqollar tarjimasida:

East or West - home is best – O'z uying o'lan to'shaging
Make hay while the sun shines – Temirni qizig'ida bos
You can't eat your cake and have it – Ikki oyoqni bir etikka tiqmoq
A bird in the hand is worth two in the bush – Uzoqdagi xashakdan yaqindagi somon yaxshi

b) ko'chma ma'noli birikmalar tarjimasida:

to make a mountain out of a molehill – pashshadan fil yasamoq
by hook or by crook – nima qilib bo'lsa ham
to hit the nail on the head – mo'ljalga urmoq
to beat about the bush – gapni aylantirmoq

it is raining cats and dogs – chelaklab yomg’ir quymoq.

4) Tasviriy tarjima bilan. O‘zbek tilida muvofiq muqobil yoki analog mavjud bo‘lmaganda tasviriy tarjimadan foydalaniladi:

to show the white feather – ichidan zil ketti (“oq patini ko‘rsatmoq” deb tarjima qilsak o‘zbek kitobxoniga hech narsa anglatmaydi)

to have a skeleton in the cupboard (closet) – shaxsiy yoki oilaviy siri bo‘lmoq.

cross the floor of the house – bir partiyadan boshqa partiyaga o‘tib ketoq.

a bitter pill to swallow – dard ustiga chipqon bo‘lmoq

5) Antonimik tarjima. Bu usulda inkor shakldagi jumla tarjimada darak shakl bilan va aksincha ifodalanadi:

don’t count your chichkens before they are hatched – jo‘jani kuzda sanaymiz.

keep one’s head – gangib qolmaslik

keep one’s head above water – qarzga botmaslik

keep one’s pecker up – ruhiyatni cho‘ktirmaslik

hold cheap – qadriga yetmaslik

6) Kalkalash usuli. Bu usul boshqa tur tarjim usullari bilan tarjima qilinmaydigan birliklarni ifodalashda ishlatiladi:

the moon is not seen when the sun shines – oy ko‘rinmas quyosh bo‘lganda

to call things by their true names – har narsani o‘z nomi bilan atamoq

Yuqorida keltirilgan inglizcha misollar barcha sohalarda xosdir. Shubhasiz, barcha kasb sohalari ko‘plab o‘z idiomalariga ega. Sohaga doir idiomalarning ma’nosini ifodalashda ham tasviriy tarjimadan foydalaniladi. Misol uchun, moliya va biznes sohasiga quyidagi kabi frazeologizmlar xosdir:

creeping takeover – aktsiyalar paketi nazoratiga erishguncha yetarlicha miqdordagi aktsiyalarni individual aktsiyadorlardan bosqichma bosqich sotib olish

tape dancing (US) – aktsiyalar narxida nayrang ishlatish metodi, bunda broker o‘z ulushini ham qo‘shib narxlaydi.

triple witching hour – shartnomalarning muddati tugaydigan yilning 4 jumasidan biri

Ba’zan frazeologik birliklar oddiy so‘z birikmalariga tamoman mos keladi, shuning uchun tarjimon kontekstda ularning ma’nosini to‘g‘ri anglashda va adekvat tarjima yaratishda juda ziyrak bo‘lishi talab etiladi:

to sit on the fence – panjara ustida o‘tirmoq, shuningdek, kutib qolmoq red tape qizil tasma, shuningdek, buyruqbozlik

yellow pages – sariq sahifalar, shuningdek, tashkilotlar haqida ma’lumotlar keltirilgan telefon ko‘rsatmalari kitobchasidagi sariq sahifalar

red herring – dudlangan baliq, shuningdek chalg‘ituvchi harakatlar (to draw a red herring across the path – e’tiborni chalg‘itmoq)

Frazeologiya mavzusi yuzasidan yana shuni ta’kidlab o‘tish joizki, ba’zida tarjimon o‘ziga xos milliy idiomalar tarjimasiga duch keladi.

Milliy idiomalarni soz’ma-so‘z tarjima qilish faqat tarjima tilida ham uning ma’nosi ma’lum va mashhur bo‘lganda yuz beradi xolos. Lekin ko‘p hollarda milliy xususiyatga ega iboralarni tarjima tiliga so‘zma-so‘z o‘tkazishning imkoni yo‘q, masalan, to carry coal to Newcastle – Nyukaslga ko‘mir ko‘tarib bormoq (Nyukasl–Angliyaning ko‘mir sanoati markazi). Bu ibora o‘zbek tilida unga muqobil bo‘la oladigan o‘rmonga o‘tib bilan bormoq iborasi bilan tarjima qilinishi maqsadga muvofiq.

Qolgan holatlarda tarjimada neytral yoki og‘zaki (uslubiga qarab) muqobilini izlashga to‘g‘ri keladi hamda o‘zbek va rus tilidagi milliy bo‘yoqdor birikmalardan chetlanish lozim. Yuqoridagi ko‘mir bilan bog‘liq bo‘lgan misol tarjimasi uchun rus tilidagi “ездить в Тулу со своим самоваром” iborasini qo‘llash maqsadga muvofiq emas.

O‘ziga xos milliy idiomalar oddiy neytral leksika shaklida ham iboralar shaklida ham tarjima qilinishi mumkin:

to be from Missouri – har narsa ishonchsizlik bilan qaramoq

to grin like a Cheshire cat – og‘zi qulog‘ida bo‘lib kulmoq

he will not set the Thames on fire – u osmondagi oyni olib berolmaydi

Demak, yuqoridagi fikrlardan shu xulosaga kelishimiz mumkinki, idiomatik birliklarning semantikasi murakkab xususiyatga ega. Tarjimonning ularga mos ekvivalent topishiga ta’sir qiladigan 5 ta jihat mavjud. Ular 1) so‘zlarning ko‘chma ma’noda ishlatilishi, yaxlit ma’no kasb etishi, 3) emotsional xususiyati, 4) uslubiy va 5) milliy bo‘yoqdorligi. Ko‘chma ma’no idiomatik birlik semantikasining eng asosiy xususiyatidir. Masalan:

red tape – buyruqbozlik;

to kick the bucket – o‘lib qolmoq;

to was dirty linen in public – oilaviy sirni dasturxon qilmoq

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogical Model of Developing Oral Speech Competencies in Future English Language Learners. International Journal of Development and Public Policy, 2(3), 73–76.

2. Алаудинова, Дилноза. 2022. «Теоретический подход к компетенции устного общения». Общество и инновации 3 (3/S):147-51. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss3/S-pp147-151.

3. Alaudinova D. R., Mamatqulova N. X., Erdonova M. H. USE OF PHRASAL VERBS IN TESTS ON MEDICAL DISCIPLINES //ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ НАУКИ И ОБЩЕСТВА: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ. – 2019. – С. 106-107.

4. Pedagogical Model of Developing Oral Speech Competencies in Future English Language Learners. International Journal of Development and Public Policy, 2(3), 73–76.

Ziyoda PULATOVA,
TDIU katta o‘qituvchisi, PhD

OLIY O‘QUV YURTLARIDA INGLIZ TILINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARNING KASBIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarning kasbiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishning pedagogik asoslarini rivojlantirish va ingliz tilini o‘qitish jarayonida talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish muammolariga bag‘ishlangan ustuvor yo‘nalishlari va maqsadlari belgilangan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasasidagi o‘quv jarayonini tashkil etishda tizimli, kompetensiyaga asoslangan shaxsiy faollik yondashuvlari va ingliz tilini o‘qitish jarayonida bo‘lajak iqtisodchilarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun samarali xisoblangan uslubiy asosni tashkil etuvchi konseptual qoidalar, tamoyillar, yondashuvlar o‘rganildi.

Kalit so‘zlar. Kognitiv, integrasiya, kasbiy kompetensiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, ijtimoiy faollik, ijodiy izlanish, identiv, didaktik ta’minot, interfaol-kommunikativ, ko‘nikma, ma’naviy-intellektual, ijtimoiy-siyosiy, subyekt, jamiyat, ta’lim, tarbiyaviy ahamiyat, ta’lim jarayoni.

В данной статье определены приоритетные направления и цели, посвященные проблемам развития педагогических основ формирования интереса студентов к профессиональной деятельности и формирования и развития учебно-познавательной деятельности студентов в процессе обучения английскому языку. Также были изучены системные, компетентностно-ориентированные подходы к личностной активности в организации образовательного процесса в высшем учебном заведении и концептуальные положения, принципы, подходы, составляющие эффективную методическую основу повышения социальной активности будущих экономистов в процессе обучения английскому языку.

Ключевые слова. Интеграция, профессиональная компетентность, инновационные педагогические технологии, интерактивные методы, социальная активность, творческий поиск, идентичность, дидактическое обеспечение, интерактивно-коммуникативное, умение, духовно-интеллектуальное, социально-политическое, предметное, общественное, воспитательное значение, образовательный процесс.

In this article, priority areas and goals are set for the development of pedagogical foundations for the formation of students’ professional interests in the process of teaching English In the process of teaching English in educational institutions, pedagogical conditions were identified that serve to increase the social activity of future economist students and effectively prepare students for social activity. There were selected pedagogical technologies of social educational activities, the composition of the participants and the opportunities for organizing the educational process were determined. Also, in the organization of the educational process in a higher educational institution, approaches to systematic, competency-based personal activity and conceptual rules, principles, approaches that form an effective methodological basis for increasing the social activity of future economists in the process of teaching English.

Key words. Integration, professional competence, innovative pedagogical technologies, interactive methods, social activity, creative search, identity, didactic security, interactive-communicative, skill, spiritual-intellectual, socio-political, subject, society, educational, educational significance, educational process.

Jahon hamjamiyatiga integrasiyalashish sharoitida xorijiy tillarni dunyo miqyosida o‘qitish sifatini oshirish va bir xilligini CEFR (Common European Framework of Reference for Language) malaka talablari asosida ta’minlashga erishishning pedagogik mexanizmlari ta’lim jarayoniga tadbiq etilmoqda. Bo‘lajak mutaxassislarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning mustaqil, auditoriyadan tashqari faoliyatini rivojlantirish muammolari bilan YUNESKO, YUNISEF, Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi, Oliy ta’lim sifatini ta’minlash Yevropa tarmog‘i xalqaro tashkilotlari ingliz tilini, xalqaro muloqot tili sifatida kasbiy talablar darajasida o‘rganishda auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ta’limni amaliy ko‘nikmalarga ustuvorlik bergan holda tashkil etishga qaratilgan yirik innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy etish buyicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida umumevropa CEFR talablari asosida amaliy ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘qitishning mazmuni va ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish, turli davlatlar talabalarining kasbiy kompetentligini o‘zaro hamkorlik asosida rivojlantirish, ingliz tilini o‘rganishda talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bo‘lajak mutaxassislarni ingliz tilida o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, ingliz tilini o‘qitish sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish, xorijiy tilda o‘qitishda innovatsion ta’lim usullarini keng joriy etish, ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirish, lingvistik tayyorgarligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayonida ingliz tilini o‘qitishda mavjud an’anaviy ta’limda, ta’limning markazida o‘qituvchi turgan ta’lim berish usulidan farqli ravishda, talabayoshlarni mustaqil o‘rganib, tahlil qilib, xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqaruvchi, ya’ni ta’limning asosiy markazida talaba turgan ta’lim jarayoniga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ilg‘or xorijiy tajribalarga tayanib, talabalar qiziqishlarini inobatga olgan holda, dars mashg‘ulotlarini har bir darsga tegishli mavzularni taqdimot slaydlari, animatsion, multimediali videoroliklar, master-klasslar, musiqalar asosida tashkil etish yo‘lga qo‘yilgan.

Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyati, ta’limning sifatini yaxshilash asosida samaradorlikka erishish, talabalarning xorijiy tillarni o‘zlashtirishdagi ijtimoiy faolligini oshirish asosida, ularda o‘zlari ta’lim olayotgan xorijiy til bo‘yicha mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga, ijodiy izlanish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ta’lim jarayonida xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy va interfaol o‘qitish usullarni qo‘llash boshqa fanlarga nisbatan qulay va samarali ekanligi bilan ajralib turadi. Chet tili o‘qituvchilarining mazkur usullar asosida har bir dars mashg‘ulotini tashkil etishi, turli didaktik va mantiqiy o‘yinlar bilan darslarni o‘tishi talabalarning ta’lim jarayonida olgan nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalaridan yetarli darajada foydalana olish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy usullarda ingliz tilini o‘qitilishini samarali tashkil etish asosida ta’lim oluvchilarda quyidagi ijtimoiy faol ko‘nikmalar shakllanadi, ya’ni:

– ingliz tilida o‘z ona tilidek og‘zaki va yozma ravishda bemalol muloqotga kirisha olish;

– jahon miqiyosida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar, ilmiy yangiliklar natijalarini xorijiy tillarda ham o‘zlashtira olishi;

– dunyo mamlakatlarining madaniyati va sivilizatsiya namunalari (ta’lim, teatr, musiqa, kino, opera) dan yetarli darajada bahramand bo‘lish;

– zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalaridan

samarali foydalanish imkoniyatlarining yanada kengayishi.

Bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy tillarga qaratilayotgan alohida e’tibor bevosita o‘sib kelayotgan yoshlarimizning kelajakda xalqaro andozalariga javob beradigan yetuk mutaxassis kadrlar bo‘lib yetishishlariga qaratilgan jarayon xisoblanadi.

Ta’limning hamma bo‘g‘inlarida ingliz tilini asosiy fan sifatida o‘qitilishi, yoshlarning savodxonligini oshirish davlatimizning istiqboli yo‘lidagi asosiy maqsadlardan biridir. Chunki zamonning o‘zi xalqlarning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashishida har tomonlama rivojlangan yuqori sifatli va raqobatbardosh kadrlarga ehtiyojni, ayniqsa, xalqaro darajadagi zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashni talab qilmoqda.

Ushbu jarayon, ayniqsa, bo‘lajak iqtisodchi kadrlarni tayyorlash tizimiga yangi, yanada murakkab talablarni qo‘yish, kasbiy kompetensiya masalasini dastlabki o‘ringa qo‘yish, aholi o‘rtasida ingliz tilini bilishni alohida ta’kidlashda ham o‘z ifodasini topgan.

Yangi axborotlashgan jamiyat talaba-yoshlarimizning ijtimoiy faolligini oshirish uchun bir qancha zamonaviy talablarni oldimizga qo‘ymoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimiz pedagog va filolog olimlarimiz va yetuk mutaxassislarimizning xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari va texnologiyalarini mukammal darajada o‘rganib, milliy mentalitetimizga moslashtirilgan holda, zamonaviy fan dasturlari va o‘quv darsliklarni yangi avlodini yaratishni dolzarb darajaga olib chiqmoqda. “Umumevropa standarti bugungi kunda xorijiy tillarni o‘qitishda interfaol-kommunikativ metodlardan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ingliz tilini o‘qitishni jahon standarti talablari va andozalari darajasiga yetkazish uchun ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasidan oqilona foydalanib, uzluksiz va uzviylikka asoslangan chet tillar bo‘yicha yangi avlod darsliklarini yaratish dolzarb masalalardan biriga aylandi”. Shu boisdan, uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida xorijiy tillarni o‘qitish jarayonini tubdan isloh etib, xalqaro darajaga ko‘tarish masalasi mamlakatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda.

Talabalarga ingliz tilini o‘rgatish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirishga qanday omillar yetarli darajada ta’sir qilishiga asoslanib, ushbu jarayon muvaffaqiyatli davom etadigan quyidagi shart-sharoitlarni aniqlashga harakat qilamiz:

– ta’lim mazmunining ingliz tilidagi ma’nolarini yanada boyitish;

– kasbiy faoliyatga yetarli darajada ahamiyatga ega bo‘lgan muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;

– tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatining asosiy elementi sifatida ishbilarmonlik odob-axloq qoidalarini yetarli darajada o‘zlashtirish.

Ingliz tilida mazmun va ma’nolarni boyitish iqtisodiyot fanidan talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan asosiy muhim shart deb xisoblanishi mumkin. Ingliz tilidagi ta’limning asosiy mazmun-mohiyati, bu ingliz tilini o‘zlashtirishni kognitiv rivojlanish vazifalarini hal qilish orqali talabalarning ijtimoiy faolligini rag‘batlantiradigan ijodiy, shaxsiy ahamiyatga ega jarayonga aylantirish imkonini beradi. Ingliz tili o‘qituvchisi faqatgina bilimning o‘zini emas, balki uni bilish usullarini ham ishlab chiqishidan kelib chiqadi. U talabalarning dunyoga faol munosabati amalga oshiriladigan bunday tadbirlarni o‘ylab ko‘rishiga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bularga, birinchi navbatda, kommunikativ xarakterdagi ijodiy mashqlar va topshiriqlar – ro‘lli o‘yinlar, mavjud muammo yoki masalaning yechimini guruh bo‘lib muhokamalarini tashkil etish, talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish usullaridan biri bo‘lgan shaxslararo muloqotlar kiradi. Kommunikativ xarakterdagi mashqlar dialogik nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga yetarli darajada ko‘maklashadi (suhbatdoshining xatti-harakatlarini faol rag‘batlantiradi,

yo‘naltiradi hamda tartibga soladi, uni og‘zaki bo‘lmagan harakatlarga undaydi, o‘z-o‘zini himoya qiladi). Bu mashqlarning barchasi bo‘lajak mutaxassisni tayyorlashning asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan professional darajadagi muloqot kompetensiyasining asosini tashkil qiladi.

Ingliz tilini o‘rganish jarayonida talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish faol ta’limning turli shakllari (konferensiyalar, ekskursiyalar, munozaralar, davra suhbatlari, ishbilarmonlik o‘yinlari)dan foydalangan holda guruhda talabalar o‘rtasidagi muloqotni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Iqtisodiyot oliy ta’lim muassasalari talabalarining ijtimoiy faolligini oshirishning navbatdagi muhim sharti xorijiy tilni o‘rganish jarayonida tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatining elementi sifatida ishbilarmonlik odob-axloq qoidalari bilan tanishish xisoblanadi.

Turli daraja va toifadagi insonlar bilan o‘zaro muloqot qilish qobiliyati ishbilarmon shaxsning kasbiy madaniyatining ajralmas qismi va biznesda muvaffaqiyatga erishishning muhim omili xisoblanadi. Til aloqa vositalarini to‘g‘ri tanlash muloqot samaradorligiga yetarli darajada ta’sir qiladi. Shu bilan birga, suhbatdoshga, vaziyatga, vaziyatning rasmiy yoki norasmiyligiga e’tibor qaratishi ham talab qilinadi. Ishbilarmonlik muloqotida hamma narsa muhim sanaladi: biz nima deymiz va qanday qilib. Shuning uchun dars mashg‘ulotlarida talabalarga muloqot qilish texnikasini, hamda til vositalarini to‘g‘ri tanlashni o‘rgatish juda muhim sanaladi.

Ingliz tilida o‘tiladigan dars mashg‘ulotlari ingliz tilidagi matnlar orqali talabalarni o‘rganilayotgan til mamlakatining madaniyati bilan tanishtirish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Audio va video materiallaridan foydalangan holda, o‘qituvchi talabalarning qiziqishi va tasavvurini yanada rivojlantirishi, ko‘rgan va eshitgan narsalarini tanqidiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirishi, tushunmovchilik va boshqa xalqlarga ishonchsizlik to‘siqlarini bartaraf etishi mumkin. Ta’lim jarayonida audio va video matnlar bilan ishlash talabalarni ingliz tili orqali boshqa xorijiy mamlakatlarning hayoti, turmush tarzi va madaniyatining ajralmas qismi ekanligiga ishontiradi. O‘z-o‘zini hurmat qiladi va ijtimoiy stereotiplarni yo‘q qiladi, biznes jarayonidagi muloqotida juda muhim bo‘lgan og‘zaki bo‘lmagan muloqot qobiliyatlarini tushunish va rivojlantirishga imkon yaratadi.

Talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishga yo‘naltirilgan ingliz tili dars mashg‘uloti doimiy ravishda fikr-mulohazalarni, o‘zaro ta’sir subyektlarining faolligini, bilimlarni har tomonlama ijodiy qayta ishlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Ta’lim jarayonida faol ishtirok etgan talaba ishontirish, himoya qilish san’atini yetarli darajada o‘rganadi va o‘z mavqeini ma’naviy va axloqiy jihatdan boyitadi. Xorijiy tillar bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish zarurati ularni mexanik ravishda o‘zlashtirishda emas, balki, ularni mazmunli tanlashda, baholashda, ular asosida o‘z faoliyatining konseptual sxemasini qurish bilan belgilanadi. Bu bilimlarga qo‘shilish orqali talabalar o‘zining umumiy madaniy saviyasini yanada oshiradi, xorijiy mamlakatning madaniy an’analariga mos ravishda o‘z qiyofasini tanlaydi. O‘zining intellektual, shaxsiy, jismoniy va boshqa imkoniyatlari to‘g‘risida tegishli xulosalar chiqaradi, ularning rivojlanishi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish ko‘p jihatdan ingliz tili o‘qituvchisining ijodiy va innovatsion faoliyatiga ham bog‘liqligi isbotlangan. Talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishga yo‘naltirilgan ingliz tili dars mashg‘uloti doimiy ravishda fikr-mulohazalarni, o‘zaro ta’sir subyektlarining faolligini, bilimlarni har tomonlama ijodiy qayta ishlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Ta’lim jarayonida faol ishtirok etgan talaba ishontirish, himoya qilish san’atini yetarli darajada o‘rganadi va o‘z mavqeini ma’naviy va axloqiy jihatdan boyitadi.

Xorijiy tillar bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish zarurati ularni mexanik ravishda o‘zlashtirishda emas, balki, ularni mazmunli tanlashda, baxolashda, ular asosida o‘z faoliyatining konseptual sxemasini qurish bilan belgilanadi. Bu bilimlarga qo‘shilish orqali talabalar o‘zining umumiy madaniy saviyasini yanada oshiradi, xorijiy mamlakatning madaniy an’analariga mos ravishda o‘z qiyofasini tanlaydi. O‘zining intellektual, shaxsiy, jismoniy va boshqa imkoniyatlari to‘g‘risida tegishli xulosalar chiqaradi, ularning rivojlanishi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Ingliz tilini o‘rganish jarayonida talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish samaradorligini ta’minlashning eng muxim sharti sifatida biz, ingliz tili madaniyatiga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini ko‘rib chiqamiz. Buni shaxsning e’tiqodi va harakatlarini tan olish hamda hurmat qilish qobiliyati deb ta’riflashimiz mumkin. Ingliz tili madaniyatiga nisbatan bag‘rikenglik bilan munosabat empatik tushunishni nazarda tutadi. Boshqa mamlakatlarning milliy madaniyati, urf-odatlari, qadriyat va an’analari hamda ma’naviyatini hurmat qilish shaxsning bilim darajasini balki, uning umumiy madaniy darajasi ko‘rsatkichi, shuningdek, uning kasbiy rivojlanishi va ijtimoiy faolligini oshirishni shakllantirishning zaruriy sharti xisoblanadi. Ingliz tilini o‘qitishning shaxs uchun hayot mazmunini o‘rganishga qaratilgan pedagogik jarayonining asosi ingliz tili madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ingliz tiliga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish, boshqacha qarashga bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lishni tarbiyalash xisoblanadi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ingliz tili o‘quv kursini o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiya darajasining ortishi bilan talabalar ma’lumotlarni o‘rganishi va o‘zlashtirib, uni kasbiy faoliyatda keyingi qo‘llash uchun intiladi, shuning uchun ingliz tilini o‘zlashtirish uchun motivatsiya muxim talabaning ijtimoiy faolligini oshirish mezoni xisoblanadi. Tinglovchilar bilan birga bolajak mashg‘ulotning tuzilishini muhokama qilish hamda talabalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, rejadagi mavzularni tahlil qilish, asosiy tushunchalarni va optimal natijalarga erishish vositalarini ko‘rib chiqish lozim. Talabalarni bu jarayonga jalb qilish qo‘shimcha o‘qish uchun mavzular rejasini ishlab chiqishda namoyon bo‘lishi mumkin, shu bilan birga asosiy mutaxassislikning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayev R.X. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – T., 2010. -87 b.

2. Axmedova N.M. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qtuvchilarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: diss... PhD – T:. 2020. – 65 b.

3.Gulyamova M.X. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv// : Avtoref. dis. … (PhD) – T:. 2019 y. 45 b.

4. Ilxamova I.N. Nofilologik ta’lim yo‘nalishidagi talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligi kontekstida nutq ko‘nikmalarini takomillashtirish. Ped.f.d. (PhD) diss. avtor. – T.: 2019. – 10 b.

5. Sharipov Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti: Avtoref. ped. fan. dokt... dis. – T.; 2012. – 46 b.

6. Erkayev E.T. Bo‘lajak chet til muallimi ta’limida qo‘llanadigan tarjima mashqlarining lingvodidaktik tasnifi. – ND – T.:2008.

7. Brumfit C.J. Curriculum and syllabus design for the general English classroom. University of London Institute of Education, published in association with THE BRITISH COUNCIL, 2015. – 47– 60 p.

Marvarid NURBAYEVA,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘zbek tili,
adabiyoti va folklori instituti, O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo‘limi doktoranti

MAV’IZANING O‘ZIGA XOS SPETSIFIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘git, pand, nasihat, va’z kabi ma’nolarni o‘zida mujassam etgan mav’iza atamasining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan. Mav’iza atamasini yoritishda bevosita o‘zbek, fors, turk tili lug‘atlariga murojaat qilingan. Mav’iza bitgan shoirlar tilga olinib, ularning asarlari badiiy talqin etilgan.

Kalit so‘zlar. O‘git, pand, nasihat, va’z, mav’iza, nasihatomuz so‘z, majoz, adabiyotshunoslik, dinshunoslik, ta’rif, tavsif.

Эта статья призвана раскрыть специфику термина маваиза, который включает в себя такие значения, как учение, панд, увещевание, проповедь. При освещении термина "мавиза" обращались непосредственно к словарям узбекского, Персидского, турецкого языков. Упоминались поэты, чьи произведения были закончены, и их произведения были художественно истолкованы.

Ключевые слова. Учение, панд, увещевание, проповедь, увещевание, увещевательное слово, метафора, литературоведение, богословие, определение, описание.

This article is aimed at revealing the peculiarities of the term Maviza, which embodies such meanings as oghit, pand, exhortation, preaching. In the coverage of the term Mav'iza, direct reference was made to the dictionaries of the Uzbek, Persian, Turkish language. The poets who ended up in the Maviza were mentioned and their works were interpreted artistically.

Key words. Oghit, pand, admonition, sermon, Mav'iza, admonition word, metaphor, literary studies, theology, definition, description.

Mav’iza – adabiyotshunoslikka oid va ma’lum ma’noda dinshunoslikka oid atama, arabcha so‘z bo‘lib, o‘git, pand-nasihat va’z kabi ma’nolarni bildiradi. Yana u tavsiya singari ko‘chma majoziy ma’noda ham keladi. Alisher Navoiy daho shoir, buyuk mutafakkir, Sharq mumtoz adabiyoti, falsafasi bilimdoni sifatida o‘zi yaratgan lirik va nasriy xarakterdagi asarlari matnida mav’iza atamasini mav’iza yoki pand-nasihat, va’z shaklida ishlatgan.

Dastlab, maqolada mav’iza atamasini o‘zbek, fors, turk tiliga hamda matnshunoslikka oid lug‘atlarda berilgan ma’no talqinlariga diqqat qilsak. Umuman olganda, ta’rif va ma’lumotlar bir-birini to‘ldiradi.

Navoiy asarlari tiliga bag‘ishlangan lug‘atlardan mav’izaga shunday ta’rif berilgan: “Mavoiz مظعاوم a. (birl. mav’iza مظعوم)Pand-u nasihatlar; Mavoizoso kalom – nasihatomuz so‘z”1.

O‘qib-o‘rganishimizga ko‘ra, birinchidan, o‘zbek va fors tiliga oid lug‘atlarga nisbatan turkcha lug‘atda mav’izaga batafsil ma’lumot, izoh berilgani ko‘rinadi. Ikkinchidan, turkcha lug‘atda mav’izaning leksik ma’nosi hamda adabiyotshunoslikka oid ma’nosidan tashqari diniy-axloqiy jihatiga ham izoh berilgan. Uchinchidan, mav’iza aytiladigan

[1] Shamsiev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug‘ati. – T.: Fan, 1972. – 210 b. Yusuf B. Navoiy tili lug‘ati. Qo‘lyozmada.

maydon, manzil va mav’iza aytuvchi inson ham e’tibordan chetda qolmagan, ya’ni mav’iza o‘quvchi voiz, nasihatchini mav’izaxon deb tushuntirilgan. Quyida keltiramiz:

Matnshunos olim Muhammadjon Hakimov tuzgan “Sharq manbashunosligi lug‘ati”da olim kitobxonga, birinchidan, badiiy asar matnida mav’izalarni badiiy asarning hikmatomuz o‘rinlari deb tushuntirgan va mav’izaga yuksak baho bergan. Ikkinchidan, maxsus mav’izanomalarga ham diqqat qaratgan va boshdan oxir mav’izaga qurilgan badiiy asar sifatida fors tilida yozilgan “Qobusnoma” va o‘zbek tilida yaratilgan “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq” kitoblarini o‘quvchiga mav’izanoma sifatida taqdim etgan:

“Mav’iza, mav’izat – pand-nasihat, o‘git, badiiy asarning hikmatomuz o‘rinlari. Mav’izatnoma butunlay boshdan oxir pand-nasihat, o‘git bilan yozilgan adabiy asar. Chunonchi, Qobus ibn Vashmgirning “Qobusnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlari mav’izatnoma hisoblanadi”.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, M. Hakimov mav’izaga bergan ta’rif-ma’lumotida Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini mav’izanomalar qatorida sanab ko‘rsatmagan. Olim lug‘atlardagi ma’lumotlar asosida mav’iza atamasining birlikda va ko‘plikda qanday qo‘llanishiga ham alohida izoh berib o‘tgan: “Mav’izot (birl. mav’iza) – mav’izalar. q. Mav’iza”.

Forscha lug‘atlarga murojaat qilganimizda, mav’iza ta’rifiga boshqa lug‘atlarda aytilganidek, takror yoki mushtarak jihatlar borligini bildik, ammo “Farhangi zaboni tojik”da mav’izaning tavsiya jihati borligiga alohida urg‘u berilgan. Bu izoh juda to‘g‘ri, tahsinga loyiq, chunki Navoiy mav’izalarini o‘qib-o‘rganganimizda daho shoirning mav’iza, pand-nasihatlaridan tashqari, tavsiyalariga ham ko‘zimiz tushadi: “Mav’iza mav’izat – a. nasihat, pand, andarz va tavsiya ba kore (beshtar dar rohi diny). Ovozi mav’izati Sulaymon ba go‘shi piri dehqon rasid. “Xoriston”[2].

Mahmud Qoshg‘ariyning 1174-yilda yaratgan 7500 so‘zdan iborat “Devonu lug‘ot-it turk” kitobida berilgan mav’iza haqidagi ma’lumotga qiziqib ko‘rdik. Buyuk tilshunos lug‘atida mav’iza so‘zini ishlatmagan, ammo o‘sha davrda mav’iza o‘rnida keng iste’molda bo‘lgan turkiy so‘z – o‘git atamasini qo‘llagan hamda unga quyidagicha ta’rif bergan va izohi uchun xalq tilidan yozib olgan to‘rtlikni misol sifatida keltirgan. O‘qiymiz: O‘gўt – o‘git, nasihat; bu so‘z quyidagi she’riy parchada ham keltirilgandir:

Алғіл o‘гўт мэндін, оғул эрдам тіла,
Бojда улуғ білга болуб, білгін ула.
“O‘g‘il mendan o‘git ol, fazilat tila,
El-yurt orasida ulug‘ olim bo‘l, ilmingni tarqat”.

Mazmuni: ‘‘Ey o‘g‘lim, mendan o‘git-nasihat ol, odobli va tarbiyali bo‘lishga tirish, toki el ichida zo‘r olim bo‘lib tanil va ular orasida odob va ilm tarqat’’[3]. Ko‘rinib turibdiki, 15-20 yil turkiy qabilalar orasida piyoda yurib turkiy so‘zlar lug‘atini tuzar ekan, M. Qoshg‘ariy mazkur atamani qo‘llagan. U odob va ilmning el orasida keng yoyilishiga diqqat qaratgan. U aytgan o‘git-mav’iza hamma zamonlar uchun dolzarb bo‘lib, barcha yoshlarga qaratilgan deyishimiz mumkin.

Yuqorida biz tilga olgan lug‘atlardan ma’lum bo‘ldiki, o‘rganilgan ta’rif, ma’lumot, xabar, misollarga ko‘ra mav’iza arabcha so‘z bo‘lib, keyinchalik, turkiy, forsiy, arabiy lug‘atlarda u haqida ma’lumotlar bera boshlangan. Ba’zi manbalarda esa mav’izani forscha so‘z deb aytilganiga ham ko‘zimiz tushdi. Lug‘at mualliflari o‘z ma’lumotlariga

[2] Фарҳанги забони тожик. 1-жилд. А-О. – М.: Советская экциклопедия, 1969. – С. 616.

[3] Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov). 3 tomlik, 1-tom. Toshkent: Fan, 1960. – B. 85.

isbot sifatida Sharq adabiyoti vakillarining ijodidan misra, bayt, hikmat shaklida misollar keltirilgan. Masalan, “Navoiy asarlari tili” lug‘atini tuzgan P. Shamsiyev, S. Ibrohimovlar Navoiyning “Majolis un-nafois”idan misol keltirgan: “Mav’iza, mav’izat – va’z, o‘git, pand, nasihatlar. “Aning mav’iza qasidag‘a kim, matla’ bitur”[4].

Ma’lumki, Sharq mumtoz adabiyotida buyuk siymolar o‘z asarlari vositasida hikmatli so‘zlarini, boqiy fikrlarini, muhtasham g‘oyalarini mav’iza xarakterida yozib qoldirganlar. Jumladan, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Hakim ota, Shayx Sa’diy, Nosir Xusrav, Firdavsiy, Jomiy, Navoiy, Husayn Voiz Koshifiylar maxsus asarlar yozishgan. Shayx Sa’diyning 1256-yilda yozgan “Guliston” yoki “Bo‘ston” asarlari fikrimiz isboti bo‘ladi. Bu mav’iza xarakteridagi asar. Keyinchalik, Jomiy “Bahoriston”, Navoiy “Mahbub ul-qulub”, Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud ahloq” asarlarini shu uslubda yaratgan. Tazkira mualliflari qalam ahli haqida gapirganda, ular bitgan badiiy asarning hikmatomuz o‘rinlariga e’tibor qilishgan va yo asar uchun, yo muallif shaxsini ochish uchun muhim bo‘lgan mav’izani misolga tortgan. Fikrimiz isboti uchun tazkiranavis Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” asarida keltirilgan Abdurahmon Jomiyning bir mav’izasi yoki Boburning o‘g‘liga yozgan vasiyatida uning insondagi nokaslik salbiy xislati qoralanib, odamiylik ulug‘langan bir mav’izaomuz she’rini tilga olgan. Bular haqida taniqli adabiyotshunos, filologiya fanlari nomzodi B. Rajabova aytib o‘tgan[5]. Hol ibtidosidan kamol martabasigacha ishq ishtiyoqidan holi bo‘lmaganlar. Garchi xalq malomat va ta’nasi pok ko‘ngillariga g‘ubor yetkazgan bo‘lishiga qaramay, muborak ko‘ngillarini bul istakli odatlaridan uzmaganlar.

Maqta’:

Kori Jomiy ishqi xubonastu har so’ olame,

Dar pai inkori o’, u hamchunon dar kori xesh.

Mazmuni: “Jomiyning ishqi yaxshilar ishqidir, ammo har tomondan bir olam (ya’ni ko‘p kishilar) uni inkor etish bilan ovora, u esa avvalgidek o‘z ishi ketidan qolmaydi”. Jomiy ijodini yaxshi bilgan Xasanxoja Nisoriy “Mavlono Jomiy shirin so‘z va totli nozik fikrlarni ko‘p aytganlar” deb uning mav’izalariga izoh bergan[6].

Zikrda Abdurahmon Jomiy xarakteri, fazilatlari va karomatlarini ochib beruvchi, ibratli hayotidan xabar beruvchi ikkita hikoyat tamsil qilingani maqtovga loyiq. Birinchi hikoyat shaklan qisqa bo‘lsa-da, mazmunan boy bo‘lib, unda ulug‘ shoirning so‘zdagi odob, hozirjavoblik, qanoatpeshalik singari fazilatlari yorqin namoyon bo‘lgan deyish mumkin: “Bir kuni podshohzodalardan biri bir bo‘lak novvotni tishi bilan sindirib, qaysi birini olmoq istaysiz, debdi. Alar lab shirin qilib, har ikkalasi ham biz uchun ko‘plik qiladi, degan ekanlar”[7].

Alisher Navoiy daho shoir, buyuk adib, davlat arbobi sifatida yaratgan o‘ttizdan ortiq lirik va nasriy xarakterdagi asarlarida mav’izabop fikrlarini bitgan, tavsiyalar bergan. U yaratgan mav’izalar lug‘atlarda mav’izaga berilgan ta’riflarga aynan javob beradi. Navoiyshunoslikda Navoiy mav’izalari degan ibora ishlatilmasa-da, ammo respublikamiz hamda xorijlik olimlarning Navoiy o‘giti, didaktikasi degan fikr-qarashlari mavjud. Xususan: O. Sharafiddinov, S. Ayniy, M. Shayxzoda, A. Hayitmetov, A. Qayumov, S. G‘aniyeva, I. Haqqulov, Sh. Sirojiddinov, M. Muhiddinov, B. Rajabova kabi navoiys-

[4] Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. MAT. 13-jild. – T.:Fan, 1997. – 43 b.

[5] Rajabova B. Temuriy Renessansi va “Boburnoma”. – T.: Fan, 2022. – 154-155 b.

[6] Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 3–6-b.

[7] Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 40–41 b.

hunoslar o‘z tadqiqotlarida Navoiyning pandlari, nasihatlari, hikmatlari, shohbaytlari, so‘zlari, so‘z muddaolari, shoirning niyati shaklida ma’lum ma’noda tadqiqotlarni amalga oshirgan. Mazkur maqolada katta avlod navoiyshunoslarining biz yuqorida sanab ko‘rsatgan olimlar fikrlariga asoslanib, “Navoiy ijodida mav’iza” nomi ostida o‘z talqinlarimizni yoritishga harakat qildik.

Alisher Navoiy asarlarining mazmun va shakl mundarijasiga qarab, u yaratgan mav’izalarni:

1) lirik shakldagi mav’izalar.

2) nasriy usuldagi mav’izalar tarzida tasnifladik.

Daho shoir asarlariga mazkur mavzu yuzasidan murojaat qilsak, u umrining so‘nggi kunlarida yozib tugatgan “Mahbub ul-qulub” nomli asari mav’izaga qurilgan bo‘lsa, “Xamsa” dostonlarida maxsus bob, fasl, maqolalarda ham o‘z mav’izalarini badiiy talqin qilganki, ilm, islom, vafo, tuzlik, karam, saxo, adl bilan bog‘liq bob va maqolotlarni eslash kifoya.

Alisher Navoiy mav’izalarini an’anaviy va navoiyona uslubga xos mav’izalar sifatida ham alohida tasnif qilish mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mav’iza atamasi o‘zbek mumtoz adabiyotida, xususan, diniy va dunyoviy adabiyotimizda birdek, o‘git, pand, nasihat, va’z shaklida qalamga olingan bo‘lib, ular muallif hamda asar qahramonlari tilidan aytilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shamsiev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug‘ati. – T.: Fan, 1972. Yusuf B. Navoiy tili lug‘ati. Qo‘lyozmada

2. Ilham Ayverdi. Misalli Buyuk Turke Sozluk. – Anqara, 2005.

3. Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug‘ati. – T.: Davr press NMU, 2013.

4. Farhangi zaboni tojik. 1-jild. A-O. – M.: Советская энциклопедия, 1969.

5. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov). 3 tomlik, 1-tom. – T.: Fan, 1960.

6. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. MAT. 13-jild. – T.: Fan, 1997.

7. Rajabova B. Temuriy Renessansi va “Boburnoma”. – T.: Fan, 2022.

8. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.

Sherzod SULTONOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
“Matematika-informatika” kafedrasi o‘qituvchisi

VAN HIELE NAZARIYASINING PLANIMETRIYA ELEMENTLARIGA TADBIQINING ANALIZI

Annotatsiya

Ushbu maqola Van Hiele nazariyasining geometriya fanini qanday o‘rgatish ko‘proq natijaga olib kelishiga bag‘ishlangan. Shuningdek, o‘quvchilarning geometrik fikrlashini va tasavvurini rivojlantirishda Van Hiele nazariyasining tadbiqi elementar geometrik shakllar orqali atroflicha o‘rganilgan. Ushbu metod o‘rganuvchilarning nisbatan yaxshiroq tushunish va natijalarga erishishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Geometriya, metodika, fikrlash, geometrik figura, tasavvur.

Эта статья посвящена тому, как теория ван Хиле учит геометрии быть более эффективной. в статье также исследуется применение теории ван Хиле в развитии геометрического мышления и воображения учащихся посредством элементарных геометрических фигур. этот метод помогает учащимся лучше понять и достичь результатов.

Ключевые слова: Геометрия, методика, мышление, геометрическая фигура, воображение.


This article is devoted to how Van Hiele’s theory teaches the science of geometrics leads to a greater result. Also in the article, the application of Van Hiele theory in the development of geometrical thinking and imagination of students was studied in detail through elementary geometrical forms. This method helps learners to have a relatively better understanding and achieve results.

Key words: Geometry, methodology, thinking, geometrical figure, imagination.

Nazariyaga ko‘ra, geometriyada fikrlash yoki tushunishning beshta darajasi mavjud:

0 darajali – vizualizatsiya;
1-darajali – tahlil;
2-darajali – abstraktsiya;
3-darajali – deduksiya;
4-darajali – qat’iylik.
0-darajali – vizualizatsiya (asosiy vizualizatsiya yoki tanib olish).

Ushbu darajada o‘quvchilar vizual idrok va og‘zaki bo‘lmagan fikrlashdan foydalanadilar. Ular geometrik figuralarni shakli bo‘yicha “bir butun” deb hisoblashadi va kundalik narsalar bilan taqqoslashadi hamda ularni toifalarga ajratadilar, (“bu / bu emas...”). Ular oddiy (soda) tildan foydalanadilar. Ular geometrik figuralarning xususiyatlarini aniqlamaydilar. Masalan: quyidagi rasmda o‘quvchilar bu uchburchak, bu uchburchak yoki bu aylana emas, bu kattaroq, bu esa, kichikroq… kabi ma’lumotlar bilan cheklanishadi. bolalar uchburchaklarni toifalarga ajratadilar (1-rasm).



1-rasm.

1-darajali – tahlil (Tavsif):

Ushbu darajadagi o‘quvchilar (talabalar) geometrik figuralarning xususiyatlarini tahlil qilishni va nomlashni boshlaydilar. Ular xususiyatlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlamaydilar va barcha xususiyatlar muhim deb o‘ylashadi. Ular empirik tarzda kashf etilgan faktlarni isbotlashlari zaruriy bo‘lmaydi. Ular o‘lchash mumkin, yo‘l va qog’oz kesib, geometrik dasturiy ta’minot va hokazo foydalanish (2-rasm).




2-rasm.

1-darajadagi bolalar to‘rtburchaklarning faqat bittasini aniqlaydilar.

2-darajali – abstraktsiya (munosabat):

Ushbu darajadagi o‘quvchilar yoki talabalar xususiyatlar va raqamlar o‘rtasidagi munosabatlarni seza boshlaydilar. Mantiqan mazmunli ta’riflar hosil qilishadi. Ular o‘zlarining fikrlarini asoslash uchun oddiy dalillarni berishga harakat qilishadi. Mantiqiy chizmalar va diagrammalarni chizishlari, eskizlar, panjara qog‘ozi, geometrik o‘quv qurollaridan foydalanishlari mumkin (3-rasm).



3-rasm.

2-darajadagi bolalar parallelogramlarning mantiqiy chizmalarini chizishlari mumkin.

3-darajali – deduksiya (Rasmiy deduksiya):

Ushbu darajadagi talabalar deduktiv geometrik dalillarni berishlari mumkin. Ular zarur va yetarli shartlarni bir-biridan farqlashadi. Shuningdek, geometrik obyektning qanday xossalarini boshqalar nazarda tutishini mumkin ekanligini aniqlaydilar. Ta’riflar,

teoremalar, aksiomalar va isbotlarning tushunishdagi ahamiyatini anglay boshlaydilar.

4-darajali – qat'iylik:

Ushbu darajadagi talabalar matematik tushunchalarni qanday intensiv o'rganish mumkin ekanini tushunadilar. Ular barcha turdagi dalillardan foydalana oladilar. Ular Evklid va Evklid bo'lmagan geometriyani farqlashadi va alohida tushunadilar. Ular aksiomani qo'shish yoki olib tashlashning berilgan umumiylikka zarar berish yoikni zarar bermasligini oldindan ko'ra olishadi.

Yuqoridagi darajalar beshta muhim xususiyatga ega:

Belgilangan ketma-ketlik (tartib).

Talaba (n−1) darajadan o'tmasdan n darajaga erisha olmaydi. Shuning uchun talaba darajalarni barcha ketma-ketligidan o'tishi kerak.

Masalaga yetarli dajada yaqinlik. Har bir darajada oldingi darajadagi o'z ma'nosida asosiy tushuncha, hozirgi darajada o'z ma'nosida qo'shimcha bo'ladi. Ya'ni, avvalgi darajadagi asosiy va muhim bo'lgan natijalar navbatdagi yoki keyingi darajalar uchun yordamchi ma'lumot sifatida ko'riladi.

Tafovut (farq). O'quvchilarga bir bosqichning o'zidan kelib chiqadigan xossalar hamda ularni o'zaro bog'lovchi unsurlarnig ma'nolarini yetkazish ularning aniq ta'riflariga qaraganda ko'proq ma'ruzachining ushbu tushunchalarni bilan bog'laydigan tajribalaridan foydalanishiga bog'liq bo'ladi. Bir darajada "to'g'ri" bo'lishi mumkin bo'lgan fikr boshqa darajada to'g'ri bo'lishi shart emas.

Ajratish. Turli darajadagi ikki kishi bir-birini tushuna olmaydi. Masalan: O'qituvchi "boshqacha tilda" gapiradi (tushuntiradi) o'quvchi esa "boshqacha tilda" tushuntiradi. Bu xususiyat geometriyadagi muvaffaqiyatsizlikning asosiy sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Yetishish. Keyingi bosqichda to'liq tushunishga olib keladigan o'quv jarayoni beshta bosqichga ega bo'ladi: – axborot, yo'naltirilgan yo'nalish, tushuntirish, erkin yo'nalish, integratsiya. Bular qat'iy ketma-ketlikda emas.

O'quv jarayonining besh bosqichi

Van Hieles geometriyadagi aqliy rivojlanishni ko'rsatmalar bilan tezlashtirish mumkin deb hisoblagan. Bir darajadan keyingi darajaga o'tish yoshi yoki ijtmoiy holatiga qaraganda ko'proq ko'rsatmalarga bog'liq. Ular o'qituvchi o'quvchilarni bir darajadan keyingi darajaga qanday yo'naltirishi kerakligi to'g'risida aniq tushuntirishlar berishdi. Biroq, bu jarayon o'nlab soat davom etishi mumkin.

Axborot yoki izlanish.

Talabalar materialni olishadi va uning tuzilishini kashf etishni boshlaydilar. O'qituvchi o'quvchilar bilan o'ta soda, tushunarli "til"da suhbat o'tkazadi va bu jarayonda u foydalanmoqchi bo'lgan kontekst aniq bo'ladi

Boshqariladigan yoki yo'naltirilgan yo'nalish.

Talabalar yashirin (bir qarashda ko'rish qiyin bo'lgan) xossalarni o'rganishga yordam beradigan vazifalarni bajaradilar. O'qituvchi o'quvchilarga yangi tushunchaning xususiyatlarini nisbatan osonroq o'rganishga imkon beradigan jarayonlarni taklif qiladi. Kontekstga tegishli xususiyatlar kashf etiladi va muhokama qilinadi. (O'qituvchi shunday deb so'rashi mumkin: "rombni diagonal bo'ylab kesib, buklaganingizda nima bo'ladi?).

Tushuntirish yoki tushunish. O'qituvchi aytishi mumkin: "Mana biz ko'rgan xossalar va siz kashf etgan tushunchalar uchun ba'zi bir terminologiyalar. Keling, bular nimani anglatishini muhokama qilaylik: diagonallar simmetriya chiziqlarida yotadi. Simmetriyaning ikkita chizig'i mavjud. Qarama-qarshi burchaklar teng. Diagonallar

parabola uchining burchaklarini ikkiga bo‘ladi.”

Talabalar murakkab vazifalarni mustaqil ravishda bajarishadi. Bu ularni materialdagi munosabatlarni o‘zlashtirishga olib keladi. Ular o‘rganilayotgan xususiyatlarni bilishadi, lekin ular turli vaziyatlarda munosabatlarni tushunishi qiyin bo‘ladi. Ushbu turdagi faoliyat ancha ochiq. O‘qituvchi shunday deyishi mumkin: “qanday qilib rombning faqat ikki tomoni berilgan?, qanday qilib,…”

Integratsiya. Talabalar o‘rgangan narsalarini umumlashtiradilar va yodda tutadilar. O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rgangan hamma narsalar haqida umumiy ma’lumot berishi kerak. O‘qituvchi ushbu bosqichda hech qanday yangi materialni emas, balki allaqachon o‘rganilgan narsalarning xulosasini taqdim etishi muhimdir.

Ustoz shunday deyishi mumkin: “biz o‘rganganlarimizning qisqacha mazmuni. Buni daftaringizga yozing va uy vazifasi uchun ushbu mashqlarni bajaring.”

Per van Xiele shunday deb yozgan edi: “Ma’lum ma’lumotni o‘rganish uchun faqat ma’lum darajada aniqlanishi kerak bo‘lgan narsani bilishni o‘zi yetarli.”

Van Hiele nazariyasiga asoslangan Amerika tadqiqotlari. Amerika tadqiqotining asosiy maqsadi van Hiele nazariyasining o‘rta maktab geometriyasida o‘quvchilarning ishlashini tavsiflash va bashorat qilish qobiliyatini sinab ko‘rish edi. Sinovdan o‘tgan namuna 2699 maktabda bir yillik geometriya kursiga qabul qilingan 13 talabadan iborat edi. Yettinchidan o‘n ikkinchi sinfgacha bo‘lgan talabalar bor edi, talabalarning 96% 14 yoshdan 17 yoshgacha edi. Van Hiele darajasidagi Test o‘quv yilining birinchi haftasida va yana maktab tugashidan to‘rt hafta oldin o‘rnatildi. Bundan tashqari, boshqa testlar belgilangan edi. Van Hiele darajasida ham 25 savol test mavjud. Har bir darajasi uchun 5 tadan. Bu ko‘p tanlovli sinov edi.

Asosiy natijalar: Van Hieles tomonidan berilgan shaklda 0 – 3 darajalari osongina sinovdan o‘tkaziladi, ammo 4 darajasi mavjud emas yoki sinovdan o‘tkazilmaydi.

Van Hiele darajasi standart sinov va isbot sinovlaridan bajarish juda yaxshi bashorat qiluvchi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, dunyoda van Hiele nazariyasiga asoslangan ikkita tadqiqot yo‘nalishi mavjud. Ko‘pgina tadqiqotchilar van Hiele nazariyasini matematikaning boshqa sohalariga, masalan, mantiqiy Algebra, funktsiyalarni tahlil qilish – hisoblash va boshqalarga o‘tkazishni xohlashadi. Van Hiele darajasining yuqori bo‘lishiga erishish uchun dinamik geometriyadan foydalanish sohasida qo‘shimcha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Van Hielle M.P., Structure and insight. A theory of mathematics Education, Academic press Inc, 1986.

2. Battista M.T., Clements D.H., Geometry and Proof, The Mathematics Teacher, 88(1), 48-54,1995

3. Shenk S.: How Well Do Students Write Geometry Proofs?, The Mathematics Teacher, 78(6), – 448-456, 1985.

4. Crowley M.L., The van Hiele Model of the Development of Geometric Thought, In Learning and Teaching.

Nigora BOTIROVA,
Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi dotsenti, PhD

FANLARNI O‘QITISHDA VR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayoni va uning samarali tadbiq etilish amaliyotini yanada yuksaltirib, hozirgi zamon ta’limining rivojlanishida asosiy vazifalarni belgilab beruvchi zamonaviy tendensiyalar va mavjud jahon tajribasiga diqqat bilan nazar solishni talab etmoqda. Ta’lim tizimida fanlarni o‘qitishda virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil etish o‘quvchilarning bilim va sifat samaradorligi oshishiga olib keladi.

Kalit so‘zlar. Raqamli texnologiya, virtual reallik, dasturiy vositalar, kompyuter, multimediya, raqamlashtirish, jarayon, grafika.

Использование цифровых технологий в образовании еще больше расширяет образовательный процесс и его эффективную реализацию, требует внимательного взгляда на современные тенденции и существующий мировой опыт, которые определяют основные задачи развития современного образования. Организация занятий с использованием технологий виртуальной реальности (VR) при преподавании предметов в системе образования приводит к повышению знаний и качества учащихся.

Ключевые слова. Цифровые технологии, виртуальная реальность, программные средства, компьютер, мультимедиа, цифровизация, процесс, графика.

The use of digital technologies in education further improves the educational process and its effective implementation, and requires careful consideration of modern trends and current world experience, which determine the main tasks in the development of modern education. Organization of classes using virtual reality (VR) technologies in teaching subjects in the educational system leads to an increase in the knowledge and quality of students.

Key words. Digital technology, virtual reality, software tools, computer, multimedia, digitalization, process, graphics.

Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayoni va uning samarali tadbiq etilish amaliyotini yanada yuksaltirib, hozirgi zamon ta’limining rivojlanishida asosiy vazifalarni belgilab beruvchi zamonaviy tendensiyalar va mavjud jahon tajribasiga diqqat bilan nazar solishni talab etmoqda. Ta’lim tizimida fanlarni o‘qitishda virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil etish, o‘quvchilarning bilim va sifat samaradorligi oshishiga olib keladi.

Ta’lim sohasida virtual reallik tushunchasi keng ma’noda qo‘llanilmoqda. Masalan: virtual mashina, virtual xotira, virtual disk, virtual aloqa, virtual sayohat, virtual sinf va h.k. Birgina ushbu sohada ham virtual tushunchasi turli shakl va ma’nolarda qo‘llanilib kelinmoqda va bir-biridan farqli ma’nolarni anglatadi. Masalan, multimedia tizimlarida virtual tushunchasi virtual borliq ma’nosini beradi.

Virtual (lotincha Virtualis — mumkin bo‘lgan, ya’ni muayyan bir sharoitlarda sodir bo‘ladigan yoki ro‘y berishi mumkin bo‘lgan) tushunchasi narsalar hamda hodisalarning vaqt va makonda mavjud bo‘lmagan, lekin obyektiv narsalar yoki subyektiv obrazlarn-

ing amalga oshish ehtimoli mavjud bo‘lgan jarayonni anglatadi.

Virtual borliq atamasi kompyuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g‘oyasini ifoda etadi. ‘‘Virtual borliq’’ atamasi muomalaga amerikalik kinematograf-chilar tomonidan kiritilgan. Ular muayyan sabablarga ko‘ra tabiiy yo‘l bilan amalga oshirib bo‘lmaydigan xayoliy imkoniyatlarni belgili-grafik shaklda sun’iy amalga oshirish mumkinligi haqidagi kinolentani shu nom bilan chiqarganlar. Virtual borliq — inson real borliqda harakat qilayotgan illyuziyasini kompyuterda yaratish imkonini beruvchi interfaol texnologiya. Bunda obyektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o‘rnini maxsus interfeys, kompyuter grafikasi va ovoz vositasida sun’iy yaratilgan kompyuter axboroti egallaydi. Virtual borliq amalda yo‘q narsa, uni qo‘l bilan tutish, uning ta’mi va hidini his qilish mumkin emas. Shunga qaramay, u mavjud va inson bu xayoliy olamga kirib, uni nafaqat kuzatadi va boshdan kechiradi, balki unga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi, ushbu olamda mustaqil harakat qiladi, uni o‘zgartira oladi. Virtual olam-inson borlig‘ining o‘ziga xos shakli va odamlar ma’naviy aloqasining alohida madaniy ifodasidir.

Bu borada, T.T. Shoymardonov, V.S. Xamidov, M. Fayzievalarning fikriga ko‘ra, bugungi ta’lim tizimida “virtual borliq” va “virtual ta’lim” atamalari paydo bo‘lgan. Virtual borliq immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog‘liq. Immersivlik deganda insonning virtual borliqda o‘zini faraz qilishini tushunish lozim bo‘lsa, interfaollik foydalanuvchi aniq vaqtda virtual borliqdagi obyektlar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lib, ularga ta’sir ko‘rsatishga ega bo‘ladi.

E.M. Kravchenya virtual borliq tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: foydalanuvchini suniy olamga sho‘ng‘ishiga imkon beruvchi va harakatlarni audiovizual natijalariga bog‘laydigan maxsus sensorli qurilmalar yordamida bevosita harakat qilishga imkon beradigan kompyuterli modellashtirishning yuqori darajali rivojlangan shakli.

Ammo virtual borliq real fizik borliqdek lazzat baxsh eta olmaydi, chunki bu borliq ta’sirida vujudga keluvchi his-tuyg‘ular ko‘p jihatdan uning o‘zi bilan emas, balki uni biz qanday idrok etishimiz bilan belgilanadi. Biz virtual dengizda cho‘milishimiz mumkin, ammo bunda paydo bo‘luvchi his-tuyg‘ularimiz bu dengizni biz qanday idrok etishimizga bog‘liq bo‘ladi.

Virtual tarvuz haqiqiy tarvuzdan shirin emas va h.k. Virtual borliqni odamlar yaratadi. Shu bois virtual borliqda mavjud barcha narsalarning manbai inson ongidir. Binobarin, virtual borliq ong, ong osti sohasi va fantaziya chig‘irig‘idan o‘tuvchi fizik borliqdan shakllanadi. Virtual borliq obyektiv tarzda, ya’ni inson miyasida emas, balki kompyuterda mavjud bo‘ladi. Ayni vaqtda, u inson ongining mahsulidir. Inson tomonidan yaratilganidan keyin u inson ongidan qat’iy nazar yashashda davom etadi, bu ongga har xil ta’sir ko‘rsatadi, mazkur ongning mazmuniga – bilimlar, emotsiyalar, kayfiyat hamda ongning boshqa unsurlariga qarab har xil idrok etiladi.

Bugungi kunda virtual borliq inson madaniy faoliyatining turli sohalarida qo‘llanilmoqda. Virtual borliqdan eng avvalo u vujudga kelgan sohada, fanda, ta’lim sohasida, jumladan fizikada suyuqlik va gazlar dinamikasini modellashtirishda, kimyoda kimyoviy reaksiyalar modelini tuzish va turli virtual laboratoriya ishlarini bajarishda, geologiya va geografiya fanlarida foydalanilmoqda.

Muhandislik sohasida, ayniqsa, inson hayotiga xavf tug‘diruvchi sharoitlarda: ochiq kosmosda, dengiz va okeanlarning chuqur joylarida, yadro muhandisligida robotlarni masofadan turib boshqarishda virtual borliq keng qo‘llanilmoqda.

Kompyuter dizayni va uning ajralmas hamrohi – kompyuter ishlab chiqarishi rake-

talar va samolyotlar, avtomobillar, katta binolar konstruksiyalarini sinovdan o‘tkazishda yagona jarayonga birlashtirildi.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘qitishda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanib (virtual video ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, stendlar, ko‘rgazmali qurollar), o‘qitishning shakl va usullari yanada takomillashtirilib borilmoqda. Bunda o‘quvchilar fanga oid o‘quv materiallarni vizual shaklda o‘rganish va amaliy mashg‘ulot topshiriqlarini virtual laboratoriyalar yordamida bir necha bor tajribalar o‘tkazish imkoniyatiga hamda o‘quvchilar fanga oid hodisa va jarayonlarni virtual shaklda ko‘rishga, kuzatishga ega bo‘ladi.

Ta’lim sohasida mashq trenajyorlarini yaratishda virtual borliq texnologiyasidan foydalanilmoqda. Yaqinda virtual kutubxonalar va muzeylar tashkil etish konsepsiyasi taklif qilindi. Masalan, virtual kutubxonalarda foydalanuvchi kompyuter yordamida kitob javonlarining vizual tasviri bo‘ylab harakatlanishi, kerakli adabiyotlarni topishi va olib ko‘zdan kechirishi, zarur holda esa ulardan nusxa ko‘chirishi mumkin.

Virtual muzey konsepsiyasi bir qadar boshqacha. Virtual muzey foydalanuvchilarga kolleksiyadagi istalgan eksponatni uning tabiiy, uch o‘lchovli ko‘rinishida ko‘rish imkonini beradi. Ammo bu tasviriy yechish qobiliyati ancha yuqori bo‘lgan displeylarni taqozo etadi. Shunday qilib, virtual borliq nazariy izlanishlardan ommaviy axborot vositalari va telekommunikatsiyalar ajralmas qismi bo‘lgan hozirgi zamon madaniyatining tarkibiy qismiga aylandi.

Ta’limiy maqsadlarda virtual reallik vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan axborotlarni vizuallashtirish vositalarini yaratish boshqa texnik vositalar yordamida erishib bo‘lmaydigan pedagogik samarani berishi mumkin. Virtual borliq immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog‘liq. Immersivlik deganda odamning virtual borliqda o‘zini faraz qilishini tushunish lozim. Interfaollik foydalanuvchi real vaqtda virtual borliqdagi obyektlar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lib ularga ta’sir ko‘rsatishga ega bo‘ladi.

Virtual borliq tizimi deganda – biz imitatsion dasturiy va texnik vositalarni qabul qilamiz. Interfaollikni ta’minlash uchun, virtual tizim boshqaruvchi amallarni qabul qilishi kerak. Bu amallar ko‘z bilan ko‘radigan, tovush orqali qabul qiladigan bo‘lishi kerak. Bu amallarni amaliyotda bajarish uchun zamonaviy tizimlarda turli tovush va videotexnologiyalardan foydalaniladi. Masalan, katta hajmli tovush va videotizimlari, shuningdek, odamning bosh qismiga o‘rnatiladigan shlem va ko‘zoynak displeylar, “hid sezadigan” sichqonchalar, boshqaruvchi qo‘lqoplar, kibernetik nimchalar simsiz interfeys birgaligida ishlatiladi.

Fanlarni o‘qitishda virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish asosida ushbu fanga nisbatan yanada qiziqishi va motivatsiyasi oshadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazishga, fikrlash doirasini yanada kengaytirishga hamda taffakurini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бабенко Валерий Сергеевич. Виртуальная реальность. Толковый словарь терминов / Бабенко Валерий Сергеевич. – М.: “Трамвай” (Магадан), 2012. – С. 675.

2. Кадубец Тамара. Воспитание школьников в педагогической среде виртуальной реальности / Тамара Кадубец. – М.: “LAP Lambert” Academic Publishing, 2012. – С. 176.

3. Decreusefond L, Moyal P (2012) Stochastic Modeling and Analysis of Telecom Networks. John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, NJ.

Nasibaxon ABDULLAYEVA,
pedagogika fanlari doktori, professor

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MAS’ULIYATNI SHAKLLANTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘qituvchilik kasbida pedagogik mas’uliyatning zaruriyati va uni shakllantirishda muxim bo‘lgan vazifalar xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida pedagogik mas’uliyatni shakllantirish bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimi borasidagi fikrlar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar. Pedagogik mas’uliyat, kasbiy javobgarlik, kasbiy burch, kasbiy sifat, pedagogik faoliyat, erkinlik, zamonaviy sharoit, pedagogik muammo, intellektual harakat.

В данной статье говорится о необходимости педагогической ответственности в профессии учителя и задачах, важных при ее формировании. Также будут обсуждены проблемы, связанные с формированием педагогической ответственности в высших учебных заведениях и мнения по их решению.

Ключевые слова. Педагогическая ответственность, профессиональная ответственность, профессиональное качество, профессиональное качество, педагогическая деятельность, свобода, современные условия, педагогическая проблема, интеллектуальное движение.

This article talks about the necessity of pedagogical responsibility in the teaching profession and the tasks that are important in its formation. Also, problems related to the formation of pedagogical responsibility in higher education institutions and opinions on their solution will be discussed.

Key words. Pedagogical responsibility, professional responsibility, professional quality, professional quality, pedagogical activity, freedom, modern conditions, pedagogical problem, intellectual movement.

Respublikamizda yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish jarayonini yanada takomillashtirish uni ishtirokchilari uchun har tamonlama qulayliklar yaratish, pedagogik jarayon mazmunini takomillashtirish, o‘qituvchilar tayyorlash jarayoniga yangicha yondashuvlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni bola shaxsini har tomonlama rivojlanishida muhim bo‘lgan kompetensiyalarini o‘zlashtirishlari borasida ko‘plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bunda pedagogik mas’uliyat shaxsning ijtimoiy, fuqarolik, umuminsoniy, milliy madaniyat va qadriyatlarni qadrlash singari muhim kasbiy sifatlar bilan bog‘liq. Hozirgi vaqtda tashkilotlar, fuqarolar, umuman jamiyatning davlat oldidagi mas’uliyati faol muhokama qilinmoqda. Buning sabablari sifatida hozirgi shiddatli zamonda rivojlanishning turli sohalarida ro‘y berayotgan keskin o‘zgarishlarni ko‘rsatish mumkin. Bu jarayonda shaxs-fuqaro-xodim zimmasida lavozim majburiyatlarini bajarish, ijtimoiy hayotdagi boshqa rol va vazifalarini sidqidildan amalga oshirish kabi yuklamalar mavjuddir. Demak, har bir ijtimoiy faol fuqaroda millat, davlat, jamiyat va oilasi oldida mas’uliyatini his etish ehtiyoji bo‘ladi. Shu tufayli shaxsda ham psixologik, ham jismoniy zo‘riqish yuzaga keladi. Natijada ular o‘z vazifasini vijdonan bajara olmaydi, muayyan turdagi vazifalarni amalga oshirishda to‘siqlarga duch keladi. Biroq bu muammolar aynan o‘qituvchilar faoliyatida ijtimoiy ta’sirga ega. Mas’uliyatlilik tan olingan norma va qoidalarni bajarishni nazarda tutadigan subyekt faoliyatini nazorat qilish shaklidir.

Shu bois mutaxassislarda pedagogik faoliyatda mas'uliyatni fidoyilik darajasida tarkib toptirish dolzarbdir.

Yosh avlod ta'lim-tarbiyasida o'qituvchining o'rni va pedagogik mas'uliyatning yuqori bo'lishi ta'lim-tarbiya jarayonining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarda mas'uliyatni rivojlantirish masalasini biz pedagogik muammo sifatida tanlab oldik.

Alohida ta'kidlash kerakki, mas'uliyat, erkinlik shaxsning jamiyat, jamoa, oila oldidagi javobgarlikni his qilishi asosida shakllanib boradi. Shaxs "javobgarlik", "erkinlik", "mas'uliyat" kabi tushunchalar mazmunini o'rganib, anglab borar ekan, mutlaq ozod bo'lish istagi paydo bo'la boshlaydi. Lekin tarixdan ma'lumki, bunday holatlar insonlar hayotida ko'plab fojialarga sabab bo'lgan va ayanchli yakun topgan. Shuning uchun ham erkinlik, javobgarlik va mas'uliyat o'zaro bir-biri bilan uyg'un bo'lishi zarur.

O'qituvchining faoliyati natijasi nafaqat bilimlarni uzatish, balki shaxsni har tomonlama kamol toptirishdan iborat bo'lishi zarur. Bunda pedagogik ta'limning maqsadi – yuqori darajada mas'uliyatli, kasbiy jihatdan yetuk yangi avlod o'qituvchisini tarbiyalashdir. Ularda kasbga sadoqat, bolalarga muhabbat, ma'naviy madaniyat, shuningdek o'z ilmiga yuksak ishtiyoq bilan yondashish, yuqori professionallik, yangiliklarni faoliyatga tatbiq etish, doimiy o'zini o'zi tarbiyalash kabi fazilatlarning shakllanishiga alohida e'tibor berish lozim.

Oliy ta'limning jamiyat oldidagi mas'uliyati quyidagilardan iborat:

– talabalarga sifatli ta'lim berish, ularni ko'nikma, malakaga erishtirish. Zero davlat va jamiyat rivojlanishi hamda barqarorligi sifatli ta'limga bog'liq;

– jamiyatni rivojlantirishda mas'uliyat bilan o'z zimmasidagi vazifalarni yuksak darajada bajara oladigan malakali kadrlar tayyorlash;

– oliy pedagogik ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy mavqeini ko'tarish, kasbiy rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rni qanday bo'lishiga oid bilimlar berish;

– Oliy o'quv yurti barcha o'qishga qabul qilingan talabalar hamda ilmga intiluvchan, iqtidorli va salohiyatli yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratib berishi zarur.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim tizimi oldida nafaqat yuqori malakali, raqobatbardosh, zamonaviy innovatsion g'oyalarga ega mutaxassis, balki o'z vatanining mas'uliyatli fuqarosi, ma'naviy yetuk, ziyoli, yuqori madaniyatli insonni tarbiyalash vazifasi turibdi, shu bois uning jamiyatdagi o'rni beqiyos, imiji baland, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda ilg'or pog'onalarda bo'lishi shart.

Oliy ta'lim muassasasining ijtimoiy mas'uliyat bilan faoliyat olib borishi, ishlab chiqarish sifati yuqoriligi ushbu ta'lim muassasasi nufuzini oshiradi, ta'lim sifati yuqori baholanishi, raqobatbardoshlikning oshishiga olib keladi va bu oliy ta'lim maskani faoliyatining yanada samarali bo'lishi bilan birga istiqbolli rejalar tuzish uchun ham zamin yaratadi.

Davlatimizning bugungi siyosati ta'lim-tarbiya sohasida umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor qaratishni talab qilmoqda. Shu bilan bog'liq holda zamonaviy ta'lim bo'lajak o'qituvchilarga jiddiy talablar qo'ymoqda. Bundan ko'zlangan maqsad ijtimoiy munosabatlarga kirishishga yordam beradigan asosiy shaxsiy fazilatlarni aniqlash va mustaqil faoliyatda ularni qo'llash hamda butun faoliyatni mas'uliyat bilan boshqarish masalalariga e'tibor qaratishdan iboratdir. Shaxsning ijtimoiy rivojlanganlik ko'rsatkichini belgilovchi fazilatlardan biri bu mas'uliyatdir.

"Mas'uliyat" deganda shaxsiy sifatlarning o'zaro bog'liq holda bir butunlikda namoyon bo'lishi, mustaqil qaror qabul qilish va natijani oldindan ko'ra bilish kabi

jihatlarni tushunamiz.

Kasbiy erkinlik va mas’uliyat hissini oshirish o‘z yechimini kutayotgan muhim muammolardan sanalib, u ijtimoiy faoliyat jarayonida mavjud holatlardan kelib chiqib, amalga oshiriladi.

Hozirda ro‘y berayotgan globallashuv jarayonida davlat va jamiyatning barcha sohalarida erkinlik va mas’uliyat tamoyillari amal qilinishi shart bo‘lgan asosiy tamoyillar sifatida singdirilmoqda. Shu bilan birga, siyosiy erkinlik – siyosiy mas’uliyat, ijtimoiy erkinlik – ijtimoiy mas’uliyat, iqtisodiy erkinlik – iqtisodiy mas’uliyat, intellektual erkinlik – intellektual mas’uliyat, kasbiy erkinlik – kasbiy mas’uliyat, axloqiy erkinlik – axloqiy mas’uliyat, huquqiy erkinlik – huquqiy mas’uliyat, fuqaro erkinligi – fuqaro mas’uliyati o‘zaro dialektik bog‘liq tushunchalar ekanini unutmaslik lozim.

Abduraimov Sh. o‘zining tadqiqot ishida mamlakatimizda mas’uliyatni shakllantirish borasidagi harakatlarni ta’limning hal qiluvchi bosqichi bo‘lgan maktabdanoq shakllantirishga kirishish maqsadga muvofiq ekanini ta’kidlaydi .

Har bir insonning o‘z xohish-istaklari va maqsadiga muvofiq yashashi hamda faoliyat yuritishi “erkinlik” deb tushuniladi. Har bir insonda erkinlikka intilish istagi mavjud bo‘lib, bu tabiiy holat sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, yashashga va bilim olishga intilish, muayyan maqsad sari harakatlanish, o‘zi istagan faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lish kabi tanlovlar erkinlikda amalga oshsa, uning hayoti mazmunli va ko‘tarinki ruhda bo‘lishi ta’minlanadi. Lekin bu erkinlik o‘zgalar manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak, erkin shaxsda odob-axloq me’yorlari va qonun qoidalarni mensimaslik havfi kuchayishini inobatga olgan holda bu jihatlarni shakllantirish talab etiladi. Imkoniyatlar, tanlovlarning xilma-xilligi inson erkinlik tuyg‘usini his qilishiga sabab bo‘ladi yoki buning aksi – tanlash imkonining yo‘qligi erkinlikning yuzaga chiqishiga to‘siq bo‘ladigan xavflardan biri sanaladi. Bundan xulosaga kelish mumkinki, tanlov bu erkinlik uchun sharoit yaratib, insondan irodaviy, intellektual harakatni talab qiladi. Inson qanchalik qat’iyatli, irodali va o‘ziga ishonch hissi yuqori bo‘lsa, u ko‘zlagan maqsadiga albatta yetadi. Maqsad va xohish aniq sharoit, imkoniyatlar, o‘z salohiyatiga mos kelishi va tizimli bo‘lishi shart.

Xulosa qilib aytganda, mas’uliyat kasbiy fazilat sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarda boshqarish qobiliyati va maqsadga muvofiqlik, ya’ni jamoaviy, ijtimoiy- axloqiy va huquqiy normalar, shuningdek, qoidalar, “burch tuyg‘usi” kabi tushunchalarga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

2. Abduraimov Sh.S. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini ta’minlashda tarmoqlararo integrasiyaning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish.

3. Abdullayeva B.S. “Oliy ta'lim tizimida zamonaviy ta'lim texnologiyalari va pedagogning innovatsion faoliyati” / “Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar” xalqaro ilmiy konferensiya – 11 b.

4. Sagindikova N.G. Talabalar o‘quv faoliyatida mas’uliyatning gender xususiyatlari: Psixologiya fanlari doktor. ... diss. − T.: 2017. −172 b.

Dilafruzxon MIRAXMEDOVA,
Andijon davlat universiteti, “Umumiy pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI PEDAGOGIK IMROVIZATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH MAZMUNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik improvizatsion faoliyatga tayyorlash mazmuni, kasbiy faoliyatni amalga oshirishda improvizatsion yondashuv, shuningdek, turli pedagogik holatlarni yechimini topishda kasbiy ijodkorlik hamda zamonaviy tadqiqotlar haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Mahoratli pedagog, improvizatsiya, kasbiy ijodkorlik, kompetensiya, refleksiv vosita, stimulyatsiya va modellashtirish.

В данной статье представлена информация о содержании подготовки будущих педагогов к педагогической импровизационной деятельности, об импровизационном подходе к осуществлению профессиональной деятельности, а также о профессиональном творчестве в решении различных педагогических ситуаций, а также о современных исследованиях.

Ключевые слова. Квалифицированный педагог, импровизация, профессиональное творчество, компетентность, рефлексивный инструмент, стимулирование и моделирование.

This article provides information on the content of the preparation of future teachers for pedagogical improvisational activities, on the improvisational approach to the implementation of professional activities, as well as on professional creativity in solving various pedagogical situations, as well as on modern research.

Key words. Skilled pedagogue, improvisation, professional creativity, competence, reflexive tool, stimulation and modeling.

Bugungi yangi zamon vakilini o‘qitish va unga tarbiya berishda o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy faoliyatiga ulkan talablarni qo‘ymoqda. Bu albatta, bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlashda o‘z aksini topishi, ularni bilimlarini takomillashishini va ijodiy o‘sishini ta’minlashi zarur. Shu bois pedagogik jarayonning muhim qadriyatlaridan biri bo‘lgan o‘qituvchilar tayyorlash jarayoniga davr nuqtayi nazaridan yondashib, barcha talablarga javob berishlarini ta’minlashga qaratilgan bilimlarni yanada takomillashtirish muhim vazifalardan sanaladi.

Zamonaviy maktabga mukammal tayyorgarlikka ega o‘qituvchi kerak. Bunday o‘qituvchi nafaqat kompetensiyalar egasi balki, turli vaziyatlarda o‘zining ijodkorligi va vaziyatlarni yechimini topishda o‘z qarashlarini to‘g‘ri yo‘naltira olish layoqatiga ega bo‘lishi kerak.

Muammolar yechimi bilan bog‘liq olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli pedagogik holatlarni maqbul yechimini topishda kasbiy ijodkorlikning turlaridan biri sifatida pedagogik improvizatsiyani alohida ta’kidlash joizdir.

Tadqiqotchilar, ‘‘o‘qituvchilar serqirra va xilma xil faoliyatni o‘zida aks etuvchi kasb egalaridir’’ deb ta’kidlaydilar. Pedagogik jarayon o‘suvchi jarayon. Bu borada o‘qituvchi yoki namunadagidek faoliyat yuritishi kerak, yoki noan’anaviy tarzda harakatlanishi kerak. Yosh o‘qituvchilar turli vaziyatlarda maqbul qaror qabul qilishga, pedagogik faoliyatini nostandart holda rejalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Albatta,

bunday holatlar ta’lim sifatiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Ta’lim jarayonini takomillashtirishga oid kirib kelayotgan ma’lumotlar, yangiliklar va texnologiyalar o‘qituvchilarni ijodkor, tashabbuskor, innovator bo‘lishlarini talab etmoqda. Jumladan, kasbiy faoliyatni amalga oshirishda improvizatsion yondashuv ham o‘quvchilarda bilimlarni o‘zlashtirishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra bugungi bo‘lajak o‘qituvchilarni improvizatsion muhitda faoliyat yuritish zaruriyati bilan bog‘liq bo‘lgan fikrlarimizni keltirib o‘tamiz.

Pedagogik improvizatsiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatida ijodkorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Mahoratli pedagoglar o‘zlarining ko‘pqirrali faoliyatlarida bundan foydalanishga alohida e’tibor qaratishlari kerak. Chunki kutilmagan holatlarda, nostandart vaziyatlarda o‘qituvchilar tezkor va ta’sirchan bo‘lgan mexanizmlarni ta’lim jarayonida qo‘llay olishlari kerak.

Improvizatsiyaning mohiyati nimada? Lug‘atlarda improvizatsiya kutilmagan va birdaniga sodir bo‘ladigan vaziyatlar ma’nosini anglatadi. Shu bilan birga bu ijodiy jarayon bo‘lib, uning natijasini qo‘llanilgan vaqtda aks etishini ta’minlaydi. Imporvizatsiyaning turlari mavjud. Uning o‘ziga xosliga shundaki, shu yerning o‘zida, shu onda paydo bo‘ladi. Uni qo‘llovchi inson avvalo, mavzuni to‘liq anglashi, baholashi, tanqidiy yondasha olishi, o‘zini o‘zi jarayonga moslashtira olishi va inprovizatsiyani amalga oshirish uchun janrni to‘g‘ri tanlay olishi kerak.

Pedagogik improvizatsiya (lotincha improvisus oldindan o‘ylanmagan, kutilmagan) – o‘qituvchining yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarda yangi yechimlarni o‘ylab topishi va shu bilan birga mahorat bilan aniq yechimni tadbiq eta olishidir. Bunda o‘qituvchining talanti, mahorati va ijodkorligi juda ham muhim. Shu bois, bo‘lajak pedagoglar tayyorlashda kasbiy kompetensiyalardan biri sifatida improvizatsiya qilishga tayyorlash zamonaviy darsga qo‘yilgan talablarni bajarishda o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Pedagogik improvizatsiya o‘qituvchining ijodiy faoliyati turi bo‘lib, u nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida shakllanib boradi va egallagan bilimlar integratsiyalashuvi negizida rivojlanadi.

Biz o‘rganayotgan muammo borasida ko‘plab olimlar izlanishlar olib borganlar. Bevosita pedagogik improvizatsiya muammolar va bo‘lajak o‘qituvchilarni improvizatsion muhitda faoliyat olib borishga tayyorlash bilan bog‘liq tadqiqotlar V.I. Zagvyazinskiy, V.A. Kan-Kalik, L.Yu. Berikxanova, V.N. Xarkinlar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu olimlar pedagogik improvizatsiya tabiati, oliy pedagogik talim talabalari uchun maxsus ishlab chiqilgan, improvizatsiya metodlari, kasbiy ijodkorlik va bosqichma-bosqich ularning shakllanish jarayonlari yuzasidan o‘zlarining tavsiyalarini taklif etganlar.

Izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida oliy ta’limda o‘qitiladigan fanlar modullarini o‘zlashtirish jarayonida pedagogik improvizatsiyani shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Yangi davr ta’limiga yangicha yondashuvlar talab etiladi. Uchinchi renesanss poydevori bo‘lgan bolalarni o‘qitishda pedagogik jarayonni jadallashtiruvchi kuchga ega bo‘lgan mahoratli, ijodkor va zukko o‘qituvchi kerak.

Amalda bu borada quyidagi qarama-qarshiliklar mavjud:

• ijodkor, improvizatsiyaga tayyor, mahoratli o‘qituvchiga bo‘lgan extiyoj va uni tayyorlash shart-sharoitlari nazariy va amaliy jihatdan to‘liq ishlab chiqilmaganligi;

• oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlash jarayonida pedagogik improvizatsiya yaxlit tarzda o‘rganilmasligi va uning tizimli tarzda xususiyatlarini sharxlanmasligi;

• bo‘lajak o‘qituvchilarni improvizatsion muhitda ishlashga tayyorlashning har bir bosqichida maqsadni aniqligi, mezonlar va darajalarning aniq asosga ega emasligi;

• talabalarni kasbiy faoliyatda improvizatsiya qilish uchun nazariy va amaliy tayyorgarligi bo‘yicha usullar, texnologiyalarni yetarlicha ishlab chiqilmaganligi.

Yuqorda sanab o‘tilgan qarama-qarshiliklar bu muammo yuzasidan talqiqot olib borishda asosiy vazifalarni to‘g‘ri belgilab olish imkonini beradi.

Pedagogik nuqtai nazarda talabalarni improvizatsion faoliyatga tayyorlashni maqsadli amalga oshirshni refleksiv vositalar misolida ko‘rib chiqamiz. Bundan maqsad ijodiy faoliyatning turi sifatida pedagogik improvizatsiya mohiyatini tushunish, o‘zining asosiy vazifasini anglash, ushbu faoliyatni to‘liq o‘zlashtirgan holda natijalarni baholash bilan bir qatorda kasbiy va shaxsiy fazilatlarini ham tahlil qilishdan iborat.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni turli vositalar yordamida iprovizatsion faoliyatga tayyorlash mumkin. Talabaning improvizatsiya jarayoniga refleksiv vositalar yordamida tayyorlash ularning faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va iprovizatsiya imkoniyatlaridan maqsadli foydalana olishga o‘rgatadi. Refleksiv vositalarga dramatizatsiya usuli va namoyish etuvchi, aks ettiruvchi insho kiradi.

Shu bilan bir qatorda analitik vositalar ham improvizatsiya uchun zarur bo‘lgan bilimlarni mustahkamlaydi. Bu vositalar nazariy bilimlarni o‘zlashtirishda axamiyatli xisoblanadi. Analitik vositalarga an’anaviy o‘qitish usullari, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, holatlarni o‘rganish, pedagogik masalalarni nazariy yechimlari kiradi.

Stimulyatsiya va modellashtirish vositalarining bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik improvizatsiya qilishga o‘rgatishda kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli improvizatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni operativ va ijodiy rivojlanishida axamiyat yuqori. Bular sirasiga rolli o‘yin va mikro ta’lim kiradi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, oliy pedagogik ta’limni islox qilish sharoitida bo‘lajak o‘qituvchini ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ta’limga alohida e’tibor qaratish sifatli natijaga erishish imkonini beradi. Pedagogik jarayonda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy improvizatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlar mazmunini takomillashtirish va amaliyotda talabalarga o‘qitilayotgan modullar mazmunida bu muammoni o‘rganishga maqsadli, tizimli yondashish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva N.J. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy mas'uliyatni shakllantirish pedagogik muammo sifatida. International scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337.

2. Берикханова Л.Ю. Педагогическая импровизация в деятельности учителя: дис. . канд. пед. наук / Л.Ю. Бериханова — Тюмень, 1990 — С. 261.

3. Загвязинский В.И. Педагогическое творчества учителя / В.И. Загвязинский, – М.: Педагогика, 1987. – С. 159.

4. Канн-Калик, В.А. Основы профессионального педагогического общения: учеб. пособие/ В.А. Кан-Калик-Грозный, 1979.– С. 56.

Izzatbek EGAMBERGANOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, tayanch doktarant

PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA FIZIKA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA PEDAGOGIK TA’LIM INNOVATSION KLASTERINING O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagogika oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish jarayonida pedagogik ta’lim innovatsion klasterining o‘rni haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim klasteri, fizika o‘qitish metodikasi, fanlararo aloqadorlik, klaster sub’ektlari, klaster ob’ektlari.

В данной статье представлена информация о роли инновационного кластера педагогического образования в процессе преподавания физики в высших педагогических учебных заведениях.

Ключевые слова. Образовательный кластер, методика преподавания физики, междисциплинарность, кластерные предметы, кластерные объекты.

This article provides information about the role of the innovative cluster of pedagogical education in the process of teaching physics in higher educational institutions of pedagogy.

Key words. Educational cluster, physics teaching methodology, interdisciplinarity, cluster subjects, cluster objects.

Jahonning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida ishlab chiqarish, og‘ir va yengil sanoat, agrar, xizmat ko‘rsatish, iqtisodiyot, kabi sohalarida klaster modeli samarali natijalari bilan boshqa sohalarga ham tadbiq etilmoqda. Ta’lim muassasalarining raqobatbardoshliligini oshirish, turli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish sharoitida, ta’lim klasteri jahon mamlakatlari ta’lim tizimida innovatsion yondashuv sifatida qaralmoqda. Umumiy maqsad atrofida subyektlarning birlashuvi orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish ta’lim klasteri mazmunini belgilaydi va uni ilmiy pedagogik muammo sifatida tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik ta’limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi zamonaviy talabalar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilinishida fan, ta’lim va ishlab chiqarish orasidagi tarqoqlik uzluksiz ta’lim tizimida pedagogik ta’lim klasteri modeliga o‘tish zarurligini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son Farmonida ta’lim klasterini yaratish soha samaradorlikni taminlovchi omil shifatida belgilangan. Ta’lim klasteri sharoitida mehnat bozori hamda ish beruvchilar talablariga javob beradigan o‘qituvchilarni tayyorlash, kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini modernizatsiyalash, hamkorlikdagi ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha milliy va hududiy modellarni yaratish hamda amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish muammoning ilmiy jamoatchilik tomonidan tadqiq qilinishini taqozo etadi.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o‘quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo‘naltirishga katta e’tibor qara-

tilmoqda. Ushbu yo‘nalishda qilinayotgan ishlar samaradorligini oshirish, hamda fizika fanini o‘qitishda yuqori natijalarga erishishda klasterli yondashuvning ahamiyati yuqoridir. Ta’limda klaster modelini tatbiq etish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Chirchiq davlat pedagogika universitetida olib borilmoqda.

Klaster yondashuvi ta’lim berish, o‘quv adabiyotlarini yaratish, pedagogik kadrlarni ilmiy salohiyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uzviyligi bilan bog‘liq umumiy yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi. Bu esa muammoning umumiy metadologik xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayni paytda bu umumiy yo‘nalishlar ta’limni boshqarish va tashkillashtirish, ta’lim turlari va yo‘nalishlari, uzviylik va integratsiyani ta’minlash, o‘qitish metodlari va vositalari kabi yo‘nalishlarda xususiy metadologik xarakter kasb etadi. Bu esa yuqoridagi muammoning yechimi ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqotlarimiz ilmiy-pedagogik o‘quv adabiyotlarini tahlil qilish davomida ayon bo‘ldiki, “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri” yondashuvini alohida sohalar kesimida o‘qitishning o‘quv-metodik ta’minoti, pedagogik metodlari, o‘qitish shakllari, sharoitlari, vositalarini ishlab chiqishni ta’qozo etadi.

Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri yo‘nalishlari ta’lim, fan va ishlab chiqarishdan iborat bo‘lsa, pedagogik ta’lim innovatsion klasteri tamoyillari tabiiy aloqadorlik, yo‘naltirilganlik, manfaatlarning xususiyligi kabi komponentlardan tashkil topgan. Bizning tadqiqotimizdagi ta’lim klasteri subyektlari sifatida oliy ta’lim muassasalari, ilmiy-tekshirish institutlari va ishlab chiqarish korxonalari belgilab olingan. Ular yagona obyekt sifatida talabalarning tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish yo‘lida birlashadilar.

Ta’lim klasteri yo‘nalishlari ta’lim, fan va ta’lim, ta’lim va ishlab chiqarishdan iborat bo‘lsa, ta’lim klasteri tamoyillari tabiiy aloqadorlik, yo‘naltirilganlik, manfaatlarning xususiyligi kabi komponentlardan tashkil topgan. Bizning tadqiqotimizdagi ta’lim klasteri subyektlari qilib oliy ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy tekshirish institutlari belgilab olingan. Ular yagona obyekt sifatida talabalarning tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish yo‘lida birlashadilar. Pedagogik ta’lim innovatsion klasterini amalga oshirish esa ta’lim subyektlar orasida hamkorlikni tashkil etishga xizmat qiladi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida fizika o‘qitish metodikasi o‘zining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, shartli tarzda bo‘linadigan: o‘qitishning ta’lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish funksiyalarini amalga oshirishga qaratilishi kerak. Bularning ichida eng asosiysi, ta’lim berish funksiyasi hisoblanadi, uni amalga oshishi tufayli, talabalarning umumiy o‘rta ta’lim tizimida fizikadan olgan bilimlari yanada kengayadi va chuqurlashadi hamda ularning amaliy tadbiqiga tegishli malaka va ko‘nikmalari o‘sadi. Bu jarayonda talabalar faqatgina bilim olmasdan, balki tarbiyalanadi va rivojlanadi. Shuning uchun ham, ularni bir-biridan ajratish mumkin bo‘lmagan jarayon deb qarash kerak. Demak, matematik nuqtayi nazardan o‘qitish jarayonini uch argumentli murakkab funksiya sifatida qarash zarur.

O‘qitishning rivojlantirish funksiyasi shundan iboratki, unga ko‘ra, talabalarning bilish faoliyati va imkoniyatlarini rivojlantirish hamda mustaqil ravishda bilimini kengaytirib va chuqurlashtirib borishni nazarda tutadi. Natijada talabalar umumlashtirishning murakkab bosqichlarini, turli mantiqiy operatsiyalarni amalga oshirishi tufayli, ular, fikrlashning formal-mantiqiy shaklidan dialektik va ijodiy fikrlashga o‘tadi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida fizika o‘qitish, o‘qituvchi va talabalarning

birgalikdagi murakkab faoliyati bo‘lib, bu jarayon oliy o‘quv yurtida tayyorlanayotgan mutaxassisning kelajakdagi amaliy faoliyatiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bu esa fizika o‘qitishning maqsadidan kelib chiqib, quyidagi tashkil etuvchilardan iborat:

Ta’lim mazmunini to‘laqonli o‘zlashtirish ya’ni fizikadan chuqur zamonaviy bilimga ega bo‘lish.

O‘qitish jarayoni – maqsadni amalga oshirishga qaratilgan professor-o‘qituvchilarning faoliyatiga bog‘liq bo‘lib, u fizikani yuqori ilmiy-metodik darajada namoyish eksperimenti yordamida va talabalarning qiziqishini oshirishga qaratilgan yo‘nalishda amalga oshirilishi kerak; Albatta, bu jarayon murakkkab bo‘lib, faqatgina o‘qituvchining ilmiy-metodik darajasi va pedagogik mahoratigagina bog‘liq bo‘lmasdan, talabalarning mustaqil ishlash faoliyatiga hamda ma’suliyatiga bevosita bog‘liq.

O‘qish – talabalarning ko‘p qirrali faoliyati bo‘lib, ularning aqliy va jismoniy holati va qiziqishiga, o‘zi tanlagan kasbni qanday darajada tasavvur qilishiga hamda o‘quv yurtining moddiy texnik bazasiga, ya’ni zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlanganiga va ularni o‘qitish jarayoniga qay darajada joriy qilinayotganligiga bevosita bog‘liq.

Fizika o‘qitish metodikasining mazmuni ikki qismdan iborat bo‘lib, ular quyidagilardir:

– uning nazariy asosini tashkil qiluvchi umumiy masalalar;

– ayrim mavzularni bayon qilishga qaratilgan xususiy masalalar.

Metodikaning umumiy masalalariga: Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida fizika o‘qitishning maqsad va vazifalari; uning mazmuni va tarkibini aniqlash; fizika o‘qitishning metodologik, pedagogik va psixologik asoslari; fizikani jamiyatning rivojlanishida va ilmiy-texnik revolyutsiyada tutgan o‘rni hamda roli; talabalarda fikrlash va dialektik-materialistik dunyoqarashni shakllantirish va ularning ijodiy qobilyatini o‘stirish kiradi.

Xususiy metodikada: har bir mavzuning mazmuni; o‘quv materialini o‘qitish ketma-ketligi; fizik tushuncha, qonun va nazariyalarni shakllantirish va ularning mohiyatini ochib berish; fizik eksperimentni amalga oshirish; fizika o‘qitish bosqichlarida ayrim tushuncha, qonun va nazariyalarni shakllantirishdagi izchillik; ayrim bo‘limlarning ehtimoliy-statistik asoslarini ochib berish va ulardan qanday darajada fizika o‘qitishda qo‘llanayotganligini aniqlash; talabalarda fizikani o‘rganishga tegishli malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlanlantirish usullari qaraladi.

Fizika o‘qitish metodlaridan eng muhimi va murakkabi bo‘lib, pedagogik eksperiment yoki tajriba – sinov ishlarini o‘tkazish hisoblanadi. Shuning uchun ushbu metodga alohida to‘xtab o‘taylik. Pedagogik eksperiment yoki tajriba-sinov – tadqiqot vazifasiga va maqsadiga mos holda ishlab chiqilgan va fizika o‘qitishda amalga oshiriladigan hamda boshqariladigan fizika o‘qitish jarayonidir. Bu jarayonda ishlab chiqilgan va o‘qitishga joriy qilingan metodikaning qanday darajada samarali ekanligi namoyon bo‘ladi. Quyidagi uchta belgi pedagogik eksperimentni boshqa tadqiqot metodlaridan farqini ko‘rsatadi hamda uning mohiyatini ochib beradi:

– o‘qitish jarayoniga ya’ni o‘quv materialining mazmuniga, tarkibiga, o‘qitish metodikasiga tadqiqot maqsadi va farazidan kelib chiqib, kerakli o‘zgartirishlar kiritish;

– o‘quv jarayonining turli tomonlari orasidagi bog‘lanishlarni odatdagiga nisbatan chuqurroq va yaqqolroq ko‘rishga sharoit yaratish;

– ilmiy-metodik tadqiqotlar butun fizika kursiga, uning bo‘limlariga, mashg‘ulot turlariga, o‘qitish bosqichlari va vositalariga taalluqli bo‘lishi mumkin;

Bizning nazarimizda, Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida fizika o‘qitishda quyidagicha bir qator hal qilinishi lozim bo‘lgan ilmiy-metodik muammolar mavjud, ular quyidagilardan iborat:

– pedagogika oliy ta’lim muassasalarning bo‘lajak fizika o‘qituvchilariga fizika fanini o‘qitish jarayoniga ta’lim klasterini keng miqyosda jalb etish, ularda o‘qitilayotgan fizika kursining kasbiy yo‘nalishini kuchaytirish;

– uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlari, ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy-tekshirish institutlari orasida fizika o‘qitishda hamkorlikni tashkil etish;

– pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan fizika kursi bilan mutaxassislik predmetlari orasida predmetlararo bog‘lanishni amalga oshirish;

– uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitilayotgan fizika kurslarining mazmunini fizikaning zamonaviy yutuqlariga qay darajada mos kelishini o‘rganish va moslashtirish.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan fizika kursining mazmunini pedagogik ta’lim innovatsion klasteridan foydalanib, takomillashtirish, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularda ilmiy-metodik va dialektik dunyoqarashni shakllantirish.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida fizika o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikativ texnologiyalarni qo‘llash orqali pedagogik ta’lim klasterining mohiyatini yanada oshirib fan, ta’lim va ishlab chiqarishdan olgan tajribalarini mash-g‘ulotlar jarayonida chuqurroq tushunib olishlariga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi paytda yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borilmoqda, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan va qilinmoqda, ammo bu ishlar tizimli tarzda olib borilayotgani yo‘q. Shuni ta’kidlash o‘rinliki, respublikamizda ushbu muammolarni tizimli ravishda hal qilish uchun intellektual potensial yetarli, boshqacha aytganda, fizika o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy darajaga ega bo‘lgan metodist-olimlar hamda katta tajribali o‘qituvchilar yetarli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032 son Qarori// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07/21/5032/0226-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr PF-5847 son Farmoni // “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2019-yil 14-oktabr, 41-son, 765-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2020 yildagi PF-5987-son (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2021-y., 07/21/61/1195-son; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son).

4. G. Muhamedov, U. Xodjamqulov, S. Toshtemirova, Pedagogik ta'lim innovasion klasteri. – T.: “Universitet”, 2020.

5. Eshniyozov U.A. Ta’lim klasteri muhitida talabalarning eksperimental ko‘nikmalarini bosqichma bosqich rivojlantirish jarayoni // Ta’lim, fan va innovatsiya // – T., 2023.-№ 4. – 203-207 b.

Muqaddas SOIBNAZAROVA,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

TARBIYA JARAYINIDA MUTAFAKKIRLARNING FIKRLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada Barkamol avlodni tarbiyalashda umuminsoniy qadriryatlarni har tomonlama yetuk, mukammal, axloqiy pok, ma'naviy ustivor jihatlarini ular ongiga singdirish iymon e'tiqodi butun, o'z xalqi, Vataniga fidoiy shaxs etib tarbiyalash haqida.

Kalit so'zlar. Komil inson tarbiyasi, ma'naviy meros, ma'naviy omillar.

На тему воспитания гармонично развитого поколения, прививания им общечеловеческих ценностей совершенства, совершенства, нравственной чистоты, духовных приоритетов.

Ключевые слова. Идеальное человеческое воспитание, совершенное человеческое воспитание, духовное наследие, духовные факторы.

On the subject of educating the harmoniously developed generation, inculcating in them the universal values of perfection, perfection, moral purity, spiritual priorities.

Key words. Upbringing perfecthuman, spiritual, heritage, spiritual factors.

Yosh avlodni axloqiy, aqliy jismoniy jihatdan barkamol shaxs etib tarbiyalab voyaga yetkazish asrlar davomida insoniyatning ilg'or namoyondalari o'rtasida jiddiy munozarlarni keltirib chiqargan hamda muhim masalalardan biri bo'lgan. Bu haqida ko'plab hoyalar yaratilib, ilgari surildi. Oliyjanob fazilatli yetuk shaxsni goho oy, goho quyoshga o'xshatiladi. Barkamol insonni tarbiyalash hozirgi zamonda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Barkamol avlodni tarbiyalashda umuminsoniy qadiryatlarni imon-e'tiqodi butun, o'z xalqi, o'z vataniga fidoiy shaxs etib tarbiyalashga e'tibor berish zarur. Ilgari odimlab borayotgan vatanimizda yoshlar sidqidildan bilimli, salohiyatli bo'lib taraqqiyotning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shmoqdalar. Shaxsni barkamolikka yetaklovchi kuch bu ma'rifatdir. Inson uchun zarur bo'lgan ijobiy fazilatlar saxiylik, sabrlilik, kamtarinlik, hamjihatlilik insonning oliy ko'rki hamda ruhiy tayanchidir.

Ajdodlarimiz tamal toshni qo'ygan pillapoyalardan yoshlar yuqori cho'q qilarga ko'tarilmoqda. Ularga asosan ajdodlarimizning, ya'ni ulug' mutafakkirlarimizning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarining yoshlar ongiga ta'siri muhim bo'lmoqda. Mutafakkirlarimiz Abu Rayhon Beruniy ta'riflaganidek, barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim maqsadlari: ya'ni aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, nafosat tarbiyasi, jismoniy tarbiya hamda sog'lomlashtirish tarbiyasi, mehnat tarbiyasi baynalminal tarbiyasi, vatanparvarlik tarbiyasi va oila tarbiyasi turlariga amal qilmoqdalar. Ayni damda yosh avlodning oldida turgan asosiy dolzarb masalalardir. Yurtsevar, oliyjanob, do'stona, adolatli, halol bo'lishdek fazilatlarga ega bo'lish kelajak avlodning maqsadidir. Har tomonlama rivojlangan etuk shaxsni jamiyatdagi o'rni va faoliyati muhim. Allomalar e'tirof etgan jismoniy tarbiya borasidagi tavsiyalarda sog'lom turmush tarzi kun tartibini to'g'ri uyushtirish, sport bilan shug'ullanish, tana a'zolarini chiniqtirish nazarda tutiladi. Axloqiy tarbiya

orqali odob axloq borasidagi bahs munozaralar tashkillashtirilib o‘tkazilmoqda. Axloqiy tarbiya manbaiga aylanmoqda. Axloqiy barkamol inson ma’naviy halovatdan mamnun bo‘lsa, ya’ni qanoat qilsa, ularning irodasi kuchlidir. Insonda adolatlilik kabi yuksak xislatlarni shakllantirish uchun ko‘plab chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Nafosat tarbiyasi orqali yoshlarning san’atga oid iqtidor qobilyatlari o‘smoqda. Hayot tabiat go‘zalliklarini o‘zida namoyon etgan, ularni tushunish, ulardan oqilona foydalanishga e’tibor berilmoqda. Aynan nafosat tarbiyasi orqali xalqimizning madaniyat qiralarini o‘z bilimlari bilan dunyoga tanitmoqdalar. Shu asnoda turli sa’nat sohasidagi tanlovlarda ishtirok etmoqdalar. Aqliy tarbiya berish bilan yosh avlodni bilim olishga qiziqtirib, fan texnika, madaniy sohasidagi bilimlari kengaytirilmoqda. Axloq odob borasidagi tadbirlarda aynan mutafakkirlarning merosiga murojaat etgan holda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar muzokaralarning o‘tkazilishi ham nechog‘lik ularga bo‘lgan hurmat ehtiromning yaqqol namunasidir. Aqliy tarbiya borasida yoshlarning ilmiy izlanishlar tadqiqotchilik faoliyati bilan shug‘ullagishga, ilm-fan yutuqlardan foydalanishga e’tibor berilmoqda. Bugungi kunda yoshlarimiz ham buyuk kashfiyotlar, ixtirolar ustida tinmay izlanishlar olib borishmoqda.

Xalqning ma’naviyati, madaniyati uning haqiqiy tarixi va o‘ziga xosligi qayta tiklanayotganligi, jamiyatimizning taraqqiy ettirish yo‘lidan muvaffaqiyatli ravishda olg‘a siljitishda hal qiluvchi, ta’bir joiz bo‘lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir. Xalqimiz sarchashmalarining ko‘zlari qaytadan ochilganligi jahon madaniyati yutuqlariga zo‘r hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ma’naviy va madaniy merosi chuqur anglanmoqda.

Har bir avlodning o‘z o‘tmishiga oliyjanob milliy, madaniy, diniy an’analariga xurmat bilan qarash, ularni asrash, ayni chog‘da hozirgi zamon jahon taraqqiyoti va ma’naviyati qadriyatlarini o‘zlashtirish muhim manbalardandir. Xalqimiz o‘zining milliy o‘zligini anglab etdi. Yosh avlod buyuk ajdodlarimizga munosib bo‘lish borasida intilishlarini ta’kidlash darkor biror bir jamiyat ma’naviy imkoniyatlarini insonlar ongiga ma’naviy va axloqiy qadryatlarini rivojlantirmay turib, o‘z isdiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqning madaniy qadryatlarini ma’naviy merosi asrlar mobaynida nafaqat Sharq xalqlari uchun, balki G‘arb xalqlari uchun qudratli manba bo‘lib xizmat qiladi. Ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar davomida yaratib kelingan g‘oyat ulkan bebaho merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan muhim vazifa bo‘lib qoldi. Ma’naviy qadryatlarni tiklash, milliy o‘zlikni anglash xalqning ma’naviy sarchashmalariga uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayondir.

Xalqimiz o‘z taqdirini chinakam egasi, o‘z tarixining ijodkori hamda o‘ziga xos milliy madaniyatning sohibiga aylandi. Ma’naviy qadryatlarni tiklanishi hozirgi zamon taraqqiyotining moslashishini anglatadi. Axloq va ma’naviyat har bir insonning fikri, zikrida bo‘lishi kerak. Yuksak darajadagi ahloqiy fuqaroni voyaga yetkazish har bir fuqaroning burchidir. Ma’naviy tiklanish – insonlarning fikrlash tarzini o‘zgarishi, mustaqillik ruhi belgilab beradigan yangi avlodga munosib ziyolilarning paydo bo‘lishi demakdir. Xalqning kelajagi, ma’naviy qudrati, milliy ongining ijodiy kuchiga bog‘liq. Ma’naviy, aqliy, axloqiy o‘sish hamda rivojlanishga hech qanday narsa to‘siq bo‘lishi mumkin emas. O‘zbek xalqi avloddan avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadryatlarni, o‘ziga xos an’analarini saqlab qolishga muvofiq bo‘ldi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylandi. Buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy, madaniy, ma’naviy merosi, jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, fuqarolar ongini yanada shakllantirib yubordi. Barkamol avlodni ulg‘aytirish uchun allomalarning o‘gitlari dasturulamal bo‘lib xizmat

qilmoqda. Hozirda O‘zbekiston deb atalmish diyorimizda bilimli, salohiyatli yoshlarning nufuzi oshib bormoqda. Har bir yoshlarning g‘oya va maqsadlari yetuk cho‘qqilarni zabt etishdan iborat.

Ilgari odimlab borayotgan O‘zbekistonda yoshlar bilimli bo‘lib kamol topmoqdalar. Ular Davlatimizning rivojlanib, dunyo mamlakatlari safidan o‘rin egallashiga sidqidildan ko‘maklashmoqdalar. Albatta ishonch, e’tiqod bor joyda tashabbuskorlik hamda bunyodkorlik faoliyati bo‘ladi. Inson avvalo ma’naviy yetuklikka erishmog‘i darkor.

Xalqimiz tarixida ma’naviy-ma’rifiy yuksalishlar hamma vaqt ham qo‘llab-quvvatlanmagan, ayrim hollarda keskin qarshiliklarga duch kelingan. Ongli ravishda ming yillardan beri shakllantirilib, rivojlantirilib kelinayotgan milliy-ma’naviy qadiryatlarni xalq ongidan, xotirasidan, qalbidan o‘chirishga harakat qilingan.

Biroq xalqning azaliy orzusi hech qachon uning qalbidan o‘chmagan. Xalq doimo o‘z farzandlarini ota-bobolar o‘giti, pand-nasixatlari, urf-odatlari, an’analari asosan pinhona bo‘lsa-da, tarbiyalagan. Uni to‘la qonli amalga oshirish esa mustaqillikning ilk kunlaridan boshlandi.

Yuqorida qayt qilingan manbalardan shuni xulosa qilish mumkunki, shu zaminda yashab dunyo taraqiyotiga hissa qo‘shgan allomalarimiz shak-shubhasiz dunyo ilm ahli tan olgandek, buyuk semolardir.

Mana shunday buyuk allomalarning ishlarini yanada boyitib, to‘ldirib, sayqallantirib, butun dunyo taraqqiyotiga hissa qo‘shayotgan olimlar va ularning farzandlari, shogirdlari buyuk bobolarimizning izdoshlari hisoblanadi.

Talaba-yoshlarimizni milliy-ma’naviy qadiryatlar bilan boyitishda “Avesto” nomli kitob bilan birga “Qur’oni Karim” kitobi va “Hadisi Sha’rif” nomli muqaddas kitoblarining axamiyati biqiyos. Har bir shaxsning, jamiyatning ravnaq topishida axloqning asosiy roli tasvirlanadi. Zero, jamiyat a’zosi bo‘lgan har bir kishining ahloqsizligi jamiyatga qay darjada zarar yetkazsa, yaxshi ahloqli kishilar uning ravnaqiga shuncha hissa qo‘shadilar.

Ma’naviy yuksalishga erishish yillar davomida davom etaverar ekan, ma’anviy hayot oldiga qo‘yiladigan talablar paydo bo‘laveradi. O‘zbekiston deb atalmish davlatimiz taraqqiyot zinalaridan yangi cho‘qqilar sari odimlab boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buyuk siymolar, allomalar. – T., 1997. – 39 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga qudratlimiz. “O‘zbekiston” 2017 y.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” 2016 y.

4. Ma’naviyat yulduzlari. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1999 y.

5. Xasanboyev J., To‘raqulov X., Xaydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya. 2008 y.

6. Xayrullayev M. Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkiri. – T., 1971. – 38 b.

7. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T., 1993. – 187 b.

Komila PARDAYEVA,
Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika Universiteti, “Pedagogika ta’limi nazariyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘QUV JARAYONIDA ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARINI TALABALAR ONGIGA SINGDIRISHDA SAMARALI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o‘quv jarayonida interfaol metodlar,texnologiyalar orqali foydalanish jarayonlar tomonidanochilgan maktablar, yaratilgan darslik va o‘qish kitoblari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, tarbiya, interfaol metodlar, texnologiya, jadidlat harakati.

В этой статье рассказывается об использовании взглядов Абдуллы авлони на образование с помощью интерактивных методов,технологий в процессе обучения. процессы открытыми школами, созданными учебниками и учебниками.

Ключевые слова. Обучение, воспитание, интерактивные методы, технологии, джадидлат движение.

This article describes the use of Abdullah Awloni's views on education through interactive methods and technologies in the learning process.processes by open schools created by textbooks and textbooks.

Key words. Education, upbringing, interactive methods, technologies, jadidlat movement.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz hayotining turli jabhalarida, rivojlanishning turli sohalarida o‘tmish, bugun va kelajak uyg‘unligida yangicha ruhdagi o‘sish-o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlis Parlamentiga yo‘llagan murojaatnomasida ham bu borada alohida ta’kidlab o‘tdi: “Biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”. Darhaqiqat, XX asr boshlarida Turkistonda keng yoyilgan jadidchilik harakati namoyondalari o‘z faoliyatlarida jamiyat ijtimoiy-ma’rifiy hayotiga turli mazmundagi yangi islohotlar, yangi qarashlarni targ‘ib qiladilar. Ular jamiyat inqirozining asosiy sababini savodsizlik, ilmsizlik, ma’rifatsizlikda ko‘rib, asosan, xalqni ilm-ma’rifatli qilish, diniy va dunyoviy bilimlarni teng o‘rganish, ta’lim-tarbiya tizimini yangilash va rivojlantirish yuzasidan jadal islohotlarni amalga oshiradilar. Bu faoliyatda atoqli ma’rifatpar Abdulla Avloniyning ham alohida o‘rni bor.

Abdulla Avloniy 1917 yil to‘ntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko‘zga ko‘ringan namoyondalaridan edi. Abdulla Avloniy o‘zi va boshqa ma’rifatparvarlar tomonidan ochilgan “Usuli jadid” maktablari uchun to‘rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” hamda “Birinchi muallim” (1912), “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913), “Ikkinchi muallim” (1915), “Maktab gulistoni” (1917) kabi darslik va o‘qish kitoblari yaratadi. Bu asarlarida hamda publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug‘lab,

o‘z xalqini ilmli, madaniyatli bo‘lishga chaqiradi. Shu o‘rinda qayd etish joizki, o‘zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga “Pedagogiya”, ya’ni bola tarbiyasining fanidir”, deb ta’rif berdi. Tabiiy, bunday ta’rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Abdulla Avloniy ilgari surgan “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, degan g‘oyasi bugungi zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimining asosiy mohiyat va maqsadini tashkil etmoqda.

Ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiya, interfaol metodlardan foydalanish har bir yo‘nalish, har bir fanga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda tanlanadi. Bunda talabaning yosh va fiziologik, o‘zlashtirish xususiyatlari inobatga olinishi ham talab qilinadi. Jumladan, Abdulla Avloniyning hayoti va ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan darslar ham ushbu tamoyillarni qamrab oladi. Allomani umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim va oliy ta’lim bosqichlarida o‘rganish jarayonida turli xil hamda ayrim shaklan bir xil yoki o‘xshash, mazmunan farqli texnologiya va metodlardan foydalanish mumkin.

Bunda “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Galereya’’, “Kahoot”, “Step by step”, “Aktivator – 3,2,1” texnologiyalari,“Blits-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Loyiha”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” va b. Strategiyalar: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor” va h.k.

Grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” kabi metodlar har qanday ta’lim bosqichi va yo‘nalishi uchun ham eng faol, ta’sirchan va qulay metodlar sanaladi. Bu texnologiyalar asosan adibning hayotiy va ijodiy faoliyati bilan bog’liq ma’lumotlarni o‘zlashtirish jarayonida nihoyatda samarador ahamiyatga ega.

Bulardan tashqari axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta’limiy dasturlar imkoniyatlaridan ham foydalanildi. Masalan, “Kahoot” dasturi asosida dars jarayonida talabalar bilimini mustahkamlash uchun Abdulla Avloniy ijodi va pedagogik qarashlari to‘g‘risida tayyorlangan test butun guruh bilan birgalikda onlayn bajarildi. Mazkur texnologiyadan foydalanish bosqichlari quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Google qidiruv tizimidan Create kahoot dasturiga kirib, akkaunt yaratiladi.

2. Test yaratish bo‘limiga kirib, test kiritib chiqiladi (test yaratishda javoblar variantlari rasmli, matnli, ‘‘ha’’ yoki ‘‘yo‘q’’ tarzida 4-6 tagacha berish mumkin, test kiritishda javob belgilab chiqiladi). Saqlash Save tugmasi bosiladi.

3. Bu test kutubxona (Library) bo‘limida ko‘rinadi.

4. Ekranda start tugmasi bosiladi va o‘yinning pin kodi chiqadi.

5. Talabalar shaxsiy kompyuter yoki smartfon orqali kahoot.it saytiga kirib, Came PIN joyiga 7 ta raqamdan iborat pin kod kiritadi.

6. Talabalar o‘z ism-familiyalarini kiritadilar.

7. Kiritilgan ism-familiyalar o‘qituvchi oynasida ko‘rinadi.

8. Barcha talabalar kirib bo‘lgandan so‘ng start tugmasi bosiladi. O‘yin boshlanadi.

9. Ekranda test savollari ko‘rinadi, talabalar to‘g‘ri javobni belgilaydi. Har bir savolda tugma bosilganda ball oshib boradi. Natija har bir savoldan keyin ekranda ko‘rinadi.

10. Next tugmasi bosilib, keyingi savolga o‘tiladi.

11. Test yakunida talabalar bahosi aniqlanadi.

“STEP BY STEP” texnologiyasidan umumiy pedagogika fanidan “Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari, hayoti, ijodi, asarlari, adabiy merosi va ahamiyati” mavzu-

sini o‘tishda amaliy mashg‘ulot darslarida foydalanildi. O‘quv mashg‘ulotining bunday tashkil etilishi talabalarni mustaqil fikrlashga, o‘tilgan va o‘zlashtirilgan mavzularni eslashga, ularni yozma (yoki rasm, chizma ko‘rinishida) bayon etishga, fikrlarni umumlashtirishga o‘rgatadi.

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu mashg‘ulot talabalarni Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari mavzusi bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda xotirlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishida ifodalay olishga o‘rgatadi. Bu texnologiya talabalar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda topshiriqlar ketma-ketligida o‘tkaziladi va talabalar bilimi, faoliyati baholanadi.

Texnologiyaning maqsadi. Talabalarni Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari yuzasidan erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga, uni ma’qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatishdir.

Texnologiyaning qo‘llanishi: ma’ruza, seminar, amaliy mashgulotlarida ommaviy yoki kichik guruhlarda o‘tkazish hamda nazorat darslarida qo‘llanilishi mumkin. Quyida aynan amaliy mashg‘ulotda kichik guruhlarda qo‘llanishini keltirib o‘tamiz.

Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan vositalar: vatman qog‘oz, rangli A-4 formatli qog‘ozlardan tayyorlangan oyoq izlari, tarqatma materiallar, stekrlar, flomaster (yoki rangli qalam)lar.

Mashg’ulotni o‘tkazish tartibi:

• o‘qituvchi talabalarni 3 ta kichik guruhlarga ajratadi;

• talabalar mashg‘ulotning maqsadi va uning o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi;

• o‘qituvchi mashg’ulotni “STEP BY STEP” texnologiyasi asosida qadamma-qadam olib borilishini va har bir qadamda guruh a’zolariga topshiriqlar berib borilishini, dars yakunida talabalar baholanishini ma’lum qiladi;



• “STEP BY STEP” texnologiyasi 6 qadamdan iborat bo‘lib har bir qadamdagi topshiriqlar oldindan tayyorlab olingan oyoq izlariga yozilgan holatda vatman qog‘ozga yopishtirilib boriladi va topshiriq shartlari, reglamenti e’lon qilinib, bajariladi.

• o‘qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg‘ulotni yakunlaydi.

1-qadam. Blits so‘rov.

Abdulla Avloniyning hayoti, ijodi, asarlari haqida.

Topshiriqni bajarish uchun 3-daqiqa vaqt ajratiladi.

2-qadam. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida berilgan yaxshi xulqlar haqida, “Tushunchalar tahlili” metodi asosida tahlil qiling.



Yaxshi xulqlar: matonat, diyonat, islomiyat, g‘ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, bilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munsilik, sadoqat, muhabbat va afvdur.”

3-qadam. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida keltirilgan hikoyalarni rolli o‘yinlar orqali sahnalashtiring.

“Saxiylik”,“Baxillik”,“Aqlli bog’bon” hikoyalari asosida kichik sahnaviy ko‘rinishlar namoyish qilinadi.

4-qadam. Amaliy topshiriqlar: Quyida keltirilgan Abdulla Avloniy tomonidan yaratilgan maktablar, asarlar, darsliklar bilan tanishing va guruhlarga ajrating.

1. Usuli savtiya. 2. Birinchi muallim. 3. Turkiy guliston yohud axloq. 4. Advokatlik osonmi. 5. Ikkinchi muallim. 6. Maktab gulistoni. 7. Pinak. 8. Ikki sevgi. 9. Biz va Siz. 10. Portugaliya inqilobi. 11. Vatan.

5-qadam. “Aktivator – 3, 2, 1” metodi (3daqiqa):

1. Esimda qoldi – 3. Ushbu qismda talabalar darsda yodida qolgan 3 ta ma’lumotni yozishlari kerak.

2. Muhim bo‘ldi – 2. Bu yerda o‘tilgan dars davomida talabalar uchun muhim bo‘lgan 2 ta ma’lumotni yozadilar.

3. Qo‘llayman – 1. Ushbu qismda esa darsdan olgan qaysi bir xulosa yoki muayyan bir fikr, holat yohud epizodni aynan amaliyotda, hayotda ‘‘albatta, qo‘llayman” deb belgilangan ma’lumotni yozishlari so‘raladi.

Mashg‘ulot yakunida talabalar baholandi.

Mavzumiz alloma faoliyatining ma’naviy-axloqiy ustuvor jihatlarini o‘rganish samaradorligini oshirishga bag‘ishlangani bois, ushbu o‘rinda adib asarlarining mazmun-mohiyatini chuqur yoritish, obrazlarga yuklangan ma’rifiy-estetik vazifalarni talqin etishga yo‘naltiriladigan texnologiya va metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini ta’kidlash joiz.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ta’lim muassasalarida Abdulla Avloniyning hayoti va faoliyatini o‘rganish bilan bir qatorda, ushbu jarayonlarda allomaning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Tanlangan asarlar. // Turkiy guliston yoxud axloq. –T., 1995.

2. Avloniy A. Toshkent tongi. G’. G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, – T., 1979.

3. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2004.

4. Qosimov B. va b. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: “Ma’naviyat”, 2004.

5. Pardayeva K.U (2019). The great uzbek writer Abdulla Avlani’s viewpoints concerning education and upbringing. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

6. Pardayeva K.U. (2020). It is important to study Abdulla Avloni’s didactic heritage as a pedagogical need. Архив Научных Публикаций JSPI.

7. Pardayeva K.U. (2020). Jadid ma’rifati and Abdulla Avloni’s social and pedagogical activity. Архив Научных Публикаций JSPI.

Umida UKTAMOVA,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

XOTIN-QIZLARDA TAZYIQ VA TAJOVUZGA QARSHI DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHGA OID TARIXIY MANBALAR

Annotatsiya

Maqolada oiladagi zo‘ravonlik va uning sabablari, zo‘ravonlik oqibatlari, oiladagi zo‘ravonlik, urf-odatlar, madaniyat, xalqaro va sivilizatsiyalararo munosabatlar, din, tarixiy manbalari, ayollar masalasini jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda tahlil qilish, ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tish davrida davom etayotgan zo‘ravonlik oqibatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Qur’oni Karim, Tavrot, zulm, tajovuz, zo‘ravonlik, qadr-qimmat, xiyonat, gender tengligi, madaniyat, an’ana, sivilizatsiya.

В статье рассматривается домашнее насилие и его причины, последствия насилия, насилие в семье, традиции, культура, международные и межцивилизационные отношения, религия, исторические источники, анализ женского вопроса в связи с развитием общества, социальные вопросы. о последствиях продолжающегося насилия при переходе от одной стадии исторических процессов к другой.

Ключевые слова. Священный Коран, Тора, тирания, агрессия, насилие, достоинство, предательство, гендерное равенство, культура, традиция, цивилизация.

The article discusses domestic violence and its causes, consequences of violence, domestic violence, traditions, culture, international and inter-civilizational relations, religion, historical sources, analysis of women’s issue in connection with the development of society, social - it talks about the consequences of ongoing violence during the transition from one stage of historical processes to another.

Key words. Holy Quran, Torah, tyranny, aggression, violence, dignity, betrayal, gender equality, culture, tradition, civilization.

Ayollar masalasi jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, millatlar, davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan uzviy aloqada. Bu masalaning yuzaga kelishi, rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishi bilan ham bog‘liqdir. Olimlar ayollar masalasini jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda tahlil qilish natijasida kishilarning ijtimoiy birligi, jamiyat bo‘lib yashashi uchun zarur bo‘lgan oila, urf-odat, madaniyat, xalqaro va sivilizatsiyalararo munosabatlar, din, mehnat va jamoat tashkilotlariga uyushish katta ahamiyat kasb etishini ilmiy ifodalaganlar.

Ayollar olovning xususiyatlarini o‘rganish, uni turmushda qo‘llash, uyni isitish, ovqat tayyorlash kabi zaruratlarni bajarganlari haqida hikoya qilinadi. Kiyim-kechak va oyoq kiyimlarini ham ayollar kashf etishgan.

Ona urug‘i davrida ayollarning mavqei yuqori bo‘lgan. Ayol asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, ro‘zg‘orni muhofaza qiluvchi, bola tarbiyalab, avlodning ko‘payishini ta’minlovchi zot hisoblangan. Bu esa unga urug‘, qabila hayotida yetakchilik qilish imkonini bergan. Ijtimoiy huquqiy nuqtayi nazardan bu davrni ilmiy adabiyotlarda “ayol huquqi” xukmron bo‘lgan davr deb atashadi. L. Morgan, F. Engels, G. Ploss, E. Teylor asarlarida ona urug‘i davri (matriarxat)da ijtimoiy-huquqiy va siyosiy masalalar ayollar qo‘lida

bo‘lganiga ko‘plab misollar keltiriladi.

“Qadimgi Hindistonda ayol turmush qurish, meros va boshqa hech qanday huquqqa ega emasdi. U nopok tamoyilga, zaif fe’lga, yomon axloqqa ega deb hisoblanib, Manu III qonuni uni bolaligida otasiga, yoshligida eriga, erining vafotidan so‘ng o‘g‘liga yoki erining qarindoshlaridan bir erkakka qaram bo‘lmoqqa majbur etardi. Hatto ba’zi joylarda eri o‘lgach, ayolga yashash taqiqlanardi. Marhum eri bilan uni tiriklayin yoqib yuborish an’anasi ham paydo bo‘ldi.

Islomga qadar ayrim arab mamlakatlarida oilada qiz farzand tug‘ilsa, fojea alomati deb qaralgan, shu bois, uni tiriklayin ko‘mishgan. Bu odat vahshiylik hisoblanmas, aksincha, ayollarni bunday xo‘rlash odatga aylangan edi. Islomda esa ayol va bolalarni o‘ldirish man etilgan. Qur’oni Karimda shunday deyiladi: “(Ey insonlar), bolalaringizni qashshoqlikdan qo‘rqib o‘ldirmangiz, ularga ham, sizlarga ham Biz rizq berurmiz. Ularni o‘ldirish, shubhasiz, katta xatodir” (“Al-Isro”, 31).

O‘tmish zamonlarda ayollarni kamsitish jamiyat turmush tarzi uchun odatiy hol bo‘lib kelgan. Bunday holatni ba’zi huquqiy odat va normalar orqali asoslashga harakat qilingan. Masalan, Mesopotamiya va unga yaqin hududlarda shumer huquqiga ko‘ra, bir ayol eriga: “Sen mening erim emassan” desa, ya’ni ajrashmoqni istasa, u ayol daryoga tashlanib o‘ldirilar edi. Faqat erkak xotiniga: “Sen mening xotinim emassan” deydigan bo‘lsa, erkak unga bir miqdor kumush pul berishi lozim edi. Albatta, bunday adolatsizliklar ayollar ma’naviy-ruhiy holatiga kuchli ta’sir etmay qolmaydi. Shuning uchun ham ayollar har qanday zo‘ravonlik va adolatsizliklarga sabr-toqat bilan yashashga majbur bo‘lganlar. Manbalarda aytilishicha, agar bir erkak ayolning homilasini tushirishga majbur etishi natijasida u ayol o‘lsa, o‘sha erkakning qizi o‘limga mahkum etilardi. Ayolga muqobil erkak esa o‘ldirilmaydi, ayolga muqobil ayol, hur erkakka muqobil hur erkak, qulga muqobil qul o‘ldirilardi. Bu huquqqa ko‘ra, birovning jinoyati boshqaga ko‘chirilmoqda. Aybdor, jinoyatchi erkak o‘rniga ma’sum bir qiz o‘ldirilmoqda.

Qadimgi Yunonistonda ham ayollarning ahvoli ayanchli edi. Ayollarga bozordagi bir buyumday munosabat qilinar edi. Ular hech qanday huquq va erkinliklarga ega emas edilar, lekin ayollarga oldiga qat’iy burchlar qo‘yilgan. Unga ko‘ra, ular butun umri davomida erkakning buyrug‘iga itoat etish, uning xohlagan istaklarini bajarishga majbur edilar. Ayol umrbod bir erkakning ixtiyorida bo‘lib, hayot-mamoti o‘sha erkakka topshirilardi. O‘sha erkak istagan ayoliga er sifatida o‘z xohishini taklif etar va ayolni zo‘rlab o‘z tasarrufiga olardi. Barcha mol-mulk erkakning ixtiyorida bo‘lgan. Uning roziligisiz ayol hech bir tasarruf huquqiga ega emas edi. Ajralish ishlarida er mutloq haq xisoblanardi. Ba’zi bir hollardagina ayol ham ajralish istagini bildira olar edi. Bunday hollarda ayol boshiga adolatsiz bo‘xtonlar yog‘ilardi.

Qadimgi yahudiylarda ham ayollarga munosabat yuqorida aytilganlardan farq qilmas edi. Ular qiz bolaga qulga qaraganday qarashardi. Otasi uni sotish huquqiga ega bo‘lgan. Otasining o‘g‘il farzandi bo‘lmagandagina qizi meros olish huquqiga ega bo‘lishi mumkin edi. Ajralish huquqiga faqat erkak kishi ega edi. Yahudiylarning fikricha, Momo Havo hazrati Odamni yo‘ldan ozdirib, jannatdan haydalishiga sabab bo‘lganligi uchun ham ayol tavqi la’natga hukm qilingan. Ular ayolga tubanlik manbai sifatida nafrat bilan qarashardi. Xiyonatda ayblangan ayollarni esa toshbo‘ron qilib o‘ldirishgan yoki tiriklayin yerga ko‘mishgan. Jumladan, Tavrotda ayol o‘limdan achchiqdir (yomondir), Alloh nazdida yaxshi kishi xotinidan qutulgan odamdir, ayollar orasida yaxshisini topolmadim, degan fikr bildirilgan[1].

[1] Gulshoda O‘razaliyeva.Gender va ayollar huquqiy madaniyati. – T., – 2009. .

Ayniqsa, ajrashgan ayolning turmushi juda nochor ahvolda bo‘lgan, eri uni qiynalsin deb boshqasiga turmushga chiqishiga to‘sqinlik qilar, tinimsiz haqoratlar edi. Shuning uchun idda muddati tugaydigan vaqtda uni yana nikohiga olar va takror qo‘yardi. Qabul qilingan idda muddati bir yil bo‘lgani uchun, ajrashish cho‘zilib ketardi. Er bu holni uch bor takrorlay olardi. Erning o‘limidan so‘ng esa ayollar bir yil matom tutishardi va bir yil idda kutishardi. Cho‘ldagi badaviylar johiliyat davrida bir oz ayolni hurmatlashar, shahardagi madaniy hayotda esa tamoman aksi edi. Makkaga nisbatan Madinada ayollarning ahvoli yaxshiroq edi. Bu davrda qurayshlar uy boshqarishda ayollarga ba’zi huquklarni berganlar. Ammo erkaklar hech qanday istisnosiz xohlaganlaricha uylana olardilar. Quraysh va Hind kabi ba’zi qabilalarda qiz bolalarni tiriklayin ko‘mib yuborish odati bor edi. Bu ishni ular qiz bola baribir oilaga yaxshilik keltirmaydi deb o‘ylab amalga oshirar edilar. Ko‘chmanchi arablar ayrim yashab qolgan qizlariga og‘ir ishlarni qildirar, tinimsiz haqoratlar edilar. Ba’zan esa olti yoshlarga kirganda, uni yasantirib, ‘‘Qarindoshlarimiznikiga olib boraman’’, deb cho‘lda avvaldan hozirlangan chuqurga tashlab, ustidan tuproq tortib yuborishardi. Ba’zi rivoyatlarda aytilishicha, homilador ayollarni chuqurga tushirib tug‘dirishar, agar tug‘ilgan farzand qiz bola bo‘lsa, uni o‘sha zahoti chuqurga ko‘mib kelishardi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, ayni shu masalada so‘z yuritilganda hayolimga doimo bitta jumlalar kelaveradi. Bu fikr qachon va kim tomondan aytilgan, kitobda o‘qidimmi yoki ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rdimmi bunisi yodimda yo‘q. Ammo, ushbu so‘zlar jon jonimga, qon qonimga singib, jo bo‘lib ketgan hamda hayot yo‘limda menga dastur ul – amal bo‘lmoqda. Mana o‘sha so‘zlar: “Ayol ojiza emasdir, ayol mo‘jizadir. Men ayolman ojiza ekanman deb emas, men ayolman mo‘jiza ekanman deb, har bir holatdan chiqishni o‘rganishingiz shart. O‘zingiz hamda kelajagingiz uchun ....” Qani endi jamiyatimizdagi barcha talaba qizlarning ongiga shu g‘oyalar singsa, dunyoqarashlari chiroyli tarzda shakllansa, ijtimoiy muhitdagi boshqa ayollar fikri-yu zikrida doimo aks etib tursa, o‘z haq – huquqlarini himoya qila olganda nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qarang: Xolmatova M. Jamiyatda ayollarning o‘rni (tarixiy-falsafiy tahlil). / Ekologiya va ayol. Farg‘ona. 2001. – 109-110 b.

2. Gulshoda O‘razaliyeva. Gender va ayollar huquqiy madaniyati. – T., – 2009

3. Matkarimova G. Ayol huquqlari. – T., 2001. 24 b.

4. Культура древнего Рима. Т.1. – М.: Наука. – С. 140-41.

5. Azimov A. Islom va hozirgi zamon. – T., O‘zbekiston.1991, 5 b.

Roxila ATAMURODOVA,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

ABDULLA ORIPOVNING “SOHIBQIRON” DOSTONI - TA’LIM JARAYONIDA MILLIY G‘URUR TUYG‘USINI RIVOJLANTIRUVCHI ASOSIY VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada A. Oripovning “Sohibqiron” dostoni ta’limotida milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish masalasi muhokama qilinadi. Shuningdek, dramadagi tarix haqiqatga muvofiq bahs-munoxalar, muloqotlar orqali Sohibqironning adolatga sadoqati, beqiyos insonparvar, yurtparvar zot bo‘lgani jonlantirganligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, tarbiya, milliy g‘urur, iroda, mardlik, jasorat, vatanparvarlik, tafakkur, aql-zakovat, yuksak insoniy tuyg‘ular, bunyodkorlik.

В этой статье А. В учении эпоса Арипова “Сахибкиран” обсуждается вопрос формирования чувства национальной гордости. Также история в драме раскрывается через споры, диалоги в соответствии с реальностью, верность Сахибхира справедливости, непревзойденный гуманизм, патриотизм.

Ключевые слова. Ўбразование, воспитание, национальная гордость, воля, мужество, отвага, патриотизм, мышление, интеллект, высокие человеческие чувства, творчество.

In this article, A. The teaching of Aripov's epic “Sahibkiran” discusses the formation of a sense of national pride. Also, the story in the drama is revealed through disputes, dialogues in accordance with reality, loyalty to Sahibkiran justice, unsurpassed humanism, patriotism.

Key words. Education, upbringing, national pride, will, courage, courage, patriotism, thinking, intellect, high human feelings, creativity.

Xalqimiz qalbida milliy g‘urur tuyg‘ularini ulg‘aytirish, yoshlar ongi va ko‘ngliда vatanparvarlik hislarini kuchaytirish maqsadida tarixiy ilmiy asarlar bilan bir qatorda Amir Temur to‘g‘risida yaratilgan adabiy-badiiy asarlar ham muhim ahamiyatga ega. Bulardan, Abdulla Oripovning besh pardali “Sohibqiron” dramatik dostoni va atoqli adib O. Yoqubovning “Fotihi muzaffar yoxud bir parivash qissasi” pesasi qissasi alohida ajralib turadi. Chunki ushbu asarlarda tarixiy davr murakkabliklari haqqoniy aks ettirilgan bo‘lib, Amir Temur obrazi real hayot kishisi sifatida gavdalantirilgan.

Xususan, shoir Abdulla Oripov “Sohibqiron” dramatik dostonida yuz bergan real hodisalarni tayanch manba sifatida tanlab, Amir Husayn, yeldirim Boyazid, Bibixonim, Ulug‘bek, Xonzodabegim, Uljoy Turkon, ibn Arabshoh, Hofiz Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Ispaniya elchisi Klavixo singari tarixiy shaxslar obrazlarini ham kiritganki, ular muayyan voqyealar ichida Sohibqiron qiyofasini ochishga xizmat qiladi. Dramada tarix haqiqatiga muvofiq bahs-munozaralar, muloqotlar orqali Sohibqironning adolatga sadoqati, beqiyos insonparvar, yurtparvar zot bo‘lgani jonlantirilgan. O‘tmish hodisalarini mavjud haqiqati bilan bu tarzda badiiy manzaralantirish esa ta’sirchanlikka erishishning eng samarali yo‘li sanaladi. Shu asosda Amir Temur o‘z xatti-harakatini hamisha tahlilu taftish etadigan, “Kuch adolatda!” shioriga sodiq qolib, har ishda adolatga suyanib, atrofdagilar bilan maslahatlashadigan, donishmand sifatida gavdalanadi.

“Biror mushkul muammoni hal etar bo‘lsam,

Kengash qildik ahli dinu vazirlar bilan,
Kengash qildik bahodirlar, amirlar bilan”[1]...,

– degan Amir Temurni Ahmad Yassaviy ruhi bilan muloqotga kirgizish orqali ilmu tafakkur qudrati har qanday jismoniy kuchdan ustun ekanligini ta’kidlashga xizmat qilgan.

Natijada, Amir Temur dunyo ishlari, chigalliklari, inson qismati murakkabliklari, odamlarning turfa tabiati haqida muttasil o‘ylaydigan mutafakkir sifatida namoyon etilgan. Muallif dramatik dostonda qahramon ichki, kolleziyalarini ko‘rsatishga harakat qilgan. “Sohibqiron” dramatik doston bo‘lganligi sabali unda qahramonlar qalbidagi holatlar, o‘z-o‘zini inkor etib azoblanishlar jarayoni, ayniqsa, ta’sirchan chiqqan. Dramatik doston voqealari Amir Temur bilan Amir Husayn to‘qnashuvi sahnasidan boshlab avjlanadi. Amir Husaynning qalbida Amir Temurga nisbatan cheksiz adovt mavjud. Uquvsiz Amir Husaynning farosatsiz, kaltabin, manfur qiyofasi kitobxon qalbida nafrat uyg‘otsa, sohibqironning ziyrakligi, mulohazakorligi, vaziyatga qarab ish tuta olishi, adolatparvarligi unga nisbatan hurmat, e’tiqod hislarini uyg‘otadi. Voqealar rivojida Amir Husay pastkash, ochko‘z, tuban shaxs sifatida gavdalanib boradi. O‘ljoy Turkon va Sohibqironning pok muhabbat rishtalari yorqin bo‘yoqda aks ettirilgan.

Tarixan Amir Temur faoliyatining jo‘g‘rofiyasi benihoya keng. Uni band qilgan va yechimiga intilgan muammolar ham hisobsiz. Jahongirning xarakter qirralari ham rang-barang. Abdulla Oripov bu kengliklardan, muammolardan, rang-barangliklardan eng zarurlarini, eng ma’nodorlarini topgan va aks ettira olgan. Asarni tahlil qilishda ana shu muhim nuqtalar tanlab olinishi lozim.

Abdulla Oripov talqinida Temur o‘z qilmishlarini o‘zi nazorat qila oladigan bir shaxs. O‘z iqroriga qaraganda u onasidan shamshir bilan tug‘ilgan emas, yoshligida yilqi boqqan, qir va adirlarda shodon yayragan. Yulduzlarga qarab baytlar bitgan. Biroq bu shodonliklar uzoq davom etmagan. Yigitlik davridan boshlab qismat uning qo‘liga qilich tutqazgan. Aslida bu tarixiy haqiqat edi. Asrlar davomida Turkiston chingiziylar zulmi ostida ezildi. Turonning mard o‘g‘lonlari elini, yurtini ozod qilish uchun qo‘lga qurol oldilar, zulmga qarshi kurashda ko‘plari yengildi, qirildi. Zulm va istibdod, bosqinchilik Amir Temurni zarurat mahsuli sifatida shakllantirdi. Shoir Sohibqiron tilidan buni quyidagicha izohlaydi:

“Meni mana ko‘rib turibsiz,
Boz ustiga fotix deya nom olgan zotman.
Odam qavmi o‘z qismatin sahrolarida
Qultum suvdek kerak bo‘ldim shekilli unga.
Cheksiz cho‘lda insoniyat karvoni qaqrab,
Bir-birlarin tepib,
Surib, g‘ujgon bo‘lgan payt
Men ularni ipga tizdim,
Bir sarbon bo‘lib”, – deydi.

Abdulla Oripov talqinicha, Amir Temurga quvvat berib turgan kuch bor. U ham bo‘lsa, Turon kelajagi. U har bir vatanparvar inson singari o‘z vatanidan, ona tuprog‘idan madad oladi. Shu ma’noda hayoti oxirlagan chog‘la deydi:

“Biz kim – mulki Turon, Amiri Turkistonmiz! Biz kim – millatlarning eng ulug‘i, Turkning bosh bo‘g‘inimiz!”.

[1] Oripov A. Tanlangan asarlar. IV jildlik. II jild, G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. – 2001-y. 120-b.

Qanchadan-qancha g‘urur, qanchadan-qancha qanoat, iftixor bor bu so‘zlarda. Sohibqironning ushbu so‘zlari o‘quvchilar ko‘ngliga, qalbiga milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otishi aniq.

Asarning, xususan, dramatik dostonning qimmati ko‘proq yechimga bog‘liq. Yechim qay darajada ma’nodor, qay darajada hayotiy bo‘lsa, asar shu darajada mukammallik kasb etadi. Bir zum yuqorida qayd qilingan Temur faoliyatga tegishli voqealarni xayoldan o‘tkazaylik. Agar muallif tarixiy voqealarnigina tasvirlaganda asar o‘quvchilar diqqatini butkul jalb qilmagan bo‘lardi. Badiiy barkamol asarlar, tarixiy buyuk shaxslar obrazini o‘rganish orqali o‘quvchilar ulug‘ insonlar dunyosini, qalbi, kurash-intilishlari mazmunini anglab, hayotiy xulosalar chiqarishga o‘rganadilar.

Abdulla Oripov Temurni o‘z yo‘lining to‘g‘ri-noto‘g‘riligini aniqlashga tinmay urinadigan, bosgan har bir qadami xususida fikr yuritadigan, o‘z xatosini muttasil sarhisob etadigan kishi sifatida tasvirlagan. Shuning uchun ham Temurning: “Unutmagil muzaffarman xaqligim uchun”, − degan so‘zlari kitobxonga qahramon fikrlash tarzining mantiqiy hosilasiday ta’sir qiladi.

Darhaqiqat, muallif asar bosh qahramonini o‘ylar og‘ushida aks ettirish orqali uning ma’naviy dunyosini, ruhiyatini keng ko‘lamli tasvirlashga erishgan. Temur xato qilib, nohaq qon to‘kilishdan, birovlarning umriga zomin bo‘lishdangina qo‘rqqan. Ammo o‘zini buyuk bir tarixiy missiyaning ijrochisi deb biladi va har qanday illatlar bilan ayovsiz kurashadi.

“Nega ko‘pdir nayrangbozu kazzob kimsalar?
Nega bosgan yer yuzini buncha ko‘p illat?
Men zaminni tozalashim kerak ulardan”.

Jahongir jangovar yurishlarida doim biror xalqqa qarshi emas, balki yovuz hukmdorga qarshi qo‘shin tortadi. Shu tariqa, muallif Sohibqiron faoliyatining axloqiy asoslarini yoritishga erishgan. Amir Temurning Ahmad Yassaviy bilan uchrashuvi asarning eng ta’sirli o‘rinlaridan biridir. Nima uchun? Chunki bu epizod orqali Amir Temurning o‘z xatti-harakatlariga ma’naviy asos qidirayotganligi aks etadi. Ulug‘ pirning “Aytchi Temur, sen besabab qon to‘kkanmisan?” − degan so‘roviga javob berish jahongir uchun oson kechmaydi.

Dunyoda banda tomonidan kuch bilan adolat o‘rnatilishi shubhali ekanligi buyuk so‘fiyning:

“Niyat qancha jozibali bo‘lsa ham Temur
Qilich bilan murod hosil bo‘lmog‘i gumon”, − degan so‘zlarida ifoda etgan.

Temur Xitoy tomon lashkar tortish arafasida. Tun. U o‘zi qurdirgan Yassaviyning maqbarasi oldida avliyoning ruhidan oq fotiha olmoqchi. Shu o‘rinda paydo bo‘lib qolgan Hazrati Hizr va uning qiyofasida almashinib namoyon bo‘lgan Yassaviy timsolini ko‘rgan Temur holati o‘quvchi-kitobxonni hayajonga soladi. Asarning yuqoridagi qismlaridan ma’lumki, Amir Temur barcha aziz avliyolar ichida ko‘proq Yassaviyni e’tirof etgan. Umr bo‘yi uni qiynab kelayotgan muammolar yechimi shu yerda, ya’ni Yassaviy huzurida hal bo‘lishi kerak. Temur adolat uchun jangu jadal otiga mingan. Shu yo‘lda u ko‘plab shaharlarni, el-yurtlarni qo‘lga kiritgan jahongir.

Biroq umrini bag‘ishlagan jangu jadallarni katta olov tarzida tasavvur qilaylik. Bu olovda ho‘lu-quruq barobar yongan. Ayrim hollarda begunoh odamlarning ham qoni to‘kilgan. Buni Amir Temur yaxshi biladi. Endi umri oxirida Sohibqiron o‘z umrini sarhisob qiladi. Demak, beqiyos iroda bilan yetuk tafakkur kuchi birlashgan.

“Tinsiz jangu jadal bilan o‘tdi hayotim,

Balki qancha umrlarga zomin bo‘lganman.

Oxiratda etagimdan tutmasmi ular?”

Ikki ulug‘ siymo, ikki falsafa. Biri adolat uchun yurish qiladi, qilich ko‘taradi. Bu yo‘lni birdan-bir to‘g‘ri yo‘l deb tushunadi.

Ikkinchisi, insoniyatni insofga chaqiradi. Uning qilichi ham, lashkari ham bitta – so‘z, pandu nasihat. So‘z bilan u ko‘ngillarni zabt etishga da’vat qiladi. Son-sanoqsiz qo‘shinlar amalga oshira olmagan ezgu ishlarni boshqarmoq uchun insofu adolat tantanasi; – nafsni yengish, komillikka erishish loziqtiradi. Temur esa o‘z aqidalaridan bir qadam ham siljimoqchi emas. Agar u mahv etmasa, uni mahv etadilar. U Yassaviydan madad so‘rayapti, xolos. Ikkinchidan, ulug‘ pir o‘z aqidalariga sodiq Temurni yo‘ldan qaytarmoqchi. Adolat uchun qon to‘kib, ozgina bo‘lsa ham adolatsizlikka yo‘l qo‘yishga qarshilik qilmoqda. Shu taxlit Yassaviy hazratlari Temurni oxirgi safaridan qaytarmoqchi. Biroq Temur bamisoli arslon. U so‘zidan ham, yo‘lidan ham qaytmoqchi emas.

Xullas, asar oxirida, Temur butun hayotiga o‘zi yakun yasaydi. U anglaydiki, adolat uchun olib borilgan jangu jadallar Amir Temur o‘ylaganicha hamisha adolatli bo‘lavermaydi. Har qanday urush insoniyat boshiga kulfat keltiradi. Bu jihatdan Abdulla Oripovning ushbu dramatik dostoni ma’lum ma’noda fojiiy yo‘nalish kasb etadi. Ot surib, qilich tortib, qariyb dunyoning yarmini zabt etgan va ulug‘ temuriylar saltanatini tiklagan jahongir o‘z hayot yo‘li xususida o‘yga toladi. Ahmad Yassaviy aytgan hikmatlar ma’nosini chaqmoqchi bo‘ladi, odil hukm-xulosaga keladi. Shoir talqinida bu ham tarixiy haqiqatdir. Amir Temur qisqa umri davomida bir necha umrlar egalari qila olmaydigan ishlarni amalga oshirdi. Qachondir qay darajadadir adolatsizlikka, ya’ni qilich kuchi bilan “adolat o‘rnatishga” uringanligi ham haqiqat.

Ulug‘ bobolarimiz siymosini badiiy asarlar orqali o‘rganishga yo‘llash vositasida o‘quvchilarda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini tarkib toptirish mumkin. Xususan, A. Oripovning “Sohibqiron”, dostonini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilar ko‘nglida yurtsevarlik, vatanparvarlik, kurashchanlik tuyg‘ularini ulg‘aytirish imkoni tug‘iladi.

Ana shu imkoniyatdan unumli foydalana olgan o‘qituvchi ajdodlarimiz qiyofasini o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlantirishga erishadi. Ularga xos iroda, mardlik, shijoat, vatanparvarlik, el-yurt taqdiri uchun mas’ullik va kurashchanlik kabi tuyg‘ularni o‘quvchilar qalbiga olib kiradi, ulug‘ ajdodlarimiz kabi yashash istagini uyg‘otadi. Shu yo‘l bilan yoshlarni mustaqil fikriga ega, turli ma’naviy xurujlarga qarshi sobit tura oladigan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. IV jildlik. II jild, G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 2001 y. 120 b.

2. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1996. - 151 b.

3. Yo‘ldoshev Q. O‘qituvchi kitobi. (Metodik qo‘ll. 7- sinf “O‘zbek adabiyoti” darslikmajmuasi uchun.) – T.: O‘qituvchi, 1997. – 230 b.

4. Keldiyorov R. Adabiyot darslari samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari. (O‘qituvchi kasbiy-ma’naviy fazilatlari asosida). Ped. fan. nom. diss... – T.: 2001. – 138 b.

Sarvinoz ZIYODULLAEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistent uqituvchisi

LIDERLIK MUAMMOSINING ASPEKTLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola gurux tashkilotchilari va sinf liderlari, bu jamiyatning ijtimoiy faol, ijodkor, tashabbuskor, mas'uliyatli, ya'ni muayyan ijtimoiy ahamiyatli va shaxsiy xususiyatlar va fazilatlarga ega yangi shaxsga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqishi va shu sababli lider shaxs aksariyat fanlar – falsafa, antropologiya, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya va inson haqidagi boshqa fanlarning o'rganish markaziga aylanishi xaqida.

Kalit so'zlar. Lider, ijdkor, shaxsiy xususiyat, fazilat, falsafa, antropologiya, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya.

Данная статья исходит из потребности групповых организаторов и классных руководителей, этого общества в новом человеке, социально активном, творческом, инициативном, ответственном, то есть обладающем определенной социальной значимостью и личностными особенностями и качествами. психологии и других гуманитарных наук.

Ключевые слова. Лидер, создатель, черта личности, добродетель, философия, антропология, социология, педагогика, психология.

This article originates from the need of group organizers and class leaders, this society for a new person who is socially active, creative, initiative, responsible, that is, with certain social significance and personal characteristics and qualities. , about becoming a center of study of psychology and other human sciences.

Key words. Leader, creator, personality trait, virtue, philosophy, anthropology, sociology, pedagogy, psychology.

So'nggi yillarda liderlik muammosiga bo'lgan qiziqishning sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Bu mikromuhitni, kichik guruhlarni tadqiq qilish mantig'i bilan izohlanib, u albatta guruhlarning differensiatsiyasi holatining aniqlanishiga olib keladi. Shuningdek, o'z navbatida aloqa guruhlari tashkilotchilari va liderlarining ahamiyati va o'rnini ko'rish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu jamiyatning ijtimoiy faol, ijodkor, tashabbuskor, mas'uliyatli, ya'ni muayyan ijtimoiy ahamiyatli va shaxsiy xususiyatlar va fazilatlarga ega yangi shaxsga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi. Shu sababli lider shaxs aksariyat fanlar – falsafa, antropologiya, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya va inson haqidagi boshqa fanlarning o'rganish markaziga aylandi.

Ma'lumki, liderlik qobiliyati, boshqa barcha qobiliyatlar singari, shakllanayotgan shaxsning fazilatlari, uning yo'nalganligi bilan chambarchas bog'liq hamda tashkilotchilik faoliyatining mazmunini belgilab beradi.

"Tashkilotchilik qobiliyatlari" ostida biz insonga biron-bir faoliyatni birgalikda bajarish maqsadida odamlarni birlashtirish hamda uning nisbatan yuqori unumdorligini (ham miqdoriy, ham sifat jihatidan) belgilovchi qobiliyatini ta'minlaydigan shaxsiy fazilatlar majmuasini tushunamiz. Ushbu ishchi ta'rif hal qilinadigan vazifalarni anglash, ijrochilarni tanlash va joylashtirish, birgalikdagi faoliyatni rejalashtirish, muvofiqlashtirish va boshqalarni o'z ichiga olgan tashkilotchilik faoliyatning mohiyatini tushunishdan kelib chiqadi.

V.N. Myasishev tashkilotchilik qobiliyatlarining asosiy komponentlari sifatida "voqyelikda yo'nalishni oqilona topish" qobiliyatini, yetakchi komponentlar sifatida esa "topqirlik va zukkolikda, jasorat va qat'iyatda naomyon bo'ladigan ijodiy tafakkur bilan

birgalikda aqlning moslashuvchanligini” ajratib ko‘rsatadi.

V. A. Golneva tomonidan tashkilotchining faoliyati uchun yanada o‘ziga xos xususiyat – “Harakatsizlik” alohida ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, u tomonidan “o‘rtoqlarga ta’sir qilish qobiliyati”, “bir vaqtning o‘zida ularning ruhiyatining turli tomonlariga – aqliga, tuyg‘ulariga, irodasiga ta’sir qilish qobiliyati” deb ta’riflagan va “bu tashkilotchining aqliy sifatlari, uning tabiati jihatlari, temperamenti bilan belgilanadi”.

L.I. Umanskiy fikriga ko‘ra, tashkilotchilik qobiliyatlarning markaziy “o‘zagi” bo‘lib boshqara olish, ya’ni boshqa faoliyat turlaridan farqli ravishda, tashkilotchilik ishi uchun zarur bo‘lgan murakkab xususiyat hisoblanadi.

Bir qator olimlar liderlikni hodisa sifatida o‘rganishning umumiy sxemasini bir necha analitik bloklar ko‘rinishida taklif etib, ular mohiyatiga ko‘ra liderlikning barcha muammolarini o‘z ichiga olishi mumkin. Ushbu sxema uchta asosiy bandni o‘z ichiga oladi:

– tuzilish xususiyatlari (shaxs fazilatlari);

– amalga oshirish mexanizmlari;

– borish dinamikasi.

Tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan birinchi band ko‘proq qiziqish uyg‘otadi. Afsuski, mamlakatimizda lider shaxsiy fazilatlarini ko‘rib chiqish muammosiga yetarlicha e’tibor berilmagan. So‘nggi o‘n yil ichida bu holat asta-sekin o‘zgara boshladi, buni o‘rta avlodlarning liderlik jihatlarini o‘rganish bilan bog‘liq bir qator tadqiqotlarda kuzatish mumkin.

Mazkur muammo psixologiya fanida: I.P. Volkov, V.A. Golneva, Ye.M. Dubovskaya, Ye.M. Zaytseva, A.S. Krikunov, R.L. Krichevskiy ishlarida kengroq aks ettirilgan.

Afsuski, shuni aytish mumkinki, mamlakatimiz olimlari tomonidan liderlik hodisasining o‘zi va liderlik fazilatlari, ayniqsa, muammoning pedagogik jihati, xususan, lider – bola shaxsining ijobiy fazilatlarini tarbiyalash masalalari yetarlicha o‘rganilmagan.

Ontogenezda lider shaxsining rivojlanish jarayonini nazariy va tajriba yo‘li bilan tadqiq qilish uchun ushbu jarayonga kiritilgan operatsion tushunchalarning aniq differensiatsiyasi muhim ahamiyatga ega.

O‘z tadqiqotimizda biz A.V. Petrovskiy, M.G. Yaroshevskiy va boshqa tadqiqotchilarning fikriga qo‘shilgan holda, tengdoshlar guruhida birgalikdagi faoliyatni tashkil etishga va munosabatlarni tartibga solishga qodir bo‘lgan faol bolani lider deb hisoblaymiz.

Liderlikning namoyon bo‘lishi ko‘p jihatdan guruhning rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. A.V. Petrovskiy ta’kidlashicha, guruh tuzilmasi guruh a’zolarining mavqyei va maqomining o‘ziga xos iyerarxiyasidan iborat. Ushbu zinapoyaning eng yuqori pog‘onasini o‘zining yuqori maqomi va mavqei bilan guruhning barcha a’zolari orasida ajralib turadigan va shuning uchun guruhning barcha a’zolariga tegishli bo‘lgan eng mas’uliyatli qarorlarni qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan guruh lideri egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, odatda guruh faoliyatini tashkil eta oladigan, amalda boshqalarni boshlab borgan holda guruhdagi munosabatlarni tartibga sola oladigan guruh a’zosini lider deb hisoblash qabul qilinadi. Lider boshqa guruh a’zolarining aksariyati kabi fazilatlarga ega, ammo uning harakatlari boshqalarning harakatlaridan sifat jihatidan farq qiladi hamda uning faoliyati darajasi qolganlarga qaraganda yuqori bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodiyev R.D. Methods and Forms to Ensure Understanding in Educational Process. Eastern European Scientific Journal. DOI, 10.

2. Nurullayeva Sh.U. (2021). Bo‘lajak o‘qituvchilarni metodik tayyorlash tizimi. Mug‘allim həm ɣzliksiz bilimlendirio‘. №2. Nəkis.

3. Aslonova O.P. (2020). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv funksiyasini psixo-pedagogik aspektlari. Uz Akademiya. Ilmiy uslubiy jurnal. – 171-175 b.

Shoxida AXMEDOVA,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

MUVAFFAQIYATGA ERISHISHDA KORPORATIV MADANIYATNING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada korxona yoki firmalarning muvaffaqiyatga erishishida korporativ madaniyat va strategiya integratsiyasining ahamiyatliligi asoslab berilgan, shuningdek, korporativ madaniyat, tashkilot strategiyasi, muvaffaqiyat, samaradorlik kabi tushunchalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Korporativ madaniyat, strategiya, integratsiya, texnologiya, dinamik muhit, individual, instink, zona, innovatsiya.

В данной статье обосновывается важность интеграции корпоративной культуры и стратегии в достижении успеха предприятия или фирмы, а также рассматриваются такие понятия, как корпоративная культура, стратегия организации, успех, эффективность.

Ключевые слова. Корпоративная культура, стратегия, интеграция, технологии, динамическая среда, индивид, инстинкт, зона, инновации.

This article substantiates the importance of integrating corporate culture and strategy in achieving the success of an enterprise or firm, and also examines such concepts as corporate culture, organizational strategy, success, efficiency.

Key words. corporate culture, strategy, integration, technology, dynamic environment, individual, instinct, zone, innovation.

Korporativ madaniyat tushunchasiga bugungi kunda hech kim yangi tushuncha sifatida qaramaydi. Chunki ushbu tushunchaning mazmun mohiyatini biz turli ko'rinishlarda qadimdan ko'rib, guvohi bo'lib va hattoki, subyekti sifatida qatnashib kelmoqdamiz. Korporativ madaniyat o'z nomi bilan jamoa bilan shakllanadigan madaniyat hisoblanadi va korxona yoki tashkilotning strategiyasi bilan bog'liq holda muvaffaqiyatli maqsadlarga yetaklaydi. Har bir tashkilot strategiya asosida faoliyatini olib boradi. Strategiya bu – korxona yoki tashkilotning maqsadlari, vazifalarini izchilligini, puxtaligini ta'minlaydi[1].

Korporativ madaniyatning tashkilot faoliyatiga ta'siri qanday? Ma'lum bir ishni qilishdan maqsad uning samaradorligiga erishishdir. Samaradorlik tashkilotning madaniyati, strategiyasi, atrof muhit (tashqi muhit), texnologiya (ichki muhit) muvofiqligini talab qiladi[2]. Tashkilotning bozorga asoslangan, dinamik muhitda ko'proq mos keladigan strategiyasi – individual tashabbus, tavakkalchilik, yuqori va mustaxkam integratsiya, nizolarni normal va shaffof idrok etish hamda keng miqyosdagi aloqaga asoslangan madaniyatni anglatadi. Tashkilotning madaniyati ma'suliyatli nazoratni ta'minlaydi va xavf va nizolarni minimallashtirishga harakat qiladi. Kuchli madaniyat xodimlarning xatti- harakatlari izchilligini ta'minlaydi. Korporativ madaniyat orqali hodimlar qanday oqimda harakatlanish kerakligini biladi. Tashkilotdagi faoliyatning oldindan belgilanishi tartibliligi va izchilligi yuqori rasmiylashtirish yoki qonuniy hujjatlar orqali shakllantiriladi. Ammo, kuchli madaniyat orqali yuqoridagi strategik yo'nalishga biror-bir hujjat yoki qonun qoidalarsiz bir xil naijaga erishish mumkin. Bundan tashqari kuchli korporativ

[1] A.V. Kvachko " bozorning korporativ madaniyati". – 12-16 b.

[2] Boris Groysberg, Jeremiah Lee, Jesse Price, J.Yojud Cheng. "The leader's guide to corporate culture" – 23,-28 p.

madaniyat har qanday rasmiy boshqaruvdan samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Bundan ko‘rinib turibdiki, tashkilot faoliyati samaradorligi strategiya bilan bir qatorda kuchli madaniyatga asoslangan holda yuksaladi. Strategiya va madaniyat yuqori darajadagi rahbarlar tashkilotning hayotiyligi va samaradorligini saqlab qolish uchun cheksiz izlanishlarida asosiy vositalaridan biridir. Strategiya kompaniyani maqsadlarga yetaklovchi rasmiy mantiqlarga asoslanadi. Korporativ madaniyat esa shu kungacha saqlanib qolgan, yoki yangi shakllantirilgan qadriyatlar va urf odatlar orqali jamoaga ta’sir etishga asoslanadi, jamoaviy shakllanishni ilgari suradi. Strategiya jamoaviy harakatlar va qarorlar qabul qilish uchun aniqlikni talab qiladi va odamlarni jalb qilish uchun rejalar to‘plamiga asoslanadi. Atrof muhitni kuzatish yutuq va kamchiliklarni aniqlash orqali rejalar to‘plami tuziladi. Bu jarayon yetakchilik strategiyasini shakllantirish bilan birga boradi va ko‘pchilik rahbarlar aniq asoslarga tayanadilar. Biroq, madaniyat bu – qiyinroq dastak uni bir me’yor asosida shakllanadi, deya olmayman. Chunki uning ko‘p qismi aytilmagan xatti-harakatlar, fikrlash tarzi, ijtimoiy naqshlarga bog‘langan. Har qanday ko‘rinishi orqali strategiya va madaniyat bir biri bilan uzviy bog’liqdir. Ko‘pchilik rahbarlar va ta’sischilar ko‘pincha yangi madaniyatlarni harakatga keltiradi va bu yillar davomida saqlanib qolgan qadriyatlar va an’analarni o‘z ichiga oladi[3]. Ba’zi holatlarda vaqtlar o‘tishi bilan tashkilot rahbari ongli va ongsiz harakatlar orqali madaniyatni shakllantirishlari mumkin. Albatta ba’zida kutilmagan oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Bugungi kunda eng yaxshi yetakchilar natijaga erishgan ko‘plab korporativ madaniyat modellaridan xabardor va jamoasi bilan qachon o‘zgarishga va o‘zgartirishga ehtiyoj sezishsa, mohirlik bilan o‘zlashtiradilar hamda moslashtiradilar. Afsuski, ko‘pchilik rahbarlar faoliyat strategiyasini muhit madaniyatiga bog‘lamagan holda shakllantiradi va natijada jamoaviy madaniyatni strategiya oldidagi to‘siq sifatida bilishadi. Aynan strategiyada avvalo kompaniya qadriyatlari va shaxslarning qadriyatlari aks ettirilishi lozim va bu biz tushunganimizdek, korporativ madaniyatning katta qismini tashkil etadi. Masalan, biror bir korxona faoliyatini olaylik, korxona faol xatti-harakatlar orqali bozorda o‘sish strategiyasini tanladi. Bu albatta individual o‘sish emas, jamoaviy o‘sishni yuzaga keltiradi va barcha hodimlar uchun yuqoriga yo‘nalish berilishi, ichki raqobatni shakllantirish hamda bu xatti-harakatlar bevosita rahbar tashkillashtirishiga va boshchilik qilishiga olib keladi. Chunki ma’suliyatsiz xodimlarni ishdan bo‘shatish va norozigarchiliklarni oldini olish aynan rahbar strategiyasiga, rahbar madaniyatiga bog’liq. Har qanday kompaniyaning muvaffaqiyatida korporativ madaniyat o‘rni unga yuklatilgan vazifalar orqali belgilanadi. Ushbu vazifalarga:

– ichki muhitda muvozanatni saqlash;

– harakatlarga turtki yaratish;

– o‘zini qayta tiklash;

– yangi kelgan xodimlarni tarbiyalash.

Hamma yangi muhitga ilk marotaba kirganda o‘zini begonadek his qilishi tabiiy hol. Ammo vaqt bizga ta’sir qiladi va atrofdagi vaziyatlarni huddi o‘zimiznikidek qabul qilamiz. Agar kompaniyaning korporativ madaniyati shakllantirilmagan yoki xodimlar orasida tarqalmagan bo‘lsa, individual madaniyatlar o‘rtasidagi nomutanosiblik natijasida ishdagi samarasizliklar ko‘payishi mumkin. Natijada kompaniya o‘zining harakatchangligini yo‘qotadi va korporativ madaniyat dolzarbligiga ta’sir qiladi. Yangicha madaniyatni singdirish yoki o‘zlashtirishni yuqori qismdan boshlash lozim. Sababi quyi bo‘gin katta qismni tashkil etgan joylarda yangicha madaniyatni tatbiq etish ko‘plab norozigar-

[3] Boris Groysberg, Jeremiah Lee, jesse Price , J.Yojud Cheng. “The leader’s guide to corporate culture” – 34-36 p.

chiliklarga sabab bo‘lgan va bular natijasida ayrim holatlarga kutilgan natijaning aksi kuzatilgan. Bu jarayon quyi bo‘gindan boshlash juda ko‘p mehnat va vaqtni talab qilgan.

Korporativ madaniyat ta’siri rahbar faoliyatiga bog’liq, chunki madaniyatni boshqarish mumkin[4]. Uning kerakliligini oshirish va xavflarni minimallashtirish aynan rahbarning qanday ishlashini aniqlashdek muhim qadam hisoblanadi. Chunki to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan korporativ madaniyat eng qiyin paytlarda ham gullab yashnaydigan tashkilot qurishga yordam beradi.

Madaniyat guruh a’zolarining fikrlari va harakatlarini uzoq muddatga yo‘naltirishi mumkin. Jamoaviy madaniyat shakllangan korxona yoki firmada demokratik munosabatlar va yangicha qarashlar ko‘lami keng bo‘ladi[5].

Bir tomondan, korporativ madaniyatni korxona yoki firmaning o‘ziga xos xususiyati sifatida qabul qilish tarafdoriman. Chunki odamlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega tashkilotlarga jalb qilinadi, shuningdek, tashkilotlar ko‘proq mos keladiganini tanlashadi. Madaniyatning o‘ziga xos jihati shundaki, odamlar uni instink sifatida tan olishi va unga javob berish uchun samarali tarzda harakat qilishidadir. Har qanday korxona yoki tashkilot ish muhitini korporativ madaniyat shakllanadigan zona sifatida bilishi kerak. Sababi ish muhitida odamlar bir-biriga yordam beradigan, hamkorlik va mehmondo‘stlik, na’munaviy komunikatsiyaning shakllanish o‘chog‘idir. Xodimlari birlashgan ahil bo‘lgan korxonaning yuksalishi aniq, xodimlarni esa sodiqlik birlashtiradi. Shu o‘rinda rahbarlar esa, samimiylik, jamoaviy ish va ijobiy munosabatlarga urg‘u beradi. Ish muhiti bu – odamlar dunyoning uzoq muddatli va porloq kelajagi uchun yaxshilik qilishga harakat qiladigan, bag’rikeng imkoniyatlarga boy joydir.

Madaniyat orqali xodimlar qiziqish bilan birlashtiriladi, rahbarlar esa qiziqishni innovatsiya, bilim va tajribalarga urg‘u berish, jamoaga singdirish orqali uyg‘otadi. Ish muhitini va undagi madaniyatni shunday yaratish kerakki, odamlar o‘zlarini baxtli qiladigan ish bilan shug‘ullanayotganini anglasin va uni qilishga moyilligi ortsin. Rahbar shaxslar o‘ziga xos madaniyatni shakllantirishga intilayaptimi?, unda hazilkashlik va rag‘batlantirishga ham bir muncha urg‘u berish darkor. Sababi xodimlar o‘ynoqilik va rag‘batlantirish jarayonidagi munosabatlar orqali birlashadi[6]. Ko‘plab shu mavzudagi maqolalarni va izlanishlarni o‘rganib chiqish orqali shuni angladimki, o‘ziga xos madaniyatni shakllantira olgan ko‘plab korxonalar, tashkilotlar, firmalar o‘zaro g‘amxo‘rlik orqali na’munaviy darajaga erishgan va yana shuni angladimki, hokimiyat madaniyatiga erishish ko‘pincha bu madaniyatning avfzalliklarini qo‘lga kiritish va kamchiliklari bilan birga yashash demakdir. Shu o‘rinda, o‘zaro hamkorlik individual rivojlanishga to‘siq bo‘ladimi? degan savol tug‘iladi. Aksincha, g‘amxo‘rlik va tartibni ta’kidlaydigan madaniyat, jamoaviy ish, ishonch va hurmat bo‘lgan ish muhitini rag‘batlantiradi. Madaniyatni strategiya va yetakchilik bilan uyg‘unlashtirsa, kuchli ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi.

Madaniyat bu – kuchli farqlovchi va kuchli quroldir. Mijozlarni o‘ziga qaratishni xohlagan korxona yoki tashkilot o‘zining kuchli qurolini ishga soladi va o‘ziga xosligini namoyon qiladi. Jamoaviy madaniyat kishilarni birlashtirar ekan, birlashishda bir-birini to‘ldiruvchi kuchli tomonlar asosida yangi madaniyatni loyihalash integratsiyasini tezlashtirishi va vaqt o‘tishi bilan ko‘proq qiymat yaratishi mumkin[7].

[4] A.V. Kvachko “Bozorning korporativ madaniyati” – 23-30 b.

[5] Boris Groysberg, Jeremiah Lee, jesse Price , J.Yojud Cheng. “The leader’s guide to corporate culture” – 34-36 p.

[6] Boris Groysberg, Jeremiah Lee, jesse Price , J.Yojud Cheng. “The leader’s guide to corporate culture” – 47 p.

[7] Entoni Giddens “Sotsiologiya” – T., 2002 – 76-78 b.

Korporativ madaniyat faqat rivojlanishga yetaklaydimi? Ushbu savolga to‘laqonli ha, deya javob berib bo‘lmaydi, chunki ayrim korxonalar borki, ularning rivojlanishiga muhitga o‘rnashib qolgan va jamoaga mos bo‘lmagan madaniyat halaqit beradi. Bundan kelib chiqadiki, korporativ madaniyat hamfikrlikda, ochiq jamoaga asoslangan va maqsadga yo‘naltirilgan holdagina, ijobiy natijalarga yetaklaydi.

Biz yangicha o‘zimizga xos va mos bo‘lgan madaniyatni singdirish uchun qanday yo‘l tutishimiz kerak?

Jamoani yangi yo‘lga boshlash va yangicha qarashni shakllantirish, albatta, bir marta urunishda tashkilot uchun daxshatli, ammo, bu imkonsiz degani emas. Albatta, bunda rahbarning ahamiyatliligi yuqori darajada. Rahbar avvalo xodimlarini madaniy evolutsiyada o‘zlarini qulay his qilishlari uchun yordam beradigan treninglar o‘tkazishi atrofiga ushbu evolutsiyani qo‘llab-quvvatlovchi liderlarni yig‘mog‘i lozim. Shuningdek, kiritilayotgan o‘zgarishlar umumiy va ochiq muhokamaga qo‘yilishi uning jamoaga bildirgan reaksiyasini ifodalaydi. Madaniyatni maqsadga maqsad ko‘lamini esa, liderlarga bog‘lang va maqsadli madaniyatga mos liderlarni tanlang, ularni qo‘llab-quvvatlang va rivojlantiring. Agar har qanday kompaniya tizimlari, tuzilmalari va jarayonlari muvofiqlashtirilsa, intilish madaniyati va strategiyasini qo‘llab-quvvatlasa, yangi madaniyat uslublari va xatti-harakatlarini rag‘batlantirish va o‘zlashtirish ancha osonlashadi[8]. Kuchli madaniyat xodimlarda ishga bo‘lgan mehr- muhabbat va rohatlanish hissini uyg‘otadi. Yuqori yetakchilar o‘z madaniyatlarini kuchli tomonlarini muvaffaqiyatli maqsadlar qo‘yish uchun nimalar qilish kerakligini muhokama qilishadi. Tashkilot madaniyatini yaxshilash uchun avvalo jamoada qanday madaniyat mavjudligini aniqlash lozim. Keyinchalik intiluvchan maqsadli madaniyatga moslashtirish va bog‘lash mumkin. Bugungi kunda madaniyat bilan yetakchilik jamoaviy ustunlikni saqlovchi va unga yetaklovchi mustahkam ko‘prikdir. O‘ziga xos madaniyatni shakllantirish orqali xodimlarda o‘zaro ishonchni orttirish mumkin.

Siz aynan madaniyatingiz orqali koproq mashhurlikka erisha olasiz va atrofingizdagilar madaniyatingiz o‘zgacha ekanligini e’tirof etishadi.

Korporativ madaniyat boshqaruv dastagi kabidir. Chunki maqsadga yo‘naltirish rahbarni dastakni qanday ushlashiga bog‘liq.

Korporativ madaniyatni maqsadga yo‘naltirish bizga nima beradi? Avvalo bizda bloklanib qolgan eskicha qarashlarni yo‘qotish, keraksiz qoidalarga cheklovlar va asosiysi munozara, o‘sish uchun qulay muhitdir. Shaxsiy fikrim asosida shuni aytolamanki, yangicha madaniyatni shunday shakllantirish kerakki, haqiqatni aytish taqchilligi bo‘lmasin, eshitishni xohlagan narsalarimizni emas, to‘g‘ri bo‘lgan, haqiqat bo‘lgan narsalarni eshitishga odatlanaylik. Shunday qilib korporativ madaniyat o‘zgarishlarga va tashqi ta’sirlarga tobora chidamli bo‘lib, o‘zini o‘zi mustahkamlaydigan ijtimoiy modeldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.V. Kvachko “ bozorning korporativ madaniyati”.

2. Boris Groysberg, Jeremiah Lee, Jesse Price, J.Yojud Cheng. “The leader’s guide to corporate culture”.

3. Entoni Giddens “Sotsiologiya” – T., 2002.

4.Toshiyuki Sawai & Yoshinori Hirai “Corporate governance code revisions set to drive Japan’s ESG and sustainability push” – 2021 july.

[8] Toshiyuki Sawai & Yoshinori Hirai “Corporate governance code revisions set to drive Japan’s ESG and sustainability push” – 2021 july 23 p.

Abdikamal MAMADALIEV,
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi O'quvchilarni kasbga yo'naltirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA KASBIY KO'NIKMALARNING SHAKLLANISHI HAMDA KASBGA OID AXBOROTLAR BILAN TANISHISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash, ularni kasbga yo'naltirish borasida olib borilayotgan ishlar, erishilgan natijalar, mavjud muammolar va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar yoritilgan. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarni qiziqishlarini aniqlash va kasbga yo'naltirish bo'yicha Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya davlatlari tajribalari o'rganilgan. O'rganish va tahlil natijalari asosida O'zbekiston uchun mos bo'lgan yangi elektron tizim – "Individual tashxislash tizimi"ni yaratish taklif etilgan. Tizim orqali o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash, ularni kasbga yo'naltirish bo'yicha tizimli monitoring olib borish ko'rsatilgan. Mazkur platformani ishga tushirishda erishiladigan natijalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Umumiy o'rta ta'lim maktabi, kasb-hunarga yo'naltirish, platforma, tashxislash, mehnat bozori.

В данной статье в современных общеобразовательных школах освещается работа, проводимая по определению интересов учащихся, ориентирование их на профессию, достигнутые результаты, существующие проблемы и задачи, которые необходимо выполнить. В ходе исследования был изучен опыт Великобритании и России в определении интересов студентов и направлении их в профессию. По результатам изучения и анализа было предложено создать новую электронную систему, подходящую для Узбекистана – "Система индивидуальной диагностики". Через систему обозначен систематический контроль за определением интересов студентов и направлением их в профессию. Также полностью указаны результаты, которых можно достичь при запуске данной платформы.

Ключевые слова. Общеобразовательная школа, профориентация, платформа, диагностика, рынок труда.

In this article, today's general secondary education schools highlight the work carried out to determine the interests of students, guide them to the profession, the achieved results, the existing problems and the tasks to be performed. In the course of the research, the experiences of Great Britain and Russia were studied in determining students' interests and directing them to the profession. Based on the results of study and analysis, it was proposed to create a new electronic system suitable for Uzbekistan - "Individual diagnosis system". Systematic monitoring of determining students' interests and directing them to the profession is indicated through the system. The results that can be achieved when launching this platform are also fully specified.

Key words. General secondary school, career guidance, platform, diagnosis, labor market.

Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 20 foizini yoshlar tashkil qiladi. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 60 foizdan ortiqroq. Yurtimizda aholi soni kundan kunga ko‘payib bormoqda. 2022 yilda aholimiz 35 mln.ga (2022 yil 31 may xolatiga 35,271,300 nafar) yetdi. Doimiy aholi soning 31.1 foizini mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,0 foizini mehnatga layoqatli yoshdagilar, 10,9 foizini mehnatga layoqatli yoshdan kattalar tashkil etmoqda. Birlashgan millatlar tashkilotining 2020 yilda o‘tkazgan tadqiqot natijalariga ko‘ra O‘zbekiston ta’lim indeksi bo‘yicha dunyoning 189 ta mamlakatlari orasida 71-o‘rinni egallamoqda. Qo‘shni dalatlar orasida Tojikiston (96-o‘rin), Turkmaniston (111-o‘rin), Afg‘oniston (170-o‘rin) davlatlaridan yuqori o‘ringa ega bo‘lsada, Qirg‘iziston (70-o‘rin), Qozog‘iston (35-o‘rin) davlatlaridan bir muncha ortda ekanligini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot natijasida yaratilgan O‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash, ularning kelajakda munosib kasb egasi bo‘lishlariga ko‘maklashishga qaratilgan elektron “Individual tashxislash tizimi” (kasb.maktab.uz) yagona platformasi bo‘yicha nufuzli, ilg‘or davlatlarning tajribalari o‘rganilib, ular tomonidan amalga oshirilgan ishlari tahlil qilingan. O‘rganish va tahlil natijasiga ko‘ra yangi tizim orqali o‘quvchilarning qiziqishlarini aniqlash, ularni kasbga yo‘naltirish, kelgusida hayotga tayyorlashning yangi innovatsion yechimlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqot natijasida yaratilayotgan tizimda quyidagilar ustuvor yo‘nalishlar sifatida qabul qilindi:

– o‘quvchilarning kasb-hunarga bo‘lgan qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash;

– umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish;

– maktab bitiruvchilariga kelajak kasbini tanlashda ko‘maklashish;

– bitiruvchi sinf o‘quvchilari uchun davlatimizda va butun jahonda aktual kasblar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini yaratish;

– o‘quvchilarning intelektual rivojlanishi va emotsional holatini monitoring qilish;

– o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi (jinoyatga moyillik darajasi, suitsid havfi, zo‘ravonlik va tazyiq)ni aniqlash;

– o‘qituvchi va o‘quvchilarga tezkor onlayn psixologik yordam ko‘rsatish;

– kasb-hunarga yo‘naltiruvchi yagona elektron platformani mavjud platformalar bilan integratsiya qilish, statistik ma’lumotlar oynasini yaratish hamda doimiy monitoring qilish;

– o‘quvchi shaxsning kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishi hamda undagi tegishli ijtimoiy va kasbiy sifatlarning shakllanishiga zamin yaratish.

Platformadan foydalanish jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktablari, farzand tarbiyasi uchun bevosita mas’ul bo‘lgan ota-onalar hamda bilvosita mas’ul bo‘lgan keng jamoatchilik bilan hamkorlikda quyidagi vazifalarni amalga oshirish zaruriyati vujudga keladi:

– umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini psixologik hamda IQ-testlar o‘tkazish orqali kasbga yo‘naltirish;

– bitiruvchi sinf o‘quvchilarini davlatimizda va butun jahonda aktual kasblar (“Kasblar Atlasi”) to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishtirish;

– Respublika bo‘ylab umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining kasbga yo‘naltirishga oid ma’lumotlarini tizimlashtirish va monitoring qilish;

– kasbiy qiziqish va qobiliyatlariga ko‘ra, mos to‘garak yoki onlayn ta’lim manbalariga yo‘naltirish orqali yetuk shaxslarni tarbiyalash.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil etishda 4 ta asosiy komponent-

larga alohida e’tibor qaratish zarur:

– o‘quvchilarga zamonaviy kasblar haqida tushunchalar berish;

– o‘quvchilar qiziqishlari, qobiliyati va kasbga moyilligini aniqlash bo‘yicha test;

– mehnat bozori haqida ma’lumot berish;

– kasbga yo‘naltirish bo‘yicha amaliy tadbirlar (ekskursiya, soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar va boshqalar) o‘tkazish.

O‘quvchilarga zamonaviy kasblar to‘g‘risida tushunchalar berish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘tiladigan 18 ta umumta’lim fanlari bo‘yicha Milliy o‘quv dasturlari doirasida 1-11-sinflar uchun yaratilayotgan darsliklarga 302 ta kasbga oid mavzular kiritilgan.

O‘quvchilarni qiziqishlari, qobiliyati va kasbga moyilligini aniqlash, mehnat bozori haqida ma’lumotlar berib borish bo‘yicha biz bugun tilga olayotgan “Individual tashxislash tizimi” (kasb.maktab.uz) yagona platformasi yaratilgan.

2022-2023 o‘quv yilining oktyabr-dekabr oyida respublikadagi barcha umumta’lim maktablarining 9-11-sinf o‘quvchilarining kasbga bo‘lgan qiziqishlari hamda ta’limdan keyingi faoliyatini aniqlash maqsadida so‘rovnoma o‘tkazilgan.

So‘rovnomada 554 ming nafar 9-sinf, 385 ming nafar 11-sinf o‘quvchilari ishtirok etgan.

9-sinf. O‘quvchilarning 76 foizi (423 ming nafar) maktabda, 14 foizi (73 ming nafar) kasb-hunar maktablarida, 10 foizi (58 ming nafar) akademik litseylarda o‘qish istagini bildirgan.

11-sinf. Bitiruvchilarning 86 foizi (331 ming nafar) oliy ta’lim muassasasiga, 9% (33 ming nafar) kollej va texnikumda o‘qish, 5 foizi (21 ming nafar) ishlash istagini bildirgan. Bitiruvchilarning 27 foizi (89 ming nafar) ta’lim, 12 foizi (39 ming nafar) sog‘liqni saqlash, 11 foizi (37 ming nafar) AKT, 11 foizi (37 ming nafar) iqtisodiyot, 10 foizi (33 ming nafar) tadbirkorlik, 9 foizi (30 ming nafar) ijtimoiy gumanitar, 6 foizi (21 ming nafar) qurilish, 14 foizi (45 ming nafar) qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, san’at va boshqa sohalarda o‘qish istagini bildirgan.

Kasb va mutaxassislarning mehnat faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida o‘quvchilar uchun soha mutaxassislari bilan uchrashuv va sayyor darslar tashkil etilishi yo‘lga qo‘yilib, 2022-yil davomida 9-11-sinf o‘quvchilarini ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va agrotexnologiya yo‘nalishidagi korxona va tashkilotlarga 34 mingga yaqin ekskursiyalar tashkil etilgan.

Umumta’lim maktablarining bitiruvchi o‘quvchilarini kasbga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida Respublikamizdagi 270 ta professional ta’lim muassasalarida “Kasb va yoshlar” ochiq muloqot oyligi o‘tkazilib, unga 404 989 nafar o‘quvchilar jalb etilgan.

Shu o‘rinda mazkur tadqiqot olib borish jarayonida bir nechta jahonning ilg‘or davlatlari tajribalari o‘rganib chiqildi. Rivojlangan davlatlarda maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish, bepul kasbga yo‘naltiruvchi platformalar va saytlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalar etib belgilangan.

Jumladan, ta’limning boshqaruv shakllariga ko‘ra, O‘zbekistonga yaqin bo‘lgan Rossiya Federatsiyasining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, maktab o‘quvchilarini ish bilan ta’minlash, ularni o‘z qiziqishlari darajasida kasbga yo‘naltirish hamda hozirda mavjud bo‘lgan va ehtiyoji baland kasblar to‘g‘risida ma’lumot berish uchun bepul kasbga yo‘naltiruvchi platformalar va saytlar mavjud bo‘lib, unda maktab o‘quvchilari bevosita korxona va kompaniya egalari, ish beruvchilar bilan muloqot qilib, ular tarafidan taqdim

etilgan savol va keyslarga onlayn tarzda javob berib o‘z bilim va kasbga layoqatliligini tekshirishi mumkin.

Germaniyada o‘quvchilarni kasbga o‘rgatish bo‘yicha jahonda yetkachi davlatlardan hisoblanadi. Aholisining deyarili yarmi kamida bitta kasb-hunar egasi hisoblanadi.

Germaniya maktablarida kasbga yo‘naltirish o‘quvchilarni turli kasblar va mehnat turlari bilan tanishtirish, ularning moyilligi va qobiliyatiga muvofiq bo‘lajak mutaxassislikni tanlashda yordam berishga asoslangan. Kasbga yo‘naltirish o‘quvchilar orasida test sinovlari, so‘rovlar o‘tkazish, korxonalarga ekskursiyalar tashkil etish, turli kasb vakillari bilan suhbatlar va ota-onalar bilan birgalikdagi tadbirlar o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Kasbga yo‘naltirishda o‘quvchilar orasida “Ish daftari” ni yuritish amaliyoti joriy etilgan bo‘lib, unda o‘quvchi oilasi, shaxsiy qiziqishlari, orzulari, kasbiy qiziqishlari haqida umumiy ma’lumotlarni yozib boradi. O‘quvchining akademik ko‘rsatkichlari, uning test natijalari va “Ish daftari”dagi ma’lumotlar kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maslahatlar olishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Buyuk Britaniyada “Gatsby” nomli vasiylik fondi 6 ta rivojlangan davlatlarning (Niderlandiya, Germaniya, Gongong, Finlyandiya, Kanada va Irlandiya) kasbga yo‘naltiruvchi loyihalarini va amalga oshirayotgan tashabbuslarini o‘rganib britaniyaliklar uchun asosiy bo‘lgan va samarali natija ko‘rsatuvchi asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, Buyuk Britaniya o‘quvchilari uchun yagona bo‘lgan kasbga yo‘naltiruvchi dastur ishlab chiqilgan bo‘lib, dastur o‘z ichiga hozirgi kundagi aktual kasblar haqida ma’lumotlar, psixologik testlar, ish beruvchi va oliy o‘quv yurtlari rahbarlari bilan uchrashuvlar, ish beruvchi bilan muloqot va real rejimda o‘z tanlagan kasbi bo‘yicha vazifalarni bajarib o‘ziga to‘g‘ri kelgan kasbni tanlash imkoniyatini yaratadi.

Buyuk Britaniyada tizimli kasbga yo‘naltirishda 8 ta asosiy mezon mavjud bo‘lib, ular quyidagicha:

1. Yagona, aniq va barqaror kasbga yo‘naltirish dasturi. Viloyatdagi har bir maktab va kollej kasb-hunarga yo‘naltirish va kasb-hunar ta’limining o‘ziga xos dasturi tuziladi va amaliyotda qo‘llaniladi. Dasturni o‘quvchilar, ota-onalar, o‘qituvchilar, hokimlar, ish beruvchilar bilishi va tushunishi kerak. Dasturni shakllantirishda ta’lim muassasasining o‘zi yeng katta rol o‘ynaydi, chunki maktab o‘z o‘quvchilarining ehtiyojlarini yaxshiroq tushunadi.

2. Mehnat bozori haqidagi dolzarb ma’lumotlar. Har bir o‘quvchi va uning ota-onasi kelajakdagi o‘qitish imkoniyatlari va mehnat bozori imkoniyatlari to‘g‘risida yuqori sifatli ma’lumotlarga ega. Zamonaviy kasblar va bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risida bilim olish va ulardan samarali foydalanish uchun o‘quvchi ixtisoslashtirilgan kasbga yo‘naltirish Internet-resursidan foydalanish imkoniyatiga ega ushbu ma’lumotni mutaxassis maslahatchidan oladi.

3. Shaxsiy ehtiyojlarni qondirish. Har bir o‘quvchi yoshiga va individul fazilatlariga qarab kasbga yo‘naltirish uchun har xil ehtiyojlarga ega. Ishga qabul qilish qo‘llab-quvvatlanadi, hammaga moslashtirilgan. Dastur tenglik va xilma-xillikni o‘zida birlashtirgan va shu bilan birga hamma undan foydalana oladi.

4. Ta’lim va kelajakdagi kasbiy faoliyat o‘rtasidagi munosabatlar. Har bir fan o‘qituvchisi o‘quvchilarga o‘rganish istiqbollari va uning kelajakdagi kasb uchun afzalliklarini aniq ko‘rsatib bera oladi. Masalan, matematika fani o‘qituvchilari sinfda uning mavzusi bo‘yicha bilimlar, foydali bo‘ladigan turli xil mutaxassisliklar haqida ma’lumotlar beradi. Matematika analitik, iqtisodiyot, tilshunoslik, sotsiologiya, IT va boshqa so-

halar mutaxassislari uchun, shuningdek, kundalik hayotda zarurligi haqida o‘quvchilarga tushunchalar beriladi.

5. Ish beruvchilar va korxonalar xodimlari bilan uchrashuvlar. Har bir o‘quvchi bevosita mutaxassislardan kasbiy ko‘nikma, ish haqidagi bilimlarni oladi. O‘quv dasturida korxonalarga ekskursiyalar, mutaxassislar tomonidan ma’ruzalar va kasblar g‘oyasini kengaytiradigan boshqa tadbirlar, masalan, loyihalarni ishlab chiqish yoki ustoz bilan ishlash uchun vaqt ajratilgan.

6. Professional amaliyot – ish joyining tajribasi. Har bir o‘quvchi ish joyida bevosita ish tajribasini aladi. Kasbiy o‘z taqdirini belgilashda yordam berish uchun maktab yoki kollej o‘quvchiga tanlangan tashkilotda ishlash yoki ishni yetarlicha uzoq vaqt davomida kuzatish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, o‘quvchi nafaqat kasbni amalda sinab ko‘radi, balki ushbu yo‘nalishda kasb qurish imkoniyatlarini o‘rganadi va professional tanishlar qiladi.

7. Kasb-hunar va oliy o‘quv yurtlari vakillari bilan uchrashuvlar. O‘quvchilar uchun nafaqat kasbiy, balki ta’lim imkoniyatlarini ham tushunish muhimdir. Akademik ta’lim, kasb-hunar maktablari, kollejlar, universitet, malaka oshirish, qo‘shimcha kurslar-ya’ni qiziqarli kasblar haqida o‘zlariga qiziqarli bo‘lgan ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

8. Muntazam ravishda kasb-hunarga yo‘naltirish. O‘quvchi professional maslahatchi (maktab yoki uchinchi tomon mutaxassisi) bilan suhbatlashish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, o‘qish yo‘nalishini tanlash kerak bo‘lgan paytlarda maslahatchi bilan suhbatlashish imkoniyati dolzarbdir. Professional maslahatchi bilan muloqot barcha o‘quvchilar uchun ochiq, mutaxassis har bir bolaga alohida vaqt ajratadi.

Buyuk Britaniya mehnat resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha ko‘p yillik tajriba to‘plagan. Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha asosiy ishlar professional maslahatchilar tomonidan amalga oshirildi.

Aynan, biz taklif etayotgan tizim ham mazkur davlatlar tajribasini o‘rgangan holda, Germaniyada tashkil etilgan “Ish daftari”ning analogi sifatida elektron shaklda yaratilgan.

Yangi avlod bolalarining gadjetlar bilan hamnafas o‘sishini inobatga olib hamda o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash, ularning kelajakda munosib kasb egasi bo‘lishlariga ko‘maklashishga qaratilgan yagona elektron platformasining yanada rivojlantirish maqsadida uning mobil ilovasini yaratish ko‘zda tutiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqot natijasida platformani yaratish orqali maktab o‘quvchilarini vaqtini samarali o‘tkazish, o‘quvchilarga qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga ko‘maklashish, bilimi va salohiyatidan kelib chiqqan holda kasbga yo‘naltirish, umumta’lim maktab o‘quvchilari orasida jinoyat va bezorilikni bartaraf etish hamda maktab bitiruvchilarini zamonaviy kasblarga yo‘naltirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-637-son, 2020 y., https://lex.uz/docs/5013007.

2. A.Usmonov, “O‘quvchilarni kasb-hunarga maqsadli yo‘naltirish istiqbolda mehnat bozoridagi muammolarni bartaraf etishning muhim omili”.

3. B. Saidov, A. Radjiyev va boshqalar: “Kasbga yo‘naltirish: muammo va yechimlar”, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish ilmiy-tadqiqot instituti, uslubiy qo‘lanma.

Adxamjon ABDURASHIDOV,
"Maktabgacha ta'lim" kafedrasi dotsenti, PhD

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINI KREATIVLIK KOMPETENTLIGI VA PEDAGOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kreativ faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini bilish mayllari, ehtiyojlari, faolligi, mustaqillik, tashabbuskorlik, nostandart tafakkur, improvizasiyalarni tashkil etib, bevosita shaxsning yo'nalganligi va kreativ qobiliyatlari bilan uyg'unlashishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bo'lajak tarbiyachilarida pedagogik madaniyatni rivojlantirilishi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Tarbiyachilarning kreativ faoliyati, pedagogik madaniyat, madaniyatni rivojlantirish, ko'nikmalarni singdirish, antroposentrizm tamoyili, professional maqsadlar, innovatsion fikrlash qobiliyati.

В статье рассматриваются тенденции, потребности, активность, самостоятельность, инициативность, нестандартное мышление воспитателей будущей дошкольной образовательной организации, организующие импровизации, непосредственно гармонирующие с направленностью и творческими способностями личности. Также отмечается развитие педагогической культуры у будущих воспитателей.

Ключевые слова. Творческая деятельность воспитателей, развитие педагогической культуры, культуры, усвоение навыков, принцип антропоцентризма, умение мыслить профессионально целенаправленно, новаторски.

The article reflects on the tendency, needs, activity, Independence, Initiative, non-standard thinking, organization of improvisations to know the main components of the creative activities of Educators of the future preschool educational organization, harmonizing directly with the orientation and creative abilities of the individual. Also, the development of pedagogical culture was mentioned in future educators.

Key words. The creative activity of educators, the development of pedagogical culture, culture, the absorption of skills, the principle of anthropocentrism, the ability to think innovatively, with a professional goal.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasi tarbiyachilari tomonidan yo'lga qo'yilgan innovatsion tizimda tarbiyachi boladan yuqori emas, balki u bilan birga, ta'lim muhiti ichida bo'lishi kerak. Barcha ta'lim jarayonlari o'yin shaklida amalga oshirilishi va bilim o'yin shaklida uzatilishi kerak. Bu bolaning o'rganishi uchun motivatsiyasini oshiradi, u o'zini qulay va erkin his qiladi. Bu bolaga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, unda asosiy e'tibor bolaga qaratilgan.

Maktabgacha va asosiy ta'limning uzluksizligida ota-onalar bilan hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Bu maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari bilan birgalikda ota-onalar yig'ilishlari, davra suhbatlari, muhokama uchrashuvlari, ota-onalar konferensiyasi, savol-javob kechalari; maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan maslahatlashuvlar; ochiq kunlar; ijodiy ustaxonalar; anketalar, maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari uchun o'quv o'yinlari treninglari va mahorat darslari, biznes o'yinlari, seminarlardir.

Oldinlari maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarni parvarish qilish va nazorat qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, endi ular ta’lim va tarbiyaga e’tibor qaratiladigan maktabgacha ta’lim tashkilotlariga aylangan. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tizimida eng muhim ehtiyoj maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy yetukligi bilan birga kreativ kompetentligi hamdir. Pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talab – eng avvalo o‘z ustida izlanishlar olib borishidir.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kreativ faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini bilish mayllari, ehtiyojlari, faolligi, mustaqillik, tashabbuskorlik, nostandart tafakkur, improvizatsiya kabilar tashkil etib, ular bevosita shaxsning yo‘nalganligi va kreativ qobiliyatlari bilan uyg‘unlashadi. Oliy ta’lim muassalaridagi ta’lim jarayonida bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarini tayyorlashning asosiy vazifasi esa, bo‘lajak tarbiyachilarning mana shu ehtiyojlarini ta’minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratish va samarali metodik ta’minotni vujudga keltirishdan iborat. Pedagogning kreativligi, bu uning qatiy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g‘oyalarni izlab topish layoqatidir. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o‘zaro bir-biriga bog‘liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkonini beradi. Kreativlik tarkibiy komponentlari:

1. Intellektual (aqliy).
2. Axloqiy (o‘z-o‘zini boshqarish).
3. Motivatsion (maqsadiy).
4. Emotsional (his hayajonli).

Oliy ta’lim muassasalarida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari va o‘qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvning joriy etilishi ta’lim mazmuniga, o‘qitish shakliga, usullariga, pedagogik texnologiyalari hamda ta’lim va tarbiya jarayonida talabalar va o‘qituvchilar orasidagi munosabatlarida yangiliklar va o‘zgarishlar kiritishni taqozo etadi.

Tarbiyachining pedagogik madaniyati esa, tarbiyachi shaxsiyatini shunday umumlashtiruvchi xususiyati bo‘lib, u bolalar va bolalar bilan samarali hamkorlikda ta’lim faoliyatini qat’iyatli va muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyatini aks ettiradi. Bunday pedagogik madaniyatdan tashkil topmagan pedagogik amaliyot zerikarli va samarasizdir. Aynan, bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik madaniyatini rivojlantirishda antroposentrizm tamoyilini o‘rganish va tahlil qilish va amaliyotga tadbiq qilish, bugungi kun zamonaviy tarbiyachisining fonomenini yaratadi.

Pedagogik madaniyat tushunchasi ta’lim sohasiga bir qator pedagog tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Pedagogik madaniyat – umumiy madaniyaning ajralmas qismi, tarkibiy qismi bo‘lib, u doimiy ravishda pedagogik nazariya bilimlarini chuqur va puxta egallash darajasini, bu bilimlarni mustaqil ravishda, uslubiy asosli va yuqori samaradorlikda qo‘llash qobiliyatini tavsiflaydi. Pedagogik jarayonda talabalarning individual – tipik xususiyatlarini, ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda, fan va amaliyotning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqlikni anglatadi.

Pedagogik madaniyatda ma’naviy va moddiy qadriyatlar, shuningdek, insoniyatning avlodlar almashishi va ijtimoiylashuvi (o‘sishi, bo‘lishi) tarixiy jarayoniga xizmat qilish uchun zarur bo‘lgan odamlarning ijodiy pedagogik faoliyati usullari mavjud.

Ko‘plab olimlar pedagogik madaniyat tushunchasini pedagogika nuqtayi nazaridan ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tadqiq etgan bo‘lsada, so‘ngi pedagogik tadqiqotlarda aynan bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining pedagogik madaniyatini rivojlantirish, ularga zarur ko‘nikmalarni singdirish, ularning ijtimoiy-madaniy rivojla-

nishining muayyan bosqichida bilimlarni uzatish masalalarini hal etishda antroposentrizm tamoyiliga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogika alohida fan sifatida nisbatan yaqinda shakllangan bo'lishiga qaramay, ta'lim va tarbiya asoslari qadimgi davrlarda vujudga kelgan. Ijtimoiy faol va harakatchan, tashabbus ko'rsatib, o'zining professional maqsadlarini aniq anglaydigan, yuksak madaniyatli, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega va ta'limda yangiliklarni amalga oshirishga tayyor tarbiyachi shaxsini shakllantirish va ta'minlash oliy ta'lim muassasalarining muhim vazifasi hisoblanadi.

Mazkur tushunchaning ijtimoiy mazmuni juda keng bo'lib, u ishlab chiqarishning qariyb barcha yo'nalishlarida qo'llaniladi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 19-oktabrdagi maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda ta'kidlaganlaridek: "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunda kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi".

Ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar orasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining pedagogik madaniyatini oshirish uchun qator chora-tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talab – eng avvalo o'z ustida izlanishlar olib borishidir. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tizimida eng muhim ehtiyoj maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislarining pedagogik yetukligini rivojlantirishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish metodikasini antroposentrizm tamoyil asosida takomillashtirish tarbiyachilarning har qanday jarayonda o'zining ijobiy sifatlarini namoyon qilishida shaxsiy na'muna va pedagogik vaziyatda ma'suliyat bilan yondashishni ko'rsatadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni yangi zamon talablariga to'laqonli javob bera oladigan, axloqiy qadriyatlarga xos yondasha oladigan, individual qobilyatlarini rivojlantirish orqali, ularda eng avvalo maktabgacha ta'lim pedagog, tarbiyachilardan pedagogik madaniyatni talab etadi. Barkamol shaxsni voyaga yetkazishda roli beqiyos sanaladigan maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilari hamda mutaxassislarini pedagogik madaniyatni rivojlantirish oliy ta'lim muassasasi pedagoglarining zimmasidadir. Pedagogik madaniyat tuzilmasida uning odob-axloq bo'limi muhim o'rin egallaydi. Bu pedagogik ishonch jarayonining shakllanishi, natijasi va tarbiyachining o'z qiziqishlarini ko'proq aniqlash jarayonidir. Pedagogik madaniyatning kasbiy faoliyatiga bog'liq tashkil etuvchisi pedagog tomonidan o'zining pedagogik qobiliyatlarining barcha spektrini bilib olganligini xarakterlaydi, u esa pedagogik faoliyat muvaffaqqiyatining nishonasi, pedagogik xatolarning oldini olish va nihoyat, pedagogik qobiliyat usullarini egallanganligidan iborat. Pedagogik aloqa qilish madaniyati suhbatdoshni eshitish va eshita olishda, savollar bera olishda, aloqani amalga oshirib boshqani tushuna olishda, muloqotning qiyin holatlarini ko'ra olish va odamlardagi ta'sir holatini to'g'ri tahlil qila bilishda, muloqotga tayyorlanish va muloqotga bo'lgan xohishlarda ko'rinadi.

Bo'lajak tarbiyachi uchun eng zaruri nutq madaniyatini egallashdir. Ularning nutqi yaqin kelajak pedagogik faoliyatda bolalar uchun ibratli bo'lib ularning nutq madaniyatini shakllantirishga yordam berishi kerak. Nutqning grammatik to'g'riligi, uning leksik boyligi, yaxshi ifodalanganligi, obrazliligi, nutq texnikasini egallanganligi tarbiyachining turli xil kasbiy masalalarni sifatli yechishiga imkon beradi. Pedagogning tashqi ko'rinish madaniyati, uning tashqi ko'rinishga moslik darajasi va pedagogik faoliyati bilan baholanadi. Keng fikrlilik, tartibli, odobli, bosiqlik va o'zini-o'zi yaxshi boshqara

olish kabilar pedagogik faoliyatning muvaffaqqiyatli bo‘lishiga olib keladi. Oliy ta’lim amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, talabalarda pedagogik madaniyatni shakllantirish jarayoni ularda pedagogik madaniyat darajasining rivojlanganligi bilan uzviy aloqador.

Mazkur jihat bo‘lajak tarbiyachilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish muammosini maxsus tadqiq etishni taqozo etadi. Pedagogik faoliyatda pedagogik madaniyat umumiy tuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri – bu pedagogik kompetentlik hisoblanadi. Zero, zamonaviy tarbiyachi nafaqat bolalarga bilim beradi, ma’lumot, axborot yetkazadi, balki rivojlanayotgan shaxs va jamiyat o‘rtasida vositachi rolini ham bajaradi. “Bola-shaxs-jamiyat” munosabatlari o‘zaro aloqasining maqsadga muvofiq bo‘lishi tarbiyachining qanchalik pedagogik faoliyatda kompetentli, omilkor ekangigiga ham bog‘liqdir. Pedagogik madaniyatning asosiy vazifalari sirasiga moslashish, pedagogik jihatdan to‘g‘ri yo‘nalganlik, shaxsiy va umumijtimoiy tajribalarning uyg‘unlashuvi kabi jihatlarni kiritish mumkin. Shaxs pedagogik madaniyatini qay darajada ekanligi o‘zaro shaxslararo munosabatlarni olib borish, faoliyatni yo‘lga qo‘yish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, psixologlar o‘tkazgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, shaxsning yangi ijtimoiy, globallashuv shart-sharoitlariga moslashuvi jarayonida insonlardagi pedagogik madaniyat darajasining shakllanganligi alohida o‘rin tutadi. Shaxsning shaxsiy xulq-atvori shakllanishi mexanizmlari, namoyon bo‘lish tendensiyalari, motivatsiyasi, mazmuniga bo‘lgan qiziqish, avvalo, inson-jamiyat o‘zaro aloqasi xarakterining pedagogik ravnaqi, rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri bilan tavsiflanadi.

Pedagogik madaniyatning mazmunini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan ilmiy adabiyotlar tahlili uning quyidagi o‘ziga xos jihatlarini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi:

– birinchidan, bo‘lajak tarbiyachining pedagogik madaniayti o‘zida jamiyat va madaniyat talablarini ifoda etishi mumkin. Bu esa, shaxsning pedagogik axloqiy me’yorlar mazmuni haqidagi bilimlarga, madaniy talablar asosida faoliyat shakllarini tashkillashtirish ko‘nikmasiga egaligi hamda uning qadriyatli yo‘nalganligi bilan izohlanadi;

– ikkinchidan, pedagogik madaniyat insonning pedagogik o‘zaro sheriklik, hamkorlik subyekti sifatidagi yaratuvchilik xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Bo‘lajak tarbiyachilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirishning mavjud imkoniyatlarini tadqiq etish maqsadida bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayoniga qo‘yilayotgan zamonaviy yondashuvlarni inobatga olib maktabgacha ta’lim yo‘nalishining malaka talablari o‘rganildi. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar quyidagilar:

– dunyoqarash va ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi;

– gumanitar va tabiiy ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

– Vatan tarixini bilishi, madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga ega bo‘lish;

– tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi;

– insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma’naviy, madaniy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilish;

– axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

– tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgar-

likka ega bo‘lish;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

– sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Bo‘lajak tarbiyachilarida pedagogik madaniyatini rivojlantirish jarayoni o‘z navbatida tizimli hamda faoliyatli yondashuvni taqozo etadi. Bunda albatta, yuqorida qayd etilgan ta’lim jarayoniga antroposentrizm yondashuvining asosiy maqsad va vazifalarini inobatga olgan holda mazkur jarayonning har bir bosqichini, mezonlarini, shakl, metod va vositalarini aniqlashtirish, ulardan samarali foydalanish talab etiladi.

Bo‘lajak tarbiyachilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish samaradorligini ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida eng avvalo professor-o‘qituvchi mashg‘ulot loyihasini ishlab chiqishda, asosiy maqsadni aniqlashda, pedagogik vazifalarni belgilashda mavjud shart-sharoitni, talabalarning bilim darajasini, ularning qiziqishlarini hisobga olishi, shuningdek, qo‘yilgan maqsadga erishishning eng samarali yo‘llari, usullarini tanlay bilishi va o‘qitish jarayonida qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim. Shuning uchun bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik madaniyatini o‘rganishda, eng avvalo, kommunikativ (muloqot) kompetentligiga e’tibor qaratilgani maqsadga muvofiqdir.

Shunday ekan, ushbu uslubiy qo‘llanma bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning optimal variantini ishlab chiqishga, talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning metodlari, tamoyillari va ilmiy-nazariy jihatdan pedagogik shart-sharoitlarni belgilab olishgda mustahkam didaktik asos bo‘la oladi. Shuningdek, bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari va bu sohadagi tadqiqot ishlariga qo‘yilgan zamonaviy talablarning asosiy tamoyillari shakllantirildi va shular asosida bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning metodologik asoslari, mazmuni, shakli va vositalari ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-son Qarori. 29.12.2016.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi “Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 528- son Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini to‘plami. – T., 2017. – 39 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.

7. Maktabgacha ta’lim vazirining 2018-yil 16-apreldagi “Maktabgacha ta’lim muassasalari pedagog xodimlari faoliyatini baholashning namunaviy reyting tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 84-son Buyrug‘i.

8. Бердиева Х.Б., Бердиева Н.У. Проблемы развития социокультурной компетентности у школьников начальных классов //Евразийское Научное Объединение. – 2019. – №. 12-5. – С. 408-410.

Lochinbek ABDIRASULOV,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

TEXNOLOGIK TA'LIM DARSLARIDA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada texnologiya darslarida o'quvchilarga atrof muhit muhofazasi haqida ta'lim va tarbiya berish masalalari ko'rib chiqilgan. Bugungi kunda maktab o'quvchilariga atrof muhit muhofazasi haqida ta'lim berish yo'nalishlari va ta'lim modellari keltirilgan. Texnologiya mashg'ulotlarida atrof muhit muhofazasi haqida ta'lim va tarbiya berishni amalga oshirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni qo'llashga oid ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Atrof-muhit, tabiat, tabiiy resurslar, ekologik muammo, ekologik falokatlar.

В данной статье рассматриваются вопросы преподавания и воспитания студентов по вопросам охраны окружающей среды на уроках технологии. Сегодня представлены направления и образовательные модели обучения школьников вопросам охраны окружающей среды. На занятиях по технологии даются инструкции и рекомендации по использованию педагогических технологий, применяемых при осуществлении образования и обучения по вопросам охраны окружающей среды.

Ключевые слова. Окружающая среда, природа, природные ресурсы, экологическая проблема, экологические катастрофы.

This article discusses the issues of teaching and educating students on environmental issues in technology lessons. Today, directions and educational models for teaching schoolchildren about environmental issues are presented. Technology classes provide instructions and recommendations on the use of pedagogical technologies used in the implementation of education and training on environmental issues.

Key words. Environment, nature, natural resources, environmental problem, environmental disasters.

Ma'lumki 2020-yilda O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuniga o'zgartirishlar kiritildi. Mazkur qonunda aynan o'quvchi-yoshlarni kasb hunar egallashlariga alohida urg'u berildi. Shundan kelib chiqib o'quvchi-yoshlarga texnologik ta'limni berish qatorida ularni aynan atrof-muhit muhofazasini tushunchalarini berishga alohida to'xtalmoqchimiz. Atrof muhit muhofazasi inson mehnati, sog'lig'i va hayotiga bevosita daxldor masala bo'lib, uni o'z mohiyatidan kelib chiqqan holda keng va tor ma'noda anglamoq lozim. Keng ma'nodagi atrof muhit muhofazasi – bu mehnat faoliyati jarayonida inson hayoti va sog'lig'ining xavfsizligini ta`minlashga qaratilgan. Atrof-muhit muhofazasining bunday keng ma'nodagi tushunchasi xavfsiz va sog'lom muhit sharoitini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Bugungi kunda maktab o'quvchilariga atrof-muhit muhofazasi haqida tushunchalarni berishda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– tabiat, atrof-muhit muhofazasi haqidagi asosiy ustuvor tushunchalarni, g'oyalarni, ilmiy faktlarni o'zlashtirishni;

– tabiatning inson va jamiyat uchun moddiy va ma'naviy qadriyatini tushunish;

– tabiat bilan to'g'ri munosabatga talabni rivojlantirish;

– tabiatga zarar va talofat yetkazishni inkor qiladigan o‘zini tutish xulq normalarini ongli ravishda qabul qilish.

Intellektual sohasini rivojlantirish – ekologik vaziyatni sabab oqibat nuqtayi nazaridan maqsadli tahlil qilish qobiliyatini, emotsional sohada atrof-muhit holatini baholash va shu asosda o‘zida tabiatga nisbatan ijobiy fikrlashni shakllantirishga erishish, irodaviy sohada ekologik bilim va ko‘nikmalaridan foydalanish va uni targ‘ibot va tashviqot qilishga erishish.

Ekologik ta’lim modellari:

– bir predmetli;

– predmetlararo;

– aralash (Maxsus atrof-muhitni muhofaza qilish kurslari).

Bugungi kunda ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash borasidagi ishlardan tashqari o‘quvchi yoshlarimizni bu boradagi bilimlarini oshirib, ko‘nikma va malakalarini ham shakllantirib borishimiz zarur bo‘ladi. O‘quvchilarga ekologik tarbiya berish borasida qator olimlarning izlanishlari olib borilgan. Texnologiya darslarida o‘quvchilarga atrof muhit muhofazasi haqida ta’lim-tarbiya berishda ham qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay bu borada qator muammolar mavjud bo‘lib qolmoqda. O‘quvchilarga atrof-muhit muhofazasi haqida ta’lim va tarbiya berishda texnologiya fani darslarida amalga oshirishda boshqa fan predmetlariga nisbatan qator ustun farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1) O‘quvchilar bu dars davomida tabiiy materiallar yog‘och va qog‘oz, daraxt shox va barglari, poliz mahsulotlari urug‘lari, paxta va chigit, bug‘doy va guruch ishlashadi.

2) O‘quvchilar sim va novlar, temir listlar va tunukalar, taxta, plastmasalar bilan ishlashadi.

3) Texnik obyektlar bilan qo‘lda ishlatiladigan asbob uskunalar va apparatlar stanoklar bilan ishlashadi. Elektr ishlari va uning oddiy sxemalar asosida yig‘ish ishlarida o‘quvchilarga ushbu yo‘nalishlarda atrof-muhit muhofazasi haqida tushuncha, bilimlarni berish va ko‘nikamalarni shakllantirish.

Tadqiqot ishimizda Texnologiya ta’limi fan predmetining DTS mavzularini o‘rganishda 7-sinf uchun chiqarilgan DTS mavzularini atrof muhit muhofazasi haqida tushuncha va bilimlar berish uchun tanlab oldik.

Mavzu: Yog‘ochning kimyoviy va texnologik xossalari. Yog‘ochni quritish va saqlash qoidalari. Yog‘ochlar va ularga ishlov berish materiallarini turlarga ajratish va xususiyatlarini aniqlash (2 soat).

Ushbu mavzu o‘tilganida o‘quvchilarga yog‘och materiallari bizning Respublikamizga chetdan asosan Rossiya va Qozog‘iston Respublikalaridan katta mablag‘lar evaziga keltirilishini va ushbu yog‘ochlar o‘rmonlarni kesish orqali olinishini aytib o‘tildi. O‘rmonlar yer kurrasining o‘pkalari hisoblanib ularning ya’ni o‘rmonlarning maydonlari kundan-kunga kamayib borayotganligini tushuntirish va yog‘och xom ashyosidan tejab-tergab foydalanish yo‘l-yo‘riqlari aytib o‘tiladi. Yer yuzidagi o‘rmonlarning kesilishi natijasida havoning karbonat angidrid gazi bilan ifloslanishi ortishi va insonlarning har xil kasalliklar bilan og‘rishlari kuzatilmoqda. Iqlim o‘zgarishlari yuzaga kelmoqda. Yog‘ochlarni saqlashni va quritishning ularga keyingi ishlov berishdagi ahamiyatini tushuntirishda unga ishlov berish sifatiga ta’sirini va yaroqsiz mahsulot tayyorlashni oldini olishning ahamiyatini tushuntirib o‘tilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yog‘ochlardan yasalgan buyumlar yasashda to‘g‘ri rejalashtirish va mavjud buyumlardan tejab va avaylab foydalanish ularning umrini uzaytirish kelgusida yangi daraxtlarni va o‘rmon-

larni kesilishini oldini olinishiga olib kelishini aytib o‘tish zarur bo‘ladi.

Rangli metallar va ularning qotishmalarining mexanik xossalari. Yupqa tunukalar, simlar , metallarga chilangarlik va tokarlik ishlov berish turlari va usullari (2-soat). Ushbu umumiy tushunchalar o‘quvchilarga berilganda o‘qituvchi tomonidan rangli metallarning va ularning qotishmalari ham chetdan katta mablag‘lar evaziga keltirilishini, ularni qayta ishlashga xom ashyo sifatida ishlatishdan oldin ushbu metallar va qotishmalar korxona va zavodlarda katta miqdorda energiya – yoqilig‘i va elektr energiyasi va inson mehnati sarflanishi evaziga olinishi aytiladi. Metall va qotishmalarni tayyorlash jarayonida tashqariga zaharli bug‘lar va chiqindilar ajraladi. Jarayonlarni amalga oshirishda esa yoqilg‘i yonib tashqariga karbonat angidrid gazlari tarqaladi. Ushbu metall va qotishmalar ochiq havoda korroziyaga uchrashi to‘g‘risida, ularni korroziyadan saqlashning usullari va yo‘llari to‘g‘risida ham o‘quvchilarga ma’lumot berish lozim bo‘ladi. Mashg‘ulotlarda grafik organayzerlardan “Nima uchun”, “Qanday”, “Konseptual javdal”, “Qarorlar shajarasi”, “Ven diagrammasi” kabilardan foydalanish yaxshi samara beradi.

O‘quvchilarga sinfdan va maktabdan tashqari dars mashg‘ulotlarida o‘qituvchi rahbarligida atrof-muhit muhofazasiga oid loyihalarga jalb qilinishi ham yaxshi natija beradi. Bu borada MDH mamlakatlarida, ayniqsa, Belorussiya va Rossiyada qator ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Bu loyihalarning ustunligi o‘quvchilar bevosita tabiatning o‘zida yurib atrof-muhit muammolarini o‘rganadilar, ko‘rib-tushunib oladilar. Atrof-muhitni muhofaza qilish ishlariga daraxtlar ekish ularni himoya qilish, toza hududlarga va suv havzalari, ariqlarga har-xil chiqindi tashlanadigan joylarga ogohlantirish belgilarini qo‘yish va o‘zlari bilan uchrashish orqali aholini ogohlantirish, aholi va o‘z tenqurlari o‘rtasida tushuntirish, targ‘ibot va tashviqot ishlari olish borish va hokazolarni ko‘zda tutadi. Biz yashab turgan jannatmakon yurtimizni va barcha yer kurrasini global ekologik tanazzuldan saqlash masalasi bugungi kunda o‘ta dolzarbligicha qolmoqda. Bu boradagi ishlar bizning fikrimizcha albatta umumiy o‘rta ta’limi o‘quvchilaridan boshlanishi zarur. Bu borada ta’lim-tarbiyaning ajralmas qismi sifatida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari ko‘rilmog‘i darkordir. Bu borada har bir fan predmeti imkoniyatlaridan to‘la foydalangan holda o‘quvchilarga atrof-muhit muhofazasi haqida ta’lim va tarbiya berish yaxshi natija beradi. Ayniqsa, texnologiya fan predmeti mashg‘ulotlarining bu boradagi imkoniyatlaridan to‘la foydalanmoq yaxshi samara beradi. Bu orqali o‘quvchilarda yoshlikdan atrof-muhit muhofaza qilish madaniyati shakllana boshlaydi. Bu esa kelajakda tabiatni himoya qiladigan va uni tozaligi uchun kurashadigan fuqorolarni shakllanishiga katta hissa qo‘shadi degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan https://lex.uz.

2. Mirziyoyev Sh.M “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi”. – T., 2019

3. Турдикулов Э.А. Экологическое образование учащихся в процессе обучения физике -М.: Просвещение, 1988. – С. 126.

4. Buriyev S. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. – T., 2019

5. Sultonov P.S Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. – T., 2007

7. Fayziyev Sh.F “O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar”. – T., 2021

8. Buriyev S., Maxkamova D., Sherimbetov V. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. – T., 2018.

Munavvar BOYMATOVA,
Qarshi davlat universiteti doktoranti

SHAXS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI – TA'LIM-TARBIYA SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI MUHIM OMIL SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada inson ichki kechinmalari, ya'ni hissiyot, emotsiya, emotsiona holat, affekt holat, kayfiyat va stress kabi his-tuyg'ulari hamda ularning insonga ta'sirlari, jarayonlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Hissiyot, emotsional holat, affect, kayfiyat, stress, konstruktiv, destruktiv.

В статье описываются сведения о внутренних переживаниях человека, таких как чувства, эмоции, аффект, настроение и стресс, а также их влияние и процессы на человека.

Ключевые слова. Эмоция, эмоциональное состояние, аффект, настроение, стресс, конструктивный, деструктивный.

The article describes information about a person's internal experiences, such as feelings, emotions, affect, mood and stress, as well as their influence and processes on a person.

Key words. Emotion, emotional state, affect, mood, stress, constructive, destructive.

Hissiyotlar – bu juda murakkab psixik hodisalar. Ahamiyatga ega bo'lgan hissiyotlarga quyidagi emotsional holatlar turlarini kiritish mumkin: hissiyot affektlari, kayfiyatlar, ehtiroslar, stresslar, frustratsiyalar, hissiyotlarning emotsional toni, emotsional munosabat.

Affekt – subyekt uchun dolzarb bo'lgan hayotiy sharoitlarining keskin va kutilmaganda o'zgarishi bilan bog'liq ravishda paydo bo'ladigan va aniq ifodalangan harakatli visseral (ichki organik) namoyon bo'lish birga kuzatiladigan kuchli va nisbatan qisqa muddatli emotsional holat. Affektiv holat ongli faoliyatning tormozlanganligi bilan ifodalanadi, subyekt xulq-atvorini ongli nazoratining izdan chiqishida namoyon bo'ladi. Affekt real sharoitlarda subyektning xavfli, ko'p hollarda kutilmaganda paydo bo'lgan vaziyatlardan mutanosib holda chiqib ketish yo'lini topa olmaslik layoqatsizligida rivojlanadi. Affektga misol tariqasida kuchli g'azab, achchig'lanish, dahshat, shiddatli quvonch, chuqur qayg'u, umidsizlik kabilarni keltirish mumkin. Affektning eng asosiy xususiyatlaridan biri ushbu emotsional ta'sirlanishning yengib bo'lmas darajada odamga qandaydir faoliyatning bajarish zaruriyatini bog'lashdan iborat, lekin bunda odamda voqelik hissi yo'qoladi.

Emotsional holatning keyingi turi – bu emotsiyalarning o'zi. Emotsiyalar affektlardan davomiyligi bilan farq qiladi. Ularning boshqa alohida qirrasi faqat joriy voqealarga emas, balki, taxminiy yoki yodga olinadiganlarga nisbatan ham ta'sirlanish hisoblanadi.

Emotsiyalarning mohiyatini tushunish uchun tashqi muhitning jism va hodisalarining ko'pchiligi his-tuyg'u organlariga ta'sir ko'rsatib, ularda murakkab, ko'p qirrali emotsional hissiyotlar va sezgilar va bir vaqtning o'zida ham zavqlanish, ham qoniqmaslikda ifodalanadi, sezgilarni keltirib chiqarishlari mumkin. Bundan tashqari, ko'pchilik vaziyatlarda, bir tomondan, qandaydir zo'riqish sezgilari, ikkinchi tomondan, hal etish, yoki yengil tortish yuzaga keladi. Faoliyatning keskin damlarida, qaror qabul qilishning

mas’uliyatli daqiqalarida qiyinchiliklarni bartaraf etishda biz zo‘riqishni his etamiz. U yaqqol ko‘zga tashlanadigan faol xususiyatga ega bo‘lib, faoliyat obyektiga e’tiboning kuchayishi, aqliy va jsmoniy kuch to‘plash, harakatga chanqoqlik, bizni o‘rab oladigan alohida hayajon bilan birgalikda kechadi.

Emotsional jarayonlarning boshqa xildagi iodalanishi qo‘zg‘alish va tinchlanish hisoblanadi. Qo‘zg‘algan emotsional holat, odatda, faol xususiyatga ega bo‘lib, faoliyat yoki unga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq. Tinchlanish faoliyatning pasayishi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, undan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Kayfiyat – bu u yoki bu emotsiyalarning barqaror kechinmasi. Uzoq davom etuvchi, xulq-atvorni bezovchi emotsional holat. Uni individning shaxsiy tomonlarini, asosiy hayotiy hissiyotlarini, ishiga nisbatan muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik, qulay yoki noqulay sharoit, odamlar munosabatlaridagi madaniyat darajasi, ichki holat kabilarni qamrab oluvchi ta’sirlar keltirib chiqaradi. Kayfiyatda hissiyotlar va sezgilarning rag‘batlantiruvchi vazifasi, ularning inson faoliyatiga ta’siri namoyon bo‘ladi. Kayfiyat ijobiy yoki salbiy, ma’lum jadallik, ifodalanish, zo‘riqish va barqarorlikka ega bo‘lishi mumkin.

Emotsiyalar va sezgilar ta’siridagi psixik faollikning eng yuqori darajasi ko‘tarinkilik, eng quyisi – apatiya deb ataladi. Psixik faoliyatning salbiy ta’sirlar tomonidan sezilarsiz darajada o‘zgarishi izdan chiqish holatidir. Insonning emotsional barqarorligi turli emotsiogen ta’sirlarga nisbatan xulq-atvorining turg‘unligida ifodalanadi. Qiyinchiliklarga nisbatan barqarorlik, boshqa odamlar hulq-atvoriga nisbatan bardoshlilik tolerantlik (lot. – bardosh) deb ataladi.

Inson fikrlari va harakatlari yo‘nalishini belgilab beruvchi barqaror, chuqur va kuchli his ehtiros deb ataladi. Ehtiroslarning asosiy belgisi ularning amaliy natijaga ega bo‘lishi, irodaviy va emotsional holatlarning yagonaligidir. Ehtiros insonni hislar obyekti haqida astoydil o‘ylashga, ular asosidagi ehtiyojlarning qondirilishini to‘laqonli va yaqqol tasavvur etishga, bu qondirilish yo‘lida haqiqiy yoki bo‘lishi mumkin bo‘lgan to‘siq va qiyinchiliklarni hayol qilish va har tomonlama o‘ylashga majbur qiladi. Ehtiroslar turg‘unligi, vaqt bo‘yicha insonga egalik qilish davomiyligi bilan xarakterlanadi. Shaxsning olamga nisbatan chuqur tanlangan munosabatining ifadalanishi sifatida ehtiroslar ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin.

Turli sezgilar (hidlar, ranglar, tovushlar va h.k.) biz uchun yoqimli, neytral yoki yoqimsiz bo‘ladi.

Hissiy ton. Hissiyot ko‘pincha faqat hissiy tus sifatidagi ruhiy jarayonlarning o‘ziga xos tomoni tariqasida namoyon bo‘ladi. Yoqimli suhbatdosh, kulguli voqea, yoqimsiz hid, zerikarli kitob, ko‘ngildagi mashg‘ulot, hushchaqchaq sayohat, og‘ir ish kabilar. Ko‘pincha emotsiyalar o‘zining ta’sirchanligi bilan bir-biridan ajralib turishiga qaramay, bunday sifatni hissiy holatlar stenik (yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, kuch degan ma’noni anglatadi) xususiyatli deyiladi. Bunda emotsiyalar dadil xatti-harakatlarga, mantiqiy mulohazalarga, nisbiy izlanishlarga kuch quvvat, qanoat bag‘ishlaydi. Emotsional javob – jismli muhitdagi joriy o‘zgarishlarga nisbatan operativ emotsional ta’sirlanish. Go‘zal manzarani ko‘rib qoldingiz – emotsional javob yuzaga keldi. Bu javob insonning emotsional qo‘zg‘aluvchanligi, emotsional tonusi bilan belgilanadi. Emotsional javobning turlaridan biri sintoniya – boshqa odamlar emotsional holatini birga qayg‘urish – insonning muhim ijtimoiy sifati hisoblanadi. Nizoli asosidagi emotsional holatlarga stress, frustratsiya, affekt kiradi.

Stress tushunchasining mazmuni mohiyati borasida qator ta’riflar uchraydi. Jumladan, A.V. Petrovskiy tomonidan stress – affektiv holatga yaqin turadigan, lekin

boshdan kechirilishining davomiyligiga ko‘ra kayfiyatlarga yaqin bo‘lgan his-tuyg‘ularni boshdan kechirilishining alohida shaklidir, deb ta’rif beriladi. Professor E. G‘oziyevning “Umumiy psixologiya” kitobida yozilishicha, stress – og‘ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar ishlarning me’yoridan oshib, ketib xavfli vaziyatlar tug‘ilganida, zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo‘riqishlar sifatida ko‘rsatiladi.

Stress – inson organizmini haddan tashqari zo‘riqish natijasida paydo bo‘ladigan tanglik jarayonidir.

Stress ko‘rinishiga qarab ikki turga ajratiladi:

1. Konstruktiv – biz turidagi (ko‘pchilik orasida);
2. Destruktiv – men turidagi (yakka shaxs o‘zi bilan) kechadigan jarayon.

Stress tushunchasi kanadalik olim gans sele tomonidan kiritilgan, u stressni organizmning jismoniy yoki psixik jarohatni keltirib chiqaradigan ta’sirlarga nisbatan moslashish-himoya reaksiyalari yig‘indisi sifatida ta’riflagan. Stress holatining rivojlanishida G. Sele uch bosqich: a) xavotirlanish, b) qarshilik ko‘rsatish, v) izdan chiqishlarni ajratdi.

Xavotirlanish reaksiyasi shok davri (tushkunlik holati) va izdan chiqqan psixik vazifalarning tiklanish, shokka qarshi davridan iborat. Qarshilik ko‘rsatish bosqichi (rezistentlik) stressorlar ta’siriga nisbatan chidamlilikning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Ularning davomli ta’sirida organizm kuchi kamaya boradi, va izdan chiqish bosqichi boshlanadi, ba’zi organizm o‘limiga olib keluvchi nuqsonli kasallik jarayonlari yuzaga keladi.

Stress hayot uchun xavfli bo‘lsa-da, organizm uchun zarurdir: austressda (‘‘foydali’’ stress) individning moslashish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Axborotli va psixik stress turlari mavjud (emotsional stresslar).

Hissiyot va sezgilarning yana bir qonuniyati – bu psixosomatik korrelyasiya, vegetativ o‘zgarishlar bilan aloqa, bu organizm va inson hayotiy faoliyati vazifalarining o‘zgarishiga olib keluvchi hissiyotlar ta’sirini bildiradi.

Emotsional kechinmalarning xilma xilligi avvalambor, odamlarning kayfiyatida ifodalanadi. Emotsional jihatdan kuchsiz ta’sirlanadigan odamlarda faqat qandaydir o‘ta xavotirli voqea yaqqol ifodalangan hislarni yuzaga keltiradi. Boshqa toifadagi, emotsional ta’sirchan odamlarda arzimas holat ham kuchli hissiyotlarga sabab bo‘lishi mumkin. Hatto, ahamiyatsiz voqea ham kayfiyatlarini ko‘tarishi yoki tushirib yuborishi mumkin.

Odamlar o‘rtasida hissiyotlarning ifodalanishining chuqurligi va barqarorligi bo‘yicha farqlanadigan xususiyatlar kuzatiladi. Ba’zi odamlarni hissiyotlar o‘rab olib, o‘zidan keyin chuqur iz qoldiradi. Boshqalarda hissiyotlar yuzaki xususiyatga ega bo‘lib, oson, sezilarsiz, darhol va umuman izsiz o‘tib ketadi. Odamlarda affekt va ehtiroslar ifodalanishidagi farqlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunda nomutanosib, o‘zi va hulqatvori nazorati yo‘qotilgan, affekt va ehtiroslarga beriluvchan, masalan, g‘azab, jazava, xavotirga tushadigan odamlarni ajratish mumkin. Boshqa odamlar, aksincha, doimo o‘zini tuta biladi, o‘z hislarini, ongini nazorat qiladi.

Odamlar o‘rtasidagi farqlardan biri shundan iboratki, hislar va hissiyotlar ularning faoliyatida aks etadi. Xuddi shunday, ba’zi odamlar hislar ta’sir etuvchi xususiyatga ega, harakatga undaydi, boshqalarda barchasi qator o‘zgarishlarga sabab bo‘lmaydigan hisning o‘zi bilan chegaralanadi. Hislar sustligining yorqin shakli insonning ko‘ngilchanligida ifodalanadi.

Shunday qilib, hissiyot va hislarning namoyon bo‘lishidagi farqlar ma’lum odamning

betakrorligi, ya’ni, uning individualligini belgilab beradi.

Frustratsiya – tushkunlik, ma’lum maqsadga erishishda umidlarning parchalanishi bilan kechadigan inson muvaffaqiyatsizligining emotsional og‘ir kechinmasi. Frustratsiya ko‘p hollarda frustratorga qarshi qaratilgan tajovuzkorlik hulq-atvor bilan bog‘liq. Frustratsiya sabablari bartaraf etilmaganida, psixikaning davomli izdan chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan chuqur depressiv holat yuzaga kelishi mumkin (xotira, mantiqiy tafakkurga bo‘lgan layoqatlarning susayishi). Frustratsiya holati inson biror chiqib ketish yo‘llarini izlaydi, shirin xayol olamida beriladi, ba’zida esa tubanlashadi, ya’ni, psixik rivojlanishning dastlabki bosqichlariga qaytadi.

Axloqiy hislar. Odamning boshqa kishilarga, jamoa va o‘zining ijtimoiy burchlariga bo‘lgan munosabatlarida ifodalanadi. Inson bu hislarni kechirar ekan, ma’lum ahloqqa, ya’ni ijtimoiy ahloq-qoidalari va normalari majmuiga asoslanib, boshqa kishilarning xatti-harakatlariga yoki ruhiy hususiyatlariga hamda o‘zining xatti-harakatlariga baho beradi.

Intellektual hissiyotlar ham o‘z mohiyati jihatidan ahloqiy hissiyotlarga yaqin bo‘lgan hissiyotlardir. Intellektual hissiyotlar odamning bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan hissiyotlar bo‘lib, biror narsadan hayron qolish, hayratda qolish, shubhalanish kabi holatlarda ifodalanadi. Estetik hislar ham yuksak ahloqiy hislardan hisoblanadi. Estetik his deganda biz go‘zallikni idrok qilish, go‘zallikdan zavqlanish va go‘zallik yaratishga intilishni tushunamiz. Estetik hissiyot hamma odamlarga xos bo‘lgan hissiyotdir. Atrofdagi tabiat manzaralari estetik hissiyotlarimizning birinchi manbai hisoblanadi.

Praksik hislar. Inson amaliy hayotining istalgan sohasi maqsadga muvofiq aqliy faoliyatiga, shaxsning ularga nisbatan muayyan munosabatda bo‘lish sohasiga aylanib qoladi. Bu birinchi navbatda biror maqsadni anglabgina qolmay, uni e’tirof etadigan yoki inkor qiladigan maqsadlarga erishish yo‘llarini baholaydigan ta’sir qilish usullari va ko‘lamlarini ma’qullaydigan va ma’qullamaydigan, ularni to‘g‘ri tanlanganligiga shubhalanadigan, nihoyat muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini kechiradigan mehnat faoliyatida kuzatiladi. Hayotiy faoliyat jarayonida muhit va irsiy shartlar asosida insonda barqaror emotsional sifatlar – emotsional xususiyatlar va xossalar shakllanadi. Shaxsning emotsional xususiyatlariga emotsional reaktivlik, qo‘zg‘aluvchanlik, affektlilik, emotsional barqarorlik, umumiy emotsional tonus, emotsional ta’sirlanishlar kuchi va ularning tashqi ifodalanishi – ekspressivlik taalluqlidir.

Emotsional xossalar individning psixik ko‘rinishini belgilaydilar, shaxs emotsional tipini tashkil etadilar. Odamlar emotsional, o‘ta ta’sirchan, ehtirosli va frigid mijozlilarga bo‘linadilar. Birinchisi oson qo‘zg‘aluvchan, emotsional ta’sirchan, impulsiv; ikkinchisi – o‘z sezgilarini mushohada qilish, ulardan zavqlanishga moyil; uchinchisi – emotsional intiluvchan, o‘ta faol, maqsadga erishishda sabotli; to‘rtinchisi – aql bilan ish ko‘radilar, qayg‘urish hissi ularga yot.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахроров Ю.А. Формирование культуры межнационалного общения. – Самарканд, 1991. – С. 203.

2. Семёнова Е.М. Тренинг эмоциональной устойчивости. Учебное пособие. -3-е изд. – М.: Психотерапия, 2006. – С. 256. - (Советы психолога учителю).

3. To‘ychiyeva G. Yoshlar va konfliktlar: konfliktlar yechimiga o‘rganish. – T., 2008. – 130 b.

4. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. T.: Universitet, 2010. – 312 b.

Ma’mura MURADOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

XULQ-ATVORNING O‘ZGARUVCHANLIGI VA GENOTIPNING ROLINI ANIQLASHNING NAZARIY MASALALARI

Annotatsiya

Annotatsiya: Maqolada xulq-atvor genetikasi sohasidagi tadqiqotchilar oldida turgan an’anaviy savol – bu xulq-atvor xususiyatlarini aniqlashda genetik omillarning rolini aniqlash xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, xulq-atvor genetikasining umumiy vazifasi miyaning shakllanishida, uning individual reaktsiyalari va xatti-harakatlarini rivojlantirishda genotipning roli haqida to’liq tasavvurni yaratish uchun yaxlit, “organizm” va molekulyar biologik yondashuvlarni birlashtirish kerakligi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar. Xulq-atvor, insoniy psixologik xususiyatlar, kognitiv jarayon, tadqiqot, kelajak.

В статье рассматривается традиционный вопрос, стоящий перед исследователями в области поведенческой генетики, – определение роли генетических факторов в детерминации поведенческих характеристик. Отмечается также, что общей задачей поведенческой генетики является объединение целостного, “организменного” и молекулярно-биологического подходов для создания полной картины о роли генотипа в формировании мозга, развитии его индивидуальных реакций и поведения.

Ключевые слова. Поведение, психологические особенности человека, познавательный процесс, исследование, будущее.

The article deals with the traditional question facing the researchers in the field of behavioral genetics – determining the role of genetic factors in determining behavioral characteristics. It is also noted that the general task of behavioral genetics is to combine holistic, “organismal” and molecular biological approaches to create a complete picture of the role of genotype in the formation of the brain, the development of its individual reactions and behavior.

Key words. Behavior, human psychological characteristics, cognitive process, research, future.

Xulq-atvor genetikasi – asab tizimi faoliyatining funksional ko‘rinishlarining irsiy konditsionerlik qonuniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan genetika bo‘limi. Asosiy vazifa – xulq-atvor xususiyatlarida genlarni amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflash va bu jarayonga atrof-muhitning ta’sirini ta’kidlash. Boshqa tadqiqot usullari bilan bir qatorda, bu erda genetik tanlov usuli qo‘llaniladi, buning natijasida asab tizimining xususiyatlarini va xulq-atvor xususiyatlarini maqsadli ravishda o‘zgartirish mumkin. Har bir irsiy xulq-atvor xususiyati odatda murakkab poligenik xususiyatga ega. Evolyutsiya zinapoyasining quyi darajadagi hayvonlari (hasharotlar, baliqlar, qushlar) genotip tomonidan aniqlangan tug‘ma, instinktiv harakatlarda past o‘zgaruvchanlik bilan ajralib turadi. Evolyutsion rivojlanish bilan shartli reflekslarni shakllantirish jarayoni tobora muhim ahamiyat kasb etadi va genotip fenotipik o‘zgaruvchanlikni kamroq va kamroq belgilaydi. Moslashuv uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlar nafaqat o‘z tajribasida olinmaydi, balki taqlid qiluvchi shartli reflekslar tufayli ota-onadan avlodlarga bevosita aloqalar orqali uzatilishi mumkin. Xulq-atvor genetikasida olingan ma’lumotlar patologiyalarda insonning asabiy faoliyatini o‘rganish

uchun alohida ahamiyatga ega: ko‘pincha aqliy zaiflik va ruhiy kasalliklar irsiy bo‘lib, genetik kasalliklar bilan bog‘liq.

Hozirgi vaqtda xulq-atvor va uning asosidagi neyrofiziologik jarayonlarning genetik tadqiqotlari bir necha yo‘nalishlarda olib borilmoqda. Odatda, ikkita asosiy yondashuv mavjud:

♦ “xulq-atvordan gengacha” – bu hayvonning yaxlit xulq-atvorining individual belgilarini o‘rganish, so‘ngra individual xromosomalar va gen komplekslari yoki yagona genlar darajasida fenomenologiyani batafsilroq tahlil qilish;

♦ “gendan xulq-atvorga” – bu gen funksiyasini (molekulyar va fiziologik darajada) o‘rganish, so‘ngra uning xulq-atvorga ta’sirini tahlil qilish. So‘nggi o‘n yilliklarda jadal rivojlanayotgan zamonaviy genetik muhandislik bunday usullarni sezilarli darajada ilgari surdi. Ushbu yondashuv “teskari genetika” deb ham ataladi. Teskari genetik usullar genning tuzilishini o‘zgartirishga imkon beradi. Ba’zi oqsillarni kodlaydigan DNK ketmaketligi. Bular, masalan, neyronlarning sinaptik apparati tuzilishini (neyrotransmitter retseptorlari oqsillarini o‘zgartirish yoki o‘chirish) yoki yo‘qligi hujayra uchun muhim bo‘lgan jarayonlarning normal ishlashini imkonsiz qiladigan tartibga soluvchi oqsillarni aniqlaydigan tarkibiy oqsillar bo’lishi mumkin.

Xulq-atvor genetikasining maqsadlari:

– irsiy va atrof-muhit omillarining nisbiy roli, shuningdek, ularning xatti-harakatlarini shakllantirishdagi o‘zaro ta’siri;

– markaziy asab tizimining shakllanishini belgilaydigan va miyada ifodalangan genlarning ta’sir qilish mexanizmlari;

– inson asab tizimining kasalliklari uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan markaziy asab tizimining funktsiyasiga ta’sir qiluvchi mutant genlarning ta’sirini amalga oshirish mexanizmlari;

– xulq-atvor shakllanishining genetik va populyatsiya mexanizmlari va uning mikroevolyutsiya jarayonida o’zgarishi.

Ikkinchi va uchinchi muammolar ko‘pincha neyrogenetik deb ataladigan yo‘nalishda aniqlanadi.

Xulq-atvor belgilarini tanlash. Hech shubha yo‘qki, genetik tadqiqotlar muvaffaqiyati uchun, masalan, hayvonning o‘rganish qobiliyati, u yoki bu xatti-harakatlarning tabiiy “birligi”ni ifodalovchi xulq-atvor xususiyatini tanlash kerak. Yuqorida aytib o‘tilganidek, xulq-atvor genetik tadqiqotlarida laboratoriya kemiruvchilarning eng ko‘p qo‘llaniladigan shtammlari kalamushlar va sichqonlardir. Shubhasiz, sichqonlar va kalamushlarning xatti-harakatlari genetikasi bo’yicha tadqiqot o‘tkazish uchun ularning xatti-harakatlari bilan yaxshi tanish bo‘lish kerak. Bundan tashqari, genetik yondashuvning asosi belgilarning o‘zgaruvchanligini (o‘zgaruvchanligini) aniqlash ekanligini unutmaslik kerak.

Genetik yondashuvning mohiyati ma’lum bir tur, populyatsiya yoki individlar guruhidagi belgining o‘zgaruvchanlik doirasini baholash va bu o‘zgaruvchanlikning kelib chiqishini tahlil qilishdir.

Xulq-atvor genetikasida faktlarning to‘planishi davrida tadqiqotchilarning e’tiborini xatti-harakatlarni tavsiflovchi turli xil belgilar jalb qildi: tutilishlarga moyillik, umumiy qo‘zg‘aluvchanlik, tayanch-harakat faolligi, orientatsiya-izlanish reaktsiyalari, reproduktiv xatti-harakatlarning turli jihatlari, klassik va instrumental shartli. Reaktsiyalar, farmakologik moddalar ta’siriga sezuvchanlik. Xulq-atvor genetikasi rivojlanishining birinchi davrida to’plangan tajribani quyidagicha umumlashtirish mumkin.

Xulq atvor ko‘rinishlari

Xulq -atvor, xatti-harakatlar hayvon va odam organizmining murakkab biologik funksiyasi bo‘lib. U tufayli hayvon va odam organizmi tashqi abiotik muhit bilangina emas, balki o‘z turi va boshqa turlarga mansub organizmlar bilan aloqada bo‘lib. Xulq-atvorning fiziologik asosi bo‘lib shartsiz va shartli reflekslar sanaladi. Odamlarda behnat qilish faoliyati hamda jamoa bo‘lib yashash bilan uzviy bog‘liq holda ikkinchi signal sistemasi rivojlangan. Xulq-atvor ijtimoiy tarixiy-tajriba bilan bog‘liq bo‘lib. Odamning fe’l-atvori axloq-odob doirasida baholanadigan xatti-harakat sistemasidan iborat. Xulq-atvorning fiziologik asosi bo‘lib shartsiz va shartli reflekslar sanaladi. Odamlarda behnat qilish faoliyati hamda jamoa bo‘lib yashash bilan uzviy bog‘liq holda ikkinchi signal sistemasi rivojlangan. Xulq-atvor ijtimoiy tarixiy-tajriba bilan bog‘liq bo‘lib. Odamning fe’l-atvori axloq-odob doirasida baholanadigan hatti-harakat sistemasidan iborat. Hayvonlarning o‘zini himoya qilish, ozuqa topish, yakka yoki guruh bo‘lib yashashi, o‘z turiga mansub boshqa jins bilan jinsiy qo‘shilishga bo‘lgan moyillik va fe’l-atvorining boshqa ko‘rinishlari shartsiz reflekslar instinktlar asosida tarkib topadi. Shu bilan birga murakkab tuzilishga ega hayvon fe’l-atvor hayot davomida orttirilgan befarq ta’sirlovchilar bilan shartsiz ta’sirlovchilarning navbatlashishi natijasida hosil bo‘lgan tajribalar asosida shakllanadi.Hayvonlarning o‘zini himoya qilish, ozuqa topish, yakka yoki guruh bo‘lib yashashi, o‘z turiga mansub boshqa jins bilan jinsiy qo‘shilishga bo‘lgan moyillik va fe’l-atvorining boshqa ko‘rinishlari shartsiz reflekslar instinktlar asosida tarkib topadi. Shu bilan birga murakkab tuzilishga ega hayvon fe’l-atvor hayot davomida orttirilgan befarq ta’sirlovchilar bilan shartsiz ta’sirlovchilarning navbatlashishi natijasida hosil bo‘lgan tajribalar asosida shakllanadi.Hoyvonlar va odamlar fe’l-atvorini shakllanishida markaziy nerv sistemasi, analizatorlar asosiy o‘rinni egallaydi. Hayvonlar va odamlarning xulq-atvori bilan etiologiya, zoobiologiya, fiziologiya, ijtimoiy psixologiya shug‘ullanadi. XX asrning 50-yillaridan boshlab hayvonlar,odam xulq-atvori bilan genetika fani ham shug‘ullanmoqda.

Hoyvonlar va odamlar fe’l- atvorini shakllanishida markaziy nerv sistemasi, analizatorlar asosiy o‘rinni egallaydi. Hayvonlar va odamlarning xulq-atvori bilan etiologiya, zoobiologiya, fiziologiya, ijtimoiy psixologiya shug‘ullanadi. XX asrning 50-yillaridan boshlab hayvonlar, odam xulq-atvori bilan genetika fani ham shg‘ullanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. И.В. Равич-Щербо, Т.М. Марютина, Е.Л. Григоренко. Психогенетика, Учебник. Под ред. И.В. Равич-Щербо — М.; Аспект Пресс, 2000, – С. 447.

2. Plomin Robert. “Behaviour genetics”. Encyclopedia Britannica, 11 Feb. 2019.

3. Ostonaqulov G.E., Xamdamov I.X., Ergashev I.T., Shermuxamedov K.Q. Biologiya va gcnctika. Darslik. – T.: 2014 – 332 b.

Sh.E.TOXTIYAROVA,
TDPU, Logopediya kafedrasi PhD o'qituvchisi

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA MAKTAB LOGOPEDI TOMONIDAN SENSOR INTEGRATSIYA METODIDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada barcha sezgilarning ishini stimulyasiyalashga va nutqni rivojlanishini faollashtirishga, shuningdek, sensor sezgilar orqali nutq nuqsonlarini korreksiyalashga qaratilgan sensor integratsiya metodining nazariy jihati tavsiflangan. Mazkur metodni amalga oshirish natijasida Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilardagi nutq nuqsonlarini korreksiyalash dasturlarini takomillashtirish kutilmoqda.

Kalit so'zlar. Inklyuziv ta'lim, ta'lim jarayoni, sensor integratsiya, logopediya, korreksiya, model, nutq, nutq buzilishlari.

В статье описан теоретический аспект сенсорной интеграции, стимулирующей работу всех органов чувств и направлен на активизацию речевого развития, а также коррекции речи через сенсорику. Результатом реализации метода предполагается совершенствование программ коррекции логопедических нарушений у обучающихся с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова. инклюзивное образование, учебный процесс, сенсорная интеграция; логопедия; коррекция; модель; речь; речевые нарушения.

The article describes the theoretical aspect of sensory integration, which stimulates the work of all senses and is aimed at activating speech development, as well as speech correction through sensory. The result of the implementation of the method is expected to improve programs for the correction of speech therapy disorders in students with special educational needs.

Key words. Inclusive education, learning process, sensory integration, speech therapy, correction, model, speech, speech disorders.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga logopedik yordam ko'rsatish muammosi hozirgi vaqtda juda dolzarbdir, chunki so'nggi yillarda yangi tug'ilgan chaqaloqlarning ko'plarida perinatal patologiyalar kuzatilib, bu shubhasiz barcha psixik va kognitiv jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Shu bilan birgalikda, texnologik taraqqiyot ta'sirida atrof-muhit va kundalik hayotimizda kuzatilayotgan o'zgarishlar zamonaviy bolalar populyasiyasini o'sib-ulg'ayish jarayoniga ham o'zgarishlar kiritib kelmoqda. Bu esa mazkur avlodda avval kuzatilmagan ontogenez va disontogenez xususiyatlarini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, bola tug'ilishidan avvalroq turlicha sezgilarni his qila oladi. Taktil, vestibulyar (sezgilarning asosiy sohalari tug'ilishga qadar to'liq shakllanib ulgurgan bo'ladi) va propriotseptiv sezgilar asosiy hisoblanadi. Sezgilarning boshqa sohalari (ko'rish, hid bilish va hokazo) asosan postnatal davrda rivojlanadi va ular birgalikda bolaning sog'lom rivojlanishiga asos bo'ladi.

Sensor tizimlar integratsiyasi (quyida SI deb yuritiladi) – biz kundalik hayotda foydalanish uchun tashqi muhit va tanamizdan qabul qiladigan ma'lumotlarni boshqarishning nevrologik jarayoni hisoblanadi. Sensor integratsiya bosh miyasida amalga oshiriladi. Markaziy asab tizimining asosiy vazifalaridan biri sezgilar integratsiyasi hisoblanadi. Dj. Ayresning fikriga ko'ra "nerv tizimining 80 foiz qismi kiruvchi sensor signallarni boshqarish va qayta ishlashga jalb etiladi…". Markaziy asab tizimining hech bir qismi alohida yakka holda faoliyat yuritmaydi. Sezgi retseptorlaridan kelayotgan ma'lumotlar idrok, tahlil va sintez jarayonlaridan o'tadi va turli modalliklardagi sensor sezgilar (propriotseptiv, ko'rish, eshitish va hokazo) uyg'unlashadi, so'ngra organizmning adekvat javobi rejalashtiriladi va tashkil etiladi. Qayta aloqaning qabul qilinishi siklning yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Sensor ma'lumotni (kiruvchi signal) qabul qilish uchun sinxronizatsiya rejimida motor javob shakllanadi, shunday qilib inson biror harakatni rejalashtirish yoki bajarish imkonini qo'lga kiritadi. Bu insonga atrofdagi muhit bilan moslashuvchan tarzda o'zaro munosabatga kirishish va samarali tarzda o'rganish uchun qulay sharoit yaratadi. Buning oqibatida teginish ko'rishga, ko'rish muvozanatga, muvozanat tananing fazodagi holatini anglashga, tananing fazodagi holatini anglash harakatga, harakat o'rganishga imkon beradi va hokazo.

Rivojlanish muammolari bo'lgan maktab o'quvchilariga logopedik yordam ko'rsatish bo'yicha mavjud tajriba o'qituvchilar, psixologlar va logopedlarning ko'p yillik tadqiqotlari va amaliy faoliyati ma'lumotlariga asoslanadi. To'g'ri tashkil etilgan logopedik ish tizimi rivojlanishdagi ikkilamchi buzilishlarining paydo bo'lishining oldini olishi isbotlangan. Shu o'rinda, hozirda logopediya sohasiga boshqa ilm yo'nalishlarini integratsiyasi ham jadal kechmoqda. Bu yo'nalishlar orasida amerikalik ergoterapevt E.Dj. Ayres tomonidan taklif etilgan sensor integratsiya metodi katta ahamiyatga egadir. Sensor integratsiya nazariyasi XX asrning 60-yillarida yuzaga keldi. Sensor integratsiya – miya va xulq-atvorning o'zaro bog'liqligi haqidagi nazariyadir. Agar miya kiruvchi sensor signallarni samarali qayta ishlay olsa o'z navbatida xulq-atvor ham samarali bo'ladi deb taxmin qilinadi. Rivojlanish buzilishlarini tahlil qilish mobaynida biz sensomotor intervensiya harakatga ta'sir qiladimi, intervensiya oqibatida bolaning xulq-atvorida o'zgarishlar kuzatiladimi yo'qmi o'rganamiz. Internevsiya jarayonida xulq-atvor ham o'zgarsa biz bu o'zgarishlar Sensor integratsiyning va/yoki neyrofunksional faoliyatning yaxshilanishi natijasida yuzaga kelgan deb taxmin qilamiz.

Yu.E. Sadovskayaning ilmiy tadqiqotlarda sensor axborotni qayta ishlash – markaziy asab tizimidagi sezgilarni aniqlash, uzatish, tanib olish va tahlil qilish jarayoni, shuningdek, sensor stimullarni yakuniy qayta ishlash va ularni anglashga birlashtirgan integratsiyasi deya ta'riflanadi.

Sensor integratsiya nazariyasi insonning rivojlanishi va xulq-atvorini rejalashtirish, tushuntirish va oldindan aytib berishga yordam beradi hamda:

– nega individuumlar o'zlarini o'ziga xos tutishini tushuntirib berish;

– rivojlanish nuqsonlarini reduksiyalash uchun intervensiyani rejalashtirish;

– intervensiya natijasida xulq-atvor qanday o'zgarishini prognozlash uchun foydalaniladi.

Sensor buzilishlarni aniqlash metodini izohlash uchun sensor integratsiyaning disfunksiyalari bilan bog'liq bo'lgan ba'zi asosiy tushunchalarni aniqlab olish lozim. Sensor integratsiyaning disfunksiyasi – atrof-muhit va o'z tanasidan keladigan sensor ma'lumotni qayta ishlashning buzilishi hisoblanadi. Sensor integratsiyaning disfunksiyasi (SID) rivojlanish yoki xulq-atvordagi buzilishlarning sababi bo'lishi mumkin. SID alo-

hida tibbiy tashxis hisoblanmaydi, lekin diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik, o‘zlashtirishning qiyinligi, ekspressiv/impressiv nutqning buzilishi, autizm, rivojlanishning pervaziv buzilishlari, xavotirli buzilishlar va boshqa tashxislarning tarkibiy qismi sanaladi. Sensor integratsiya disfunksiyasi (SID) bolalardagi buzilishlarning ikki guruhida namoyon bo‘ladi: sensor modulyatsiya va motor ijro etishdagi buzilishlar.

Sensor modulyatsiya – graduatsiyalangan va adaptiv tarzda kiruvchi sensor ma’lumotlarga nisbatan reaksiyalarni hosil qilish va boshqarish qobiliyati sanaladi. Xulq-atvor jihatdan bu sensor qidiruv yoki sensor qochish orqali ifodalanadi. Modulyatsiyaning yomonligi quyidagilar bilan namoyon bo‘lishi mumkin: e’tiborsizlik, impulsivlik, faollik darajasining oshishi, dezorganizatsiya, xavotir va o‘z-o‘zini boshqarishning sustligi. Sensor tizimning zararlanish darajasidan kelib chiqqan holda sezgilarga me’yordan oshiq yoki sust reaksiya bildiruvchi bemorlar yoki sensor modulyatsiya yetishmovchiligi kuzatiladigan bemorlarda buzilishlar turli variantlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Modulyatsiya buzilishining 4 turi aniqlangan:

1. Sensor himoya – “zarar keltirmaydigan stimullardan qochish reaksiyasi”, buning oqibatida bolalarda emotsional muammolar va sotsial xulq-atvorning buzilishi kuzatiladi. Bunda “distant stimullar (taktil, ko‘rish, eshitish, oral, ta’m bilish, hid bilish) haqida kelayotgan ma’lumotlarni miyaning funksional tizimlari darajasida qayta ishlash buziladi”.

2. Gravitatsion ishonchsizlik noodatiy holatda turganda, masalan bola “oyoqlarining ostidagi yerni his qilmaganda” harakatlanishdan qo‘rqish bilan namoyon bo‘ladi. But holat otolit apparatlarining vestibulyar jarayonni yaxshi qayta ishlay olmasligi bilan bog’liq.

3. Harakatga nisbatan inkor etuvchi javoblar xattoki ko’pchilik zararsiz deb hisoblagan harakatlarga nisbatan ham paydo bo‘ladi; ular avtonom nerv tizimining reaksiyalari bilan izohlanadi va vestibulyar ma’lumotlarni yarim halqa kanallari orqali yaxshi qayta ishlay olmaslik bilan bog’liqdir.

4. Reaksiya bildirish (his qilish) qobiliyatining yetarli emasligi idrokning yetishmovchiligi yoki bir yoki bir nechta modalliklardagi (ko‘rish, taktil sezgilar, propriotseptiv/kinestetik) diskriminatsiya bilan izohlanadi, ya’ni bunda hissiyotga nisbatan reaksiya kechikadi.

Sust diskriminatsiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– turli modalliklardagi stimullarni idrok etishning (persepsiya) susayishi;

– sensor giporeaktivlik yoki dispraksiya bilan birgalikda kuzatilish mumkinligi ehtimoli;

– o‘zlashtirishning buzilishi, disgrafiya, mayda va yirik motor koordinatsiyaning buzilishi, o‘yinlarning stereotipik, sodda sxemaga ega ekanligi kabi funksional asoratlar.

Kiruvchi sensor signalni talab etuvchi motor reaksiya bildirish muammolariga quyidagilar kiradi:

a) dispraksiya – notanish kompleks harakatlarni shakllantirish, rejalashtirish va bajara olmaslik.

Sensor buzilishlar kontekstida dispraksiya praksisning uch kategoriyasida kuzatiladi:

– ideator (harakat maqsadini shakllantirishning kognitiv jarayoni, u atrof-muhitning yaqqol sezilarli omillarini idrok etishga bog‘liq);

– motor rejalashtirish (harakatlarni rejalashtirish va tartibga solish);

– ijro (tanish motor harakat).

b) postural buzilishlar harakatlanish va stabilizatsiyadagi buzilishlar, tana holatini boshqara olmaslik bilan xarakterlanadi, bu holatlar esa minimal nevrologik simptomlar – yengil gipotoniya, bilateral koordinatsiyaning yetishmovchiligi, muvozanat reaksiyasi bilan bog‘liq. Ayni buzilishlar propriotseptiv va vestibulyar kiruvchi signallarni yaxshi qayta ishlay olmaslik bilan bog‘liq. Postural buzilishlar ko‘pincha sensor modulyatsiyadagi buzilishlar va diskriminatsiya yoki dispraksiya bilan birga kuzatiladi.

Bolalarda bir paytning o‘zida disfunksiyaning bir yoki ikki tipi kuzatilishi mumkin. Mazkur disfunksiyalar esa o‘z navbatida maktabda bilimlarni o‘zlashtirish, hulq-atvor va atrofdagilar bilan munosabatlarni buzilishlariga olib kelishi mumkin.

Shu sabab, maktab logopedi ishida sensor integratsiya o‘quvchilarda nutqni rivojlantirish va ta’limdagi o‘zlashtirish samaradorligini oshirish muammolarini yanada muvaffaqiyatli hal qilish uchun kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Inklyuziv sinf sharoitida logopedik ish jarayonini sensor integratsiya metodi asosidagi modellashtirishga tayangan holda sezilarli darajada takomillashtirilishi mumkin, chunki bu psixik va kognitiv jarayonlarni har tomonlama rivojlantirishga imkon beradi. Modelni amalga oshirish nut buzilishlarining sabablarini o‘rganishga qaratilgan sensorli integratsiyaning asosiy yo‘nalishlari va mazmunini aniqlashga, har bir o‘quvchiga individual yondashish, psixologik imkoniyatlar, muammolarning simptomlar majmuasini aniqlashga imkon beradi va buzilishlar va hissiy integratsiyaning yanada samarali shakllari mexanizmlarini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Айрес Э.Дж. Ребенок и сенсорная интеграция: понимание скрытых проблем развития:http://bookfi.net/book/1347744.

2. Варенова Т.В. Метод сенсорной интеграции в профилактике специфических расстройств школьных наИвыков / Т.В. Варенова // Образование лиц с особенностями психофизичоескрого развития: традиции и инновации : материалы Междунар. науч.-праткт. конф., Минск, 25-26 окт. 2018 г. / Белорус. гос. пед. ун-т ; редкол.: В.В. Хитрюк [и др.]. – Минск, 2018 – С. 35–38.

3. Варенова, Т.В. Издание коррекционно-развивающих технологий на основе метода сенсорнОой интеграции / Т.В. Варенова // Междунар. межвуз. вып. : сб. тр. фак. спец. педагогики и спец. психологии / Моск. гос. пед. ун-т. – М., 2007 – Т., – С. П44–51.

4. Использование метода сенсорной интеграции в коррекционно-развивающей работе с детьми с тяжелыми и (или) множественными нарушениями физического и (или) психического развития [Электронный ресурс] // Ассоциация специалистов сенсорной интеграции. – Режим доступа: https://sensoricinru.wordpress.com. – Дата доступа: 25.04.2019.

5. Миненкова И.Н. Обеспечение сенсорной интеграции коррекционно-развивающей работе с детьми с тяжѐлыми множественными нарушениями психофизического развития / И.Н. Миненкова // Обучение и воспитание детей в условиях центра коррекционно-развивающего обучения и реабилитации: пособие для педагогов и родителей / Белорус. гос. пед. ун-т; С.Е. Гайдукевич [и др.]. – Минск, 2007 – С. 83–86.

Laylo NURMUHAMEDOVA,
Nizomiy nomlidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, p.f.n.

YORDAMGA MUXTOJ BO‘LGAN BOLALARNING RUHIY VA JISMONIY RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada aqli zaif bolalarni ijtimoiy maishiy hayotga tayyorlashda oilaning o‘rni qanday ahamiyatga ega ekanligiga diqqat qaratilgan. Respublikamizda aqli zaif bolasi bor ota-onalarning savodxonligini, ularni ijtimoiy moslashtirish mexanizmini ishlab chiqish hozirgi kunda o‘z yechimini kutayotgan muammolardan ekanligini inobatga olingan.

Kalit so‘zlar. Aqli zaif, ijtimoiylashuv, o‘qitish, mutaxassis, nogiron, o‘qituvchi, psixolog, defektolog.

В данной статье мы обратили внимание на важность роли семьи в подготовке умственно отсталых детей к социальной жизни. Принимая во внимание, что грамотность родителей умственно отсталых детей и разработка механизма их социальной адаптации входят в число проблем, которые в настоящее время ждут своего решения, общественные организации, микрорайоны, специальные образовательные учреждения, занимающиеся воспитанием детей с с ограниченными возможностями и особыми потребностями, мы считаем, что учреждения должны проявлять инициативу.

Ключевые слова. Умственно отсталый, социализация, обучение, специалист, инвалид, педагог, психолог, дефектолог.

In this article, we paid attention to the importance of the role of the family in preparing mentally retarded children for social life. Taking into account that the literacy of parents with mentally retarded children and the development of a mechanism for their social adaptation are among the problems that are currently waiting for their solution, public organizations, neighborhoods, and special organizations engaged in the education of children with disabilities and special needs We believe that institutions should show their initiative.

Key words. Mentally retarded, socialization, training, specialist, disabled person, teacher, psychologist, defectologist.

Har bir mamlakatda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya tizimi negizida muayyan maqsadlar yotadi. Istiqlol vazifalari esa bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimi mazmunini yangilashni talab etadi. Bu esa ijtimoiy tarbiya bilan oilaviy tarbiyani mazmunan uzviy bog‘lash zaruratini keltirib chiqaradi. Maxsus korreksion pedagogika umumiy pedagogikaning tarkibiy qismi bo‘lganligi uchun, bu vazifalar ushbu sohaning ham ustuvor vazifalariga aylandiki, ularning amalga oshirilishi maxsus pedagogikani oilaviy tarbiya va ijtimoiy tarbiya bilan uzviy bog‘lashning yangi usul va yo‘llarini izlab topish, bu yo‘lda ilmiy-amaliy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Davlat va jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli shu davlat, shu mamlakatda yashovchi fuqarolarning jismonan baquvvat va sog‘lom bo‘lishi bilan belgilanadi. Yaxshi orzu-umidlar bilan kutilayotgan farzandning nosog‘lom, nogiron tug‘ilishi esa har qanday oila uchun fojeadir. Oila va oilaviy munosabatlar, ayniqsa, ota-ona va farzandlar o‘zaro aloqalari, jamiyat yuzaga kelgan ilk davrlardan buyon eng muhim muammolardan biri bo‘lib kelgan. Jamiyat rivojlanib borgan sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Chunki insoniyat tomonidan erishilgan yutuqlar aynan oila muhitida ota-ona va farzandlar

munosabatlari tizimida boshqa har qanday ijtimoiy insitutlar orasidagi uzviylik sifatida olib qaralganda ko‘proq darajada o‘zlashtiradi va an’ana ma’naviy meros tarzida avloddan-avlodga o‘tadi. Shunday ekan, u yoki bu jamiyat xalq va millatning istiqboli ko‘p jihatdan shu munosabatlarning holatiga bog‘liq. Buning uchun esa oiladagi ichki muhitning har tomonlama sog‘lom, ma’naviy mustahkam bo‘lishiga erishish lozim.

Yusuf Xos Hojib, Imom al-Buxoriy, Abu Nosir Farobiy, At-Termiziy, Alisher Navoiy kabi buyuk daholar tomonidan yaratilgan asarlarda nutq va uning inson faoliyatidagi ahamiyati yorqin misollarda o‘z ifodasini topgan.Yusuf Xos Hojib odob-ahloq, ta’lim-tarbiya hamda ma’naviy kamolotning yo‘l-yo‘riqlarini mujassamlashtirgan qomusiy asari “Qutadg‘u bilig”da bilim, zakovot sohibi bo‘lishning asosiy kalitini til deb biladi[1]. Allomaning fikricha, til tufayli kishi o‘z ilmi, aql-idroki, zakovotiga jilo beradi, fikrini bayon etadi. Til, so‘z kishining qadr-qimmatini oshiradi, ulug‘likka eltadi. Ammo, so‘zni o‘ylab, bilib, kezi kelgandagina so‘zlash kerak. Faqat shundagina til va so‘zning nafi juda katta bo‘ladi. O‘ylamay so‘zlansa, uning ta’sirchanligi pasayadi, natijada kishi qadrini tushirib yuboradi. Shuning uchun oz, lekin soz so‘zlash orqali mantiqiy samaraga erishiladi. Abu Nasr Farobiy to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va chiroyli nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati kattaligi haqida shunday deydi: “Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...”[2].

Til va nutq o‘zaro dialektik bog‘liq ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixik hodisalar bo‘lib, til aloqa quroli sifatida, nutq esa aloqa usuli sifatida mavjuddir. Tilni nutqdan, nutqni esa fikrdan ajratib bo‘lmaydi. Inson qaysi tilda so‘zlamasin, o‘z fikrini so‘z bilan ifodalaydi, chunki ular o‘zaro jins uyg‘unlikka ega. A. Navoiy til kishini hayvondan ajratuvchi yagona belgi deb qaraydi. “Ma’nosiz so‘z – so‘z emas, balki qandaydir tovushlar yig‘indisidir. Umuman, bunday so‘z tilda yo‘qdir. Faqat hayvonlarning ma’nosiz bo‘kirishidan, qushlarning ma’nosiz chug‘urlashidan inson tili (nutqi) o‘zining ma’no ajratish xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi” - deb ta’kidlaydi. U o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida shunday deydi: “Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdirki, gar nopisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur...”[3] ya’ni, til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar u o‘rinsiz ishlatilsa, tilning ofatidir.

Abdulla Avloniy ham “Bolalarda fikrlash iqtidorini hosil qilishda fikr tarbiyasi benihoya zarur va muqaddas vazifa”, deb ta’rif berar ekan, so‘zlashuv odobiga alohida diqqat qaratadi. Adib bolalarni har bir so‘zni ma’nosiga ko‘ra talaffuz qilishni avval o‘ylashni, so‘ng uni o‘z me’yorida gapirishni, nutqning doimo go‘zal va ma’noli bo‘lishiga erishish yo‘llarini ko‘rsatib, o‘zgalar so‘zini diqqat bilan tinglash uquvini tarkib toptirish zaruratini qat’iy ta’kidlaydi[4].

Respublikamiz Hukumati rivojlanishida muammolari bo‘lgan, alohida yordamga muhtoj bolalarning barcha sog‘lom tengqurlari qatori tarbiyalanishlari, aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, ijtimoiy hayotga mustaqil yetuk fuqarolik darajasida tayyor bo‘lib yetishishlari masalalariga jiddiy e’tibor qaratmoqda. Bularni amalga

[1] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Tekst va hozirgi o‘zbek tiliga tavsif... – T.: Fan, 1971; Qayumov K. Ilk badiiy doston. – T.: Fan, 1986. – 37 b.

[2] “Fozil odamlar shahri” Abu Nasr Forobiy – T.: / “Ozbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti - 2004 – 42b.

[3] Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. 14-tom, – T.:: 1998. 94-bet.

[4] Abdulla Avloniy “Tanlangan asarlar” Ikki tomlik, “Ma’naviyat”, – T., 1998 y. 1 – T.:-43 b.

oshirishda oilaning ma’suliyati juda katta. Bolaning to‘laqonli va barkamol rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishi uchun u oilada baxtlilik, sevgi, tushunish muhitida o‘sishi muhim. Bu ayniqsa, alohida yordamga muhtoj, yordamga muxtoj bo‘lgan bola uchun zarurdir. Chunki bunday bola o‘zining yaqinlari tomonidan alohida e’tibor, yordamga muhtoj bo‘ladi. Oilaviy hamda avlodlararo munosabatlar masalalarini o‘rganish borasida ilmiy tadqiqot ishlari so‘nggi yillar mobaynida butun dunyo miqiyosida jadal tus olib bormoqda. Jumladan, chet el psixolog va sotsiolog olimlari, Fransiyada A. Villi, E. Dyurkgeym, P. Jane, Germaniyada T. Shrayber Amerikada K. Byuler, V. Metyuza, Dj Bruner, S. Xoll, U. Djeyms, D. Cheyni, Shveysariyada E. Klapared va boshqa ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan bu sohada bir qancha ishlar amalga oshirildi[5].

Yordamga muxtoj bo‘lgan bola bilan uy sharoitida korreksion-pedagogik ishlarni amalga oshirish, bola shaxsini rivojlantirish va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan uslubiy, pedogogik yondashish, turli xil mashg‘ulotlarni o‘tkazish, oila a’zolari va nuqsonli bola o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, nuqsonli bola kelajakda o‘z hayotiy o‘rnini topa olishiga qaratilgan korreksion- pedagogik ishlarni amalga oshirilishida oila,maktab va mahalla xamkorligi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yordamga muxtoj bo‘lgan o‘quvchilarni tarbiyalash jarayoni tizimli yondashishni talab qiladigan o‘ta murakkab, ko‘p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammodir, degan xulosaga keldik. Yordamga muxtoj bo‘lgan o‘quvchilarga tarbiya berish darajasini oshirish uzluksiz ta’lim tizimi barcha bo‘g‘inlarida oila va maktabning o‘zaro hamkorlikda va izchil olib borishga bog‘liq. Maxsus maktablar sharoitida ta’lim-tarbiyaning samarali shakl va usullarini izlab topish, yaratish hamda oilada yordamga muxtoj bo‘lgan o‘quvchilarga tarbiya berish masalasi hozirda kunda dolzarbgir. Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan davrni sarhisob qilsak, hukumatimiz tomonidan inson manfaatlarini ko‘zlash va himoyalash jarayonida jamiyatimizning alohida yordamga muhtoj qatlamiga jiddiy e’tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz. BMTning bolalar muammolari bilan shug‘ullanuvchi YuNISEF tashkilotining ijtimoiy monitoring natijalarida ham O‘zbekiston bu borada o‘ziga xos yutuqlarga erishayotgan davlatlardan biri ekanligi ko‘rsatiladi.Respublikamiz hukumati tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy islohotlarda yosh avlodning tarbiyasi, xususan, uning oilaviy tarbiyasiga munosib omil sifatida qaraladi. Jahon ta’lim maxsus muassasalarida raqamli resurslarni modellashtirish asosida kreativ ta’lim texnologiyalari ta’lim jarayoniga tadbiq etilgan. Halqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha yangi ta’lim konsepsiyasida “Ta’lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat”, deb e’tirof qilingan[6]. Sifatli ta’lim berish, o‘quvchilarning malaka hamda qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish, elektron axborot-ta’lim resurslarini yaratish, ta’lim jarayonini modellashtirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashda zamonaviy pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etish bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Har bir mamlakatda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya tizimi negizida muayyan maqsadlar yotadi. Istiqlol vazifalari esa bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimi mazmunini yangilashni talab etadi. Bu esa ijtimoiy tarbiya bilan oilaviy tarbiyani mazmunan uzviy

[5] Пўлатова П.М. Коррекционно-педагогическая работа с газетным материалом в 5 классе вспомогательной школы на уроках внеклассного чтения: Автореф. дисс. ... канд.пед.наук. – М.: 1993. – С 18 .

[6] Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. –p.4-5. http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf.

bog‘lash zaruratini keltirib chiqaradi. Maxsus korreksion pedagogika umumiy pedagogikaning tarkibiy qismi bo‘lganligi uchun, bu vazifalar ushbu sohaning ham ustuvor vazifalariga aylandiki, ularning amalga oshirilishi maxsus pedagogikani oilaviy tarbiya va ijtimoiy tarbiya bilan uzviy bog‘lashning yangi usul va yo‘llarini izlab topish, bu yo‘lda ilmiy-amaliy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Davlat va jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli shu davlat, shu mamlakatda yashovchi fuqarolarning jismonan baquvvat va sog‘lom bo‘lishi bilan belgilanadi. Yaxshi orzu-umidlar bilan kutilayotgan farzandning nosog‘lom, nogiron tug‘ilishi esa har qanday oila uchun fojeadir. So‘nggi yillarda hayotimizga kirib kelgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik sohalarga oid keskin va ziddiyatli o‘zgarishlar uni tubdan o‘zgartirib yubordi. Mavzuimiz maqsadi bo‘lgan jismoniy va ruhiy nuqsonga ega bo‘lgan bolalarning ko‘payishiga ham olib kelayotganini aytib o‘tmoqchimiz. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida nogiron bolalar ko‘rsatgichi 450 millionga yaqin. YuNESKO ma’lumotlariga qaraganda esa, ular orasida alohida yordamga muhtoj bolalar hammasi bo‘lib 200 million atrofida ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining ‘‘Ta’lim to‘g‘risida’’gi Qonuni, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni. 201- yil 7-fevral // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda; 20-son, 354-modda; 23-son, 448-modda.

3.Maxsus pedagogika– P.M.Po‘latova, L.Sh.Nurmuhammedova, Yakubjanova D.B., Mamarajabova Z.N., Amirsaidova Sh.M., Sultonova A.D. “Fan vatexnologiya” nashriyoti- 2014

4. Нурмухамедова Л.Ш. Оилада ногирон фарзандни тарбиялашнинг илмий-назарий асослари. Номзодлик дисс.автореферати, 2006.

5. Muminova L.R., Nurkeldiyeva D.A. Ilk yoshdagi murakkab nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan logopedik-rivojlantiruvchi ishning ilmiy-metodik asoslari. – T.,2011

6. Абдуллаева Ш.А Формирование сенсорного опыта и методика его организации у детей раннего возраста. – М., 1995.

7. Айрес Э. Дж. Ребенок и сенсорная интеграция. Понимание скрытых проблем развития. – М.: Теревинф, 2009.

8. Ананьев Б.Г., Рыбалко Е.Ф. Особенности восприятия пространства у детей – М., 1984.

9. Безруких М.М. Возрастная физиология: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / М.М. Безруких, В.Д. Сонькин, Д.А. Фарбер. – М.: Академия, 2009.

Odina O‘RALOVA,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti, “Pedagogika ta’limi nazariyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

ABU NASR FOROBIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abu Nasr Farobiyning ijodi va uning ta’lim tarbiya borasida fikrlari hamda asarlari, shuningdek, Forobiy ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarida ta’lim-tarbiyaning muhumligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim-tarbiya usullari va uslubi to‘g‘risida atroflicha ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar. Farobiy, ta’lim, tarbiya, baxt, saodat, fozil, aql, zakovat.

В этой статье рассказывается о творчестве Абу Насра Фараби и его мыслях об образовании, а также о важности образования в его работах, посвященных образованию Фараби, о том, на что следует обращать внимание, а также о методах и методах обучения. подробнее об этом.

Ключевой слова. Фараби, образование, воспитание, счастливо, умение.

This article talks about the work of Abu Nasr Farabi and his thoughts on education, as well as the importance of education in his works on Farabi's education, what to pay attention to, as well as teaching methods and methods. learn more about this.

Key words. Farobiy, education, upbringing, happiness, bliss, virtue, intellect, intelligence

Forobiy o‘z ishlarida ta’lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergan bo‘lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o‘z o‘rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta’kidlaydi. Forobiy 873-yilda Sirdaryoning Forob degan joyida tug‘iladi. U boshlang‘ich ma’lumotni o‘z yurtida oladi. 5 yoshdan u yozish va o‘qishni bilar edi. U yoshligidanoq o‘rta asr fanlarini chuqur o‘rganadi. U ilmiy malakasini takomillashtirish maqsadida 10 yoshidan Shosh, Samarqand va Buxoroga kelib ta’lim oladi.

Forobiy ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarida ta’lim-tarbiyaning muhumligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. “Fozil odamlar shahri”, “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida”, “Ixso-al-ulum”, “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Aql ma’nolari to‘g‘risida” kabi asrlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Lekin bu joylar uning ilmga bo‘lgan chanqoqligini qoniqtirmaydi. U Eronning Ray, Hamadon shaharlarida bo‘ladi. Shuningdek, umrining 40 yildan ortig‘ini Bag‘dodda o‘tkazadi. Bir vaqtning o‘zida arab, fors, yunon tillarini o‘rganadi. Forobiy aniq fanlar: ilmi nujum, riyoziyot, musiqa, tabobat fanlariga qiziqadi. Lekin u ko‘proq falsafa ilmi bilan shug‘ullanadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra u Buxoroda bo‘lgan kezlarida Buxoro amiri Mansur ibn Nux Somoniyning iltimosiga ko‘ra falsafiy asar ‘‘At-tahlimiy’’ asarini yozadi[1].

Forobiy ilm olish istagida Bag’dodga jo‘naydi. Bag‘dodda Forobiy o‘rta asr fanini,

[1] A.Forobiy. Fozil odamlar shahri. T:-Yangi asr avlodi. 2016 y

turli fan sohalarini o‘rganadi. Masalan, unga Yunon tilida Abu Bashar Matta (Matta ibn Yunus), tibbiyot va mantiqdan Uxanna ibn Haylon (Jilon) ta’lim bergan. Umuman, Forobiy Bag‘dodda matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, tibbiyot, huquq, tilshunoslik, poetika bilan shug‘ullandi, turli tillarni o‘rgandi. Ba’zi manbalarda Forobiy 70 dan oshiq tilni bilganligi haqida gapiriladi. Abu Nasr Forobiy qomusiy olim hisoblanadi. Tadqiqotchilar uning 160 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligini qayd etadilar.

Forobiy taxminan 941-yillardan boshlab Damashqda yashaydi. Shahar chekkasidagi bog‘da qorovul bo‘lib ishlaydi va faqirona hayot kechirib, ilmiy ish bilan shug’ullanadi. 943-967 yillarda esa Halabda yashaydi. 949-950-yillarida Misrda ham bo‘lgan. So‘ng yana Damashqga qaytib, shu yerda 950 yilda vafot etgan. Damashqdagi “Bob as-sag’ir” qabristoniga dafn qilingan. Rivoyatlarga ko‘ra, Abu Nasrning hikmat falsafani o‘qishiga bir kishi sabab bo‘lgan ekan. O‘sha kishi unga Arastuning bir necha kitobini, shu yerda tura tursin, keyin olib ketaman, deb qo‘yib ketgani sabab bo‘lgan, deyishadi. Ittifoqo, kitoblarga ko‘zi tushib, ularning Abu Nasrning ko‘ngliga ma’qul bo‘lib qoladi va o‘qishga kirishadi natijada yetuk faylusufga aylanadi. Haqiqatdan ham Abu Nasr Forobiy o‘rta asr davri ilm-fani taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan olim, Forobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o‘zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan. Demak, Forobiy inson baxt-saodatga erishuvi uchun ularni baxtli-saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo‘lishi kerak deydi. U fozil shaharni boshqaradigan Hokim tabiatdan: 1 – sog‘-salomat bo‘lib, o‘z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmasligi; 2 – tabiati nozik, farosatli; 3 – xotirasi mustahkam, 4 – zehni o‘tkir, 5 – o‘z fikrini tushuntira oladigan notiq, 6 – bilim-ma’rifatga havasli, 7 – taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o‘zini tiya oladigan bo‘lishi (qimor yoki boshqa o‘yinlardan) zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi, 8 – haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan, 9 – o‘z qadrini biluvchi va oriyatli bo‘lishi, 10 – mol dunyo ketidan quvmaydigan, 11 – adolatparvar, 12 – qatiyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi muhimligini qayd etadi. Forobiy bu fazilatlarni har bir yetuk insonda ko‘rishni istaydi.

Forobiy o‘zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo‘ladi. Bunda u, kishilarning diniy mashabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy hususiyatlariga, qobiliyatlariga, aqliy iqtidoriga, bilim ko‘nikmalariga e’tibor berishlik zarur deydi. U o‘zning “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida” asarida “Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, - deb yozadi. U, – bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritadi”. Forobiy davlatni yetuk shaxs boshqarishi lozim, deydi; ya’ni jamoani idora etuvchi adolatli, dono bo‘lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko‘ra bilishi, boshqalarga g‘amxo‘r bo‘lishi lozim deydi[2]. Forobiy “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida” asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo‘lgan ilm o‘rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o‘rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o‘rganish lozim. Undan so‘ng, umuman, jonli tabiat o‘simlik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi, deydi. Forobiyning fikricha, inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvchi yoki munosabatlariga muxtoj bo‘ladi. Uning fikricha, tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhumdir. Chunki har bir odam ham

[2] M.Xayrullayev. Ma’naviyat yulduzlari. A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 2001.

baxtni va narsa hodisalarni o‘zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o‘qituvchi lozim.

Bunga Forobiy ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan komolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to‘g‘ri bilib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l tutadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi, jamiyat tartib qoidalariga rioya etadi. Demak, Forobiy ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim sanaladi. Ta’lim – insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatni, ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim.

Abu Nasr Forobiy yana aytadi: “Ta’lim – xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish, degan so‘zdir”.

Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir.

Forobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq-odobda ham qay darajada pok bo‘lishi kerakligini “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g‘risida”gi risolasida shunday ta’riflaydi: “Falsafani o‘rganishdan avval o‘zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi noto‘g‘ri tuyg‘ularga emas, balki kamolotga bo‘lgan hirs-havas qolsin.

Bunga xulq axloqni faqat so‘zdagina emas, balki haqiqatda (amalda) tozalash orqali erishish mumkin. Shunday so‘ng xato va adashishdan saqlovchi, haqiqat yo‘lini tushunib olishga boshlovchi (notiq – so‘zlovchi, fikrlash ma’nosida) nafsini, jonini, ruhini tozalash zarur.

Forobiy axloqiy fazilatlar deganda bilimdonlik, donolik va mulohazali bo‘lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko‘pchilik manfaatini yuqori qo‘yish, haqiqat, ma’naviy yuksaklikka intil, adolatliylik kabi hislatlarni tushunadi. Ammo bu hislatlarning eng muhumi har bir insonning bilimli, ma’rifatli bo‘lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog‘liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me’yorlari ifodasi sifatidagini emas, balki kishilarning aqliy faoliyatining natijasi sifatida ham talqin etganligini ko‘ramiz. Forobiy “Aql ma’nolari haqida” risolasida aql masalasini tahlil qilib, aql bilish haqidagi ta’limotida mantiq (logika) ilmi muhim o‘rin tutadi deydi. U mantiq ilmi bilan grammatika o‘rtasidagi mushtarakligini qayd etib, mantiqning aqlga munosabati, grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo‘lda olib borish uchun aqlni to‘g’irlab turadi deydi.

Forobiy “Musiqa haqida katta kitob” degan ko‘p jildi asari bilan o‘rta asrning yirik muzikashunosi sifatida ham mashxur bo‘ldi. U musiqaga ilmini nazariy, amaliy jihatdan yoritib, musiqani inson axloqini tarbiyalovchi sihat salomatligni mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning musiqa sohasida qoldirgan merosi musiqa madaniyati tarixida muhim ahamiyatga molikdir.

Forobiyning ta’lim-tarbiya yo‘llari, usullari vositalri haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l – ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat – nazariy bilimlar va

amaliy kasb-hunar, xulq odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta'lim so'z va o'rganish bilan tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi[3]. Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi, deb ko'rsatadi.

Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan ta'lim-tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta'lim-tarbiya ishlarini ikki yo'l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

"Amaliy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasi"ga kelganda, bu odat ikki yo'l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi – qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo'l (yoki usul) – majbur etish yo'li. Bu usul gapga ko'nmovchi, qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo'llaniladi. Chunki ular o'z istaklaricha so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o'rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo'ladi. Kasb-hunarlarni va juz'iy san'atlarni egallashga intilish bo'lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad ularni fazilat egasi qilib va san'at ahllariga aylantirishdir.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko'zlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Forobiy pedagogik ta'limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o'z mohiyati bilan ijtimoiy, ya'ni faqat jamiyatda, o'zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi.

Insonning kamolga yetishida ham aqli, ham ahloqiy tarbiyaning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Forobiy tavsiya etgan ta'lim-tarbiya usullari hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi bilan diqqatga sazavor bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Forobiy A. Fozil odamlar shahri. – T.: "Yangi asr avlodi". 2016 y.

2. Xayrullayev M. Ma'naviyat yulduzlari. A. Qodiriy nomidagi "Xalq merosi" nashriyoti. 2001 y.

3. Hasanboyeva O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. – T.: "O'qituvchi". 1993 y.

4. Uralova O.R. Abu Nasr Forobiy – inson ma'naviyatining yetuk tarbiyachisi. Jaholatga karshi ma'rifat bilan kurashgan buyuk alloma (Abul Muyin Nasafiy) Ilmiy amaliy xalqaro anjuman. – T., 2019 y. dekabr.

5. O'rolova Odina. Abu Nasr Farobiyning ma'naviy axloqiy ta'limotining pedagogik ahamiyati. /Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2019/6-son. – 44 b.

[3] O.Hasanboyeva. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. – T.: O'qituvchi,. 1993 y.

Р. У. МУНАРОВА
кафедра Теория педагогического образования,
факультет Педагогики и психологии, старший преподаватель

СУБЪЕКТИВНЫЕ И ОБЪЕКТИВНЫЕ ФАКТОРЫ И МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Annotatsiya

Ushbu maqolada sub'ektiv va ob'ektiv omillarning roli, ijtimoiy ta'limning printsiplari va turlari, o'quv sinflarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish jarayonlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Subyektivlik, ob'ektivlik, fikrlash estetikasi, badiiylik, uyg'unlik, estetik ko'rinish.

В данной статье анализируются роль субъективных и объективных факторов, принципы и типы общественного воспитания, процессы развития творческого мышления учащихся начальных классов.

Ключевые слова. Субъективность, объективность, эстетика мышления, артистизм, гармония, эстетический вид.

The article analyzes the role of the subjective and objective factors, principles and types of public education, the development of creative thinking processes of primary school pupils.

Key words. Subjectivity, objectivity, aesthetics thinking, artistry, harmony, aesthetic appearance.

В настоящее время в педагогике и психологии глобальная тема связанно с развитием творческого мышления учащихся. Существует разные определения мышления. В психологии трактовка ‘‘мышление’’ неоднозначно. В психологическом словаре под редакцией М.И. Дьяченко и Л.И. Кандыбовича дано следующее определение.

Мышление – сложный психический процесс, характеризующийся обобщенностью и опосредованностью. Оно позволяет познавать как наглядные связи, отношения объектов, явлений, так и их сущность.

Творческое мышление – выражение единства познавательных процессов и умственных способностей. Творческое мышление специалиста проявляется при решении задач, требующих интеллектуальной инициативы, поиска новых способов действий, видоизменения ранее усвоенных примеров, учета при принятии решения конкретной трудовой ситуации.

Содержанием эстетических факторов являются теория дизайна и эргономические требования к окружающему миру.

Эргономика – наука, изучающая функциональные возможности человека в трудовых процессах, выявляющая возможности и закономерности создания оптимальных условий для высокопроизводительного труда и обеспечения необходимых удобств, содействующих развитию способностей. Эта научная и проектировочная дисциплина сформировалась на стыке психологии, физиологии, гигиены труда, биомеханики, антропологии и ряда технических наук. Эргономика-система ‘‘человек – машина’’.

Учёные В.П. Зинченко, В.П. Глазычев, И.П. Юров, И.М. Демина, Л.М. Холмянский,

а также учёные нашей республики С.Х. Файзулина, С.К. Аннамуратова являются представителями этой сферы науки. Учёный, который внедрил педагогические и эстетические факторы в школьную жизнь – является Р. Штейнер. А учёные В. А. Караковский, Н.А. Аринина, Г.Б. Кобанидзе и С.А. Анасин синтезировали педагогические и эстетические факторы и внедрили их в учебно – воспитательный процесс. Научные работы вышеупомянутых учёных составляют теоретическую основу нашего исследования.

Сначала рассмотрим внедрение педагогических факторов в средних общеобразовательных школах и экспериментирование.

Субъективные аспекты, которые помогают развить творческое мышление учащихся начальных классов средних общеобразовательных школ, имеют двустороннюю структуру. Если, с одной стороны, учитываются знание, умение и навыки (ЗУН), а также субъективно-индивидуальные, физиологические и интеллектуальные качества учащихся, то, с другой стороны, в нём заложены индивидуально-психологические качества педагога. Такие условия создаются на эстетической основе различения цвета.

К факторам, развивающим творческое мышление учащихся начальных классов, относятся: память, логическое мышление, сознание, говорение, интуиция, интеллект, чувство, доведение начатого дела до конца и способность оценить его.

Положительные результаты таких факторов мы можем рассмотреть не только при сотрудничестве учителя и ученика, но и при создании субъективных и объективных условий. Индивидуальное творческое условие состоит из двух частей: внешний, эстетический вид учителя и ученика, гармония с окружающим миром, эстетическая гармония, профессионально-моральные качества ученика, развитие творческого мышления, а также формирование личности учащегося.

Духовная гармония педагога состоит из трёх частей: моральное качество (доброта, порядочность, честность, воспитанность), эстетическое сознание, эстетическое отношение к окружающему миру, эстетическая вера, любознательность, культура, мировоззрение, мастерство (высокий ум, профессионализм, артистизм, развитие творческого мышления,склонность к творчеству и др.).

В настоящее время одной из актуальных задач в методике преподавания психологии является переход на инновационный путь развития. Для осуществления инновационной деятельности необходимы специалисты, владеющие методами, средствами и формами управления инновационными процессами.

В системе образования такой комплексной проблемой является качество образования, под которым следует понимать соответствие тем задачам, которые ставятся перед специалистами в той или иной области и перед страной в целом. Качествообразования призвано обеспечивать формирование социально активной и профессионально востребованной личности, способной самостоятельно познавать мир, вступая с ним в активный диалог.

Инновационная обучающая технология реализуется в процессе проектирования авторской рабочей технологии преподавателя, осуществляется с учетом его реальных возможностей, личного профессионального опыта, интуиции и творчества.

Таким образом, педагог является образцом для творческого мышления учащихся, и старание учащихся быть похожим на своих учителей является стимулом для их творческого роста.

Субъективные и объективные факторы позволяют развитию творческой деятельности, дают возможность творческому и положительному сотрудничеству учителя с учеником. Эти факторы в средних общеобразовательных школах помогают появлению дружеского отношения, а демократический способ общения дает эмоционально-психологическое удобство, позволяя каждому ученику начальных классов свободу творческого выбора.

Эстетические отношения учеников начальных классов проявляются в следующем: волнении, активности, свободе, гармонии действий, ритме, вере, согласии, работе над творческой деятельностью, эстетических отношениях между личностями, эстетических нормах, а также дружбе, уважении друг друга, радости общения, правильности и в других.

Принципы и типы общественного воспитания. Эти принципы и типы воспитания были глубоко изучены и разработаны великим педагогом А.С. Макаренко. Он показал решение воспитательной задачи в обществе детей. Это видно в следующем:

Хорошее настроение: веселый приподнятый дух, готовность к действию, повышенное настроение.

– чувство самоуважения каждого ребенка;

– защищенность от насмешек, глупостей и издевательств;

– способность торможения;

– красивый вид общества: цвет, костюмы, чистота помещения, чистота обуви.

Вышеуказанные второй и третий примеры порождают некоторые проблемы в формировании общества. Для того чтобы в обществе все понимали друг друга, учителю придется очень много трудиться над этим. Создание среды, где ученики гордятся коллективными достижениями на уроках, и вообще в учебном процессе учеников начальных классов нужно все время учить и готовить их к дружелюбным отношениям между собой. Все это является субъективно-объективным условием или фактором.

Вышеуказанное служит для развитии сознания учащихся начальных классов активизирующим педагогическим фактором и служит основой творческого разума, а также эта ситуация прослеживается в учебно-воспитательном процессе в школе.

По мнению Д.Б. Никитина, развитие творческой деятельности нужно начинать в дошкольном возрасте. Ученый и исследователь Никитин считает фактором следующие процессы:

– с рождения ребенка нужно готовить почву для развития творческого разума;

– создание среды и условий для творческого развития ребенка;

– исходя из классификации творческого процесса, обратить все внимание на достижение этого;

– дать ребенку свободу творчества и свободу выбора, контролировать периодичность уроков;

– оказать ребенку дружескую помощь.

Вышеуказанные факторы были субъективно-объективными факторами развития и формирования деятельности разума. Эти факторы могут служить эмоциональным фактором в учебном процессе. Создание таких условий основывается на использовании определенных форм и материалов, также кроме традиционных форм и методов в формировании творческой способности разума учитывается многолетний опыт:

– метод наглядности – объяснения – рецензии (лекция, рассказ, объяснение);

– метод при помощи напоминания внедрить в практические знания;

– метод проблемного изложения изучающим материала;

– исследовательский метод: ученики самостоятельно решают проблему.

Академик Ю.К. Бабанский разделяет методы на 3 группы: методы организации и внедрения учебно-познавательного метода; методы познавательной деятельности и ее стимулирование; метод контроля и самоконтроля. Академик М.И. Махмутов классифицирует методы как три группы:

1) Общие методы образования: монологический, образцовый, диалогический, эвристический, проектирующий.

2) Методы обучения: информационный, объяснительный, инструктивный, принудительный, стимулирующий.

3) Репродуктивные, практическое исследование, исследовательские, выполняющие методы.

Эти методы охватывают обе стороны учебно-воспитательного процесса: деятельность педагога и деятельность учащихся и таким образом охватывают методологию всего учебного процесса.

К предложенным Ю.К. Бабанским и М.И. Махмутовым методам можно отнести и следующие методы:

– метод личного-индивидуального творческого примера педагога;

– эвристический-наглядный метод – в этом методе рассказ, картина, лекция и др. читается не учителем, а презентуется учениками;

– метод психологического тренинга;

– метод выражения одновременного действия: эстетическое видение, ощущение.

К традиционным формам развития творческого разума учащихся в учебно-воспитательном процессе входят: урок, путешествие, факультативы, домашнее задание, внеклассная работа, олимпиады, студии, конкурсы, концерты и другие.

Целесообразным будет использование этих форм в активизации и формировании творческого разума. Также, мини урок (5-10-минутный), мини урок творческой фантазии; урок – рассказа; урок – дискуссия, музыкальная и художественно-театральная презентация; игры для развития творческого разума.

Таким образом, субъективные факторы, развивающие творческое мышление учащихся начальных классов, ничем не отличаются от других аспектов, которые применяются для общего развития образования и воспитания учащихся. Исходя из этих фактов, можно сказать, что мы можем рассматривать субъективные факторы как творческий фактор, который помогает формировать творческое мышление учащихся.

Использованная литература:

1. Бабанский Ю.К. Педагогика Москва ‘‘Просвещение’’ 1988, – С. 398.

2. Дьяченко М.И., Кандыбович Д.А. Психологический словарь– справочник. Минск 2007. – С. 420.

3. Новейший психолого-педагогический словарь / сост. Е. С. Рапацевич; под. ред. А.П. Астахова. Минск: Современная школа, 2010. – С. 900.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV,
G‘ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO‘MINOVA,
Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Ravil IS’YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALILOVA, Sharibboy ERGASHEV,
Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV,
Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV,
Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – To‘xtamurodova Shohida Akmalxo‘ja qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2023.